

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI



TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

DORI TURLARI TEXNOLOGIYASI KAFEDRASI

GOMEOPATIYA VA VETERINARIYA DORI VOSITALARINI ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI

Bilim sohalari: 500 000 — Sog'liqni saqlash va ij'timoiy ta'minot

300 000 — Ishlab chiqarish-texnik soha

Ta'lim sohalari: 510 000 — Sog'liqni saqlash

Mutaxassislik: 5A320406 —Dori vositalar va preparatlar texnologiyasi



Toshkent -2020

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

DORI TURLARI TEXNOLOGIYASI KAFEDRASI

**GOMEOPATIYA VA VETERINARIYA
DORI VOSITALARINI ISHLAB
CHIQRISH TEXNOLOGIYASI**

Bilim sohalari: 500 000 — Sog'liqni saqlash va ij'timoiy ta'minot

300 000 — Ishlab chiqarish-texnik soha

Ta'lim sohalari: 510 000 — Sog'liqni saqlash

Mutaxassislik: 5A320406 —Dori vositalar va preparatlar texnologiyasi

TOSHKENT – 2020

“Gomeopatiya va veterinariya dori vositalarini ishlab chiqarish texnologiyasi” fanidan tuzilgan o‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020yil “08 ” 09 dagi 236 -son buyrug‘i bilan tasdiqlangan modul dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

Yo.S. Karieva	Dori turlari texnologiyasi kafedrasini kafedrasini mudiri, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Z.A. Nazarova	Dori turlari texnologiyasi kafedrasini professori, farmatsevtika fanlari doktori, professor
N.S. Fayzullaeva	Dori turlari texnologiyasi kafedrasini dotsenti, farmatsevtika fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

A.F.Dusmatov	O‘zR SSV “Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartizatsiyasi Davlat markazi ”DUK” Farmakopeya Qo‘mitasi raisi, farmatsevtika fanlari doktori
SH.A.Temurova	O‘z.R SSV Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartizatsiyasi Davlat markazi DUK narkotiklarni nazorat qilish qo‘mitasi raisi o‘rinbosari, f.f.n

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasi soha uslubiy kengashining 2020 yil “ 3 “ 07 dagi 11-son yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Soha uslubiy kengash raisi

Z. O‘Usmanalieva

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasi institut Markaziy uslubiy kengashining 2020 yil “ 7 “ 07 dagi 9 12-son yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Markaziy uslubiy kengash raisi

Yuldashev Z.A.

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasi institut Kengashining 2020 yil “ 9 “ 07 dagi 12 -son yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan

Kengash ilmiy kotibi

V.R.Xaydarov

MUNDARIJA

№	I. O'quv materiallar	bet.
	1.1. Moduldagi nazariy mashg'ulotlari	
	1- semestr	
1	1-mavzu. Gomeopatiyaning rivojlanish yo'nalishlari.	
2.	2-mavzu. Noan'anaviy davolash usullari haqida tushuncha va tasnifi.	
3	3-mavzu. Ganeman bo'yicha gomeopatik dorilar patogenezi.	
4	4-mavzu. Gomeopatik dorilarni tanlash asoslari.	
5	5-mavzu. Mahalliy xom ashyolar yordamida gomeopatik preparatlar yaratish. Nomenklatura lug'ati.	
6	6-mavzu. Gomeopatik vositalarning ishlab chiqarish masalalari (Germaniya, Avstriya, Frantsiya, AQSh, Rossiya, Ukraina, O'zbekiston va boshqa davlatlarda chiqarilayotgan gomeopatik preparatlar nomenklaturasi).	
7	7-mavzu. Gomeopatik dori preparatlari texnologiyasini takomillashtirish	
8	8-mavzu. Dori vositalarni dinamikizatsiyalash.	
9	9-mavzu. Gomeopatiyada qo'llaniladigan nozodlar va sarkordlar guruhlari va ishlatilishi.	
10	10-mavzu. Gomeopatik preparatlarini turli kasalliklarda qo'llash asoslari.	
	2- semestr	
11	11-mavzu. Veterinariya preparatlarini ishlab chiqarish tarixi, zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari. Veterinariya preparatlari tasnifi, ta'rifi va zamonaviy nomenklaturasi.	
12	12-mavzu. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qattiq dori turlari texnologiyasi.	
13	13-mavzu. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori turlari texnologiyasi.	
14	14-mavzu. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan yumshoq dori turlari texnologiyasi.	
15	15-mavzu. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan steril dori turlari texnologiyasi.	
16	16-mavzu. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfektsiyalovchi va antiseptik preparatlar texnologiyasi.	
17	17-mavzu. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan premikslar va mahsuldorlikni oshiruvchi preparatlar texnologiyasi.	
18	18-mavzu. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik preparatlar texnologiyasi.	
19	19-mavzu. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan immunnobiologok preparatlar texnologiyasi.	
20	20-mavzu. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan preparatlarni sifatini baholash va jihozlash masalalari.	
	Amaliy mashg'ulotlar	
	1-semestr	
21	1-amaliy mashg'ulot. Gomeopatik ko'p komponentli tomchilar texnologiyasi	
22	2-amaliy mashg'ulot. Gomeopatik ko'p komponentli tomchilar xususiy retsepturasi va sifatini baholash	
23	3-amaliy mashg'ulot. Gomeopatik kompleks ta'sirli siroplar texnologiyasi	
24	4-amaliy mashg'ulot. Gomeopatik kompleks ta'sirli siroplar xususiy retsepturasi va sifatini baholash	
25	5-amaliy mashg'ulot. Gomeopatik eliksirlar texnologiyasi	
26	6-amaliy mashg'ulot. Gomeopatik eliksirlar xususiy retsepturasi va sifatini	

	baholash	
27	7-amaliy mashg'ulot. Gomeopatik sirtqi suyuq dorilar texnologiyasi	
28	8-amaliy mashg'ulot. Gomeopatik sirtqi suyuq dorilar xusuiy retsepturasi va sifatini baholash	
29	9-amaliy mashg'ulot. Gomeopatik murakkab surtmalar texnologiyasi	
30	10-amaliy mashg'ulot. Gomeopatik murakkab surtmalar xusuiy retsepturasi va sifatini baholash	
31	11-amaliy mashg'ulot. Gomeopatik kompleks ta'sirli granulalar texnologiyasi	
32	12-amaliy mashg'ulot. Gomeopatik kompleks ta'sirli granulalar xusuiy retsepturasi va sifatini baholash	
33	13-amaliy mashg'ulot. Gomeopatik qattiq dori turlari texnologiyasini takomillashtirish	
34	14-amaliy mashg'ulot. Gomeopatik qattiq dori turlari xusuiy retsepturasi va sifatini baholash	
35	15-amaliy mashg'ulot. Gomeopatik drenajli (tozalovchi) dori vositalari texnologiyasi	
36	16-amaliy mashg'ulot. Gomeopatik drenajli (tozalovchi) dori vositalarining xusuiy retsepturasi va sifatini baholash	
37	17-amaliy mashg'ulot. Gomeopatik murakkab tarkibli preparatlar texnologiyasi	
38	18-amaliy mashg'ulot. Gomeopatik murakkab tarkibli preparatlar xusuiy retsepturasi va sifatini baholash	
39	19-amaliy mashg'ulot. Kompleks ta'sirli ko'p komponentli gomeopatik preparatlar texnologiyasi	
40	20-amaliy mashg'ulot. Kompleks ta'sirli ko'p komponentli gomeopatik preparatlar xusuiy retsepturasi va sifatini baholash	
	2-semestr	
41	1-amaliy mashg'ulot. Veterinariya preparatlarini tayorlasni meyorlovchi qonun va hujjatlar.	
42	2-amaliy mashg'ulot. Veterinariya preparatlarini dozalash tamoyillari.	
43	3-amaliy mashg'ulot. Veterinariya preparatlari texnologiyasida qo'llaniladigan yordamchi moddalar. Veterinariya preparatlarini korrogirlash tamoyillari.	
44	4-amaliy mashg'ulot. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qattiq dori turlari (poroshoklar) texnologiyasi	
45	5-amaliy mashg'ulot. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qattiq dori turlari (granula, tabletka, yig'malar va b.) texnologiyasi	
46	6-amaliy mashg'ulot. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori turlari (eritma, suspenziya va emulsiyalar) texnologiyasi.	
47	7-amaliy mashg'ulot. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori turlari (suvsiz eritmalar) texnologiyasi.	
48	8-amaliy mashg'ulot. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori turlari (suvsiz eritmalar) texnologiyasi.	
49	9-amaliy mashg'ulot. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan fitopreparatlar (yig'malar, suvli ajratmalar) texnologiyasi.	
50	10-amaliy mashg'ulot. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan galen va yangi galen preparatlar texnologiyasi.	
51	11-amaliy mashg'ulot. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan yumshoq dori turlari texnologiyasi	
52	12-amaliy mashg'ulot. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan steril dori turlari texnologiyasi	

53	13-amaliy mashg'ulot. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik preparatlar texnologiyasi va nomenklaturasi	
54	14-amaliy mashg'ulot. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfektsiyalovchi, antiseptik va insektitsid-akaritsid preparatlar texnologiyasi	
55	15-amaliy mashg'ulot. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan premikslar texnologiyasi.	
56	16-amaliy mashg'ulot. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan mahsuldorlikni oshiruvchi preparatlar texnologiyasi.	
57	17-amaliy mashg'ulot. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan immunnobiologok preparatlar texnologiyasi.	
58	18-amaliy mashg'ulot. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan yangi avlod preparatlar texnologiyasi.	
59	19-amaliy mashg'ulot. Veterinar dori turlarining sifatini baholash.	
60	20-amaliy mashg'ulot. Veterinar dori vositalarining jihozlash va saklash.	
	Mustaqil ta'lim mashg'ulot mavzulari	
	Glossariy	
	Ilovalar	
	Modul dasturi	
	Ishchi fan dasturi	
	Sillabus	
	Keyslar banki (Tarqatma materiallar)	
	Testlar	
	Fanbo'yicha baholash mezonlari	
	Adabiyotlar ro'yxati	
	O'rganish bo'icha Internet va boshqa materiallar	

I. O‘QUV MATERIALLAR
1. NAZARIY MASHG‘ULOTLAR
(1 semestr)

1-MAVZU: GOMEOPATIYANING RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI

Reja:

1. Gomeopatiya davolash tizimining tarixi va rivojlanishi.
2. Gomeopatiyani hozirgi xolati.
3. Gomeopatiyadagi muammolar.

Tayanch so‘z va iboralar: gomeopatiya, Ganeman, tinktura, tomchilr, grnilalar, potensiyalsh, dinamizasiyalash.

Asosiy matn

Gomeopatiya davolash tizimining tarixi va rivojlanishi

Qadim zamonlardan beri turli moddalardan dori turlari ishlatilib kelingan. Ko‘p dori turlari ming yillar davomida uzluksiz o‘zgarishlarga uchragan. qadimgi Misrda hozirgi vaqtda qo‘llaniladigan ayrim dori turlari (eritmalar, surtma va xab dorilar) ishlatila boshlagan va shu dori turlariga tabiiy xolatdagi o‘simliklar, hayvon va mineral mahsulotlar aralashtirib qo‘llash yo‘lga qo‘yilgan.

O‘sha davrning bir qancha olimlari tibbiyot va farmatsiya fanlarining taraqqiy etishiga katta ta’sir ko‘rsatdilar.

Masalan, qadim grek shifokori Gippokrat bemorlarni malxam, xab dori, eritmalar, qaynatmalar va dorivor moddaning aralashmalari bilan davolashgan. K. Galen dorilarni tayyorlash qoidalarini xam tizimlashtirgan. Mashxur sharq faylasufi shifokor va farmatsevt Ibn Sino farmatsiyaning alohida fan bo‘lib ajralib chiqishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. U ko‘p dori turlari tarkibini yaratdi va takomillashtirdi.

Ayniqsa u xab dorilar, sepmalar, o‘simlik sharbatlari, sirkada tayyorlangan nastoykalar va boshqalar bilan davolagan. 1020 yilda yozilgan Ibn Sinoning "Tibbiyot ilmi qonunlari" 5-kitobida bo‘tqalar, qaynatmalar va xab dorilardan murakkab tarkibli dori vositalar keltirilgan. Alohida o‘rinda teryaklarning texnologiyasi keltiriladi. Teryaklar ilon, chayon chaqqanida, qutirgan it qopganida berilgan.

Teryaklar tarkibiga zaxarli kora ilon (gadyuka), opiy va shunga o‘xshash 64-ta modda, shu jumladan, asal, vinolar qo‘shilgan va kulchalar yasalgan.

Boshqa sharq olimlari qatorida Abu Rayxon Beruniy, Ar-Roziy, Ali ibn Abboslarni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Beruniyning minerologiya kitobida turli minerallarning davolash xususiyati va xossalari keltirilgan. Mumiyo asil to‘g‘risida keng ma’lumot berilgan. Ma’lumki mumiyo hozirgi paytda tan olingan dori modda.

Xalq tabobati qadimgi Rossiyada tabiblar qo‘lida bo‘lgan. XI asrdan boshlab turli dori turlari dorixonalarda tayyorlana boshlagan. XIX asrga kelib farmatsiyaning rivojlanishi yo‘lga qo‘yildi. Ko‘pgina dori turlari: bo‘tqa, sirkalar, essensiyalar, eliksirlar tayorlash jarayoni kashf etildi. Hozirgi paytda tibbiyotda an’anaviy davolash usullari bilan bir qatorda noan’anaviy davolash usullari xam keng qo‘llanilyapti. SHu maqsadda ishlatiladigan gomeopatik, fitodavolash, igna sanchish bilan davolash, gipnoz, suv, xavo, lazer va boshqa usullar, kosmetologiya, hamda veterinariyada ishlatiladigan dori turlarining rivojlanishi avj olmoqda. Gomeopatiya, pediatrik, geriatrik, yangi tug‘ilgan chaqaloqlar va boshqa bir guruxni tashkil qiluvchi, xayvonlar uchun mo‘ljallangan dorilarga katta axamiyat berilayotganini aloxida qayd etib o‘tish kerak. Lekin maxsus dori turlarini tayyorlashda umumiy dorilar texnologiyasiga asoslanadi va farmakognoziya, farmakologiya, farmatsevtik kimyo, mikrobiologiya kabi fanlarning asosini batafsil bilish kerak, sanitariya-gigiena qoidalariga to‘liq amal qilish shart.

Gomeopatik tabobati hozirgi davrda etarli darajada samarali va xavfsiz davolash usuli bo‘lib, u ko‘plab bemor va shifokorlarning e’tiborini o‘ziga tortdi. Xalq tabobatining adabiyotlarida shifokorlarning gomeopatiya sog‘asidagi bilimlarini kengaytirishi mumkin bo‘lgan, gomeopatiyaga doir ma’lumotlar manbalari etarli emas. Oxirgi yillarda T. D. Popovanning "Gomeopatiya xaqida

o'cherklar"kitobi, V. I. Varshavskiyning "Amaliy gomeopatiya", G. Kyollarning tarjima qilingan "Gomeopatiya" kitobi chop etilgan. Gomeopatiya ilmiy tibbiyotning o'rnini to'ldirmaydi, balki shu tibbiyotning davomidir. Ayrim shifokorlar gomeopatik va allopatik davolashning farqi haqidagi muammo to'liq echilmagan deb hisoblashmoqda. Ko'pgina shifokorlar oddiy medikament bilan gomeopatik davolashni afzal ko'radilar. Gomeopatiya - bu panatseya emas, agar uni allopatiya bilan qo'shib qo'llanib, keng tarqalgan kasalliklarni davolashda qo'llaniladigan oddiy dorilar samarasiz bo'lganda, gomeopatik va allopatik davolash kompleksi katta samara beradi. Gomeopatik davolash o'tkir va surunkali kasalliklarda organizmning tabiiy qarshi kurashuvchanlik kuchi tufayli yaxshi natijalar beradi. Ayniqsa, u bolalar uchun samarali, bundan tashqari ko'p siqilish, stressdan kelib chiqadigan kasalliklarni davolashda ahamiyati katta. Bemorning tez orada shifo topishiga sabab, gomeopatlar allopatlardan ko'ra ko'proq bemorning temperamenti bilan bog'liq kasallik belgilariga ahamiyat beradilar. Gomeopatiya ko'p mamlakatlarda keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, Xindisonda uchta xalq tabobati - ayurveda, siddxa, yunani bilan bir qatorda keng qo'llaniladi. Gomeopatiya tibbiyotga katta hissa olib kirishi mumkin.

Faoliyat asosida Samuil Ganemanning "o'xshashlik qonuni" yotadi. Gippokrat va boshqa qadimgi mualliflar xam shu qonunga o'xshash xodisani bemorlarni davolashda sezar edilar. Masalan, ichak orqali vaksinoterapiya, autogeleoterapiya prinsipi bo'yicha, seroterapiya va Pasterning antibiotik emlashlari.

O'zining "o'xshashlik qonuni"ni ishlab chiqishda Ganeman dori moddalarning terapevtik dozada sog' odamlarda, ya'ni o'zida, shifokorlarda, hamda ko'ngilli talabalarda o'rgangan va sinagan. Dori moddalar organizmning turli sistemalarida organ va to'qimalarda o'zgarishlar xamda buzilishlar chaqirgan. Tajribaga olingan shaxslar dori moddaning nomini bilmagan xolda uni muntazam qabul qilib, shu bilan birga organizmlarida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni yozib borganlar. Ma'lum vaqt oralig'idan keyin Ganemanning shaxsan o'zi bu shaxslarning sog'ligi bilan tanishib, so'ng dori moddasidan kelib chiqqan ob'ektiv va sub'ektiv belgilarni umumlashtiradi va shulardan dori ta'siri xaqida xulosalar chiqardi. Lekin belgilarni anatomik-fiziologik jig'atdan umumlashtirishni imkoni bo'lmadi. SHuning uchun ko'p belgilar ishonarli emas. Ganeman dori moddalarni turli xil xayvon va odam organizmiga turlicha ta'sir qilishini aytgan va shuning uchun sog'lom odamlarda sinab ko'rish usuli organizmda nafaqat ob'ektiv, balki sub'ektiv o'zgarishlarni yashirishga yordam bergan, qaysiki bu o'zgarishlar, ya'ni og'riq sezish xususiyati xaqida, ruxiy faoliyat funksiyasining o'zgarishi xaqida insonning o'zi gapirib bergan. Gomeopatiyada shunday foydali va ratsional bir nima borki, bu xam bo'lsa dori moddalarning kam dozadagi faolligi, ayniqsa ular o'xshashlik qonuni bo'yicha buyurilgan bo'lsa.

Zamonaviy shifokor-gomeopatlar o'xshashlik qonunida gomeopatiyaning negizini topgan va undan bemorlarga dorilarni tanlashda foydalanganlar.

Ganemanning ilimlaridan biri bo'lgan "-ratsional bo'lim" bemorlarga kam dozada dorilar tayinlashga asoslangan. Ganeman dastlabki yillari yangi usul bilan davolashni qo'llaganda dorilarni katta miqdorda qo'llagan, keyinchalik u shuni aniqlaganki, bemor sog' odamga nisbatan kuchliroq qitiqlanish namoyon qiladi. SHunday qilib, Ganeman "dori moddalarni maksimal darajada maydalangan xolda va kam dozalarda berish kerak ekan" degan xulosaga keladi.

Ganeman o'zining "Tibbiyot san'ati organoni" deb nomlangan asarida shunday deb yozadi: "Dori moddasining qaysi kasallik bilan bo'lsa xam o'xshashligi uning nafaqat gomeopatikligi bilan, balki dorining miqdori bilan aniqrog'i, uning kam miqdorda qabul qilinishi bilan tushuntiriladi. o'ta yuqori dozada dorini, xox u gomeopatik dori bo'lsin, qabul qilish bemor axvolini og'irlashtiradi. CHunki bunda dorining kuchi keragidan ortiqcha ta'sir qiladi va bemorning kasallangan eriga zarar etkazadi (dorining ta'siri va shikastlangan joyning og'rig'i birgalikda kasallik sptomlarining zo'rayishiga olib keladi). SHuning uchun gomeopatik dorini yuqori miqdorda qabul qilish zararli".

Oxirgi yillarda tibbiyot amaliyotida ayrim dorilarga nisbatan ularni past dozada qabul qilish oqimi yaratildi. Tibbiy-biologik tajribalarda xayvonlar uchun dori moddalarni 1:1 000 000 va undan ortiq suyultirilgan xolda qo'llanilmoqda. Fermentativ jarayonlarni samaradorligiga mos keluvchi fermentlarning minimal miqdori bilan xam bog'liq. Keyingi yillarda og'ir metallarning turli ta'siri xaqida ham gapirish mumkin, ya'ni ular xayvon, o'simlik organizmida va tuproqda minimal miqdorda saqlanadi. Muayyan sharoitda o'tkazilgan N. P. Kravkovning tajribalaridan shu ma'lum bo'ldiki, 10-32 suyultirish darajasidagi zahar hali xam o'z faolligini saqlagan bo'ladi. Bu ta'sirni Kravkov "parafarmakologik" deb

atagan va uni molekula parchalanishi bilan ta'sirlashuvi bilan tushuntirgan. I. P. Pavlov shuni ta'kidlaganki, brom miqdori bemorning nerv sistemasi turiga bog'liq bo'lgan nevroz kasalligiga 100 marta o'zgarishi mumkin va katta dozalariga nisbatan kichik dozalari samaraliroq ta'sir ko'rsatadi. M. K. Petrovaning tajribasidan brom tuzlari milligramm miqdorida berilganida terapevtik effekt namoyon qilingaligi aniqlandi. Xar bir dori moddasining fiziologik ta'sirini alohida o'rganganida quyidagilar hisobga olinadi:

1. Hayvonlarda farmakologik tajribalarda sinalgan dorining natijalari.
2. Kishilarning tasodifiy zaharlanishlaridagi toksikologik kuzatishlar.
3. Bu modda bilan sog'lom odamlarda Ganeman tomonidan o'tkazilgan tajriba natijalari.

o'simlik dorivor moddalar davolash bahosining ketma-ketligi darajasi jixatdan botanik oilalarga bo'linadi.

Ayrim dori vositalari o'rganilmagan bo'lgani uchun, ya'ni gomeopatik farmakodinamikasi o'rganilmaganligi uchun ular kam ishlatiladi.

Adabiyotlarni xamma bo'limlarida va terapevtik ko'rsatkichda kasalliklarning nomi va patogenezini, kasalliklarning belgilari keltirilgan. "Tayyorlash va tayinlash usullari" va "Terapevtik qo'llanilishi" deb nomlangan bo'limlarda dori moddalarni past, o'rta va yuqori darajada suyultirilgan xolda tayinlanadi; amaliyotda bemorlarni davolashda ko'pincha qo'llaniladigan dorilar dozalari qalin bosma xarflar bilan ajratilgan.

Xaqiqiy gomeopatiya qo'llanmalarini tuzuvchilar V. SHvabe gomeopatik farmakopeyasida ko'rsatilgan dori moddalar nomenklaturasiga tayandilar. Gomeopatik dorilarni tayyorlash bizning yurtimizda va chet ellarda hozirgacha shu farmakopeya asosida tayyorlanmoqda. Bu farmakopeya 1872 yilda yozilib, ko'p tillarga tarjima qilingan, xususan, rus tiliga 1899 yil tarjima qilingan. Ganeman bergan nomlar xali xam saqlanib qolgan. Ayrim dori moddalar o'z nomiga mos kelmaydi, lekin ular 1796 yildan boshlab yozib kelingan gomeopatik terapevtik adabiyotga kiritilgan uchun, gomeopatik dorixonalar va davolovchi shifokorlar yanglishmaslik uchun dorilarning qadimgi nomenklaturasiga tayanadilar. Faoliyat ko'rsatayotgan gomeopatik dorixonalarda bemorlarga beriladigan dorilar nomi lotin tilida yoziladi, lekin dori beriladigan idishdagi yorliqlar rus yoki o'zbek tilida yoziladi. Dori moddasining nomi gomeopatik retseptda bosh kelishikda "Recipe" so'zisi yoziladi. "Terapevtik qo'llash" degan bo'limda bemorga tavsiya qilingan dorini gomeopatik dorixonadan berilayotganida nomi lotin transkripsiyasi bilan yoziladi va bu lotincha nomlar SHvabe farmakopeyasiga mos kelishi kerak.

Zamonaviy gomeopatiya albatta aniq ilmiy-materialistik asoslarga ega bo'lishi kerak. Gomeopatiya xalq tabobatining ko'plab bo'limlari ichida kerakli o'rinlardan birini egallashi zarur.

O'rta asrlarda bemorni davolashda zuluklar qo'yish, qon chiqarish usullar qo'llanilgan, buning uchun qon so'ruvchi bankalardan foydalanilgan, shuningdek, ich yumshatuvchi, qusuq chaqiruvchi va terlatuvchi vositalar xam ishlatilgan. Tabiblar dori moddalarning xususiyatlarini to'liq bilmay turib, ularni boshqa dorilar bilan aralastirib, xech qanday asossiz juda katta dozalarda ishlatishgan. o'tkir kasalliklarda retseptlar kuniga bir necha marta o'zgargan. Surunkali kasalliklarda esa dori nomlari 2-3 kunda o'zgargan. Dori moddalarning aralashmasiga temir, simob, xinin, opiylar kirgan. Bu dorilar ham katta dozalarda buyurilgan. Masalan, simobli birikmalar yara qilguncha, ya'ni organizm to'liq zaharlanguncha buyurilgan.

SHunday tabiblar bo'lganki, ular o'z tajribasini samarasiz deb topib, davolayotgan bemorga o'zlarining kuchsizligini va berayotgan dorilari bemorga zaxariligini ochiq oshkor qilganlar.

Gomeopatik davolash usulining asoschisi nemis olimi va shifokori Samuil Ganeman (1755- 1843 yy.) xam o'sha davrda yashagan va shular toifasiga kirgan. O'sha davr tabobatida dori moddalarning ta'siri xaqida to'liq ma'lumot yo'q deb ta'kidlagan. Ganeman lotin, grek va arab tillarni bilgan xolda, ko'p yillarni qadimgi manbalarni o'rganish va tarjima qilishga bag'ishlagan. U Gippokrat, Avitsenna, Galen, Oribaziya, Karneliy Sels, Dioskorid, Aetiya va boshqalarning bayonlarini o'rgangan.

1-rasm. Hahnemann, Samuel (1755–1843)



U o'z davri tabobatini kamchiliklarini bilib, davolashda xech narsaga asoslanmagan murakkab tarkiblardan voz kechish va bemorlarni o'ziga

xos sub'ektiv xollarini inobatga olishni maslaxat bergan. Ganeman qadimgi mualliflarning o'xshashlik prinsipi yo'nalishi bo'yicha dorilarni qo'llaganligini aniqladi. Gippokrat shunday yozadi: "Bemorga uning tabiati tabiblik qiladi, xaqiqiy tabib esa yordam berishi kerak. Kasallik o'xshashlik bilan vujudga keladi va o'xshashlik bilan bemor sog'lig'ini tiklaydi".

1790 yil Ganeman Kullenning "Dorishunoslik" asarini ingliz tilidan nemis tiliga tarjima qilayotganida, muallif xina po'stlog'ining ta'siri xaqidagi bo'limida ko'plab amalga qarshi gipotezalar topgan.

Ganeman bu o'simlik dorivor maxsulotini tekshirishiga kirishdi va bir necha kun mobaynida u o'zida ma'lum miqdorda dorini qabul qilgan va sinagan, natijada, unda bezgak simptomlari paydo bo'lgan. Bu tajribani bir necha bor o'zida va do'stlarida sinab ko'rib, Ganeman xininni nafaqat bezgakni davolovchi, balki katta dozada sog'lom organizmda bezgak kasallik belgilarini keltirib chiqarishini ta'kidlaydi.

Ganeman qadimgi mualliflarning tajribalari va fikrlashlari bilan tanishib, ulardan bemorlarni davolashda "o'xshashlik prinsipini" topdi va o'zining xina daraxti po'stlog'i bilan bo'lgan tajribasi asosida gomeopatik nazariyasini yaratdi.

Ganeman tajribada dori vositalarini sinab ko'rish natijasida quyidagi xulosalarni chiqardi:

- xar bir dori modda organizmda maxsus ta'sir ko'rsatadi;
- dorining ta'siri ratsional reaksiya bo'lishi uchun xisob-kitob qilinishi kerak;
- reaksiya organizmning avvalgi xolatiga bo'g'liq;
- organizm reaksiyasi tufayli kichik yalliG'lanish stimullangan samaraga ega;
- yallig'lanishning mosligi sub'ektning reaksiyasi orqali aniqlanadi.

6 yildan keyin qattiq mehnat qilib, sog' va bemor organizmlarda turli dorivor moddalarni sinab ko'rib, Ganemanning birinchi marta tajriba natijalari chop etildi.

1796 yilda Gufelanning tabobat oynomasida Ganemanning "Dorivor moddalarni davolash xususiyatini topish uchun yangi jarayon tajribasi" deb nomlangan maqolasi chop etildi.

1805 yilda esa xuddi shu oynomada Ganemanning "Tajribali tabobat" deb nomlangan maqolasi chop etildi.

1810 yilda Ganemanning "Tabiblik san'atining organoni" nomli kitobi nashrdan chiqdi. SHu davrda Ganeman Leypsig dorilfununida privat-dotsent unvoniga sazovor bo'ldi, o'qitish jarayonida uning atrofida talabalar, tabiblar, dorini o'zida sinashga extiyori bilan kelganlar bo'lar edi.



2-rasm. "Tabiblik san'atining organoni", 1810

1811 yilda Ganemanning bayonlaridan biri bo'lgan "Toza dorishunoslik"ning 1-qismi chop etildi. Bir necha yildan keyin esa uning qolgan 4-ta qismi ham chop etildi. Bu asarda 60 ga yaqin dori moddalar ta'siri keltirilgan. Dorilarni izlab topish va qo'llashda o'z usulini boshqa usullardan farqliroq, Ganeman "gomeopatik" deb nomladi.

Gomeopatiya dori vositalarining qo'shimcha ta'siri yo'qligi ko'pchilikni o'ziga jalb qiladi. AQSHda 1832 yili, Belgiyada 1853 y, Angliyada 1856y, Argentinada 1863y, Meksikada 1895y, shuningdek Gollandiya, Daniya, SHveysariya, Italiya, Norvegiya, SHvetsiya, Ispaniya, Gretsiya, Finlandiya, Osiyo davlatlarida Xindiston, Pokiston, Bangladesh, SHri Lanka, Afrika Kit'asida: Nigeriya 1960y, Lesto 1979y, Zimbabve 1981y, Avstraliya va YAngi Zellandiya amaliyotlarida xam gomeopatiya sekin asta rivojlana bordi. Rossiyaga chegaradosh Polsha, Vengriya, CHexoslovakiya, Ruminiyalarda ham gomeopatiya o'z o'rnini topgan. Polshada 1892 yildan boshlab gomeopatiya jamiyati

mutaxassislardan tashkil topgan komissiya tomonidan tekshirib,ijobiy natija berilgan munosabati bilan gomeopatiya Davlat tomonidan rasmiy tan olingan.

Vengriya va CHexoslovakiyada Gomeopatiya usuli bilan davolash boshqa qo'shni davlatlarga nisbatan birmuncha kamroq yo'lga qo'yilgan. Rossiyaga Ganeman g'oyalari o'tgan asrning 20 yillarida kirib keldi. 1824 yil Peterburgda Ganeman va uning ta'limoti bilan tanish bo'lgan doktor Adam Germaniyada shu yo'nalishni qo'llash uchun ko'chib keladi. Bu nazariyani yoqlovchilar xam topilib, gomeopatiya yo'li bilan davolash tez tarqala boshlaydi. 1828 yilda o'sha vaqtda xarbiy gospitalarning birida xizmat qiluvchi leyb-medik Germaniyaga Ganeman usuli bilan davolashga xuquq berildi.

1832 yildan Peterburg, Moskva, Riga shaxarlarida gomeopatiya dorixonalarini ochishga ruxsat etildi. Moskvada 1-nchi gomeopatiya dorixonasi Petrovkada 1835 yilda ochilib, unga gomeopatiya ta'limini targ'ibot qilishga ko'p xizmat qilgan A. O. Farbriker boshchilik qilgan. XIX asrning 2-nchi yarmidan boshlab gomeopatiya jurnali xar oyda chiqaboshlaydi. 1898 yil Peterburgda gomeopatiya kasalxonasi ochildi. 1833 yil Rigada xam 1-nchi gomeopatiya dorixonasi ochildi va 1959 yilga qadar dorixona shaxsiy gomeopatik shifokorlar retsepti bo'yicha dori tayyorlar edi. Xozirgi vaqtda mustaqil xamdo'stlik davlatlarida,jumladan Moskva, Riga, Kiev, Peterburg, Tbilisi, YAlta, Simferopol, Lvov, Xarkov va boshqa shaxarlarda 20 ga yaqin gomeopatiya dorixonalari, Moskvada gomeopatiya kasalxonasi va dorixonalar qoshida gomeopatiya bo'limlari ishlab turibdi. Ularning ishini yaxshilash maqsadida Moskva, Kiev, Toshkent shaxarlarida shifokor-gomeopat va farmatsevt-gomeopat tayyorlash bo'yicha maxsus kurslar tashkil etilgan. 1989 yil Kievda shifokor gomeopatlarning butunittifoq s'ezdi bo'lib bunda tashkiliy masala ko'rib, butunittifoq gomeopatiya assotsiyasi tashkil etildi, unda dorixona xizmatchilari xam faol qatnashdi. Ayrim shaxarlarda jamoatchilik yo'lida kooperativ gomeopatiya markazlari tashkil topmoqda. Masalan, Kievda "Gomeopat", Lvovda "Apis" markazlari. Xozir barcha mamlakatlarda ishlatib kelayotgan gomeopatiya dorilar soni 2000 atrofida bo'lib, shunda V. SHvabe qo'llanmasiga 514 kiritilib,ulardan faqat 150 yaqini MXD davlat reestriga kirgan xalos. Ma'lumki reestrga kirmagan dorivor o'simliklar xom ashyosi bilan assortiment, xam miqdor jixatdan ta'minlashni tashkil etish, bu soxada ijob qilayotgan barcha ilmiy xodimlarga qarata qilgan murojat ayni muddaodir. Bu soxadagi izlanishlarni kuchaytirish va tibbiyotga joriy etish xaqidagi fikrlar xam taxsinga sazovordir.

Yo'nalishlar:Gomeopatiya preparatlarining arsenalini boshqatdan ko'rib, chet elliklarni o'zimiznikisi bilan almashtirish. Gomeopatiyada reglamentga kiritilgan dori turlariga in'eksiya, ko'z DT, aerazol, tabletka, terapevtik sistemalarni kiritish xozirgi zamon yordamchi moddalar YUMB, SVF, erituvchilar, stabilizator, surtmalar, emulsiya va gidrofil asoslar ishlatilishi. Essensiya, nastoyka, granula, tomchilarni texnologiyasini rivojlantirish. Gomeopatiya dori turlari sifatini nazoratida xozirgi zamonusullarini qo'llash. Sog'liqni Saqlash Vazirligi qoshidagi Farmakopeya qo'mitasi tomonidan gomeopatiya farmakopeyasini chiqishini o'ylab ko'rish. Dori-darmonlar uchun NTX (normativ texnik xujjat) ishlab chiqilmaydi va shu boisdan ular dori sifatida fabrikalar tomonidan deyarli ishlab chiqarilmaydi. SHundan xulosa - gomeopatiya dori-darmonlari ustida keng va samarali ilmiy izlanishlar olib borilishi zarur.

Gomeopatiyani xozirgi xolati

XX-nchi asrning oxirida SS tizimida tabiat xom ashelari asosida tayerlangan preparatlarni assortimenti ko'payib ist'emol qilinishi oshdi. Ular orasida davolovchi va kasalnikni oldini olish uchun bo'lgan usimlik preparatlari, gomeopatik,nutritsevtika, parafarmatsevtika parhez uchun maxsulotlar va BADlardir. Farmakolog, fitoximik va shifokorlarni ular juda qiziqtiradi. 100 yil avval farmatsevtika sanoatini ular tashkil etishgan, lekin sun'iy moddalar antibiotik, sulfanilamidlar, o'simlik preparatlarini chetlab, birinchi o'ringa chiqishgan. Bugungi kunning masalasi fitopreparatlar va gomeopatiya zamonaviy tibbiyotda qaysi o'rinda turishi kerak? Bu savolga birinchi bo'lib sanoat miqyosida o'simlik DV, gomepatik va kombirlangan preparatlar chiqarilmoqda.

Fransiyada gomeopatik vositalari bilan 30% aholi, Germaniyada 25%, Angliyada 45% foydalanadi. Evropa esa fitopreparatlar ishlab chiqarishda birinchi (lider). Xozir 12 mlrd dollarni tashkil etadi.Birinchi qatorida Germaniya 44%. Biz doim esimizda tutishimiz kerakki odamzot kup DVni dorivor usimlik va gomeopatik preparatlardan tashkil topishni xoxlaydi,chunki eng zarur masala bu maksimal darajada dorilar bezarar bo'lishi kerak.

Lekin SSVgi oldida – O‘zbekiston Respublika aholisini sog‘lig‘ini va farovonini ko‘tarish, birinchi masalalar qatorida turipti.¹

Gomeopatiyadagi muammolar

Ukrainani olsak uch yil davomida 100 ta preparat, 8 ta chet el firmalardan qayd etilgan. Ukrainani o‘zida 3 ta firma gomeopatik preparat chikaradi. O‘zimizda bugungi kunda 11 gomeopatik preparatlar qayd etilgan. Respublikada 1 ta firma Gomeofarm atigi 2 ta preparatni qayd etgan, qolganlari chet elniki.

Uning uchun O‘zbekistonni jahon farmavsevtika ishlab chiqarish tizimiga integratsiya jarayonini tezlashtirish kerak, xar bir o‘zimizda arzon va samarali DVLarni ishlab chiqaruvchi va izlanuvchilarni qo‘llab va ularni himoya qilish kerakligi ko‘rinib turipti. Gomeopatik preparatlarni yaratishda dunyodagi malaka va bilimlarni o‘rganish, qullash kerak ayniqsa Evropa Soyuzi a‘zolari bo‘lgan davlatlarni²

Xozircha ushbu davlatlarni gomeopatik dori vositalarni qayd etilishida yondoshish xar xilroq, sh.u. Evropa farmakopeyasini ahamiyati o‘zgacha. U 1964 y tashkil topkan bo‘lib, gomeopatik preparatlar ham 1997 yilda buyoq Evr.F. kiritilgan.GP eng kamida 2 ta kompanetdan iborat bo‘lib konsentratsiyasi 8SN suyultirishdan oshiq bo‘lmasligi kerak (boshqachalari yangi dori deb ko‘rilishi kerak).

Evropa F. ga kura: xom ashyo sifatida o‘simlik, kimyoviy, mineral va xayvon mahsoloti bo‘ladi. YAngi mahsulotni yaxlatilgan xolatda (dii fgozen) saqlash mumkin. Birlamchi suyultirish Stocks deyiladi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Tibbiyotda qo‘llaniladigan noan‘anaviy davolash usullarining hozirgi zamon tizimi va g‘oyalari
2. Gomeopatiyaning qisqacha tarixi, unga asos solgn olimlar, uning prinsiplari, zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari
3. Gomeopatiyaning nazariyalari
4. Gomeopatiyani rivijlanish yonalishlarini keltiring.

ADABIYOTLAR:

1. Тихонов А.И. и др. Основі гомеопатической фармации.-Харьков.-Золотіє страниці.-2002.-574 с.
2. Тихонов А.И., Ярніх Т.Г. Технология лекарств.-Харьков.- 2002-704 с
3. Назиров З.Н. Гомеопатия.-Тошкент. 2001 й
4. Махмуджанова К.С., Назарова З.А., Туреева Г.М. Махсус дори турлари технологияси . Тошкент 2009й.- 163 б
5. Махмуджонова К.С., Назарова З.А., Туреева Г.М., Файзуллаева Н.С., Назирова Я.К. “Дори тайёрлаш технологияси” фанидан маъруза матнлари. Тошкент. 2005 й
6. Синёв Д.И., Марченко Л.Г., Синёва Т.Д. Справочное пособие по аптечной технологии лекарств.-С.Петербург 2001.-316 с.
7. Loyd V. Allen, Jr., Nicholas G. Popovich, Howard C. Ansel. Ansel’s Pharmaceutical Dosage Forms and Drug Delivery Systems.- New York: Lippincott Williams & Wilkins, 2011.- P.722
8. Steven B. Kayne Homeopathic Pharmacy: Theory and Practice, (2nd Edition).- New York, 2006.- 366 pages.

2-MAVZU: NOAN‘ANAVIY DAVOLASH USULLARI HAQIDA TUSHUNCHA VA TASNIFI

Reja:

1. Gomeopatik davolash tizimidagi zamonaviy yo‘nalishlar:
2. Kompleks preparatlar bilan davolash usuli
3. Fol’ va Gabovich usullari
4. G.G. Rekevech nazariyasiga asoalangan noan‘aviy gomeopatik usuli

¹Steven B. Kayne Homeopathic Pharmacy: Theory and Practice, (2nd Edition).- New York, 2006.-366 pages.

²Loyd V. Allen, Jr., Nicholas G. Popovich, Howard C. Ansel. Ansel’s Pharmaceutical Dosage Forms and Drug Delivery Systems.- New York: Lippincott Williams & Wilkins, 2011.- P.722

5. E. Bax usuli asosida gullar dorilari bilan davolash usuli

Tayanch soʻz va iboralar: gomeopatiya, Ganeman, Fol, Gabovich, tinktura, potensiyalsh, dinamizasiyalash.

Asosiy matn

Gomeopatik davolash tizimidagi zamonaviy yoʻnalishlar:

Gomeopatik preparatlar oʻxshashlik qonuniyati asosida yakka xolda tanlab olinsa eng yuqori samara ega.

Lekin buning uchun shifokor maxsus tayyorgarlik koʻrgan boʻlishi va katta amaliy ish koʻnikmasiga ega boʻlishi kerak. Bunday mutaxassislar deyarli kam va hozircha shifokorlar umumiy mutaxassislik bilimlariga ega. SH.u. bugungi kunda butun dunyoda gomeopatik yordam berishi faqat kompleks gomeopatik preparatlarni yaratib, ularni ishlatilishi aniq koʻrsatilgan boʻladi. Bu xol esa gomeopatiyada bilimi chuqur boʻlmasa xam shifokor qoʻllaydi, xatto bemorlar xam oʻz-oʻzini davolashda ishlatishi mumkin. Kompleks gomeopatik dorilarni nojoʻya taʼsiri yoʻq. Agar qaysidir bemorga toʻgʻri kelmasa, faqat oddiy organizmga taʼsiri boʻlmaydi. Bemorni kassaligini diagnozi maʼlum boʻlsa, oʻzining kassaligining simptomlarini bilsa standart gomeopatik kompleks preparatlarini ishlatish mumkin shifokorni buyurtmasiz ham.

CHet elda anchadan beri kompleks gomeopatik preparatlar ishlatilmoqda. Oxirgi yillarda Oʻzbekiston dorixonalarida ular mavjud. Qayd etilgan gomeopatik preparatlarni keltirish!!!

Gomeopatiya kassallikni emas kasalni davolaydi. Oʻxshashlik qonuni asosida dori tanlanadi, lekin kasalning kassalligi toʻgʻrisida aniq maʼlumot boʻlishi shart, yaʼni kasallik simptomlari oʻxshashligi (obʻektiv va subʻektiv maʼlumotlar).

Dorilar guruxida aynan patogenizida ushbu siptomlar boʻlsa, ana shular tanlab olinadi. Lekin yuzaki oʻxshash siptomlar yigʻindisi emas, yoki siptomlar yigʻindisi emas, balki kasal odamni va dorivor preparatni siptomlar kompleksi (ichki oʻxshashlik) boʻlishi kerak. SHuning uchun dorining asosiy siptomlarga patogeniziga katta ahamiyat beriladi. Undan tashqari, dori tanlashda albatta tajriba natijalari: kasallikni kelib chiqishi sabablari, odamning tuzilishi, yoshi, kasallikni oʻtishi va hokozalar hisobga olinadi.

Agar dori simptomlari kasallik simptomlariga yaqin kelmasa, unda 2 ta yoki koʻproq dori tanlash lozim boʻladi. Ular oʻxshashlik simptomlari bilan taʼsir etish uchun. Dorilarni ketma-ketlikda qabul qilinadi, avval bittasi uzoq muddat davomida, keyin boshqasi, u ham uzoq muddatda, yoki bir-birini almashtirib bir kunda.

Aynan barcha siptomlarni qoplovchi dorilar kam. SH.u. xar xil dorilarni ketma-ket berilip qoʻllaniladi, chunki davolash jarayonida kassallikni siptomi kompleksi oʻzgaradi.

Notoʻgʻri tanlangan dori zarar keltirmaydi, lekin qancha qimmatbaho vaqt sarf boʻladi.

Dozalar, qabul qilish va ovqatlanish usullari

Dozaning miqdori emas, toʻgʻri tanlangan dorining davolash taʼsiri yordam berishi aniq.

Qaytanga dozalar kichik boʻlishi kerak, chunki katta dozalar kasallikni zoʻraytirib boradi. Lekin koʻzga koʻrinar koʻrinmas sagʻal siptomni oshishi, gomeopatik dorini toʻgʻri tanlanganidan darak beradi.

Folʻ va Gabovich usullari

Gomeopatik davolash usulida dorini toʻgʻri ravishda tanlash, uni dozasini, qanchadan va necha marotaba qabul qilinishini topish eng muxim muammo boʻlib kelmoqda.

Koʻp tajribalar natijasida yangi R. Fol usuli, Z. Gabovich diagnostikasi va boshqalari amaliy ravishda qoʻllanilyapti. Tibbiyot markazi "S Velen" qoshidagi Rossiya-AQSH korxonasi ishlab chiqarilgan, "PELAD" nomli elektropunktura diagnostik pribori bor. Xar bir dorivor oʻsimliklardan olingan gomeopat vositalarning spektral-toʻlqinli xususiyatlari mikro-kompyuter xotirasiga kiritilib, shu kunda 2047 preparat toʻgʻrisida maʼlumot bor. Gomeopat-shifokor Fol usulini ishlatgan xolda qoʻl va tovondagi akupunktura nuqtalarga bosib koʻrib "apparat-kasal" knopka orqali dori vositasini tanlay. Test qilinayotgan dorilar bilan kasal organizmi aloxida toʻlqinlar yordamida bogʻlanadi, chatishtiriladi va salbiy yoki ijobiy organizmni reaksiyasi priborni indikatorida koʻrinadi. Organizmga taʼsiri ijobiy belgilangan dori priborini kompyuter xotirasiga oʻtkaziladi. Bitta emas bir necha dori vositalari ijobiy

ta'sir ko'rsatishi xam mumkin. Keyin shu dorilarni potensiyasini gomeopat belgilaydi va oldindan tayyorlab qo'yilgan bo'lsa, o'sha zaxoti bemorga beriladi.

Gabovichelektropunktura diagnostika usuli "Test" apparatida olib boriladi, uning yordamida organizmning xar bir a'zosini ishi funksiyasi yoziladi, ma'lumot olinadi va keyin shu a'zoni qaysi gomeopatning dorisiga sezgirligi topiladi. Apparat orqali faqat gomeopatik dori emas, balki oziq-ovqat, kosmetika va taqinchoqlarga xam munosabatini ko'rsatadi. 15-20 minut ichida yurak, nafas, oshqozon va aloxida ishi to'g'risida ma'lumot gomeopatik preparatlarini dozasi belgilanadi.

Gabovich elektropunktura diagnostika usuli "Test" apparatida olib boriladi, uning yordamida organizmning xar bir a'zosini ishi funksiyasi yoziladi, ma'lumot olinadi va keyin shu a'zoni qaysi gomeopatning dorisiga sezgirligi topiladi. Apparat orqali faqat gomeopatik dori emas, balki oziq ovqat, kosmetika va taqinchoqlarga xam munosabstni ko'rsatadi. 15-20 minut ichida yurak, nafas, oshqozon va aloxida ishi to'g'risida ma'lumot gomeopatik preparatlarni dozasi belgilanadi.

Boshqa noan'anaviy gomeopatik davolash tizimlardan gomotaksikozni eslash mumkin. Barcha kasalliklarni rivojlanishi asosida gomotoksikoz to'g'risidagi G. G. Rekevich nazariyasi yotadi. Bunga misol qilib "Xeel" Germaniya firmasi ishlanmalarini keltirish mumkin. Xel firmasi tomonidan tomchi, granula, tabletka, surtma, krem, kapsula, shamcha, in'eksiya uchun eritmalar tarkibida 5 dan 30 gacha potensiyali moddalar nomlari uchraydi. Murakkab tarkibli preparatlar va ular patogenizi prinsip asosida tuzilgan. Vakillari; traumel, vertigoxil, mimfomiozot (A.I.Tixonov 543-557 bb).

Gomotoksikologik davolashda organizmdan toksinlar chiqariladi gomeopatiya yordamida, nozod, sarkodlar, katalizator va gomeopatik va allapotiya preparatlar bilan (G.G.Rekevich – 20 asrning 50nchi yillarida).

E. Bax tomonidan gullar dorlari yaratilgan. U Britaniyalik bakteriolog va gomeopat bo'lgan. Kasal bo'lgan hayvonlar turli xil gullardagi shudringni yalap yurganini kuzatgan va 38 gullar turida davolovchi xususiyatlar borligini Bax topgan. Xar bir gul aniq emotsional xolatga mansubligini bilgan. SH.u. Baxning gul dorilarni faqat emotsional va psixologik (ruxiy) simptomlarga asoslangan xolda beriladi, keyin fiziologik simptomlar dorini tanlashda xisobga olinmaydi. Xozirgi kunda amaliyotda Bax sistemasi kengaytirilib, uning tuzgan gullar ro'yxatiga juda ko'p qo'shilgan.

Edvrd Baxning gul terapiyasi (1930 y.) gullarni energetic quvvati bilan davolashni taklif etgan. Bugungi kunda olimlar uhbu davolash usuli "platsebo effekti"ga asoslangan deb hisoblashmoqda.

Gul terapiyaning asosiy shiori: "O'zingni – o'zing davola!". Inson organizmda kasallikni davolash uchun ruhiy xotirjamlikka erishmoq kerak, aynan ayrim o'simliklar bemorning ruhiy xolatini, xotirjamlikni tiklashi bilan davolagan:

- Qushqonmas (Репейник)
- Aspen daraxti (Осина)
- Olxa (Бук)
- Vo'tako'z (Василек)
- Xaltali ebalak (Устели-поле)
- Tog' olcha (Алыча)
- Kashtan kurtagi (Почка каштана)
- Sachratqi (Цикорий)
- Iloncho'ri (Ломонос)
- Yovo'yi olma (Дикая яблоня)
- Qayrag'och (Вяз)
- Gentiana, erbaho gazako't (Горечавка)
- Ut'snik
- Oddiy veresk (Вереск обкновенный)
- Muqaddas daraxt (Падуб)
- Hanimeli (Жимолость)
- Shohli daraxt (Граб)
- Balzamin (Бальзамин)
- Archa (Лиственница)

- Mimoza Мимоза)
- Xantal (Горчица)
- Eman (Дуб)
- Zaytun (Олива)
- Qarag'ay (Сосна)
- Qizil kashtan (Красный каштан)
- Tog' atirguli (Скальная роза)
- Tog' suvi (Горная вода)
- Divala (Дивала)
- Vefliyem yulduzi (Звезда Вифлеема)
- Chuchuk kashtan (Сладкий каштан)
- Verbena (Вербена)
- Tok povdai (Виноградная лоза)
- Grek yong'o'I (Грецкий орех)
- Binafsha (Фиалка)
- Jq kashtan (Белый каштан)
- Yovoyi suli (Дикий овес)
- Na'matak (Дикая роза)
- Tol (Ива)

Keltirilgan o'simliklardan E.Bax toza suv va brendi (50:50) aralashmasidan gul essentsiyasini tayorlagan va bemorlarga tomchi qilq b bergan.

Gul essentsiyalari uch darajada ko'llanilgan:

- Ruhiy salomatlik profilaktikasi uchum
- Stress holatini tezkor davolash uchun
- O'tkir va surunkali kasalliklarni davolashda qo'shimcha vosita/

E. Bax gul essentsiyalari icjida kompleks vosita - Rescue Remedy (Qutqaruvchi) ham bor. Ushbu vosita o'tkir stress holatida tichlantirish uchum beriladi.

S. Ganeman o'z tajribalari, olgan bilimlari asosida chiqargan xulosalardan biri; shunday kasalliklar borki, ular bir-birini qirib tashlaydi. Lekin buni aniqlab olish zarur. Kasalliklarni o'xshashlik prinsipi asosida davolash— bu ushbu xolatni echimidir³

Bu xolatni tushunish uchun oddiy bir misolni Ganeman keltirgan. Odam organizmiga issiq va sovuqni ta'sir. Agar sovuq olgan qo'lni issiq suvga solinsa, qo'l darrov isiydi. (bu birlamchi reaksiya). Lekin undan keyin 2-nchi reaksiya – qarama-qarshisi bo'ladi. CHunki issiq suvga solingan qo'l sovuq qotadi suvdan chiqargandan so'ng.

Agar, o'xshashlik prinsipi asosida, sovuq olgan qo'lni muzday suvga solinsa, avval shol xolat vujudga keladi, keyin esa suv isib ketadi- bu ximoyalash reaksiyasidir. Qo'lni suvdan chiqarilsa, u issiq bo'ladi. Demak organizm bor ximoyalavchi kuchlarni yig'ib ta'sir ko'rsatadi. O'xshashlik qonuni asosida davolash bu gomeopatik dorilargni himoyalash kuchlarini uyg'otib ta'sir etishga qaratilgan.

O'xshashlik qonunini tadbiq etish uchun xar bir shaxsiy xolatda beriladigan dorining patogenizi bilan tabiy kasallik belgilarini juda chuqur barcha alomatlarini nixoyatda sinchkilab o'rganish, konstitutsional ham ruhiy xolatlarni hisobga olish va o'zaro taqqoslash asosida to'g'ri xulosaga kelish mumkin.

Gomeopatiyada o'ziga xos xusisiyatlardan biri konstitutsional dorilardir. Bunday dorilar odam tanasi tuzilishga asabga qarab, ularni hulqi - atvori xar xil narsalarga bo'lgan munosabati turlichaligini hisobga olgan holda tayinlanadi.

Odam konstitutsiyasi katta ahamiyatga ega, u bir necha xillarga bo'linib, bularni aniqlash, bilish kasallikni emas, balki kasallikni davolash imkoniyatiga e'tiborni qaratadi.

Gomeopatiyaning asosi – murojaat qilgan bemorni kasallik (sipmtom) belgilari bilan chegaralanib qolmay, ular orqali tirik odamning ichki dunyosiga kira bilish va kasallik belgilarini boshidan

³Steven B. Kayne Homeopathic Pharmacy: Theory and Practice, (2nd Edition).- New York, 2006.-366 pages.

kechirayotgan kasalni shaxs sifatida o'rganish kerak – deb yozgan Zeduck (Belgiya gomeopatiyasi, 1981y.).

SHunday qilib odam konstitutsiyasi kasalning reaktivligini aniqlovchi barcha nasl belgilari, tananing morfologik va funksional xususiyatlari bo'yicha ma'lumotlar beradi.

Odam konstitutsiyasini o'rganishda kasallikning paydo bo'lish davrida tananing qanday o'zgarishlarga uchrashi, atrofdagi narsalarga qanday munosabatda bo'lishiga katta ahamiyat beriladi.

Konstitutsional deganda xar bir kasalga alohida yondashish zarurligi da'vat etiladi. Asosiysi – tashqi ko'rinishi: yuz tuzilishi, chunki yuzda odamning tabiati, xulqi, fe'li, mijozi, tana reaktivligi xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bularni birinchi marta Gippokrat, uning fikrini rivoj etishida Paratsels, keyin esa Abu Ali ibn Sino hissa qo'shgan. Asoschi bo'lib Ganeman tan olingan. U 1811 y. yozgan "Organon" asarida odamning konstitutsional turida to'xtab o'tgan.

1. Psora – sirtki xarakterga ega bo'lgan organizmni reaksiyasi (qo'tir), u sekin o'tadi
2. Sikoz – organizmda giperreaksiya kejadi (so'gal tashish, xolera)
3. Sifilina – organizmda potologik reaksiya kechadi (sifilis, rak).

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Noan'anaviy davolash usullari ta'rifi, tasnifi, ishlatiladigan dori turlari.
2. Gomeopatik davolash tizimidagi asosiy muammolar
3. Gomeopatik dorilarni tanaga ta'sir etish mexanizmlari.
4. Edvard Bax ning gul eensiyalarining ta'sir mexanizmi.

ADABIYOTLAR:

- 1.Тихонова.И. идр. Основігомеопатическойфармации.-Харьков.-Золотіестраниці.-2002.-574 с.
- 2.Тихонов А.И., Ярніх Т.Г. Технология лекарств.-Харьков.- 2002-704 с
- 3.Назирова З.Н. Гомеопатия.-Тошкент. 2001 й
4. Махмуджанова К.С., Назарова З.А., Туреева Г.М. Махсус дори турлари технологияси . Тошкент 2009й.- 163 б
5. Махмуджонова К.С., Назарова З.А., Туреева Г.М., Файзуллаева Н.С., Назирова Я.К. “Дори тайёрлаш технологияси” фанидан маъруза матнлари. Тошкент. 2005 й
- 6.Синёв Д.И., Марченко Л.Г., Синёва Т.Д. Справочное пособие по аптечной технологии лекарств.- С.Петербург 2001.-316 с.
7. Loyd V. Allen, Jr.,Nicholas G. Popovich, Howard C. Ansel.Ansel's Pharmaceutical Dosage Forms andDrug Delivery Systems.- New York: Lippincott Williams &Wilkins, 2011.- P.722
8. Steven B. Kayne Homeopathic Pharmacy: Theory and Practice, (2nd Edition).- New York, 2006.-366 pages.

3-MAVZU: GANEMAN BO'YICHA GOMEOPATIK DORILAR PATOGENEZI

Reja:

1. Gomeopatiya prinsiplari, nazariyasi va ta'sir etish mexanizmi
2. Organizmning reaksiyasini oshiruvchi maxsus ta'sirli dorilar
3. Gomeopatik spetsifikasi. O'ng va chap tomonlama ta'sir etuvchi gomeopatik vositalar
4. Gomeopatik dorilarni patogenezi xaqida tushuncha.
5. Ganeman buyicha gomeopatik dorilar patogenezi
6. Keng qo'llaniladigan dorilarni patogenezi ta'rifi

Tayanch so'z va iboralar: gomeopatiya, Ganeman, Fol, Gabovich, tinktura, potensiyalsh, dinamizasiyalash, gomeopatik spetsifikasi, o'ng tomonlama ta'sir etuvchi gomeopatik vositalar, chap tomonlama ta'sir etuvchi gomeopatik vositalar, gomeopatik dorilar patogenezi.

Asosiy matn

Gomeopatiya prinsiplari, nazariyasi va ta'sir etish mexanizmi

"Gomeopatiya" (yunonchada: homioios - o'xshashlik, pathos- kasallik) termini o'sha davrdan to hozirgi davrgacha o'z nomini saqlab qolgan. Uning aksi "allopatiya" (allos qarshilik, pathos kasallik) bo'lib, bu terminni ham Ganeman kiritgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida professor Zlatorovich boshchiligida Ganeman va uning o'quvchilari tomonidan tekshirilgan va tadbqiq qilingan dori moddalarini qayta sinash ishlari olib boriladi. Venada Zlakovich boshchiligida Avstriyalik sinovchi tabiblarning jamiyati tashkil qilinadi. Buning natijasi Ganeman ilmining foydasiga deb topildi.

Ganemanning yuqoridagi tajribalaridan kelib chiqqanxulosalardan gomeopatlar va allopatlarning davolashidagi farqlarini ko'rish mumkin. Agar bemorning oshqozoni yallig'langan bo'lsa, allopat tinchlantiruvchi dorilar bilan davolaydi, gomeopat esa yallig'lantiruvchi dorilar bilan, lekin juda kam miqdorda.

Gomeopatiyaning prinsipi tabiiy kasallik va dori ta'sirida chaqirilgan kasallik bir-biriga o'xshashligi bo'yicha mos kelishi kerak.

Gomeopatiya Leypsig universitetining professori nemets olimi Samuel Fridrix Ganeman (1755-1843) tomonidan tibbiyotda yangi davolash yunalishi sifatida paydo bo'lgan.⁴

Ganeman Saksoniyada 1755 yilda tug'ilgan, u juda qobiliyatli, bilimga tashnalik bilan qiziqadigan sinchkov bola bo'lgan. U Sokrat, Dioskorid, Paratsels, Galen, Ibn Sinoning yaratgan ijodlarini o'rganib dori modda-larni ishlatilishida qonuniyat borligini topadi.

Gomeopatiya dorilari sog'lom odamda katta dozalarda sinalganda, u dori qaysi kasallik belgilarini paydo qilsa, o'sha kasallikni aynan shu dori bilan davolashga asoslangan. U "o'xshashlik" qonunini shunga asosan yaratdi.

Gipokrat va boshqa qadimgi olimlar shu o'xshashlik qonuniyatini ko'rsatib ketganlarini, hozirgi zamonaviy sharoitda ham takrorlanyapti. Misol tarikasida qon almashtirish autogemoterapiya, vaksinoterapiya, emlash va bosh-qalarni keltirish mumkin.

Ganeman 100ga yaqin dorivor moddalarni o'zida va o'zi xoxlovchi talabalarida sinagan. Katta /lekin zaharlanmaydigan/ dozalarda sog'lom kishilarga berib, ularda sodir bo'lgan yoki boshqa so'z bilan aytganda birinchi marotaba dorilar patogenezini tuzgan.

Ma'lumki kasalning simptomi patogenezi bo'ladi, lekin dorivor modda-larning o'ziga xos ta'siri bo'lishi va Ganeman dorilar patogenezi deb atashi yangilik bo'lgan. Agar dori modda katta dozada sog'lom odamda kasallik chaqirsa, shu dori modda kichik dozada davolash gomeopatiyaning I prinsipi, asosi bo'lib qonunlashtirilgan.⁵

O'simlik dorivor moddalar davolash bahosining ketma-ketligi darajasi jihatdan botanik oilalarga bo'linadi.⁸

Ayrim dori vositalari o'rganilmagan bo'lgani uchun, ya'ni gomeopatik farmakodinamikasi o'rganilmaganligi uchun ular kam ishlatiladi.

Adabiyotlarni hamma bo'limlarida va terapevtik ko'rsatkichda kasalliklarning nomi va patogenezi, kasalliklarning belgilari keltirilgan. "Tayyorlash va tayinlash usullari" va "Terapevtik qo'llanilishi" deb nomlangan bo'limlarda dori moddalarni past, o'rta va yuqori darajada suyultirilgan holda tayinlanadi; amaliyotda bemorlarni davolashda ko'pincha qo'llaniladigan dorilar dozalari qalin bosma harflar bilan ajratilgan.

Xaqiqiy gomeopatiya qo'llanmalarini tuzuvchilar V. SHvabe gomeopatik farmakopeyasida ko'rsatilgan dori moddalar nomenklaturasiga tayandilar.

Gomeopatik dorilar tayyorlash yurtimizda va chet ellarda hozirgacha shu farmakopeya asosida tayyorlanmoqda. Bu farmakopeya 1872 yilda yozilib, ko'p tillarga tarjima qilingan, xususan, rus tiliga 1899 yil tarjima qilingan. Ganeman bergan nomlar hali ham saqlanib qolgan.

Ayrim dori moddalar o'z nomiga mos kelmaydi, lekin ular 1796 yildan boshlab yozib kelingan gomeopatik terapevtik adabiyotga kiritilgani uchun, gomeopatik dorixonalar va davolovchi shifokorlar yanglishmaslik uchun dorilarning qadimgi nomenklaturasiga tayanadilar.

Zamonaviy gomeopatiya albatta aniq ilmiy-materialistik asoslarga ega bo'lishi kerak. Gomeopatiya xalq tabobatining ko'plab bo'limlari ichida kerakli o'rinlardan birini egallashi zarur.

Gomeopatiya yunoncha homiois-o'xshash va pathos- kasallik so'zlaridan tashkil topgan. SHunga asoslangan gomeopatiya dorivor modda sog'lom odamda sinalganda, u dori qaysi kasallik belgilarini paydo qilsa, o'sha kasallikni aynan shu dori bilan, nihoyatda kam dozalarda va maxsus usulda kuchi oshirilgan dorilar bilan davolaydi.

200 yillik gomeopatiya dori vositalari bilan davolashda biron-bir qo'shimcha ta'sir yoki zaharlanish kuzatilmagan. SHuning uchun kasallikni gomeopatiya usulida davolash AQSH, Angliya, Fransiya, Olmoniya va boshqa mamlakatlarda rivojlangan.

Hozirgi vaqtda Ganeman g'oyalariga tayangan holda V.SHvabe tomonidan yozilgan gomeopatiya dorilari bo'yicha qo'llanma 70 dan ortiq mamlakatlarda farmakopeya sifatida ishlatib kelinmoqda.

Gomeopatiya dorilarining 78-80% dorivor o'simliklar, 14%ga yaqini kimyo-viy va 6% atrofida jonivorlarga to'g'ri keladi. Gomeopatiya dorilarining al-lopatiyanikidan asosiy farqi barcha o'simlik va jonivor, ular mahsulot-larining yangi yig'ilganlarini ishlatishdir.

Gomeopat shifokorlar dori yozishda retsept so'zini ishlatishmaydi. Dori miqdori ko'pincha ko'rsatilmay uni suyultirish darajasi va dori turiga mansubligi ko'rsatiladi.

Gomeopatiyada ishlatiladigan dori kuchlari (konsentratsiya) o'nlik (X yokiD) va yuzlik (S) birliklari bilan ifoda etilib, ular necha marta suyultirishni belgilovchi raqam yoniga qo'yiladi. Masalan: 2x (2 o'nlik), 3x (3 o'nlik), 3s (3 yuzlik) va shu kabi. Bir kecha kunduzda ichish uchun beriladigan gomeopatiya dorilari odatda 5-8 tomchi 3-4 dona granulani tashkil etadi.

⁸Steven B. Kayne Homeopathic Pharmacy: Theory and Practice, (2nd Edition).- NewYork, 2006.-366 pages.

SHifokorning yozadigan dori nomi lotincha bo'lib, dorixonadagi dorilarga yopishtiriladigan yorliq kiritilgan harfi bilan lotin tilida yoziladi. Masalan: Tartarus Emeticus, Mercurius Solyubilis.

Hozirda ma'lumki vitamin V₁₂ ni ayrim kamqonlik kasalligida beriladigan miqdori undagi kobaltning bir grammning milliondan birini tashkil qiladi. Odam tanasidagi hatto o'lchash qiyin bo'lgan miqdordagi mikro-elementlarning tana o'sishi va faoliyatidagi muhim o'rni beqiyosdir. Odam ta-nasida bir kunda ishlab chiqariladigan tireodining miqdori juda ozgina bo'lib, 0,000005g tengdir.

Bu qonuniyatning ya'ni potensiyalashning yuzaga kelishi gomeopatiyada ayrim metallar: oltin, kumush, mis, platina, temir, qo'rg'oshin va shunga o'xshash hamda yog'och ko'miri, qum va shu kabilarni dori-darmon sifatida keng qo'llash imkoniyatini yaratdi. Vaholanki yuqorida keltirilganlar tabiiy holda dorivor modda sifatida ishlatilmaydi.

Ganeman birinchi bo'lib, dori vositalarni oldin sog'lom organizmda sinab ko'rish kerakligini aytgan edi va shu bilan birga dorilar patogenezini topgan edi. Chunki dorining patogenezini xuddi kasal simptomi bilan bir xil bo'ladi, lekin dori patogenezlarida Ganeman qanday odam qiyofasiga-o'xshashligini yozgan.

Gomeopatiyada biologik jihatdan odam konstitutsiyasi ishlatilgan. Odam konstitutsiyasi nimadan iborat. U ijtimoiy va tabiiy sharoitda har xil ta'sir ko'rsatgich omillar ostida paydo bo'lgan odamdagi shaxsiy fiziologik va anatomik xususiyatlar kompleksidir.

Demak gomeopatik davolash usulida odamning konstitutsiyasi, ya'ni uni morfologik, fiziologik va psixika tomonlari o'rganilib hisobga olinishi shart.

Gomeopatiya jihatdan morfologiya nimani ko'rsatadi. Tirik organizmlarning tuzilishini va shaklini o'rganadi.

Fiziologiya – organizmning funksiyalarini o'rganishi yoki odamning xulq atvorini, tabiatini ko'rsatadi.

Psixologiya- ruxiy holatini ko'rsatadi. SHu tufayli kasal qabul qilinganda uni ob'ektiv va sub'ektiv (xolissalo mustaqil ravishda kasalning yaqinlarini va kasalning shaxsiy o'zi aytgan ma'lumotlari katta ahamiyatga ega).

SHunday qilib kasal ustida olgan ma'lumotlarni "Materiya medika"da keltirilgan dorilar patogenezini bilan solishtirgan holda kasalga gomeopatik dori tanlash mumkin. SHu bilan bir qatorda kasalning miyazmasi ham hisobga olinishi kerak, ya'ni bu yunon so'zi bo'lib mhiya-pashsha degani.

Mhiya-pashsha tuxumlari chaqiradigan kasalliklar miyazma-tashqi muhitdan odam organizmiga tushgan yuqumli kasallik tarqatuvchi mikroblardir (marazlar).

Demak, gomeopatik davolash usulini qo'llashda odam konstitutsiyasini hisobga olgan holda kasallarni qaysi dorilar patogeneziga to'g'ri kelishiga qarab turib, ularni uch toifaga bo'lish mumkin: kalkarea fosforika, kalkarea karbonika, kalkarea flyuorika.

SHu uchta guruhlarga mansub odamlar o'ziga xos yuqorida aytganimizdek morfologik va psixologik tomondan xususiyatlarga ega va farq qiladi. YA'ni kasalni toifasiga qarab birinchi konstitutsional dorisi belgilanadi.

Ma'lumki, kasallangan bo'lim sog'lom qismlarga nisbatan har bir narsaga juda sezgirdir, ayniqsa, dorilarga nisbatan. Xuddi shunday kasal ko'z yorug'likka, kasallangan quloq-kattik tovushga, yara-chaqa esa ustiga tegadigan narsalarga va shunga o'xshashlar.

Gomeopatiyada shaxsiy sezgirlikka juda katta ahamiyat beriladi. Har bir odamda nimagadir, qandaydir bir narsaga nisbatan shaxsiy sezgirlik mav-juddir. Buni "idiosinkraziya" deb ataladi. SHularni va gomeopatiyaning "o'x-shashlik" qonunini hisobga olganda o'z-o'zidan yoki kasalga buyuriladigan dori-ning qandaydir bir qismigina davolashga taaluqli va etarli.

Dori vositalari texnologiyastexnologiyasini takomillashtirishning asosiy yo`nalishlari

Gomeopatiyada beriladigan dozalar juda aniq bo'lishi kerak. Bu ham qonu-niyatlardan biri, chunki, ma'lum suyultirishda aniq to'xtalmasa u doridan ta'sir aksini kutish mumkin.

Masalan: taxikardiya kasalligida Kalmia latifolia 3X yuzlik suyultirishda beriladi, bradikardiya esa 6S suyultirishda buyuriladi. Gipotoniya Akonitum napellus 6 S suyultirishda buyurilib, gipertoniya esa 3 x da buyuriladi. Ich qotganda Bryonia alba 6 S, ich ketganda 3x berilishi tavsiya etiladi.

Gomeopatiya bo'yicha davolashda o'ziga xos xususiyatlardan biri buyu-riladigan dorilar dozasi. Bu dozalar allopatiya dozalaridan ancha-muncha, balki tubdan farq qiladi. Biz ilgari eslatib o'tganimizdek, ma'lum bir kasal uchun tanlangan dorining eng shifobaxsh miqdori aniqlanib olinishi shart, bu miqdor optimal ta'sir etuvchi doza (me'yor) deb ataladi.

Optimal doza, ilmiy asos va klinik kuzatishlar yordamida aniqlanishi kerak. Ma'lumki gomeopatiyada kichik, o'rta va yuqori suyultirishlar o'z o'rnini topgan. Ko'rsatilgan suyultirishda qaysi dorini qanchadan berishlik juda katta mahorat talab qiladi.

Gomeopat shifokorlar ko'pincha 1, 3, 6, 12, 18, 24, 30, 100, 200, 1000 hatto 50000 suyultirish darajalardan (shkala) foydalanishadi.

Fransiyalik gomeopat shifokor J. SHarretning yozishicha 1dan 6 gacha bo'lgan suyultirishlar kichik, 6-12 gacha o'rtacha, 18 dan 100gacha yuqori va 100 dan ortiqlari juda yuqori suyultirishlarga kiradi. Uning fikriga ko'ra kasal-likning zo'rikkan chog'ida dorining birlamchi yoki kichik suyultirishdagi, surunkali holatida-o'rtacha yoki juda yuqori suyultirishdagi berish yaxshi natija beradi.

Asab kasalligida yuqori yoki juda yuqori suyultirishlari natijali deb topilgan. Dorilarni iste'mol qilish muxlati va vaqti ham turlichadir.

Misol: bemorning kasalini zo'riqqan davrida dori tez-tez (har soatda), surunkali kasalda bir kunda 1-2 marta beriladi.

Gomeopatik davolash usulida dorini to'g'ri ravishda tanlash, uni dozasi, qanchadan va necha marotaba qabul qilinishini topish eng muhim muammo bo'lib kelmoqda.

Ko'p tajribalar natijasida yangi R. Fol usuli, Z. Gabovich diagnostikasi va boshqalari amaliy ravishda qo'llanilyapti. Tibbiyot markazi "S Velen" qoshidagi Rossiya-AQSH korxonasida ishlab chiqarilgan, "PELAD" nomli elektropunktura diagnostik pribori bor. Har bir dorivor o'simliklardan olingan gomeopat vositalarning spektral-to'lqinli xususiyatlari mikro-kompyuter xotirasiga kiritilib, shu kunda 2047 preparat to'g'risida ma'lumot bor.

Gomeopat-shifokor Fol usulini ishlatgan holda qo'l va tovondagi akupunktura nuqtalarga bosib ko'rib "apparat-kasal" knopka orqali dori vositasini tanlay. Test qilinayotgan dorilar bilan kasal organizmi alohida to'lqinlar yordamida bog'lanadi, chatishtiriladi va salbiy yoki ijobiy organizmni reaksiyasi priborni indikatorida ko'rinadi.

Organizmga ta'siri ijobiy belgilangan dori priborini kompyuter xotirasiga o'tkaziladi. Bitta emas bir necha dori vositalari ijobiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Keyin shu dorilarni potensiyasini gomeopat belgilaydi va oldindan tayyorlab qo'yilgan bo'lsa, o'sha zaxoti bemorga beriladi.

Gabovich elektropunktura diagnostika usuli "Test" apparatida olib boriladi, uning yordamida organizmning har bir a'zosini ishi funksiyasi yoziladi, ma'lumot olinadi va keyin shu a'zoni qaysi gomeopatning dorisiga sezgirligi topiladi. Apparat orqali faqat gomeopatik dori emas, balki oziq-ovqat, kosmetika va taqinchoqlarga ham munosabatini ko'rsatadi. 15-20 minut ichida yurak, nafas, oshqozon va alohida ishi to'g'risida ma'lumot gomeopatik preparatlarini dozasi belgilanadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Gomeopatik dori preparatlarini dinamikatsiyalash
2. Materiya medikadagi gomeopatik dinamikatsiyalangan dori vositalari texnologiyastexnologiyasi
3. Dori vositalari texnologiyastexnologiyasini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

ADABIYOTLAR:

- 1.Тихонов А.И. и др. Основі гомеопатической фармации.-Харьков.-Золотіє страниці.-2002.-574 с.
- 2.Тихонов А.И., ЯрніхТ.Г. Технология лекарств.-Харьков.- 2002-704 с
- 3.Назирова З.Н. Гомеопатия.-Тошкент. 2001 й
4. Махмуджанова К.С., Назарова З.А., Туреева Г.М. Махсус дори турлари технологияси . Тошкент 2009й.- 163 б
5. Loyd V. Allen, Jr.,Nicholas G. Popovich, Howard C. Ansel.Ansel's Pharmaceutical Dosage Forms andDrug Delivery Systems.- New York: Lippincott Williams &Wilkins, 2011.- P.722
6. Steven B. Kayne Homeopathic Pharmacy: Theory and Practice, (2nd Edition).- NewYork, 2006.-366 pages.

9-MAVZU: GOMEOPATIYADA QO'LLANILADIGAN NOZODLAR VA SARKORDLAR GURUHLARI VA ISHLATILISHI

Reja:

1. Gomeopatiyada qo'llaniladigan nozodlar va sarkordlarning ta'rifi, tasnifi, guruhlari.
2. Nozod va sarkord preparatlarining ishlab chiqarilish
3. Nozod va sarkord preparatlarining zamonaviy nomenklaturasi


Tayanch so'z va iboralar: gomeopatiya, Ganeman, tinktura, potensiyalsh, dinamizasiyalash, kompleks ta'sirli gomeopatik preparatlar, nozod va sarkordpreparatlari

Asosiy matn

Gomeopatiyada qo'llaniladigan nozodlar va sarkordlarning ta'rifi, tasnifi, guruhlari.

Nozodlar – bu gameopatik qoidasi bo'yicha tayyorlangan, potensiyalangan preparat bo'lib, ularning tayyorlashda kasallikni steril mahsuloti ishlatiladi. Potologik sekretlar, o'lgan mikroblar...)

Nozod bilan davolash va kasallikni oldini olish mumkin.



1. **Getero nodozodlar** - boshqa odamdan yoki hayvondan olingan potologik moddalardan yoki toza mikroblardan tayyorlangan nozodlar. Izoterapevtik prinsipi-kasallikni zo'ziniki emas, shu kasallik bilan kasallangan boshqa odamdan olingan modda bilan davolash.

Misol qilib, vaksinatsiya (privivkalar) ni olish mumkin (difteriya vakcina) nozodlarni ishlatish bezarar, lekin natijali bo'ladi, nozodlar o'xshashlik qonuniga to'g'ri keladi, lekin ular bir xil emas va aynan ushbu o'xshashligi bilan davolash prinsipi ajralib turadi.

1856 yil Ganeman ishlari asosida izopatiya borligi, yani nozodlar davolashni uchinchi turi deb topishgan. (Allopatiya, gameopatiya, izopatiya).

Oxirgi 10 yil ichida nozodlar antitaksin va antibakterial terapiyada muhim o'rinni egalladi. Nozodlar ishlatilganda organizmni qo'shimcha toksin nogruzkasini ko'paytirmasligi kerak.

Aniq sindromga organizmni o'ziga xos himoyalovchi reaksiyasini oshirish uchun informatsiyani nozodlar etkazib berishi kerak. Nozodlar yordamida organizmni himoyalovchi kuchlari jarohatlangan a'zo va to'qimalarga o'ziga xos yo'naltiriladi.

SHunday qilib, nozodlar ham lokal (mahalliy) ham konstitutsional ta'siri bo'lib, ular yig'indisi holati vujudga keladi.

Autonozodlar-ular patsientining o'z-o'zini kasallik mahsulotidan tayyorlanadi, shuning uchun ular yumshoqroq va xavfsizliroqdir. (geteronozodga ko'ra).

Birinchi nozod Ganemanning o'quvchisi shogirdi amerikalik shifokor Konstantin Gering tomonidan tayyorlangan.

U qo'tirning vazikulasidan olgan va **psorium** deb atalgan. Keyinchalik sil-tuberkulinum, karsinozium-o'sma hujayralaridan, medorinum-gonareya kasalligi suyuqligidan va boshqalardan paydo bo'lgan. Gameopatiya amaliyotida nozodlar to'g'ridan-to'g'ri kasallik mahsulotlaridan tayyorlanmaydi. Avval sinalgan preparatlar ishlatiladi.

Nozodlarni ishlatilishi bugungi kunda oxirigacha o'rganilmagan, shuning uchun gameopatik davolash usulini yuqori darajada egallagan shifokor nozodlarni ham buyurishi mumkin.

Nozodlar texnologiyasida olinadigan dastlabki materiallarga gomeopatik qonuni va qoidalari asosida ishlov beriladi. Va albatta sterillangan bo'lishi kerak. Demak, mikroblar, viruslar, potologik sekretlar, privivka uchun preparatlar va zardoblar, potologik a'zo va to'qimalar boshqa mikroorganizmlarni saqlamaydi.

Demak, nozodlar-infeksion bo'lmagan materiallardan tayyorlangan preparatlardir.

Nozod-oqsil fragment bo'lib, o'xshashlik prinsipi asosida organizmning o'ziga xos himoyalovchi reaksiyasini faollashtiradi va potologik jarayonni netrallashga yo'naltirilgan.

Izopatiya autonomozod preparatni qo'llash.

U patsinetni qoni yoki kasallik metarialidan tayyorlanadi "Autovaksinatsiya"ga o'xshash. Masalan, surunkali furunkulyozda autovaksina va o'zini qoni ishlatiladi (autogemoterapiya deyiladi).

Spetsifik antigenlar patsientda himoyalovchi antitola hosil qiladi.

Emlashdan farqi-havfsizdir.

Bilish kerakki, odamning oqsili o'zining maxsus tuzilishiga ega va bitta odamdan tayyorlangan nozod boshqasiga o'xshaydi, lekin, bir xil emas. Demak, o'xshashlik asosidagi terapiya samaraliroq, bir xildan ko'ra.

Ganeman vafotidan so'ng 1856 yil uning asarlari chop etilgan va unda nozodlar bilan davolashni Ganeman "Davolashning uchinchi turi" deb keltirgan, ya'ni allopatiya, gomeopatiya bilan bir qatorda.

Oxirgi 10 yillardan nozodlar toksinga qarshi va antibakterial terapiyada muhim o'rinda turibdi.

Asosiy masala-organizmda gamotoksinlar miqdori oshib ketmasligi uchun, nozodlar to'g'ri tayyorlanishi lozim. Nozodlar faqat ma'lumotni etkazib turib organizmni spetsifik himoyalovchi reaksiyasini ko'tarib turish kerak. Chunki, jarohatlangan a'zo yoki to'qima kerakli miqdorda himoyalovchi omillari yo'q. Nozodlar bilan davolashdan avval gomeopatik preparatlar bemorga beriladi, yoki nozod bilan birga drenaj qilish maqsadida, masalan sumfur yodatumi, fitolakka. Misol, tariqasida hozir keng tarqalgan sistopielonefritni keltirish mumkin. Antibiotik va antibakterial preparatlar bilan davolanadi. Lekin, kasallik butunlay tuzalib ketmasdan, qaytarilib turadi. (retsitiv) yana dorilarni nojo'ya ta'siri ham bor. Bitta buyrak olib tashlansa va davolashni allaopatik dorilar bilan davom ettirilsa bu ham o'limga olib keladi.

Gomeopatik va nozodlar pielonefritda yordam beradi. Ularga nozod pielonefrit gameopatik preparati chimaphila umbelatta yoki clematis recta beriladi.

Avval davolash kursi bir necha hafta bo'ladi, keyin dozasi kamaytirib davolash bir necha oydan so'ng qaytariladi.

Nozodlar bo'lish mumkin:

-spetsifik, carcinoma coli

-keng spektrli (mozok iz zeva)

Nozodlarni asosiy ishlatishi bo'yicha ko'rsatmalar:

1. Profilaktik va davolash uchun kasallikni etiologiyasini hisobga olgan holda (oilada epidemiya yoki ishda M.gripp epidemiyasi yoki gepatit kasal bilan kontaktda bo'lganda).

2. O'xshashlik qoidasi asosida qo'llanish;

3. Retrospektiv etiologik diagnostikani hisobga olib, ya'ni anamnezida, avval bo'lgan kasalliklari olingan.

4. Surunkali kasalliklarni remissiyasi paytida;

5. EAF diagnostika natijalari asosida (elektroakupunktura Folya)

Nazodlar bo'linadi:

1. Kompleks (M.nozod adenoma, mamme (D12, D30,2200

-injell (nutte) turi;

-forte turi;

2. Birluk potensiyalar nozodi

D6; D12; D30; D200;

Gameopatik preparatlarni qo'llanish bo'yicha umumiy qoidalar nozodlarga ham tegishli.

YUqori potensiyalar D12 dan yuqorisi;

- sezgirlik oshganda;

- diatezda;
- allergiyada;
- surunkali kasalliklarda.

Past potensiyalar (D6 gacha)

-o'tkir kasalliklarda bir a'zoga ta'sir etish uchun nozodlar qariyalar va holsiz kasallar terapiyasida ishlatilmaydi. Hamda asab tizimi kasallikda.

Nozoddan ineksiyalar haftada 1 marotaba qilinadi, chunki birlamchi reaksiyasini chaqiradi. Kasallikni o'tkir fazasida nozodlar qo'llanmaydi (reaksiyasi kuchli bo'lishi mumkin).

Xulosa qilib shuni aytganda, nozodlar odam organizmdan kasallikni kechirgandan so'ng mezenximiyada absorbiqlangan toksinlarni chiqaradi.

Nozodlarni ishlatish prinsiplari:

1. Simptomi bir xilligida. (o'xshashlik qonuni asosida)
2. Anamnez-etimologiyasi bir xilligida (eski kasalligi tuzalgan to'yilib o'tkir yoki o'tkir oldi infeksiyon kasalliklar har xil asoratlarini bartaraf qilish eng ko'p ushbu prinsip bo'yicha nozodlar qo'llaniladi. Masalan, nozod Diphtherinum kasalni oldini olishgina emas, balki, kasaldan keyingi asoratlarini (miokardni bo'shashini miokardit va b), nozod Salmonella typhi-markaziy asab tizimi kasalliklari asoratini (uyquchanlik, apatiya, tremor va bosh.) va enterokolitlar kasalligida ishlatiladi.

Boshqa misollar keltirish mumkin.

3. Aktual etimologiyasi o'xshashligida. Bu-o'tkir kasallikni rivojlanish bosqichida, uning diagnozi aniq va uni chaqiruvchi bakteriologik mikrobi bor masalan, streptokokk angina).

4. Kasallikni oxirgi etapida-o'xshashlik aniq.

SHu to'g'risida I.Metsger (1977 y.) shunday degan: "Nozodlar-o'tkazilgan kasallikdan so'ng organizmni tiklash uchun eng yaxshi vosita, chunki mezenximiyada ishlatilgan toksinlarni chaqirib tashlanishida yordam beradi.

Bunday holat boshqa o'tkir infeksiyon kasalliklar:

Skarlatina, difteriya suv chechak, gripp, qizamiq, qizilcha va b. taluqlikdir.

5. Desensibilizatsiyalash uchun (dezallergizatsiyalash). Bu holatda allergeo-anafilatik nozod preparatlari; ovum, serum ovile, Tetanus-antitaksin ishlatiladi. YUqori potensiyadan pastiga o'tiladi. Nazod preparatlarini ishlatilishi ayniqsa ketma-ketlikdagi autogemoterapiyada samaralidir.

demak, antibakterial preparatlarni ishlatilishida eng samaralisi-bu nozodlarni qo'llanishdadir.

6. Davolashga organizm reaksiyasi etarli bo'lmasa.

7. Elektropunkturali diagnostika va testlarni natijalari bo'yicha.

Nozodlar standard gameopatik vositasiz ishlatilmaydi, chunki kasallikni zo'rayishiga olib keladi.

Nozodlarning ishlatilish asosiy sharoitlari (holati)

1. Terapiyani yonida ishlatuvchi vosita bo'lishi, ayniqsa, agar nozodlar past potensiyada ishlatilsa;
2. A'zo va to'qimalarga tozalovchi (drenaj) ta'sirli preparatlar ishlatilsa, ular toksinlarni yuvib chiqaradi.
3. Potensiyalangan organopreparatlarni ishlatilish drenaj vosita samarasini oshiradi va xujayra ishini tiklaydi.
4. CHiqaruvchi a'zolar (buyrak, jigar, o't pufagi, ichak, o'pka, teri) ishni oshirib normallashtiradigan preparatlar qo'llanishi;
5. Ko'p suyuqlik ichishi (revmatoid poliartrit, bronxial astma va b).

Sarkodlarni ta'rifi, tavsifi

A'zo spetsifik preparatlar – bu sarkodlar, ya'ni yosh xayvonlardan olingan turli xil soglom a'zo va tukimalar ajratmasi (gameopatik),xujayra komponentlari bilan (ularjigar,buyrak,qon,bosh miya,bezlar ajratmasi) bir qatordabog'lovchi to'qima va boshqalar saqlaydi. Ayrim organospesifik preparatlar o'zining allopatik analoglari bor,ular klinika amaliyotida biogen stimulyatorlar sifatida qullaniladi. Masalan, steklovidnoetelo,rumalon,silenin,plazmol,raveron, solkoseril, serebrolizin, lidaza, mimozin va boshqalar.

Gomepatik organopreparatlar potensiyalangan va allopatik analoglaridan farqi birinchidan ular nojo‘ya reaksiyalar chaqirmaydi, masalan; serebrozilin raveronlar texnologiyasida konservant sifatida fenol eritmasi qo‘llaniladi, u esa dorini geterogenligini oshiradi.

Organospesifik preparatlar asosan surunkali kasalliklarda ishlatiladi.

Sarkod so‘zi grek so‘zidan olingan bo‘lib “onalik” manosida kelib davolash vositasi sifatida o‘simlik emas faqat hayvon protoplazmasidan iborat.

Gomeopatiyada sarkodlarga shunday dorilar kiradiki, ular asosan sog‘lom endokrin bezlaridan tayyorlangan va ularning chiqaradigan suyuqlaridan, hamda odam va hayvonlar chikaruvchi suyuqliklardan tashkil topgan.

Sarkodlar-bu gomeopatik yaxshi sinalgan vositadir: adrenalinum, xolesterinum, insulinum, pankreotinum, pepsinum, treodinum, felvulpis va boshqalar.

Ishlatiladigan substansiyalar;

-Ichki sekretiya bezlari (ya‘ni endokrin bezlari) butunligicha.

-Odam va hayvon endokrin bezlari sog‘lom sekreti.

-Hayvon to‘qimalari maxsuloti.

-Hayvonlarni sog‘lom a‘zolari.

Butun endokrin bezlar sarkodlari:

-Adrenalinum –adrenalin (endokrin) buyrak usti chiqaruvchi garmon.

-Kortisonum-kortizon, kristal xolatdagi steroid garmon, odamning buyrak usti moddasidan olinadi.

-Adrenokortiktikotropinum-polipeptid garmon, gipofiz bezi chiqaradi u buyrak usti bezi ishini nazoratlaydi.

Ansidiyum-oshqozon osti bezidan chiqaradigan garmon u qand almashinuviga javobgar.

Pepsinum-pepsin, oshqozon shirasining ovqat xazm qiluvchi ferment, u oqsillarni parchalanishiga javobgar bo‘lib, cho‘chqa oshqozonidan tayyorlanadi.

Ekstraktlardan olinadigan sarkodlar.

-Orxitum -(urug‘dondan olinadi);

-Ophorimum- (qo‘y yoki sigir urg‘ochisidan);

-Paekreatinum-(sigir, buqa oshqozon osti bezidan olinadi, unda ovqat xazm qiluvchi ferment bor.)

Boshqa sarkodlar.

-Xolestirinum- hayvonlarning asosiy steroidi.

-Feltauri- bqaning yangi safrosi.

-Felvulpis-tulkining yangi safrosi.

Sarkodlar organopatik vosita bulib aniq a‘zoga ta‘sir etadi, qaysi sog‘lom a‘zodan olingan bulsa yoki tayyorlangan bo‘lsa sarkod aynan shu a‘zoga ta‘sir etadi va o‘sha a‘zoni stimullaydi, faollashtiradi.

Masalan:

-Pepsinum- qobon yoki cho‘chqa oshqozonidan ekstraktlanadi va u ovqat xazm bulishi buzilishida yordam beradi.

- Pankreotinum- u oshqozon osti bezlar kasallanganda yordam beradi.

Sarkodlar – gomeopatik vosita sifatida kam o‘rganilgan lekin: barcha sarkodlar chuqur ta‘sir etuvchi doridir ular organotrop vosita bo‘lib, aniq bir a‘zoni faoliyatini buzilishidagi simptomlariga ta‘sir etadi.

-Lak-S, Lak-a, Lak-v sutdan tayyorlangan sarkodlar aynan sutni iste‘molidan kelib chiqqan yomon xolatlarda yordam beradi;

-“Plaunta GI “ organopreparati platsentadan tayyorlangan, tug‘ruq xolatlarini yaxshilaydi xamda moddalar almashinuvini yaxshilaydi va immunostimullovchi ta‘sir ko‘rsatadi. Platsenta faqat muavffaqiyatli tugagan tug‘ruq xolatlaridan olinadi.

-Rak xolatlarida ham sarkodlar ishlatiladi.

Sarkodlarning tasnifi

1. Organopreparatlar -a‘zo to‘qimalarini saklaydi;

2. Tuqimali preparatlar- bitta to'qima xujayralarini saqlashi mumkin (mushak preparati);
3. Xujayrali preparatlar-a'zo dastlabki material uning komponentlari, bu ajratilgan xujayralar (M: Trombotsitlar, leykotsitlar, limfotsitlar, eritrotsitlar, osteoblastlar konsentratlari);
4. Xujayra organellalari- mitoxondrit, lizosim, ribosim konsentratlari ular ultratsentrifugalash yo'li bilan olinadi;
5. Xujayralar komponentlari- katta kichikligi xar-xil bo'lgan xujayra komponentlari saqlovchi preparatlar.
6. A'zo ,to'qima va xujayra ekstraktlari-qorataloq bezlari ekstraktlari misolida;
7. A'zoldan olingan gidrolizat-gidrolitik yo'li bilan olingan;
8. Filtratlar va ultrafiltratlar suyuq va susenziyalardan qattiq komponentlari ajratilgan xolatda olingan;
9. A'zolar sekreti-organizmni a'zo va to'qimalari suyuqliklaridan olingan preparatlar;
10. Zardoblar – qoning zardobini yoki alohida fraksiyalarini saqlovchi preparatlar;
11. Mikroblarning preparatlari;
12. Ferment preparatlari (aloxida a'zodan olingan yoki ularning aralashmasi).

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Gomeopatiyada qo'llaniladigan nozodlar va sarkordlarning ta'rifi, tasnifi, guruhlari.
2. Nozod va sarkord preparatlarining ishlab chiqarilish
3. Nozod va sarkord preparatlarining zamonaviy nomenklaturas

ADABIYOTLAR:

1. Тихонова.И. идр. Основі гомеопатической фармації.-Харьков.-Золотіє страниці.-2002.-574 с.
2. Тихонова.И., ЯрніхТ.Г. Технология лекарств.-Харьков.- 2002-704 с
3. Назиров З.Н. Гомеопатия.-Тошкент. 2001 й
4. Махмуджанова К.С., Назарова З.А., Туреева Г.М. Махсус дори турлари технологияси . Тошкент 2009й.- 163 б
5. Loyd V. Allen, Jr., Nicholas G. Popovich, Howard C. Ansel. Ansel's Pharmaceutical Dosage Forms and Drug Delivery Systems.- New York: Lippincott Williams & Wilkins, 2011.- P.722
6. Steven B. Kayne Homeopathic Pharmacy: Theory and Practice, (2nd Edition).- New York, 2006.-366 pages.

10-MAVZU: GOMEOPATIK PREPARATLARINI TURLI KASALLIKLARDA QO'LLASH ASOSLARI

Reja:

1. Gomeopatiyada qo'llaniladigan katalitik preparatlarning ta'rifi, tasnifi, guruhlari.
2. Kompleks gomeopatik preparatlarining ishlab chiqarilish texnologiyasi.
3. Kompleks gomeopatik preparatlarining zamonaviy nomenklaturasi.

Tayanch so'z va iboralar: gomeopatiya, Ganeman, tinktura, tomchilr, grnilalar, potensiyalsh, dinamizasiyalash, katalitik preparatlar, Kompleks gomeopatik preparatlar.

Asosiy matn

Gomeopatik dorilarni aloxida terapevtik sistemada ishlatiladigandan ayirib ko'rilishi mumkin emas. Alternativ meditsinani eng bir tarkalgan turidir. Ilmiy asosini Xristian Fridrix Samuil Ganeman (1775-1843) yaratgan.

Gomeopatik dorilarni ta'siri hozirgi zamon tadqiqotlari asosida informatsion bo'lib, suvning kvazikristallik strukturasi samarasiga bog'liq. Natijada organizmni o'z-o'zini boshqarish funksiyasi amalga oshadi. SHuning uchun kasallikni diagnozini belgilash asosiy ahamiyatga ega. Klassik an'anaviy diagnostikadan gomeopatik diagnoz qo'yish – bu kasallikni emas, balki kasal odamdagi psixik va

fiziologik o'zgarishlar bog'lami ifodasidir. Gomeopatik diagnoz – bu birinchi o'rinda bitta gomeopatik dorini tanlash, qachonqi uning patogenezida bemorga topilgan psixik, vegetativ va somatik simtomlar belgilari bo'lganda. Demak, gomeopatik dori patogenezini – bu bemorning organizmini faoliyatini buzilishi modeli deb hisoblasa bo'ladi.

Diagnoz qo'yishni ikki xil usuli bor:

1. qisqa, shifokor katta tajribaga ega bo'lsa, u kasal kirib kelishidayoq kasalini aniqlay oladi;
2. uzoq bo'lib, diagnozi simptomlar lug'ati yordamida (repertorium) aniqlanadi.

Masalan, Dj. T. Kent repertoriumi asosida aniqlagan. SHu bilan birga gomeopat – shifokorlar amaliyotida 2-3 oddiy gomeopatik dori vositalari ishlatilishi tabiiy bo'lib qoldi.

Ularni ketma – ketlikda, yoki bittasini berib turib undan keyin boshqasini, shunday belgilanishi kompleks gomeopatik dorini aynan ushbu tarkibli berilishdan farqi yo'q.

Kompleks gomeopatik preparatlarni tuzilishi bo'yicha quyidagi xolatlar hisobga olinadi:

1. Dorilarni ta'siri bitta emas, balki xar xil a'zo va to'qimalarga tarqalganlari qo'shib tayyorlanadi.
2. Dorilarni ta'siri bir xil a'zo va to'qimalarga , lekin xar xil ta'sir etadiganlari.
3. Dorilarni patogenezini juda bir-biriga yaqin bo'lsa, unday dorivor moddalardan kompleks gomeopatik preparatlar tayyorlanmaydi.

Gomeopatik vositalarining dozalari monopreparat va kompleks dorilar uchun bir xil. Barcha kompleks gomeopatik preparatlar albatta Davlat qaydomasidan o'tadi va reg. Udostovereniya nomeri bo'ladi.

Kompleks gomeopatik preparatlar nomenklaturasi.

1. Xeel (Germaniya) firmasi. Birinchi bo'lib nemets shifokori va olim X.X.Regeveg tomonidan tashkil topgan.

2. Farmatsevtik jahon konserni Veleda (25 filiali bor). Kosmetik preparatlarini ham chiqaradi.

3. AQSH firmasi Bob Uolsh Enterprayzis, ink 11 kompl.prep. chiqaradi.

4. Labor Buaron Fransiya firmasi 10 prep. CHikaradi

5. Nemets gomeopat Soyuz (Germaniya) V. SHvabe tashkil etgan – ular asosan Ganeman retseptlari asosida kompleks gomeopat preparatlar ishlab chiqaradi (Rossiyada 6 tasi qayd etilgan)

6. Materiya Medika Rossiya firmasida 26 ta preparat o'z nomlari bilan chiqadi, asosan hammasini tarkibi 3 ta komponentdan iborat.

7. Rixard Bittner Avstriya firmasi.

8. Jahon Edas konserni.

9. OOO Gomeopat farmatsiya Sank – Peterburg va Rossiya qo'shma firma

10. NPO Vilar Rossiyani Sandra preparati va boshqalar.

Kompleks gomeopat preparatlar mustaqil ravishda bemor tomonidan ist'emol qilingani uchun ularning tarkibini ahamiyati bor.

Kompleks gomeopat preparatlar yordamida xar xil kasalliklarni davolanishi

I. O'RK va gripp. Kasallikni boshlanish davrida ratsional terapiyani o'tkazish gomeopatiya usulini afzalligidir. Tixonovdan nomlari va tarkibi ko'rilida; antigrippin, Sandra, Edas – 103, Edas – 307 , Aflubin, Kold, Gripp – Xell, tarkibida asosan brioniya, ipekakuana, lobeliya, drozera, evkaliptus, sabadilla, tartarus.

II. Immunomodulyatorlar. Antigrippin, paragripp, Kold, Sandra, Aflubin, gripp – xell, Inflyudo i Inflyusid, Edas – 103, Edas – 104, 117,125, 126, 307, 308. Exinatseya – kompozitum. Tarkibida exinatseya, fosfor, silitsealar imun tizimini mustahkamlaydi.

III. Konstitutsional vositalardan bolalar amaliyotida diatezni tuxtatadi. Qariyalar amaliyotida chesnok granulasi, Voizraston, Zolotoy yodlar sklerozga qarshi ta'sir ko'rsatadi. SHu jumladan: Ledum surtmasi, Edas – 402, Edas – 119 lar qabul qilinadi.

IV. Psixika buzilishida. Uspokoy, Antistress, Kardioika, Nuks – Vomika GOMak Kord juda ish bilan band bo'lgan erkaklar uchun Edos – 306, Valeriana xel – Tajang bolalarga.

- V. Alkogol va tabak chekish muammolarida. Atsidum S, antialkogol va Edas 121, Anti E (etanol v potensii 1000 s) nuks vomika gomakkord, proproten 100,tabakga qarshi stop smokium, tabakum.
- VI. Uyqusizlikka qarshi. Nevroxel, Klimaktoplan, Feminalgin, Uspokoy , Vernison, Son, Insomniya, Edas 111.
- VII. Gormonal buzilishda. Antiklimaks, Klimakson, Klimaktoplan, Klimat – Xel, Mastodinon, Edas 101.

Kasalliklarni o‘xshashlik prinsini asosida davolash bu ushbu xolatni echimidir.

Bu xolatni tushinishi uchun oddiy bir misolni Ganeman keltirgan.

odam organizmiga issiq va sovuqni ta’siri . Agar sovuq olgan qo‘l issiq suvga solinsa qo‘l darrov msitdi(bu birlamchi reaksiya) Lekin undan keyin 2nchi reaksiyag‘ qarama qarshisi bo‘ladi, chunki issiq suvga solingan qo‘l sovuq otadi,suvdan chikargandan so‘ng.

Agar o‘xshashlik prinsipi asosida, sovuq shok xolat vujudga keladi, keyin esa qo‘l isib ketadi bu ximoyalash reaksiyasidir.

Kompleks gomeopatik preparatlarini shakllari.

In‘ellar (inject)- injection- so‘zidan olingan –bu ineksion preparatlar, tarkibida bitta ingradient, lekin bir necha suyultirishda bo‘ladi. M. , Belladonna Injekt bitta ampulada D10, D30, D200, D1000 beladonnaning suyultirishlari bor.

Aralash- in‘el preparatlar bittadan ko‘proq ingradientlar bor .

Gomakordlar- ta’siri oddiy va kuchaytirilgan preparatlar. Bular ineksion va peroral dorilar tarkibida 2, 3 potensiyali har xil preparatlarni saqlashi mumkin. Belladonna Homokard tarkibida Belladonna Echinacae bor. Maxsus gomeopatik preparatlar -5 dan 30gacha nomli potensiyalar saqlovchi va patogenez bo‘yicha tuzilgan preparatlar. M. ,traumel, vertigohil, limfomiozot “Heel” firmaniki.

Gomeopatik preparatlarini turli kasalliklarda qo‘llash asoslari.

Hozirgi kunda yildan yilga yangi yangi dorivor preparatlar va tibbiy buyumlar ishlab chiqarilishi ,ilg‘or tibbiyot texnologiyalar yaratilishi, shuningdek diagnostika va davolash ishlari takomillashtirilishi kasalliklarni foizini kamaytirishi kerak edi. Lekin aholini sog‘lig‘ini ko‘rsatkichlari xali ham past darajada, o‘lish xolati oshmoqda, ayniqsa surunkali kasalliklarfoizi oshib bormoqda. Ishga yaroqsiz odamlar soni kasalligi tufayli ko‘payib bormoqda.

O‘z davrida Gippokrat kasalni daraxt bilan solishtirib, shunday degan ekan:”daraxtni ildizi bu kasallikni ildizi bo‘lsa, shoxlari uning natijasi “. SH.U.Gippokratni fikricha kasallikni ikki tomonlama davolash lozim ,ham ildizini (o‘xshashlik qonuni asosida) ham shoxlarini (allopatik qarama –qarshi qoidasi) asosida.

Organizm bu- bir butun ekan ,demak davolashni kompleks sifatida bajarilishi ,hech qanday nojo‘ya ta’sirlar bo‘lmasligi uchun.

Gomeopatik vositalari kasal organizmiga yumshoq, chuqur normalashtiruvchi ta’sir etib, ichki gomeostazni mo‘‘tadillashtiradi va kasalni tuzalib ketishiga yordam beradi . Bu jarayon uzoq vaqtni talab qiladi.

Gomeopatiyada ishlatiladigan asosiy dorivor moddalar ,o‘simliklar va ularni qaysi kasalliklarda buyurilishi Z.N. Nazirovni o‘quv qo‘llanmasida (Toshkent , Abu ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyotida 2001 yyu chiqqan, 63-94 b keltirilgan.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Gomeopatiyada qo‘llaniladigan katalitik preparatlarning ta’rifi, tasnifi, guruhlari.
2. Kompleks gomeopatikpreparatlarining ishlab chiqarilish texnologiyasi.
3. Kompleks gomeopatikpreparatlarining zamonaviy nomenklaturasi.

ADABIYOTLAR:

- 1.Тихонова.И. идр. Основігомеопатическойфармации.-Харьков.-Золотіестраниці.-2002.-574 с.
- 2.Тихонова.И., ЯрніхТ.Г. Технология лекарств.-Харьков.- 2002-704 с
- 3.Назирова З.Н. Гомеопатия.-Тошкент. 2001 й

4. Махмуджанова К.С., Назарова З.А., Туреева Г.М. Махсус дори турлари технологияси . Тошкент 2009й.- 163 б
5. Loyd V. Allen, Jr., Nicholas G. Popovich, Howard C. Ansel. Ansel's Pharmaceutical Dosage Forms and Drug Delivery Systems.- New York: Lippincott Williams & Wilkins, 2011.- P.722
6. Steven B. Kayne Homeopathic Pharmacy: Theory and Practice, (2nd Edition).- New York, 2006.-366 pages.

1. MA'RUZA MASHG'ULOTLARI

(2 semestr)

Ma'ruza 11

MAVZU: VETERINARIYA PREPARATLARINI ISHLAB CHIQRISH TARIXI, ZAMONAVIY XOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. VETERINARIYA PREPARATLARI TASNIFI, TA'RIFI VA ZAMONAVIY NOMENKLATURASI

Reja:

1. Veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan dorilar ta'rifi, tasnifi
2. Veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan preparatlarning tavsifi, ta'rifi va dozalari.
3. Veterinariyada ishlatiladigan дори turlarini o'ziga xosligi. Veterinar dorilarni dozalash
4. Veterinariya farmatsiyaning tarixi, zamonaviy xolati va rivojlanish istiqbollari.
5. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan дори preparatlar texnologiyasining o'ziga xosligi.

Tayanch so'z va iboralar: veterinariya, veterinar farmatsiya, zamonaviy veterinariya дори preparatlari nomenklaturasi

Asosiy matn

Veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan dorilar ta'rifi, tasnifi

Veterinar farmatsiya farmatsevtik fanining bir maxsus sohasi bo'lib, hayvonlarning jismoniy, anatomiya, fiziologiya tuzilishi o'ziga xos bo'lishlarini xisobga olgan xolida mustaqil ravishda rivojlangan.

Veterinariyada ishlatiladigan дори turlari maxsus dorixonalarda, ba'zan meditsina dorixonalarida tayyorlanadi.

Bu дори turlarining retseptlari veterinariya vrachlari va feldsherlari tomonidan yozilib, ular ham tibbiyot retseptlariga qo'yiladigan talablarga javob berishi kerak. Retseptda kasal bo'lgan hayvon haqida ma'lumot, turi, laqabi, yoshi bo'lishi lozim. Veterinariyada ishlatiladigan дори turlari, ularning tarkibidagi dorivor va yordamchi moddalar va tayyorlanishi odatdagi дори turlari texnologiyasidan hech qanday farq qilmaydi. Faqat ba'zi дори turlarining hajmi, miqdori ko'p bo'ladi (masalan, bolyuslar-0.5-50.0g, shamchalar 200.0 g gacha) Qo'shimcha moddalar sifatida javdar uni va ko'pincha dorilar ta'mi va xidini yaxshilovchi moddalar qo'shiladi.

Veterinariyada qo'llaniladigan dorilar ko'proq dozada berilishi va ayrim o'ziga xos дори turlarga ega bo'lishi bilan ajralib turadi.

Masalan, bo'tqalar, bolyuslar degan дори turlari ishlatiladi. Veterinariyada ishlatiladigan дори turlari quyidagicha tasniflanadi:

1. Qattiq дори turlari
2. YUmshoq дори turlari
3. Suyuq дори turlari.

Qattiq дори turlariga kukunlar, yig'malar, tabletkalar, xab dorilar, bolyuslar kiradi.

YUmshoq дори turlariga bo'tqalar, surtmalar, linimentlar kiradi.

Suyuq дори turlariga eritmalar, elimshaklar, emulsiyalar va suspenziyalar kiradi.

Veterinariyada ishlatiladigan дори turlarini o'ziga xosligi. Veterinar dorilarni dozalash

X DFda zaharli, kuchli ta'sir etuvchi va ayrim keng qo'llaniladigan dorilarning ot, sigir, qo'y, it, tovuqlar uchun bir martalik dozalari keltirilgan.

Hayvonning turiga ko'ra dorivor moddaning dozasini sanab chiqarilishi quyidagi jadval orqali bajariladi:⁹

Otning vazni 400 kg deb olinib, dorivor moddalar nisbati qo'llaniladi.

Hayvonlar	Vazni, kg	Dozasi
Qoramol	300-350	1-1/5
Eshak	150-200	1/3-1/2
Qo'y	32-50	1/5-1/6
CHo'chqa	50	1/5-1/6
It	10-12	1/10-1/16
Mushuk	2-2.5	1/20-1/32
Qushlar	2	1/20-1/40

Dozasi ikkita son bo'yicha keltirib: birinchisi minimal (keng qo'llanadi; ikkinchisi-maksimal doza. Ular urg'ochilar uchun, qo'chqorlar uchun esa 10-25% yuqori bo'ladi.

Lekin ushbu hisob-kitob barcha dorivor vositalarga to'g'ri kelavermaydi, chunki hayvonlardagi dorilarga sezgirligi turlicha .

Masalan, qoramol kalomelga sezgir, lekin kalomelga cho'chqalarning sezgirligi past. Mushuklar yurak glikozidalariga valeriana nastoykasiga, fenilsalitsilat, fenolga sezgir bo'lsa, apomorfinni sezmaydilar.

Qushlar juda natriy xloridga sezgir bo'lsa, lekin strixninga sezgirligi kam.

Dorivor moddaning ta'sir etish kuchi bir xil dozada bo'lsa ham, hayvonning yoshiga qarab har xil bo'ladi. Ot va qoramol 3-4 yoshda rivojlangan bo'lsa, cho'chqalarniki 2-3 yoshda bo'ladi. Har xil yoshdagi ot va qoramollarga dori moddalarni belgilanishi quyidagicha:

	Qoramol yoshi	Dori modda	Ot, yoshi	Dori modda
	3 dan 8gacha	1	3 dan 12gacha	1
	8dan 12gacha	$\frac{3}{4}$	12dan 20 gacha	$\frac{3}{4}$
	13 dan 15 gacha	$\frac{1}{2}$	20 dan 25gacha	$\frac{1}{2}$
	1 dan 2gacha	$\frac{1}{4}$	1dan 2gacha	1/12

№	Buzoqcha, yoshi	Dori modda	Toycha, yoshi	Dori modda
1	4 dan 8oygacha	1/8	1 dan 6 oygacha	1/24
2	1dan 4 oygacha	1/16	12dan 20 gacha	3/4

Dorivor moddaning organizmga yuborish yo'li bo'yicha dozasini nisbati:

Og'iz orqali	1	Mushak ichiga	1/3-1/4
Rektal	3/2-2	Venaga	$\frac{1}{4}$
Teri ostiga	1/3-1/2	Traxeya orqali	$\frac{1}{4}$

Veterinariyada dorilarni ishlatishda o'ziga xos usuldan foydalaniladi, ya'ni tayyor dorilar hayvonlar yaxshi ko'radigan ozuqalariga qo'shib beriladi. Masalan, ot va qoramollar osh tuzini, qo'y va echkilar achchiq moddalarni, it va cho'chqalar shirinliklarni, mushuklar valerianani yaxshi ko'radilar. Odatda cho'chqalar uchun bo'tqa eng yaxshi dori turi hisoblanadi.

Qush va uy hayvonlari (it, mushuk) uchun xab dorilar, otlar uchun bolyuslar qo'llaniladi.

⁹Steven B. Kayne, Michael H. Jepson Veterinary Pharmacy.- New York Pharmaceutical Pr., 2004.-676 pages.

Veterinariyada ishlatiladigan dorilar bilan tibbiyotda ishlatiladigan dorilarning umumiy va farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlari:

Umumiyliigi:

- dorivor moddalarning xillari va sifati;
- dorilar dorixonada tayyorlanishi;
- yoshi ko'rsatilib retsept yozilishi va X DF da dozalari ko'rsatilgani;
- texnologiyasi;
- quyidagi dori turlari ishlatilishi: poroshoklar, yig'malar, suyuqliklar (ichki va tashqi uchun ishlatiladigan), in'eksiya uchun eritmalar, granula, pilyulya, bolyuslar, plastirlar, shamcha va sharchalar, ingalyasiya, surtmalar, yuvish uchun eritmalar va boshqalar.
- ta'm va xidlarni yaxshilash uchun korrigentlar qo'llanilishi.

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dori preparatlar texnologiyasining o'ziga xosligi.

1. Tibbiyotda juda kam qo'llaniladigan dorivor moddalar ishlatilishi:

-qo'rg'oshin sulfidi (PbS₄) (poroshok, pilyulya, bolyuslarda balg'am ko'chiruvchi sifatida qo'llaniladi);

-temir kuporosi (FeSH₄) ich ketarda burushtiruvchi, dezinfeksiyalash uchun ishlatiladi);

-to'rta xlorli uglerod (SSl₄). Jelatin kapsulada beriladi. Gijjaga qarshi ishlatiladigan vosita;

-oltingugurt, kerosin-qo'tirga qarshi;

-air ildizi, ukrop, qora zira va arpabadiyon urug'lari (sut haydovchi vositalar);

-Na₂SH₄ (glauber tuzi) ich qotganda, ichburug'da ishlatiladi;

-xloralgidrat (xuqna orqali yuborilib) ot va yirik qoramollarni uxlatish uchun ishlatiladi;

-qora moy, kreolin, ko'k sovun, terpentin qitiqlovchi sifatida qo'llaniladi.

2. X DFda 3-4 yoshdagi ot uchun bir martalik dozalar keltirilgan;

3. Veterinariyada ishlatiladigan dori moddalarning dozasini tanlash uchun retseptda xayvonlar turi, og'irligi, jinsi, yoshi, jismoniy va morfologik xolati, dorini turi va yuborish usuli ko'rsatilgan bo'lishi (misol uchun, qushlarga 2.0 g gacha berilsa, otlarga 500ggacha bir martaga mo'ljallangan bo'ladi):

4. Tabletkalar kam ishlatilishi, rektal dori turlaridan ko'proq xuqna, shamchalar, suyuq dorilardan-kolloid eritmalar, emulsiyalar va osilmalar ishlatishi:

5. Bolyuslar 50.0g, shamcha va sharchalar 20.0 g gacha bo'lishi;

6. Veterinariya amaliyotida ko'proq uchraydigan dori turlari: bo'tqalar, yig'malar, dozalarga bo'linmagan poroshoklar, klizmalar, in'eksiyalar.

7. Keng korrigentlar ishlatilishi, xayvonlarning nimalarni yaxshi ko'rishini hisobga olgan xolda. Masalan, ot va yirik qora mollar osh tuzini, qo'y va echkilar –achchiq moddalarni, it va cho'chqalar shirinliklarni (shakar, asal, glitserin, chuchukmiya ildizi). Har xil noxush xidlar arpabadiyon, koritsa, yalpiz, efir moylari yordamida yaxshilanadi.

8. Keyin bir xil dorivor moddalar albatta xar xil dori turlarida berilishi, chunki hayvonlar organizmida ovqat hazm qilish a'zolari turli xil tuzilishga ega. Masalan, itlarga dorini toza xolatda berilsa u qayt qilib tashlaydi, agar ovqatga arashtirib berilsa qusmaydi. Otlarga dorini suyuq yoki qattiq xolatda berilishi katta ahamiyatga ega. Mushuklar poroshok xolatdagi dorilarni yoqtirmaydi va shunga o'xshashlar.

Veterinariyada ishlatiladigan dori moddalarning dozalari hayvonlar turi, og'irligi, jinsi, yoshi, jismoniy va morfologik xolati, dorini yuborish usuli va boshqa sharoitlarga bog'liq.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Veterinariya farmatsiyaning tarixi, zamonaviy xolati va rivojlanish istiqbollari.
2. Veterinariya amaliyotiida qo'llaniladigan preparatlarning tavsifi, ta'rifi va dozalari. Zamonaviy veterinariya dori preparatlari nomenklaturasi.
3. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dori preparatlar texnologiyasining o'ziga xosligi.

ADABIYOTLAR:

1. Maxkamov S.M., Maxmudjonova K.S. Tayyor dori turlari texnologiyasi. Toshkent. 2010. B. 367. (darslik).
2. Тихонов А.И., Ярніх Т.Г. Технология лекарств.-Харьков, 2002-704 с.
3. Чуешов В.И. Промішленна технология лекарств. - Харьков, 2002.-Т.2.- 761 с.
4. Александров И.Д., Субботин В.М. Справочник по технологии приготовления лекарственных форм: для ветеринарного врача и фермера. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2001. -192 с.
5. Синёв Д.И., Марченко Л.Г., Синёва Т.Д. Справочное пособие по аптечной технологии лекарств.-С.Петербург, 2001.-316 с.
6. Loyd V. Allen, Jr.,Nicholas G. Popovich, Howard C. Ansel.Ansel's Pharmaceutical Dosage Forms and Drug Delivery Systems.-New York: Lippincott Williams &Wilkins, 2011.- P.722
7. Saxton J., Gregory P.Textbook of Veterinary Homeopathy.-New York, 2005.-320 pages.
8. Steven B. Kayne, Michael H. Jepson Veterinary Pharmacy.- New York Pharmaceutical Pr., 2004.- 676 pages.

Ma'ruza 12

MAVZU: VETERINARIYA AMALIYOTIDA ISHLATILADIGAN QATTIQ DORI TURLARI TEXNOLOGIYASI

Reja:

1. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qattiq dori turlarining tavsifi va texnologiyasining o'ziga xosligi.
2. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan poroshoklar, dustlar, yig`malar, briketlar, granular, tabletkalar, drajelar, kapsulalar, xab dorilar, bolyuslar texnologiyasi.

Tayanch so'z va iboralar: veterinariya, veterinar farmtsiy, zamonaviy veterinariya dori preparatlari nomenklaturasi, poroshoklar, dustlar, yig`malar, briketlar, granular, tabletkalar, drajelar, kapsulalar, xab dorilar, bolyuslar.

Asosiy matn

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qattiq dori turlari texnologiyasi

Poroshoklar (Pulvis, -eris, -eres) – ichish yoki sirtga ishlatish uchun mo'ljallangan, bir yoki bir nechta maydalangan, sochiluvchan xossaga ega dorivor kukunlardan tashkil topgan qattiq dori turi.

Kukun holida turli dori moddalar berilishi mumkin. Kukun holida gigroskopik xossaga ega dori moddalar (kaltsiy xlorid, kaliy atsetat va b.), shuningdek aralashtirilganida bo'kuvchan massa yoki suyuqlik hosil qiladigan moddalar (antipirin va xinin), oson parachalanadigan (organik moddalar bilan aralashtirilgan kumush nitrat) yoki portlovchi moddalar berilmaydi.

Tarkibi bo'yicha poroshoklar oddiy (Pulveres simplices), bir nomdagi dori moddalardan tashkil topgan yoki murakkab (Pulveres compositi), ikki va undan ko'p moddalardan tashkil topgan, dozalarga bo'lingan (Pulveres divisi) yoki bo'linmagan (Pulveres non divisi) tasniflanadi. Poroshoklar tarkibiga kiradigan dori va yordamchi moddalarni mexanik usulda maydalaydilar (tegirmonda, xovonchada), to'zg'itib, cho'ktirib, bug'latib va boshqa usullar yordamida oladilar.

Poroshoklarning maydalik darajasi teshigining diametri aniq bo'lgan elaklardan elanishi bo'yicha quyidagilarga farqlanadi:

- o'ta maydalangan poroshoklar (Pulveres subtilissimi) - elak №1 (teshigining diametri 0,12 mm),
- maydalangan poroshoklar (Pulveres subtiles) - elak №2 (teshigining diametri 0,15 mm),
- o'rta mayda poroshoklar (Pulveres tenues) - elak №3 (teshigining diametri 0,19 mm),
- o'rta yirik poroshoklar (Pulveres modici) - elak №4 (teshigining diametri 0,33 mm),
- yirik (dat'al) poroshoklar (Pulveres grossi) - elak №5 (teshigining diametri 0,60 mm),

- o'ta yirik poroshoklar (Pulveres grossissimi) - elak №6 (teshigining diametri 3 mm).¹⁰

Hayvonlar uchun beriladigan dozalangan poroshok massasi 0,2 g dan kam emas va 20,0-25,0 g ko'p emas bo'lishi lozim.

Agar poroshoklar tarkibida zaharli va kuchli ta'sir etuvchi moddalar 0,1 g massadan kam miqdorda berilgan bo'lsa, bunda poroshoklar tarkibiga o'rtacha massani ko'paytirish uchun indifferent moddalar (qand va b.) qo'shiladi (1:10 - 1:100 miqdorda), o'simlik xom ashyosidan tayyorlanadigan poroshoklar tarkibiga indifferent moddalar, agar ularning massasi 0,05 g dan kam bo'lsa.

Poroshoklarni berilishi. Poroshoklar bo'linmagan (Pulveres non divisi) va bo'lingan holda beriladi.

Misol 1.: Sigir uchun tarkibida 200 g natriy xlorid va 400 g natriy sulfat berilsin.

Rp.: Natrii chloridi 200,0

Natrii sulfatis 400,0

M.f. pulvis

D.S. Ichish uchun kuniga 2 mahal

1 osh qoshiqdan em bilan birga beriladi.

Misol 2.: Tarkibida 3 g ammoniy xlorid va 2 g natriy gidrokarbonat saqlovchi 10 ta poroshok berilsin.

Rp.: Ammonii chloridi 3,0

Natrii hydrocarbonatis 2,0

M. fiat pulvis

D.t.d №10

S. Ichish uchun 1 poroshokdan kuniga 2 mahal

Misol 3.: Buzoqchaga 4 levomitsetin poroshogi 0,5 g dan berilsin.

Rp.: Laevomycetini 0,5

D.t.d. N4

S. Ichish uchun 1 poroshokdan kuniga 2 mahal.

O'simlik xom ashyosidan tayyorlanadigan poroshoklar Pulveris (poroshok) so'zidan boshlanadi, so'ng o'simlik xom ashyosi keltiriladi, masalan, Pulveris radice Rhei va uning dozasi keltiriladi.

Misol 4.: It uchun 12 poroshok rovoch ildizidan 0,5 g dan beriladi.

Rp.: Pulveris radice Rhei 0,5

D.t.d. № 12

S. Ichish uchun 1 poroshokdan kuniga 3 mahal.

Poroshoklar umumiy qoidalar bo'yicha tayyorlanadi.

Poroshoklarni tayyorlash uchun tarkibda keltirilgan dori moddalar bir hil aralashtiriladi. Bunda 5,0 g gacha bo'lgan dori moddalar qo'l torozida tortib olinadi. qavonchada maydalab olish uchun unga 1/6 – 1/10 hajmgacha dori moddalar solinadi. Qiyin maydalanadigan dori moddalarni (kamfora, mentol, timol, fenilsalitsilat) maydalashda ularga 1 g dori moddaga 10-15 tomchi 95% li etil spirti qo'shiladi.

Murakkab tarkibli poroshoklarni tayyorlashda quyidagi tartibda qo'shiladi: bir hil fizik-kimyoviy xossaga ega moddalar retseptda keltirilgan tartibda qo'shiladi, agar xossalari har xil bo'lsa, dastlab yirik, so'ng mayda kristallik, so'ng engil uchuvchan moddalar ohirida qo'shiladi; murakkab poroshoklarda maydalash oldin xovoncha teshiklar ko'p miqdorda berilgan moddalar bilan berkitiladi, so'ng maydalash kam miqdorda berilgan, so'ng ko'p miqdorda berilgan dori moddalar qo'shiladi. Bo'yovchi, o'tkir hidli va uchuvchan moddalardan poroshoklar tayyorlash uchun alohida toroz va xovonchadan foydalanish zarur. Bunda bo'yovchi modda boshqa bo'yamaydigan dori moddalar o'rtasiga olib maydalanadi. Poroshoklar tarkibida beriladigan efir moylari maydalangan dori moddalar ustiga ohirida qo'shiladi.¹⁰

Tayyorlangan poroshoklarni dozalariga bo'lish uchun qo'l torozi yoki DVA-1,5; TK-3; DPR-2 va boshqa turdagi dozatorlar yordamida amalga oshiriladi.

Fufanon (malation) – sin. Novaktion, Karbofos

Fyuri (zeta-sipermetrin) – sin. Tarzan,

Simbush (sipermetrin) - sin. **Arrivo, Siperon, Sipi, Sitkor, Sitrin, SHarpey, SHerpa**

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfektsiyalovchi, antiseptik, insektitsid-akaritsid preparatlar texnologiyasi.

2. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfektsiyalovchi, antiseptik, insektitsid-akaritsid preparatlar texnologiyasining o'ziga xosligi va ularni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar va yordamchi moddalar ta'rifi.

ADABIYOTLAR:

9. Maxkamov S.M., Maxmudjonova K.S. Tayyor dori turlari texnologiyasi. Toshkent. 2010. B. 367. (darslik).

10. Тихонов А.И., Ярніх Т.Г. Технология лекарств.-Харьков, 2002-704 с.

11. Чуешов В.И. Промішленная технология лекарств. - Харьков, 2002.-Т.2.- 761 с.

12. Александров И.Д., Субботин В.М. Справочник по технологии приготовления лекарственных форм: для ветеринарного врача и фермера. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2001. -192 с.

13. Синёв Д.И., Марченко Л.Г., Синёва Т.Д. Справочное пособие по аптечной технологии лекарств.-С.Петербург, 2001.-316 с.

14. Loyd V. Allen, Jr., Nicholas G. Popovich, Howard C. Ansel. Ansel's Pharmaceutical Dosage Forms and Drug Delivery Systems.-New York: Lippincott Williams & Wilkins, 2011.- P.722

15. Saxton J., Gregory P. Textbook of Veterinary Homeopathy.-New York, 2005.-320 pages.

16. Steven B. Kayne, Michael H. Jepson Veterinary Pharmacy.- New York Pharmaceutical Pr., 2004.- 676 pages.

Ma'ruza 17

MAVZU: VETERINARIYA AMALIYOTIDA ISHLATILADIGAN PERMIKSLAR TEXNOLOGIYASI

Reja:

1. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan premikslar texnologiyasi

2. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan premikslarni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar va yordamchi moddalar ta'rifi.

Tayanch so'z va iboralar: veterinariya, veterinar farmtsiy, zamonaviy veterinariya dori preparatlari nomenklaturasi, premikslar

Asosiy matn

Premiks atamasilotin tilida «prae» - olg'a, dastlab va «micseo» - aralashtir ma'nosini bildiraman. Premikslar mikrobiologik yoki kimyoviy sintez usulida olingan biologik faol qo'shimchalar bo'lib, ilmiy asoslangan tarkiblarga asoslangan holda tuziladi.. Premikslar em, kombikorm, oqsil-vitaminli oziqaviy qo'shimchalar tarkibiga kiritish uchun mo'ljallangan. Premikslarni yaratishdan asosiy maqsad – oziqaviy maxsulotlarni qiymatini oshirish va yo'naltirilgan holda hayvonlarni maqsadli boyitilgan oziqlantirish.

Premikslar tarkibiga kiruvchi farmakologik faol moddalarga qarab ular quyidagicha tasniflanadilar:

- vitaminli,
- antibiotikli,
- minerali,
- oqsilli
- kompleksli.

Ta'sir qo'rsatishiga qarab premikslar profilaktik va davolovchi bo'ladilar. Premikslar tarkibida ishlatiladigan biologik faol moddalar – vitaminlar, mikroelementlar, aminokislotalar, kimyo-terapevtik preparaty va b. ishlatiladi.

Biologik faol moddalar bilan birga premikslar tarkibiga to'ldiruvchi moddalar - bug'doy, kepak, kunjara, kalsiy karbonat, oqak, mel, drojjilar va boshqa moddalar olinadi.

Premikslar retsepturasi o'ta murakkab bo'lib, hayvonlar uchun hayotiy zarur moddalarga boyitilgan moddalarni qo'shib, hayvonlar turi, yoshi, jinsiga qarab tuziladi, shuningdek premikslar tarkibiga kiruvchi moddalarni kimyoviy va biologik mos kelishi hisobga olinadi.

Premikslar ta'sir mexanizmi tarkibiga kiruvchi moddalar tomonidan belgilanadi:

- To'ldiruvchilar – ushbu yordamchi moddalar biologik faol moddalarni o'z tarkibida ushlab va saqlab turadi. Ushbu moddalar premikslar asosini tashkil etadi, shu sababli uning sifati, maydalik darajasi va biofaol moddani bog'lash xususiyati, mahsulot sifatiga umumiy ta'sir ko'rsatadi.

- Vitaminlar – hayvonlarni umumiy tonusini ko'tarib, fiziologik tizimlar faoliyatini jadallashtiradi (fermentativ, immun va gormonal). Vitaminli va vitamin-minerali premikslarning esa biologik faol moddasi hisoblanadi.

- Mineral moddalar – struktura hosil qiluvchi material hisoblanadi va hayvon skeletini tuzilishida muhim ahamiyatga ega (kalsiy, magniy, jelezo, fosfor, med va x.k.). vitamin-mineral premikslarning biofaol asosini tashkil etadi.

- Aminokislotalar – premikslarni oziqaviy qimmatligini belgilovchi qo'shimcha (Lizin, Metionin, Treonin va b.) hisoblanadi. Ushbu moddalar oziqaviy mahsulotlarda ham bor, biroq em tarkibidan ular sekin hazma bo'lishi hisobiga tahchillik vujudga kelishi kuzatiladi.

Masalan, lizin, don mahsulotlaridan 75-85% o'zlashtiriladi, hayvon oqsillar tarkibidan esa - na 85-95% o'zlashtiriladi, premikslar tarkibida beriladigan biosintetik lizin - 100% ga o'zlashtiriladi.

- Yordamchi moddalar: antioksidantlar, konservantlar, ular mog'or tarqalishini oldini oladi.

- Aromatizatorlar mahsulotni berish uchun qulay va xushtam qiladi, kombikor tashqi ko'rinishini chiroyli qiladi.

Biroq premikslar em yoki kombikorm o'rni bosmaydi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan premikslar texnologiyasi
2. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan premikslarni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar va yordamchi moddalar ta'rifi.

ADABIYOTLAR:

1. Maxkamov S.M., Maxmudjonova K.S. Tayyor dori turlari texnologiyasi. Toshkent. 2010. B. 367. (darslik).
2. Тихонов А.И., Ярних Т.Г. Технология лекарств.-Харьков, 2002-704 с.
3. Чуешов В.И. Промышленная технология лекарств. - Харьков, 2002.-Т.2.- 761 с.
4. Александров И.Д., Субботин В.М. Справочник по технологии приготовления лекарственных форм: для ветеринарного врача и фермера. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2001. -192 с.
5. Синёв Д.И., Марченко Л.Г., Синёва Т.Д. Справочное пособие по аптечной технологии лекарств.-С.Петербург, 2001.-316 с.
6. Loyd V. Allen, Jr.,Nicholas G. Popovich, Howard C. Ansel.Ansel's Pharmaceutical Dosage Forms andDrug Delivery Systems.-New York: Lippincott Williams &Wilkins, 2011.- P.722
7. Saxton J., Gregory P.Textbook of Veterinary Homeopathy.-New York, 2005.-320 pages.
8. Steven B. Kayne, Michael H. JepsonVeterinary Pharmacy.- New York Pharmaceutical Pr., 2004.-676 pages.

Ma'ruza 18

MAVZU: VETERINARIYA AMALIYOTIDA ISHLATILADIGAN GOMEOPATIK PREPARATLAR TEXNOLOGIYASI

Reja:

1. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik preparatlar texnologiyasi va nomenkaturasi.
2. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik preparatlari texnologiyasining o'ziga xosligi va ularni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar va yordamchi moddalar ta'rifi.

Tayanch so'z va iboralar: veterinariya, veterinar farmtsiy, zamonaviy veterinariya dori preparatlari nomenklaturasi, veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik preparatlari texnologiyasi

Asosiy matn

Gomeopatik tabobati hozirgi davrda etarli darajada samarali va xavfsiz davolash usuli bo'lib, u ko'plab bemor va shifokorlarning e'tiborini o'ziga tortdi.

Xar bir dori moddasining fiziologik ta'sirini alohida o'rganiganida quyidagilar hisobga olinadi:

1. Hayvonlarda farmakologik tajribalarda sinalgan dorining natijalari.
2. Kishilarning tasodifiy zaharlanishlaridagi toksikologik kuzatishlar.
3. Bu modda bilan sog'lom odamlarda Ganeman tomonidan o'tkazilgan tajriba natijalari.

o'simlik dorivor moddalar davolash bahosining ketma-ketligi darajasi jixatdan botanik oilalarga bo'linadi.

Ayrim dori vositalari o'rganilmagan bo'lgani uchun, ya'ni gomeopatik farmakodinamikasi o'rganilmaganligi uchun ular kam ishlatiladi.

Adabiyotlarni xamma bo'limlarida va terapevtik ko'rsatkichda kasalliklarning nomi va patogenezi, kasalliklarning belgilari keltirilgan. "Tayyorlash va tayinlash usullari" va "Terapevtik qo'llanilishi" deb nomlangan bo'limlarda dori moddalarni past, o'rta va yuqori darajada suyultirilgan xolda tayinlanadi; amaliyotda bemorlarni davolashda ko'pincha qo'llaniladigan dorilar dozalari qalin bosma xarflar bilan ajratilgan.

Xaqiqiy gomeopatiya qo'llanmalarini tuzuvchilar V. SHvabe gomeopatik farmakopeyasida ko'rsatilgan dori moddalar nomenklaturasiga tayandilar. Gomeopatik dorilarni tayyorlash bizning yurtimizda va chet ellarda hozirgacha shu farmakopeya asosida tayyorlanmoqda. Bu farmakopeya 1872 yilda yozilib, ko'p tillarga tarjima qilingan, xususan, rus tiliga 1899 yil tarjima qilingan. Ganeman bergan nomlar xali xam saqlanib qolgan. Ayrim dori moddalar o'z nomiga mos kelmaydi, lekin ular 1796 yildan boshlab yozib kelingan gomeopatik terapevtik adabiyotga kiritilgan uchun, gomeopatik dorixonalar va davolovchi shifokorlar yanglishmaslik uchun dorilarning qadimgi nomenklaturasiga tayanadilar. Faoliyat ko'rsatayotgan gomeopatik dorixonalarda bemorlarga beriladigan dorilar nomi lotin tilida yoziladi, lekin dori beriladigan idishdagi yorliqlar rus yoki o'zbek tilida yoziladi. Dori moddasining nomi gomeopatik retseptda bosh kelishikda "Recipe" so'zizisiz yoziladi. "Terapevtik qo'llash" degan bo'limda bemorga tavsiya qilingan dorini gomeopatik dorixonadan berilayotganida nomi lotin transkripsiyasi bilan yoziladi va bu lotincha nomlar SHvabe farmakopeyasiga mos kelishi kerak.

Zamonaviy gomeopatiya albatta aniq ilmiy-materialistik asoslarga ega bo'lishi kerak. Gomeopatiya xalq tabobatining ko'plab bo'limlari ichida kerakli o'rinlardan birini egallashi zarur.

"Gomeopatiya" (yunonchada: homiois - o'xshashlik, pathos davolash) termini o'sha davrdan to hozirgi davrgacha o'z nomini saqlab qolgan. Uning aksi "alopatiya" (allos qarshilik, patos davolash) bo'lib, bu terminni xam Ganeman kiritgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida professor Zlatorovich boshchiligida Ganeman va uning o'quvchilari tomonidan tekshirilgan va tadbiiq qilingan dori moddalarini qayta sinash ishlari olib boriladi. Venada Zlakovich boshchiligida Avstriyalik sinovchi tabiblarning jamiyati tashkil qilinadi. Buning natijasi Ganeman ilmining foydasiga deb topildi.

Ganemanning yuqoridagi tajribalaridan kelib chiqqan xulosalardan gomeopatlar va allopatlarning davolashidagi farqlarini ko'rish mumkin. Agar bemorning oshqozoni yallig'langan bo'lsa, allopat

tinchlantiruvchi dorilar bilan davolaydi, gomeopat esa yallig‘lantiruvchi dorilar bilan, lekin juda kam miqdorda. Gomeopatiyaning prinsipi tabiiy kasallik va dori ta’sirida chaqirilgan kasallik bir-biriga o‘xshashligi bo‘yicha mos kelishi kerak.

Gomeopatiya Leypsig universitetining professori nemets olimi Samuel Fridrix Ganeman (1755-1843) tomonidan tibbiyotda yangi davolash yunalishi sifatida paydo bo‘lgan. Ganeman Saksoniyada 1755 yilda tug‘ilgan, u juda kobiliyatli, bilimga tashnalik bilan qiziqadigan sinchkov bola bo‘lgan. U Sokrat, Dioskorid, Paratsels, Galen, Ibn Sinoning yaratgan ijodlarini o‘rganib DMning ishlatilishida konuniyat borligini topadi.

Gomeopatiya dorilari sog‘lom odamda katta dozalarda sinalganda, u dori qaysi kasallik belgilarini paydo kilsa, o‘sha kasallikni aynan shu dori bilan davolashga asoslangan. U “o‘xshashlik” qonunini shunga asosan yaratdi. Gipokrat va boshqa qadimgi olimlar shu o‘xshashlik konuniyatini kursatib ketganlarini, xozirgi zamonaviy sharoitda xam takrorlanyapti. Misol tarikasida kon almashtirish autogemoterapiya, vaksinoterapiya, emlash va boshqalarni keltirish mumkin. Ganeman 100ga yaqin dorivor moddalarni o‘zida va o‘zi xoxlovchi talabalarida sinagan. Katta /lekin zaxarlanmaydigan / dozalarda soglom kishilarga berib, ularda sodir bulgan yoki boshqa suz bilan aytganda birinchi marotaba dorilar patogenezini tuzgan. Ma’lumki kasalning simptomi patogenezi bo‘ladi, lekin dorivor moddalarning o‘ziga xos ta’siri bo‘lishi va Ganeman dorilar patogenezi deb atashi yangilik bo‘lgan. Agar DM katta dozada sog‘lom odamda kasallik chaqirsa, shu DM kichik dozada davolash gomeopatiyaning I prinsipi, asosi bo‘lib konunlashtirilgan, II-chi konuni juda kichik dozalar ishlatilishi mumkin, kancha DM mayda bo‘lsa tez so‘rilib, tez ta’sir kuchini ko‘rsatadi. Ganeman o‘z tajribalari ostida topgan, kasal organizmi DMning katta dozalariga juda kuchli xozir javob, yallig‘lanishi, qitig‘lanishi bo‘ladi. SHu tufayli Ganeman DM dozalarini kichik dozadan olib pasaytirib, davolash dozasini minimal mikrodozaga tushirgan.

Gomeopatiya davolash tizimining prinsiplaridan, ya’ni asoslaridan biri-bu potensiyalash yoki dinamizatsiyalash. Potensiyalash gomeopatik dorilarining texnologiyasi bilan bog‘liq bo‘ladi va u dorining shifobaxsh ta’sirini oshirishga qaratilgan. SHifobaxsh ta’sirini oshirib dori davolovchi kuchga ega bo‘lishi uchun uni ko‘p marta suyultirish ham chayqatish yoki maydalab ishqalash kerak, yani kuch sarflash lozim. Ganeman g‘oyalariga ko‘ar qancha dori modda ko‘proq suyultirilgan bo‘lsa, shuncha ta’sir etish kuchiga ega bo‘ladi.

Demak I nazariyaga ham etib keldik. Har bir suyultirish chayqatish, yoki ezib aralashtirish jarayonida sarflangan energiya ajralishi oqibatida doridagi yashirin saqlangan energiyasi ajralib dorining davolovchi kuchini ta’minlaydi. Bu esa bemorning ichki buzilgan muvozanatini tiklab, o‘zining fiziologik himoyalovchi kuchlarini oshirishga qaratilgan. CHunki kasallikning asosiy chaqiruvchi omillaridan biri-bu ichki muvozanatni buzilishi oqibatida, odamning tabiiy faoliyati susayadi va gomeopatik potensiyalangan dori moddaning ta’siri esa aynan shu jarayonni faollashtiradi.

Gomeopatiyada dori turlarini tayyorlash davridagi muxlatga katta e’tibor berishlik bejis emas, chunki eritmalarni tayyorlashda 10 marta kuchli chayqatish, trituratsiyalarni havonchada tayyorlashda 1 soat talab qilinadi. Bunday mehnat va muddat davomida dorivor moddalardagi o‘ziga xos yashirin kuchning yuzaga chiqishi hisobiga dori ta’sir kuchining yanada jo‘shqinlanib oshishiga olib keladi. Bu jarayonni gomeopatiyada potensiyalash va dina-mizatsiyalash deyilib, bular xisobiga kichik dozalardan foydalanish qonuni paydo bo‘ladi. 1800-chi yilda tajribalar asosida paydo bo‘lgan bu qonun yuzasidan Ganeman “eritmalarni bir necha marta qattiq chayqatish yoki qattiq moddalardan zarrachalarga aylantirishda nafaqat bir xil aralashma va zarrachalar hosil qilibgina qolmay balki ularga yangi ta’sir sifati bag‘ishlaydi” degan edi. Bunga bir necha misollar qatorida osh tuzini misolga keltirib, odam kundalik iste’iol qiladigan va undan ko‘proq miq- dordagisining deyarlik xech qanday terapevtik ta’siri yo‘qligi, lekin uning gomeopatik dozadagisining ta’siri borligini keltiradi.

II nazariya bo‘yicha gomeopatik davolash usulining ilmiy asosii organizmdagi biologik interferensiya xodisasiga o‘xshatilgan Slutskiy N.I. SHunday dori modda topilishi lozimki, sog‘lom odamda, kasalning belgilariga o‘xshash belgilar paydo qilsin va kichik dozada bor bemorga «ta’sirini ko‘rsatsin» deb yozgan.

III nazariya bo‘yicha -1995 yil V.N.Sorokinning ilmiy asoslari quyidagicha:

dori moddaning molekulasining protonlari suvning molekulasiga o'tadi. SHuning bilan barcha dori molekulasining tasnifiy xossalari erituvchi molekulasiga o'tadi, shunday qilib gomeopatik dori vositalaring faolligi namoyon bo'ladi.¹³

Gomeopatik dorilarni suyultirish shkalasi

O'nlik shkalasi	YUzlik shkalasi
1x-----1/10	1. -----1/100
2x-----1/100	2. -----1/10000
3x-----1/1000	3. -----1/1000000
4x-----1/10000	4. -----1/100000000
5x-----1/100000	5. -----1/10000000000
6x-----1/1000000	
7x-----1/10000000	
8x-----1/100000000	
9x-----1/1000000000	
10x----- 1/10000000000	

Turli dori moddalardan suyultirishlar tayyorlash

A. Suyuqliklar /eritma, essensiya, tinktura/ dan suyultirish yo'li bilan dori tayyorlash.

Buning uchun idish xajmi 1/2-1/3 qismida bo'sh bo'lishi kerak.

Dori nomi va suyultirish darajasi idish va tiqinda ko'rsatilishi kerak.

Misollar asosida o'nlik va yuzlik suyultirishlar keltiriladi.

Xar doim suyultirish o'n marta /qattiq/ kuchli aralashtirish yo'li bilan olib boriladi.

Xar ikki xil suyultirishda 2-o'nlik va 2-yuzliklar 45% spirt yordamida suyultiriladi.

B. Trituratsiyalar /poroshoklarni/ tayyorlash farmakopeyaning 7-bandi bo'yicha tayyorlaniladi.

V. Trituratsiyalardan suyuqliklar tayyorlash. Buning uchun 3 S tayyorlangan poroshok olinib, 79q. suv 20q. 90% spirt qo'shib 10 marta chayqatiladi 4 S 5 S ni tayyorlash uchun 4S dan Iq. olib 99q. 45% spirt olinadi, qolganlari 6S, 7S xam 45% spirtida suyultiriladi.

Bulardan so'ng granulalar, tabletkalar, yumshoq dori turlari tayyorlash, sirtga ishlatiladigan spirtlarni tayyorlash usullari.

Gomeopatik suvli va suv-spirтли eritmalar texnologiyasi

Gomeopatiyada ishlatiladigan eritmalar va potensiyalarni tayyorlashda sanitariya qoidalariga talablariga muvofiq mikrobiologik tozaligiga javob berishi shart. /X1 DF ning 2 qism, 193 bet/.

Suyuq moddalarni suyultirish qoidalari. Suyuq birlamchi moddalarni (eritmalar, essensiyalar, tinkturalar) suyultirilishi quyosh nuri tushmaydigan, qorong'i xonada amalga oshiriladi. Suyultirish uchun ishlatiladigan idishlarning hajmi suyultiriladigan modda hajmidan 1/2-1/3 marta katta bo'lishi kerak. Dorining nomi va suyultirilishi tiqinda hamda idishning yorlig'ida ko'rsatilgan bo'lishi lozim. YUzlik suyultirishda raqam oldiga "S" xarfi, o'nlik suyultirishda esa raqam oldiga "D" xarfi qo'yiladi. Katta hajmdagi suyultirishlar og'irlik vazni bo'yicha olib boriladi, kichik hajmdagi suyultirishlar tomchilab qo'shiladi.

a) o'nlik shkala uchun :

Suyultirish belgilari ko'rsatiladigan idishlar D1 dan D30 gacha bir qator terib qo'yiladi, so'ng D2 boshlab 9 qism xususiy maqolada keltirilgan suyultiruvchi modda (masalan 45% etil spirti) solib chiqiladi, so'ngra maxsus bandlar bo'yicha suyultirish jarayoni olib boriladi. Bunda har bir idish 10 marta qattiq tepadan pastga chayqatiladi, so'ng xosil bo'lgan eritmadan bir qismi boshqa idishlarga o'tkaziladi va xokazo.

b) YUzlik shkala uchun:

¹³Saxton J., Gregory P. Textbook of Veterinary Homeopathy.- New York, 2005.-320 pages

Dorilarning nomi yozilgan idishlar S1 dan S30gacha bir qator stolga terib qo'yiladi, S2dan boshlab menzurka yordamida idishlarga 99 qism suyultiruvchi modda qo'shib chiqiladi, so'ng bandlarda keltirilgan bo'yicha birinchi idishga bir qism modda va 99 qism erituvchi (suyultiruvchi) modda solib 10 marta tepadan pastga chayqatib, hosil bo'lgan eritmadan bir qismi keyingi idishga o'tkaziladi. SHu tarzda suyultirish davom etadi.

Gomeopatik essensiyalar texnologiyasi

Ganeman o'zining davolash usuli bilan bir qatorda gomeopatik dorilarni tayyorlash usullarini ham yaratgan.

Gomeopatik dori turlari yangi yig'ib olingan va quritilgan o'simliklar, xayvonot olamidani olingan va mineral moddalar yoki kimyoviy birikmalardan tayyorlanadi. Dorixonalarda essensiya, tinktura, eritma, trituratsiyalar tayyorlanib, ular aniq dorivor modda saqlaydi, ulardan keyinchalik qonun-qoidalar asosida suyultirishlar oboriladi.

Essensiyalar - bu yangi uzib olingan dorivor o'simliklardan, ularning tarkibidagi sharbatini miqdoriga bog'liq bo'lgan xolda SHvabe farmakopeyasi asosida 3 ta /1,2,3/ bandlar bo'yicha tayyorlanadi. O'simlik tarkibidagi sharbat miqdori bir necha omillarga, ya'ni:

- o'simlikni o'sayotgan joyi;
- yig'ib-terib olingan yilning fasli;
- yomg'irgarchilik bo'lgani yoki yo'qligi va boshqalarga bog'liqligi aniqdir.

SHuning uchun gomeopatiya amaliyotida dorivor birlik deb o'simlikdan siqib olingan sharbat xisoblanadi.

1-chi band bo'yicha o'simlikda sharbat miqdori 60% yoki undan ko'p bo'lsa essensiyalar quyidagicha tayyorlanadi.

Bunday o'simliklar o'z tarkibida smola, efir moylari va kamfora birikmalarini saqlamaydi va maydalab press orqali siqqanda 60% va undan xam ko'proq sharbat beradi. Essensiya tayyorlash uchun: mayda qilib maydalangan va bo'tqaga aylantirilgan o'simlikni press yordamida eziladi va sharbatni olinadi. Olingan sharbatga 90% etil spirti teng miqdorda qo'shiladi va qattiq aralastirilib, cho'kish uchun qo'yib qo'yiladi. 8 kun o'tgandan so'ng essensiya filtrlanadi va tiniq bo'lishi kerak.

2-chi band bo'yicha o'simlikdagi sharbat miqdori 60%dan kam bo'lsa essensiya quyidagicha tayyorlanadi.

Bunday o'simlikda ham smola, efir moylari va kamfora birikmalarini saqlamaydi. Maydalab press orqali siqqanda 60%dan kam sharbat beradi. SHuning uchun oldin o'simlikdagi sharbat miqdori aniqlanadi. SHarbat miqdorini aniqlash uchun birinchi qilib 100-105⁰S xaroratdagi maydalangan o'simlik massasini namlik darajasi aniqlanadi /a/. Ikkinchi qilib o'simlikdan siqib olingan sharbatni filtrlab 100⁰S xaroratdagi quruq qoldig'i topiladi /b/. Topilgan ko'rsatkichlar formulaga qo'yiladi va sharbatni miqdori aniqlanadi.

Demak,

$$X = \frac{100 \times a}{100 - b}$$

Ayrim o'simliklarning maydalangan massasida shilimshiq ko'p bo'ladi va chiqqan sharbat miqdori juda kam bo'lsa, aniqlanayotgan o'simlik miqdoriga teng qilib suv qo'shiladi va tez, qattiq chayqatilib 24 soatga qoldiriladi, keyin filtrlanadi. Filtrlangan sharbatida 100⁰S xarorat bo'yicha quruq qoldiq aniqlanib /s/, sharbat miqdori quyidagi formula orqali topiladi:

$$X = \frac{100 \times (a+s)}{100 - s}$$

Endi maydalab olingan o'simlik tortiladi va uning yarmicha 90%li spirt bilan namlab, yana maydalaniladi va quyuuq bo'tqaga aylantiriladi. Keyin sharbat massasiga teng miqdorgacha 90%li spirt qo'shib aralastiriladi va 8-14 kunga matsratsiya uchun qo'yiladi. Massani siqib og'zi yaxshi jips bekiladigan idishga solinadi va 8 kunga salqin joyga tindirish uchun qo'yiladi, keyin filtrlanadi. Dorivor moddani miqdori 1/2 ga teng bo'ladi.

O'simlikdagi sharbat 60%dan kam va sharbat smola, efir moyi va kamfora birikmalarini saqlasa, essensiya quyidagicha tayyorlanadi.

Maydalangan o'simlikni quyqasimon massaga aylantirib tortiladi unga 90%li spirt miqdorining yarmicha solinadi va yaxshilab aralashtirib bo'tqa xosil qilinadi. SHarbatning miqdori aniqlangandan so'ng, uning miqdoriga ikki barobar ko'p 90%li spirt solinadi, aralashtirib uni 8-14 kunga matseratsiya uchun qo'yib qo'yiladi. Keyin suyuqlik joyi quyilib olinadi, massa esa yana press yordamida siqiladi va bu ikkala suyuqliklar qo'shib 8 kunga salqin joyda tindiriladi va filtrlanadi. Essensiya tiniq bo'lishi kerak.

Gomeopatik tinkturalar texnologiyasi

4 band bo'yicha spirtli nastoykalarini quritilgan o'simlik va yangi xayvonot to'qimalaridan tayyorlanishi, 2 kunlik matseratsiya yo'li bilan va keyingi perkolyasiya usulini qo'llab tayyorlanadi. Buning uchun quritilgan o'simliklar dag'al poroshok xolatigacha maydalanadi. Undan, 1 qism olib ustiga 10 qism etil spirti (konsentratsiyasi o'simlikka bog'liq bo'lib farmakopeyada ko'rsatilgan) solinadi.

Nastoykalar tiniq rangli suyuqliklar bo'lib, spirt va suv yoki spirt bilan efir aralashmasi yordamida o'simlik, kamroq xayvon xom ashyolaridan olinadi. Bu gomeopatik tinkturalarni olish uchun xom ashyolarni maxsus ishlash yo'li bilan ajratmalar tayyorlanib, tindiriladi. Tinkturalar tarkibida dorivor moddaning miqdori 1:10 ga teng. Gomeopatiya farmakopeyasining 4-nchi bandi bo'yicha bir qism quritilgan o'simlik yoki tirik to'qimaga 10 q spirt qo'shib tinktura tayyorlash. Buning uchun 1 q maydalangan maxsulotga uning yarim miqdorida spirt qo'shib, aralashtirib, og'zi jips berkiladigan idishda, tez-tez aralashtirib 2 kunga qoldiriladi. So'ng perkolyatorga joylab kerakligicha spirt solib, xar daqiqada 20 tomchidan tushiriladi va tayyor maxsulot 1/10 nisbatiga to'g'ri bo'lguncha yig'iladi. Mabodo perkolyatorga tinkturani olish iloji bo'lmasa matseratsiya usulidan foydalaniladi. Buning uchun 1 q maydalangan o'simlik 10 q bilan aralashtirib 16⁰S da 8 kunga qoldiriladi, xar kuni aralashtirib turiladi. So'ng suyuq qism ajratiladi, qoldiq siqiladi xar ikkalasini qo'shib 8 kunga tindirish uchun qoldiriladi, so'ngra filtrlanadi. Tinkturalarni jonivor to'qimalaridan olish uchun chinni xovonchaga yangi so'yilgan yoki o'ldirilgan jonivor maxsuloti tozalanib, eziladi. Uning bir qismiga 10 q spirt qo'shib, aralashtirib 14 kunga qoldiriladi.

So'ng suyuqlik ajratilib, qoldiq siqilib, bir-biriga qo'shiladi va yana 8 kunga qoldiriladi, keyin filtrlanadi. Tayyor tinktura 1:10-birlamchi o'nlikka to'g'ri keladi. Misol: tinktura aloe matseratsiya usuli bilan 60% li spirtida tayyorlanadi. Asosan to'g'ri ichakka ta'sir qilib, ich ketar, kolit, proktit kasalligida ishlatiladi. Gomeopatik dorilarni tayyorlash uchun olingan spirtning quvvati va ishlatilishining ayrimlari keltirildi.

Apis/60% spirt bilan/ allergiyaga qarshi;

Arnika/90%/ allergiya, antigistamin ta'sirli;

Berberis /60%/ buyrak va o't bezidagi toshlarida

Kalendula/60% / kuygan, gangrena, yaralarni bitishida

Kontaris /90%/ shpan chivini, pielonefrit, sistit, uretrit siydik yo'llari kasalliklarida;

Kapsikum /90%/ bronxial astma, gastrit, enurez, gemorroy, gerpesda.

Xina /60%/ anemiya, og'ir kasaldan keyin kuchsizlanishda

Sina /90%/ gijjalarida

Sinnamomum /60%/ yiringli kolitda

Kokkulyus /60%/ nefroz, uyqusiz, boshog'riq, asablanishda

Kalotsint /90%/ migren, ishias, troynichnyy nerv shamollashida

Evkalipum/90%/ tumov, tomoq, burun kasalligida.

Granatum /90%/ ich qotganda

Ignatsiya /60%/ psixika buzilishi, bir kulib, bir yig'lab kayfiyati buzilishida

Ipekakuana /60%/ bronxit, gastrit, faringitda

Ledum /bogulnik/ /60%/ revmatizm, xashorat chaqqanda

Nuks vomika /60%/ markaziy vegetativ nerv sistemaga, psixik simptomlar vujudga kelganda.

Tinkturalarni essensiyalardan tayyorlash.

YUqoridagi usullardan tashqari tinkturalarni tayyorlab qo'yilgan essensiyalardan ham tayyorlash mumkin.

Buning uchun 2 q essensiya 8 q 45% spirt bilan 1,2 bandlar bo'yicha 1/2 yoki 3q essensiya 7q 60% spirt bilan 3 band bo'yicha 1:3 yaxshilab aralashtiriladi. Tinkturalar 1-chi o'nlik suyultirish shkalasiga to'g'ri keladi.

Sirtga ishlatish uchun buyuriladigan tinkturalardan spirtli eritmalarini tayyorlash uchun kerakli miqdordagi tinkturani olib 70% spirt bilan aralashtirib beriladi.

Gomeopatik surtmalar, moylar va opodeldoklar texnologiyasi

Gomeopatiyada granula, trituratsiya, tomchilardan tashqari kamroq bo'lsa ham yumshoq dori turlaridan surtmalar, yog'lar, liniment, opodeldok va shamchalar ishlatiladi.

Gomeopatiya surtma dori turi sirtga ishlatiladigan yumshoq dori bo'lib, dorivor modda va asosdan iboratdir. Dispersologik tasnifi asosida ular shaklsiz dispersion muxit qovushoq-elimshak bo'ladi. Surtma dorilar juda qadimiy dori turi bo'lishiga qaramay zamonaviy tibbiyotda va ayniqsa gomeopatiya davolash usulida alohida va katta ahamiyatga ega.

Gomeopatiyaning asosiy maqsadi dori turlarining ichga granula, poroshoklar shaklida ichib, kasalni organizm ichidan, ya'ni tubdan yo'qotish, shu organizmning o'zining ximoya kuchlarini oshirish va tanadan umuman faqat kasalni yo'q qilish bo'lmay, balki uni belgilarini ham yo'qotishdir. Lekin biz bilamizki, bemorlar miazmalari bo'yicha 3-toifaga bo'linadi: psora, sikoz va sifilina. Demak psora miazmalı kasallarda ichki a'zolaridan tashqari ko'pincha yara-chaqalar chipqon, allergiya, xusn buzar, bo'g'imlarning og'rishi, dermatitlar bo'ladi. SHuning uchun gomeopatiya vositalaridan yog'lar, liniment, surtmalar, spirtlar, opodeldoklar ishlatiladi.

Surtma dorilarni qo'llanishi keng bo'lib ularni quyidagi guruxlarga bo'lish mumkin: avvalo ular asosan dermatologik surtmalar va terining jaroxatlanganida, kasalliklarida ishlatiladi, tanaga so'rilib chuqur ta'sir ko'rsatishi mumkin va yuzaki ta'sirli surtmalar ham bo'ladi. Surtma dorilar asosdan va dorivor moddadan iborat. Asoslar surtmani 80%dan yuqorisini tashkil qiladi, shuning uchun asoslarning ahamiyati juda katta. Birinchidan ular surtmani og'irligini, dori moddalarning konsentratsiyasini qattiq-yumshoqligini va ayniqsa dori moddani so'rilish darajasini belgilaydi. Demak, asos bu surtmani faol qismi ekan va u dorining terapevtik ta'sirini barobar dorivor modda bilan ta'minlaydi. Gomeopatiya farmakopeyasida surtma dori turini tayyorlashda vazelin va lanolin olinsin deyilgan. Lekin, bu farmakopeya chiqqaniga necha yillar bo'lib, xozirgi zamonaviy asoslar topilgan va asoslar assortimenti ko'paygan. Bor asoslarni guruhlarga bo'linsa, unda gidrofob, gidrofil va difil asoslar bor /suvga nisbatan: yog'li asoslar, yog'ga yaqinlari, uglevodorodlar va silikonlar/. Gidrofil asoslardan: selluloza xosilalari MS, KMS, Na-KMS, bentonitlar, fitosterin va kollagenlar, jelatin-glitserinli asoslar, uchinchi guruhlardan-emulsion asoslar-emulsiya tipidagi asoslar tarkibida SFM emulgatorlar bo'ladi /T-2, pentol, sorbitan oleat, PGS va b. /Hozirgi talablarga binoan keltirilgan asoslardan eng to'g'ri keladiganini, ya'ni DMning xususiyatiga, surtmani qo'llanishiga ko'ra tanlab olinadi.

Gomeopatiya surtma dorisining texnologiyasi

Asosan XI DFning 2 qism 145b. "Surtma dorilar" moddasiga binoan tayyorlanadi. Dori moddalarning fizik-kimyoviy xususiyati, asosda yoki suvda erishini xisobga olgan holda tayyorlanadi. Ma'lumki, DMLarni asosga kiritilishi bo'yicha 3 guruhga bo'lish mumkin:

1. Asosda eriydigan moddalar bo'lsa, oldin ular shu asosda eritiladi. Misol qilib tumovga qarshi surtma dorini keltiramiz:

Mentolum

Oleum evkalintum 10,0 dan

Vazelin 1000,0

Tayyorlanishi: suv hammomida vazelin eritiladi va issiq vazelenga /45-50⁰ S/mentol qo'shiladi, erib ketgandan keyin evkalitum moyi qo'shiladi.

2. Suvda eriydigan dori moddalarning kam miqdordagi suvda

eritiladi. Atsidum nitrikum 10% 1x dan surtma tayyorlash uchun; avval azot kislotasining 25% ligidan 10 qismi 15 qism tozalangan suv bilan aralashtiriladi. Keyin tayyor bo'lgan 1x dan 10 qism olib 9q. lanolin va 81q. vazelin qo'shiladi; yiringli yaralar, lishay, terini bichilishida ishlatiladi.

3. Suvda ham, asosda ham erimaydigan dori moddalarni eritilgan asosning bir qismida dori modda yaxshilab eziladi, maydalanadi, chunki qancha qattiq dorivor modda mayda/ kata-kichikligi mikronida o'laniladi/ bo'lsa shuncha surtmaning terapevtik ta'siri, faolligi yaxshi bo'lishi ma'lum. Misol tariqasida Gomeopatik surtma dorisi keltirildi:

1. Atsidum salitsilikum 3%
2. Atsidum benzoikum 2%
3. Grafites 1%

4. Sulfur sublimatum 10% SHu surtmalarni tayyorlashda X1 DFdagi umumiy qoidalariga rioya qilamiz. Agar surtmada qattiq DMning konsentratsiyasi 5% dan kam bo'lsa/1,2,3 misollar/ unda Deryagin qoidasi bo'yicha DMning yarmicha asosga yaqin bironta suyuqlik bilan maydalanadi. Asos sifatida vazelin olsak, demak vazelin moyini olish mumkin. Salitsil kislota uchun 1,5g Benzoy kislota uchun 1g, Grafitga 0,5g. DMning konsentratsiyasi 5% va undan yuqori bo'lsa, u hovonchada eritilgan asosning ozgina qismi bilan maydalanadi.

Gomeopatiya surtma dorilardagi dori moddalar konsentratsiyasi

Dori moddalarning konsentratsiyasi ko'rsatilmagan bo'lsa surtma kuchsiz dorilardan 10% qilib tayyorlanadi, kuchli ta'sir etuvchi DMLardan 5%li qilib tayyorlanadi. Ammo lekin ko'pgina gomeopatik dori vositalari uchun gomeopatik farmakopeyada 26-28 betlarda dozasi keltirilgan.

Masalan:

- Apis 3%
- Akonit 5%
- Kantaris 3%
- Kroton 3%
- Simitsifuga 10%
- Xloreton 0,5%
- Spongiya 5%
- Brioniya 10%
- Fitallak Ta 0 10%

Birlamchi (a) tinkturalardan emulsiya turidagi surtmani tayyorlanishi: isitilgan xovonchada tinkturalarni spirti uchiriladi, keyin lanolin vazelinli asos qo'shiladi.

Atsidum nitrikum 3x dan oldin lanolin qo'shib emulgator sifatida keyin vazelin qo'shiladi.

- Atsidum benzonikum 2%
- Sulfur sublimatum 10%
- Salitsilikum 3%
- Merkurius biyodatus 1%
- Arsenikum 10%
- Grafit 1%
- Gepar sulfur 1%

YUqoridagi suspenziya tipidagi surtmalar Deryagin qoidasi bo'yicha tayyorlanadi.

Atsidum karbonikum 2%

Xloreton 0,5%. Eritma tipidagi surtmalar qoidaga binoan tayyorlanadi.

Oddiy mazlardan tashqari gomeopatiyada murakkab surtmalar xam uchraydi.

Plazmin surtmasi

tarkibi: kalendula -20,0

Fitolak - 60,0

Brioniya - 20,0

Atsidum borikum - 182,0

Suvli lanolin - 400,0

Vazelin -1400,0

Har xil tayyorlanadigan DM bitta surtmaga qo'shib yozilgan, maxsus dori surunkali revmatizmida ishlatiladi.

Koriza surtmasi

tarkibi: Atsidum karbonikum 7,5

Natrikum xloratum 15,0

Adrenalin /1:1000/-30,0

Oleum mentoli 15,0

Oleum evkalipti 15,0

Vazelin 1500,0

Boshning oldi tomoni peshana, chakka joylari qattiq og'riganda surtiladi.

Albumin surtmasi

tarkibi: gidrargirum bixlorati 1,5

kalium nitrikum 1,5

boraks 1,5

tuxum oqi 25,0

lanolin 1500

vazelin 150,0

To'g'ri ichakdagi yallig'lanishda ishlatiladi.

Linin surtmasi

tarkibi: atsidum borikum maydasi 100,0

talk 200,0

sinkum oksidatum 200,0

vazelin 1500,0

mentol 15,0

Suv chiqib turgan yiringli yaralarda surtiladi.

SHamollashda ishlatiladigan surtma

Mentol 10,0

Oleum evkalipt 10,0

Vazelin 1000,0

Gomeopatik farmakopeyasida keltirilgan surtmalardan tashqari boshqadori vositalaridan ham surtma dori turlari tayyorlanadi: belladonna, yaralarni pishirib sitib chiqarish uchun. Rus o'simligidan revmatizm, Petroleum 4x danekzemalarga, Sulfur chipqonda, Grafit teriniqichib yallig'lanishida, Gepar sulfur yiring oqqanda va b.

Gomeopatiya linimentlari

Ularga yog'lar, opodeldok va sirtga ishlatiladigan spirtlar kiradi. Boshqacha qilib aytganda linimentlarbu suyuq surtma dorilar, shuninguchun ishqalab surtiladi. Asosiga qarab turib: a. yog'li linimentlarb.sovunli linimentlar kiradi. YOg'li linimentlarga: xar xil o'simlikmoylari: shaftoli, o'rik, olxo'ri, oliva, kungaboqarvaboshqalarishlatiladi.

Sovunli linimentlarda sovun spirtidagi eritmasi saponimentlar asosi bo'lib hisoblanadi. Bu xil linimentlar gomeopatiyada qo'llanib, opodeldok deb ataladi. Gomeopatiyada ma'lum bo'lgan yog'li linimentlarga misol qilib: 1% xloreton, 10% simitsifuga, 5% spongiya, 3% apis, 5% akonit, 10% brioniya, 3% kontarislarni keltirish mumkin. Oleum apis 10,0 texnologiyasi: 3 dan 5% gacha qilib tayyorlash, surtish uchun mumkin, chunki apis kuchli ta'sir etuvchi modda. Ikkita suyuqlik bo'lgani uchun apis spirtli tinkurasidan 3% / 60% / olib 100g gacha moy qo'shiladi

Gomeopatik opodeldoklarni tayyorlash

Saponimentalarni tayyorlashda 2q sovunli spirt olib 1q suv va 1g 90% spirt qo'shiladi. Opodeldok tayyorlashda tibbiyot natriyli sovun olinadi va ularga turli dorilar efir, kamfora qo'shiladi. Misol qilib Rus opodeldokni texnologiyasini ko'rib chiqamiz: Tayyorlash uchun 3q. rus tinkurasiga 97q. opodeldok asosi qo'shiladi. Oldin sovunli spirt tayyorlanadi: uning uchun sovun poroshogi 90% spirtida kolbaga solinib, suv xammomida eritiladi, keyin tez filtrlanadi. Issiq sovun eritmasiga dorivor modda qo'shiladi. Sovun spirtini tarkibi quyidagicha: FS 42-1199-78

bo'yicha: Kaliy ishqori 23g, Kungaboqar yoki paxta moyi 100 g, Suv 75 g va Spirt 90% 300 g. Tayyorlanishi: 100-105 °Cda qozonda moy qizdiriladi, keyin KOH va spirt solinadi. Bir xil qo'shilma

xosil bo'lgach oz-ozdan suv qo'shiladi va sovun xosil bo'ladi, issiq suvda yaxshi erishi kerak, ko'rinishi yaltiroq tiniq massadir.

Gomeopatik shamchalar texnologiyasi

Gomeopatiyada ishlatiladigan shamchalarning dorivor moddalarning tez ta'sir qilishiga, uning butun odam ichki vujudiga yoki to'g'ri ichak va uning atrofidagi yaqin joylarga joylashgan patologik jarohatga yordam berishdadir. Lekin shamchalarning samaradorligi ishlatiladigan asoslarga bog'liq. SHvabe farmakopeyasida kakao moyi olinsin deyilgan, lekin hozirgi zamonaviy asoslar bilan gomeopatiya boyiganligi tufayli jelatin glitserinli, polietilenoksidli, paxta moyini 5% T-2 saqlangan gidrogenizati va boshqalar ishlatilishi mumkin. Bunday asoslar farmatsevtika amaliyotida tadbiiq qilingan va ishlatilmoqda.

Asoslarning qisqa tasnifi.Jelatin-glitserinli asos DF X1 sonida berilgan, u 1q. jelatin, 5q. glitserin va 3q. tozalangan suvdan iborat. Ko'pincha vaginal shamchalar quyush usuli bilan tayyorlanadi. PEO asosi-etilen oksidining polimerizatsiya usulida olingan. Umumiy formulasi n/OSN 42 0-SN 42 0/p-ON, p 2-85 bo'lish mumkin. Suvda yaxshi eriydi, efrida erimaydi. Asosning tarkibi: PEO 1500 va PEO 2000, bu asosda papaverin, belladonna shamchalari tayyorlanadi. YAna PEO 4000/VFS 42-110-72/si ham bor, anestezin, belladonna, ixtiol bilan tayyorlanadi. Paxta moyini 5% T-2 saqlagan gidrogenizatida fitolaka va temirdan 0,5 danolib shamchalar 30 dona tayyorlash mumkin: asosni suv xammomida 36-38⁰S xaroratida eritib, unga oldin temir spirtli eritmasidan 60tomchi, keyinfitolaka tinkurasidan 600 tomchi solib tayyorlanadi.

Shamchalarning umumiy texnologiyasi

SHamchalar tayyor spirtli tinktura, ekstrakt, essensiyalar DM va asos bilan aralashtirib tayyorlanadi. DM agar suyuq ekstrakti bo'lsa 2 tomchi, tinkturadan 20 tomchi - bitta shamchaga olinadi, lekin ularni oldin quyultirish lozim/spirtni o'chirish kerak/. Keyin kerak bo'lsa suvsiz lanolin qovushqoqligini oshirishi uchun qo'shiladi. Lanolinni 30gmassaga 1g gacha qo'shiladi. Maslo kakaodan qo'l yordamida dumalatib tayyorlanadi, boshqa asoslar bo'lsa quyush usulida tayyorlash kerak. Misol: Aloe suppozitoriysidan 10 dona tayyorlang. Bering: 1donadan kechasi qo'yish uchun. Aloening quyultirilgan sharbatidan olingan 60% spirtida tayyorlangan tinktulasi ishlatiladi. Undan 1-ta suppozitoriyga 20 tomchi, demak 10 tasiga 200 tomchi olinishi kerak, uni kakao moyi bilan suvsiz lanolin qo'shib tayyorlanadi. YUqorida keltirilgan misolni jelatin-glitserinli asosida quyush usulida ham tayyorlasa bo'ladi. Tayor shamchalar bir xil, shaklli, qattiq-yumshoqligi qo'llanishiga mos keladigan bo'lishi kerak, o'rtacha og'irligini 20dona shamchani 0,01g aniqlikda tortib topiladi og'irligini og'ishi-5% dan oshmasligi kerak. Deformatsiyaga uchrash vaqti aniqlanadi, 1,5daq. dan oshmasligi kerak. Agar shamchalar gidrofil asosda tayyorlangan bo'lsa, 100ml li kolbaga 50ml 37⁰S xaroratli suvda eritib ko'riladi. Erib ketish vaqti 1 soat davomida bo'lishi kerak. DM miqdoriy nazorati ham o'tkaziladi.

Gomeopatik trituratsiyalar texnologiyasi

Gomeopatiya amaliyotida qo'llaniladigan qattiq dori turlarining salmog'i suyuq va yumshoq dori turlariga nisbatan katta. Bunga asosiy sabab dozaga ajratilishi oson yoki oldindan dozaga ajratilgan bo'lishi bu dorilarni qabul qilishda katta muammolar tug'dirmaydi, shuningdek saqlash va tashish (trasportlash) kabi masalalar ham nisbatan qulay.

Siz dastlabki bosqichlarda dorixona va korxonada sharoitida tayyorlanadigan qattiq dori turlari texnologiyalari bilan yaqindan tanishgansiz va amaliy mashg'ulotlarda o'z qo'lingiz bilan ushbu dori turlarni tayyorlab, sifatiga baho ham bergansiz.

Gomeopatiya amaliyotida qo'llaniladigan qattiq dori turlari siz tayyorlagan allopatiya dori turlaridan bir qancha farqlanadi:

- retseptda berilish tartibi bo'yicha;
- doza miqdori (potensiyasi) bo'yicha;
- gomeopatiya dorilarni dinamikizatsiyalashga qaratilgan texnologiyalari bo'yicha;
- saqlanishi va qo'llanilishi bo'yicha.

Gomeopatiya ta'limoti bo'yicha o'tilgan ma'ruzalarda siz gomeopatiya amaliyotida qo'llaniladigan dori turlarga yoziladigan retseptlar tartibi bilan yaqindan tanishgansiz: gomeopatiya retseptlarida shifokor dorining nomini lotincha bosh kelishikda yozadi, undan keyin suyultirish darajasi, miqdori va beriladigan dori shaklini ko'rsatadi. Retseptda avval kam suyultirilgan, so'ng ko'p suyultirilgan qattiq dorilar keltiriladi, keltirilgan dorilarni nomi 3-4 tadan oshmasligi va bir botanik guruhga mansub o'simliklardan dorilar tayyorlash mumkin emas.

Masalan:

1. Aurum metallicum 30 trit.

Kuniga 2 marta (nahorga va kechqurun) pichoq uchida

2. Calendula 3X gran.

5-7 donachadan nahorga til ostiga

3. Calcarea carbonica 3 - 0,2 g tabul.

Bir tabletkadan kuniga 2 mahal til ostiga

4. Hamomilla 1X gutt.

5-6 tomchidan kechasiga ichish uchun.

Gomeopatiya triturasionalari texnologiyasi.

Gomeopatiya triturasionalari (Triturationes) - kuruk dori modda, essensiya, nastoyka, suvli va spirtli eritmalarini sut qandi (laktoza) yoki boshqa tibbiyotda ishlatishga ruhsat berilgan yordamchi moddalar bilan olingan kukun holdagi qattiq dori turi. Nega aynan triturasionalarni tayyorlashda sut qandi ishlatilishini siz juda yaxshi bilasiz! Triturasionallar V.SHvabe kullanasining 7, 8, va 9 bandlariga asoslanib hamda SanPiN № 0152-04 qoidalariga rioya kilib tayyorlanadi.

Eslatma** Sut kandi (laktoza) – disaxarid ($C_{12}H_{24}O_{12}$) glyukoza va galaktozadan tashkil topgan, barcha sut emizuvchilarni suti tarkibida bor. Laktoza sut zardobidan olinadi, kristallik yoki amorf shaklida buladi, kimyoviy va farmakologik jihatdan nisbatan indifferent hisoblanadi, gigroskopik emasligi sababli gigroskopik hossaga ega kukunlarni nam tortish xossasini bir muncha kamaytiradi, hidsiz, shirin (kandga (1,0) nisbatan shirinlik ekvivalenti 0,16 ga teng), zaharli emas, zichligi katta emas $1,52 \text{ g/sm}^3$ (kup zaharli moddalar zichligiga (alkaloidlar) deyarli teng!), demak aralashmani qatlamga ajralishiga sababchi bo'lmaydi, bundan tashqari dori moddalarni bir me'yorda maydalanishiga yordam beradi.

X1 DF ko'rsatmasiga binoan zaharli yoki kuchli ta'sir etuvchi moddalardan miqdori 0,05 g dan kam berilganida 1:100 yoki 1:10 nisbatda triturasionallar tayyorlash uchun tavsiya etilgan.

V. SHvabe qo'llanmasining 7-bandi bo'yicha quruq moddalardan triturasionallar tayyorlash

Quruq mineral, o'simlik, hayvon yoki kimyoviy birikmalardan sut qandi yordamida triturasionallar tayyorlanadi.

Triturasionalarni tayyorlash uchun faqat chinni havoncha ishlatilishi kerak, metall havonchalardan foydalanish mumkin emas. Agar hususiy maqolalarda boshqa ko'rsatmalar bo'lmasa quruq dori moddalar (shu kabi metallar) va sut qandi oldindan o'ta maydalik darajasigacha (Pulvis longe subtilissimus: 65 mkm katta bo'lmasligi kerak!) maydalangan bo'lishi lozim. Triturasionalarni tayyorlash uchun ishlatiladigan dori va yordamchi moddalarni boshlang'ich maydalik darajasi elak (teshik diametri №65 mkm) yoki sirtki solishtirma yuza o'lchamini atmosfera bosimida havo o'tkazishini o'rganish orqali aniqlanadi.

Triturasionalarni potensiyalashda dinamizatsiya katta ahamiyatga egaligi sababli, har bir texnologik bosqich vaqt bilan chegaranlangan: bunda dori moddani sut qandi bilan oddiy aralashtirmay, balki nihoyatda uzoq vaqt yaxshilab ishqalab maydalash va aralashtirish lozim.

V.SHvabe qo'llanmasining ko'rsatmasi bo'yicha har bir suyultirish 1 soat (60 daqiqa) davomida ishqalab maydalash va aralashtirish kerak. Triturasionalarni tayyorlashda sidirishga ham katta ahamiyat berish lozim, chunki yaxshi maydalanmagan zarrachalarni o'ta maydalangan zarrachalar bilan aralashib, bir me'yorda maydalanishini ta'minlash maksadida.

Kuchli gigroskopik xossaga ega yoki suyuq holatda bo'lgan dori moddalardan triturasionalarni tayyorlashda isitilgan ($40-50^{\circ}\text{S}$) havonchadan foydalanish tavsiya etiladi.

Quruq dori moddalardan triturasionallar quyidagi tartib bo'yicha olinadi (1-slayd): a) o'nlik shkala bo'yicha – 1,0 og'irlik qism dori moddaga 9,0 og'irlik qism sut qandi olinadi (1X hosil bo'ladi);

b) yuzlik shkala bo'yicha – 0,1 og'irlik qism dori moddaga 9,9 og'irlik qism sut qandi olinadi (1^0S hosil bo'ladi).

Texnologiyasi: tortib olingan sut qandi tahminan teng uch qismga bo'linadi: 1 qism chinni havonchaga solinadi va yaxshilab aralashiriladi, bunda havonchani teshiklari berkitiladi, so'ng quruq dori modda solinib, 6 daqiqa davomida qattiq ishqalab maydalanadi, so'ng 4 daqiqa kukun sidirilib, aralashiriladi. So'ng bu jarayon yana bir marta takrorlanadi: 6 daqiqa ishqalab maydalanadi va yana 4 daqiqa sidirib, aralashiriladi. (Birinchi bosqichda (sut qandining birinchi 1/3 qismiga) 10 daqiqadan ikki marta - 20 daqiqa sarflanadi).

Havonchaga sut qandini 2 qismi qo'shiladi va yana 6 daqiqa ishqalab maydalanadi va 4 daqiqa sidirib aralashiriladi, so'ng ushbu jarayon yana bir marta takrorlanadi. (Ikkinchi bosqichda (sut qandining ikkinchi 1/3 qismiga) ham 10 daqiqadan ikki marta - 20 daqiqa sarflanadi, jami 40 daqiqa).

Nihoyat sut qandini ohirgi 3 qismi qo'shiladi va yana yuqorida keltirilgan jarayon 2 marta qaytariladi. (Uchinchi bosqichda (sut qandining uchinchi 1/3 qismiga) ham 10 daqiqadan ikki marta 20 daqiqa sarflanadi, jami 60 daqiqa).

Natijada 1 soat ichida 10 qism 1X (1D) yoki 1 C (1^0S) suyultirish darajasiga (potensiyaga) ega bo'lgan triturat tayyorlanadi. Demak 2X tayyorlash uchun – 2 soat, 3X tayyorlash uchun 3 soat, va nihoyat 30^0S tayyorlash uchun – 30 soat sarflanadi!

Bu jarayonni nazorat qilish murakkab, shuning uchun S.Ganeman ta'rifi buyicha "Gomeopatiya dorilarini tayyorlashda birinchi nazoratchi – bu farmatsevtning vijdoni!" degan. Demak, dozasi bir hil bo'lsa ham 4X (1:10000) va 2^0S (1:10000), yuzlik shkala bo'yicha tayyorlangan 2^0S trituratni 4X trituratni o'rniga berib yuborish mumkinmi?

Masalan, ateroskleroz, gipertoniya, glaukoma, tungi suyak og'irishi (ostiomielit, mastodontit), bachadon fibromasi, bachadon tushib qolishi kabi kasalliklarni davolashda qo'llaniladigan gomeopatiya vositasi:

1. 1. Aurummetallicum 1^0S 10,0 g

Kuniga 2 marta (nahorga va kechqurun) pichoq uchida

Ushbu trituratni V.SHvabe ko'lanmasining 7-bandi bo'yicha 2 hil usulda tayyorlash mumkin:

1 usul:

Pasport: Aurummetallikum 0,1 g

Sut qandi 9,9 g

Umumiy massa 10,0 g

Texnologiyasi: V.SHvabe qo'llanmasining 7-bandi bo'yicha (1 soat mobaynida tayyorlanadi).

2 usul:

Pasport: Aurum metallikum 1X 1,0 g

Sut qandi 9,0 g

Umumiy massa 10,0 g

Texnologiyasi: V.SHvabe kullanasining 7-bandi bo'yicha (1 soat mobaynida tayyorlanadi). Hosil bo'lgan triturat 2X yoki 1^0S deb yuritiladi va uning potensiyasi 1 usulda tayyorlangan trituratga nisbatan kuchliroq.

Trituratlarni sifati baholanadi va berib yuborish uchun jihozlanadi.

Aurum metallicum 1 C (2X)10,0 g trit.

Кунига 2 марта (нохорга ва кечкурун) пичок учида

Сана: 10.10.05й Сер.101005 Тахлил 10.10.05 Имзо

V. SHvabe qo'llanmasining 8-bandi bo'yicha trituratlarni suyuq dori modda yoki eritmalardan tayyorlash

V. SHvabe qo'llanmasining 8-bandi buyicha trituratlarni suyuq dori modda, suvli yoki spirtli eritmalardan 7-bandda keltirilgan nisbatda tayyorlaniladi. Biroq bunda 1X kamdan-kam hollarda tayyorlanadi, chunki sut qandi suyuqlikda erib ketishi yoki bo'kishi mumkin va aralashmani uzoq vaqt quritish kerak bo'ladi. SHuning uchun trituratlarni 2X yoki 1^0S dan boshlab tayyorlash lozim.

V.SHvabe qo‘llanmasida keltirilishi bo‘yicha triturlarni tayyorlashda 1,0 g suyuq dori modda va 99,0 g sut qandi olinishi mumkin. Natijada 1⁰S yoki 2X triturat hosil bo‘ladi, yoki iqtisod qilish maqsadida:

- suvli eritmalardan 2 tomchi (0,1 g)
 - spirtli eritmalardan 3-4 tomchi (0,1 g) olib,
- sut qandidan esa 9,9 g olinadi.

Masalan:

1. Acidum sulfuricum 1S 10,0 g

Nahorga pichoq uchida til ostiga

Pasport: Atsidum sulfurikum 0,1 g (2 tomchi)

Sut qandi 9,9 g

Umumiy massa 10,0 g

Texnologiyasi: VR-20 qo‘l torozida 9,9 g sut qandi tortib olinadi va taxminan uch qismga bo‘linadi. Hovonchaga birinchi 1/3 qismi solinadi va yaxshilab ishqalab teshiklari berkitiladi. Kalibrangan pipetka yordamida 2 tomchi sulfat kislotasi (0,1 g, chunki 1,0 g = 20 tomchi) havonchaga tomiziladi va V.SHvabe qo‘llanmasining 7-bandida keltirilgan texnologik jarayon amalga oshiriladi: 1soat davomida 10,0 g 1⁰S yoki 2X triturat hosil bo‘ladi.

Tayyorlangan trituratni sifati baholanadi va jihozlanadi.

1. Acidum sulfuricum 1C (2X)10,0 g trit. Наҳорга пичоқ учида тил остига Сана: 10.10.05й Сер.101005 Тахлил 10.10.05 Имзо

Sulfat kislotasining triturati stomatit, surunkali gastrit, surunkali alkogolizm va turli jarohlarda qo‘llashga tavsiya etiladi.

SHu tartibda chipor ilon zaharidan (Bushmeyster) - Laxezis gemorragik diatez, sepsis, tromboflebit, trofik yazva, endomiokardit, klimaks o‘zgarishlarini davolashda ishlatiladigan triturat tayyorlanadi:

1. Lachesis 3X 10,0 g
Uxlash oldidan pichoq uchida til ostiga

Pasport: Laxezis 2X 1,0 g

Sut qandi 9,0 g

Umumiy massa 10,0 g

Texnologiyasi: 2X trituratdan 1,0 g va 9,0 g sut qandidan olinadi va V.SHvabe qo‘llanmasining 7-bandi bo‘yicha (1 soat mobaynida tayyorlanadi). Hosil bo‘lgan trituratsiya 3X deb yuritiladi.

Triturlarni sifati baholanadi va berib yuborish uchun jihozlanadi. Triturat tarkibidagi dori modda kichik suyultirish darajada bo‘lganligi sababli dori turini rasmiylashtirish, sifatini baholash, jihozlash, saqlash va bemorga berish tarkibida zaharli va kuchli ta’sir etuvchi dori moddalar saqlaydigan preparatlarni berish tartibi buyicha amalga oshiriladi.

Lachesis 3X 10,0 g trit. Кечасига пичоқ учида тил остига Сана: 10.10.05й Сер.101005 Тахлил 10.10.05 Имзо
--

V. SHvabe qo‘llanmasining 9-bandi bo‘yicha triturlarni essensiya va tinkturalardan tayyorlash

V.SHvabe qo‘llanmasining 9-bandi bo‘yicha trituratlar quyidagi tartibda tayyorlanadi:

a) 1 yoki 2-band bo‘yicha tayyorlangan essensiyalardan

2 og‘irlik qism va sut qandidan 99 og‘irlik qism olinadi va 7-bandda keltirilgan texnologiya bo‘yicha tayyorlanadi, hosil bo‘lgan triturat 1⁰S yoki 2X deb yuritiladi.

(Ta’sir etuvchi modda 1:2 nisbatda, 2 og‘.qism+99 og‘.qism=101 og‘.qism).

b) 3-band bo‘yicha tayyorlangan essensiyadan

3 og'irlik qism va sut qandidan 99 og'irlik qism olinadi va 7-bandda keltirilgan texnologiya bo'yicha tayyorlanadi, hosil bo'lgan triturat 1S yoki 2X deb yuritiladi.

(Ta'sir etuvchi modda 1:3 nisbatda, 3 og'.kism+99 og'.kism= 102 og'.qism).

v) 4-band bo'yicha tayyorlangan nastoykadan

1 og'irlik qism va sut qandidan 99 og'irlik qism olinadi va 7-bandda keltirilgan texnologiya bo'yicha tayyorlanadi, hosil bo'lgan triturat 1⁰S yoki 2X deb yuritiladi.

(Ta'sir etuvchi modda 1:10 nisbatda, 1 og'.kism+99 og'.qism= 100 og'.qism).

Gomeopatiya granulari texnologiyasi. Gomeopatiya granulari bu – ichish uchun mo'ljallangan qattiq dozalarga bo'lingan dori turi.

Gomeopatiya granulari turli gomeopatiya dori moddalari eritmalarini yoki ularning aralashmalarini tayyor qand granulariga shimdirish (to'yintirish) usuli bilan olinadi. Demak, gomeopatiya granulari texnologiyasi dori moddani suvli yoki spirtli eritmalaridan qand granularini adsorbsiya qilishga asoslangan bo'ladi.

V.SHvabe qo'llanmada keltirilishi bo'yicha qand granulari toza, oliy navli shakarqamish shakaridan tayyorlanadi. Ular tozalangan suvda hech qanday qoldiqsiz erib ketishi kerak. Granular obakilash (drajelash) usulida konditer fabrikalarida yoki farmatsevtik zavodlarda olinadi. Granularni gomeopatik suyultirilgan eritmalar (dilyusiyalar) bilan bir hil to'yintirish uchun ular ma'lum kattalikda bo'lishi kerak. SHuning uchun qand granulari kata-kichikligi bo'yicha saralanadilar. Qand granulari massasi va diametrini o'lchami bo'yicha 1-jadvalda keltirilgan nomerlarga tasniflanadilar.

To'yintirish uchun mo'ljallangan birlamchi granularni tasnifi

Granularlar №	1,0 grammdagi granular soni	Granularni hisoblash uchun olinadigan tortma massasi, g	Granularni o'rtacha diametri, mm
1	470-530	0,1	1,4
2	220-280	0,2	1,7
3	110-130	0,4	2,2
4	70-90	0,6	2,5
5	40-50	1	3,0
6	22-28	2	3,7
7	10	5	5,0
8	5	10	6,3
9	3	15	7,4
10	2	25	8,5

Granularni nomerini aniqlash uchun granular ma'lum teshik diametriga ega elakdan o'tkaziladi yoki har bir nomerga tegishli granular o'rtacha og'irligi jadvalda keltirilgan miqdor bo'yicha (masalan, 1 grammdan) tortib olinadi va granularni soni sanab chiqiladi. Granular raqam bo'yicha bir-biridan farqlanadi. Ko'pincha 4-va 5- raqamdagi granular ishlatiladi.

Tayyorlangan granularni gomeopatiya eritmalarini bilan to'yintirish

Granularga shimdiriladigan gomeopatik dorivor moddalar 3S suyultirishdan past bo'lmasligi lozim va uning 70% spirtida 1:1 nisbatdagi eritmasi tayyorlanishi kerak. Moddani bir tekisda tarqalishini ta'minlash uchun 1 kg qand granulari oldindan 10,0 g 70% etil spirti bilan namlanadi, so'ng 1 kg granularga 10,0 g dori moddaning 3S dan past bo'lmagan suyultirish darajasiga ega eritmasi purkaladi. Granularni shimdirish ikki usulda olib borilishi mumkin:

1) Qo'lda (massasi 1 kg gacha bo'lgan granular shisha bankalarda) 10 daqiqa davomida aralashtirish bilan to'yintiriladi.

2) Asboblarda yordamida (xarakteratga keluvchi ichshi a'zolari bo'lmagan mexanik aralashtirgichda) 3-4 daqiqa davomida. Aralatirgichni ishchi hajmi to'yintiriladigan granularlardan 1,5-2 marta ko'p bo'lishi kerak.

Granulalarni to'yintirish quyidagicha olib boriladi: to'yintiriladigan granulalarga nisbatan 1,5 yoki 2 barobar katta hajmdagi shisha idish olinadi va unga 100,0 granular solinadi (masalan, 5-raqamli granular), ustidan 1,0 g 70% spirti va 1,0 g dorivor moddani ma'lum suyultirishdagi (3S dan past bo'lmagan) 70% etil spirtidagi eritmasining (1:1) aralashmasidan purkaladi (granula tekis to'yinishi uchun).

Idish qopqog'i pergament qog'oz bilan yopilib, 10 daqiqa davomida qo'lda yoki 3-4 daqiqa davomida mashina yordamida qattiq silkitiladi. So'ng pergament qog'oz solingan teshikchali yog'och taxta ustiga granulalarni yoyib, ochiq havoda quriguncha qoldiriladi doimiy massagacha). Granular to'liq qurigach, sifati baholanadi va jihozlanadi.

Granulalarni uchuvchan, hidli gomeopatiya dorilaridan tayyorlangan eritmalar va uchinchi yuzlikdan kichik suyultirishdagi barcha kislotalar bilan to'yintirish mumkin emas.

So'ngi ma'lumotlarga ko'ra dastlabki granulalarni bir necha bosqichda gomeopatiya dori vositalarini 64% qand qiyomidagi eritmalarida (spirtsiz!) obakilash va quritish bo'yicha qavatlash usulida tayyorlash ham mumkin. Bunda dastlabki granulalarni o'lchamida katta o'zgarishlar bo'lmaydi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Gomeopatiya suvli va suvli –spirtli eritmalarini texnologiyasi
2. Essensiyalar ta'rifi, texnologiyasi (2,3 bandlar bo'yicha)
3. Tinkturalar, tasnifi, qisqacha ta'rifi, ishlatilishi
4. Gomeopatik tinkturalarning o'ziga xos texnologiyasi
5. Gomeopatik surtma dorilartexnologiyasi
6. Gomeopatik liniment va opodeldoklar tayyorlanishi
7. Gomeopatik shamchalar texnologiyasi

ADABIYOTLAR:

1. Maxkamov S.M., Maxmudjonova K.S. Tayyor dori turlari texnologiyasi. Toshkent. 2010. B. 367. (darslik).
2. Тихонов А.И., Ярних Т.Г. Технология лекарств.-Харьков, 2002-704 с.
3. Чуешов В.И. Промышленная технология лекарств. - Харьков, 2002.-Т.2.- 761 с.
4. Loyd V. Allen, Jr., Nicholas G. Popovich, Howard C. Ansel. Ansel's Pharmaceutical Dosage Forms and Drug Delivery Systems.-New York: Lippincott Williams & Wilkins, 2011.- P.722
5. Saxton J., Gregory P. Textbook of Veterinary Homeopathy.-New York, 2005.-320 pages.
6. Steven B. Kayne, Michael H. Jepson Veterinary Pharmacy.- New York Pharmaceutical Pr., 2004.-676 pages.

Ma'ruza 19

MAVZU: VETERINARIYA AMALIYOTIDA ISHLATILADIGAN PREPARATLARNI SIFATINI BAHOLASH VA JIXOZLASH MASALALARI

Reja:

1. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan preparatlarni sifatini baxolash usularining ta'rifi.
2. Zamonaviy jixozlash materiallari va ularga qo'yiladigan talablar.
3. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan preparatlarni sifatini baxolash va jixozlash bo'yicha me'yoriy xujjatlar.

Tayanch so'z va iboralar: veterinariya, veterinar farmtsiy, zamonaviy veterinariya dori preparatlari nomenklaturasi, veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik preparatlari texnologiyasi

Asosiy matn

Poroshoklarning taxlili

1. Poroshoklar mikroskop yoki lupa ostida ko'riladi (kunduzgi yorug'likda). D.m. sut shakarida tekis tarqalgan b/k.k. Rangli, kuchli xidli va mazali byuretkalar bo'lsa, ularning rangi, mazsai va xidi tekshiriladi.

2. Poroshoklardan tayyorlangan eritmalarning qayta kristallanishi tekshiriladi. Buning uchun to'yingan eritma tayyorlanadi aniq o'lchangan modani o'lchov kolbasiga solinadi va ustiga kerakli xajmda suv solib og'zi yopiladi va suvli hammomida eritiladi. Illiq holatda 10-15 min qold-di va asta – sekin sovutiladi (havoda).

A) Izomofonqy kristall bilan tezda kristallanadigan moddalarning to'yingan eritmalari bilan quyida ish olib boriladi. Tayyorlangan eritmadan bir necha tomchi brom oynachasiga tomiziladi. So'ngra oldin qizdirilgan keyin sovutilgan platina shpatel bitekchi paroshok olinadi (to'nog'ich boshidek kattalikda) va tomizilgan tomchilarning biriga qo'shiladi. Bunda agar poroshokda izomorf kristall bo'lsa, tomchining tiniqligi yo'qoladi va kristallar x/b, kristallartomchining hamma ustini qoplaydi. Masalan CH_3COONa , segnet tuzi.

B) Izomorf krsitall Bilan qo'shilganda kristall kristallashadiyu, lekin o'zi esa kristallanmaygan moddalarning to'yingan eritmalari quyidagicha tekshiriladi. Pipetka yordamida bir necha ml to'yingan eritmadan olib, extiyojlik Bilan chetlariga tekkizmasdan kichkina prbirkaga solib, og'zirezina probka bilan yopiladi. So'ngra platina shpatel yordamida tek-chi poroshok qushiladi, probirka yopiladi va qiyshatirilgan holatda bir necha soatga qoldiriladi. Agar namunada mikroskopik kichik izomorf kristallar bo'lsa, bir necha soatdan keyin probirkaning pastki qismida katta kristallarni yoki turli kattalikdagi druzlarni ko'rishi mumkin.

Masalan: $\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7$, CuSO_4 .

3. Metallik va o'mirli (ugolno'x) poroshoklar zarrachalarining kattaligini mikoskop ostida quyidagicha tekshiriladi.

Buyum oynachasiga (rangsiz, tekislangan va gazlarning puzirki, saklanmagan) 0.02-0.03g poroshok solinadi, ustiga 1-2t N_2O qo'shiladi va asta-sekin isitib sut shakari eritildai. Sungra past olvda bug'latiriladi yog'simon qoldiq qolgungacha qoldiq tinga yotqich bilan yopiladi va mikroskop ostida 200 marta kattalashtirilgan hloda ko'rilad, shilliq bo'lmagan metall zarrachalarining kattaligi okulyar mikrometrda ko'riladi. Mikrotekshirishning 2-usulida 0.02-0.03 g poroshok buyum oynachasida Kanada balzami bilan yaxshilab aralashiriladi. So'ngra isitib havo pufakchalari yo'qotiladi (isitib) va oynacha bilan yopib, yuqoridagidek tekshiriladi.

Zichligini aniqlash

$$P = \frac{m}{V} \text{ g/sm}^3 \text{ (0.001 g aniqlikda)}$$

Birinchi quruq piknometr bilan og'irligi o'lchanadi (0.0002 g), keyin dist. Suv solib, 20¹ termostatga 20⁰ S ga quyiladi. Agar suvning miqdori piknometrda ko'p b-sa , filtr qog'oz bilan to'ldirib olib tashlanadi va YAna 10 min ush-b turiladi. 10 min o'tgandan keyin og'irligi o'lchanadi.

Piknometr suvdan bo'shatib, spirt va efir Bilan yuvilib, quritiladi va spirt yoki boshqa suyuqlik solib, YAna yuqoridagi jarayonlar qaytariladi va quyidagi f-la yord. aniqlanadi.

m –bo'sh pikn, g

m_1 -pikn+suv,g

m_2 -pikn+suv,g

0.99703- suvning zichligi tq20⁰ S

0.0012- havoning zichligi tq20⁰ S bosim

2-usul (0.01 g gacha bo'lgan) areometrda, dori moddalar uchun

3- usul (yog' va sk) uchun.

In'eksion dori shakllari (in'eksiya uchun eritmalar, suspenziya, emulgatorlar) albatta quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha DF XI ning 2 nomeri 140-142 betlarda keltirilgan "In'eksiya uchun dori shakllari" va xususiy maqolalarda keltirilgan talablarga binoan taxlil qilinadi: tashqi ko'rinishi (tavsiflanishi); sterilizatsiya va quyish shartlari; chinligi; tiniqligi; ranliligi; kislotaligi yoki ishqoriyligi, rN i mexanik aralashmalar; zichligi; quyushqoqligi; yot moddalar; osmolyarligi; to'ldirilish xajmi (ampula, flakon va b); pirogenligi yoki bakterial endotosinlar (LAL test); toksikligi (zaxarliligi); sterilligi; zarrachalar kattaligi (suspenziyalar uchun); miqdoriy taxlil;

in'eksiya uchun ishlatiladigan quruq dori shakllari quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha taxlil qilinadi: tashqi ko'rinishi (tavsiflanishi) chinligi o'rtacha og'irligi va og'irligi bo'yicha bir xilligi; tiniqligi;

ranglilik; kislotalik yoki ishqoriyligi, pH i mexanik aralashmalar yot moddalar; lar (LAL test); toksikligi (zaxarliligi) xloridlar, sulfatlar va b.; quritgichdagi massaning yo'qotishi yoki suv (K.Fisher usulida aniqlanadi); idishdagi dori modda og'irligi (ampula, flakon va boshqalar); sulfatli kuli va og'ir metallar sterilligi; dozalar bir xilligi; miqdoriy taxlil;

Parenteral dori moddalarning rangi DF X1 nashrida keltirilgan «Suyuqliklarning rangini aniqlash» maqolasi bo'yicha ranglilik etalonlari bilan yoki xususiy maqolada keltirilgan ko'rsatmalar bo'yicha aniqlanadi. In'eksion eritmalarning idishlardagi xajmi nominal xajmdan ko'p bo'lishi kerak.

Idishlardagi in'eksion eritmalarning xajmi

Nominal xajm, ml	To'ldirish xajm, ml		To'ldirishni nazorat qilish uchun olingan idishlar soni, ta
	Quyushqoq bo'lmagan eritmalar	Quyushqoq (vyazkie) eritmalar	
1,0	1,10	1,15	20
2,0	2,15	2,25	20
5,0	5,30	5,50	20
10,0	10,50	10,70	10
20,0	20,60	20,90	10
50,0	51,0	51,50	5
50,0 dan ko'p	nominaldan 2% ga ko'p	nominaldan 3% ga ko'p	

Xajmi 50 ml gacha bo'lgan idishlarda to'ldirilish kalibrlangan shprits yordamida, 50 ml va undan ko'p bo'lganlarida – kalibrlangan silindrlarda harorat (20±2)⁰S da aniqlanadi.

Eritmalar xajmi nominal xajmdan kam bo'lmasligi kerak. Parenteral dori vositalari umumiy yoki xususiy maqolalarda keltirilgan usullarda sterilizatsiya qilinadi (sterilizatsiya DF XI nashr, 2vo'p 187 b zaxarlilik 182 b va pirogenli (183 b)).

SHuningdek, bunday dori vositalari mexanik aralashmalarga tekshiruvdan o'tishi kerak.

Quruq parenteral dori vositalarining o'rtacha og'irligi tekshiriladi. Bunda 20 ta ochilgan idishlar 0,001g aniqlikda aloxida-aloxida og'irliklari o'lchanadi, idish ichidagi dori moddasi suv yoki maqolada keltirilgan erituvchi yordamida yuviladi, 100-105⁰S haroratda 1 soat davomida quritiladi. Idishlar va boshqa vositalarining qopqoq yana og'irligi o'lchanadi. So'ngra 20 ta idishning o'rtacha og'irligi va har bir idishdagi dori moddaning og'irligi hisoblanadi.

O'rtacha og'irlikdan har bir idishdagi og'irlik jadvalda keltirilgan chetlanishlarga mos kelishi va bu chetlanishlar ±15% dan oshmasligi kerak.

Bitta idishdagi modda og'irligining chetlanishi

Idishdagi modda, g	Yo'l qo'yilgan chetlanish,%
0,1 va undan kam	±10,0
0,1 dan ko'p va 0,3 dan kam	±7,5
0,3 va undan ko'p	±5,0

Agar 2 ta idishdagi modda og'irligidagi chetlanish jadvaldagiga mos kelmasayu, lekin ±15% dan oshmasa, unda tekshiruvlar yana 40 ta idishlarda olib boriladi. Bunda topilgan chetlanishlar jadvaldagidan bittasi ham katta bo'lmasligi kerak.

20 ta idishdagi moddaning o'rtacha og'irlikdagi chetlanishi xususiy maqolada keltirilgan nominal miqdorga nisbatan ±5% gacha bo'lishi kerak. 0,05 g va undan kam og'irlikda dori moddasini saqlaydigan in'eksiya uchun quruq steril dori vositalari va suspenziyalar dozalar bir xilligiga tekshiriladi.

Tekshirishlar 10 ta idishlarda alohida-alohida xususiy maqoladagi miqdoriy taxlildagi usullar yordamida olib boriladi. Idishlardagi dori modda miqdori nominaldan ±15% gacha chetlanishi mumkin. Agar har bir idishdan chetlanish ±15% oshib ketsayu, lekin ±25% gacha bo'lsa, unda tekshiruvlar qo'shimcha yana 20ta idishlarda olib boriladi. Bunda har bir idishdagi modda miqdordagi chetlanish ±15% dan oshmasligi kerak.

Suspenziyalar uchun qatlamlar ajralishi tekshiriladi. Bunda agar xususiy maqolalarda boshqa yo'riqlar ko'rsatilmagan bo'lsa, suspenziyalar chayqatib bo'lgandan so'ng qatlamlarning ajralish vaqti 5 minutdan kam bo'lmasligi kerak. Suspenziyalar 0840 sonli ignadan shpritsga osongina o'tish kerak.

Gomeopatiya qattiq dori turlarini sifatini baholash. Gomeopatiya qattiq dori turlarini sifatini baholashda ularning tashqi ko'rinishiga e'tibor beriladi.

Gomeopatiya trituratlarini sifatini baholashda kukunning bir hilligini baholash bilan boshlanadi. Vizual ravishda tekshirilganida tayyor triturat kukunining rangi va zarrachalarning tarqalganligi bir hil bo'lishi, qo'zga tashlanadigan kattalikdagi zarrachalar bo'lmasligi kerak. Mikroskop yordamida trituratlarni katta-kichikligini aniqlashda ob'ktiv -8, okulyar – 15 foydalaniladi, bunda o'lchami 25 mkm li zarrachalardan tashkil topgan bo'lishi, va 50 mkm dan katta zarrachalar trituratlarda bo'lmasligi kerak.

Bo'yalgan dori moddalar va metallardan tayyorlangan trituratlarni bir hil aralashganligi lupa yordamida (75-205 marta kattalashtirilgan) aralashmani 20-25 sm balandlikdan qarab aniqlanadi. Bunda dori modda bir tekisda tarqalgan bo'lishi kerak.

1X, 2X, 3X li suyultirishdagi trituratlarda chinligi va miqdorini aniqlash bo'yicha tahlil o'tkaziladi. Dori modda miqdorini chetlanishi quyidagicha taqsimlanadi:

- 1X (10%) suyultirish darajasiga ega dori moddalar miqdorini chetlanishi $\pm 5\%$ dan oshmasligi kerak;
- 2X (1%) suyultirish darajasiga ega dori moddalar miqdorini chetlanishi $\pm 5\%$ dan oshmasligi kerak;
- 3X (0,1%) suyultirish darajasiga ega dori moddalar miqdorini chetlanishi $\pm 10\%$ dan oshmasligi kerak.

Kapilyar-lyuminissent taxlil trituratlarni 5,0 g namunalarida V.SHvabe ko'llanmasining ko'rsatmasi buyicha olib boriladi.

Gomeopatiya trituratlarini umumiy massasi bo'yicha chetlanishi

Berilgan massa, g	CHetlanish, %
0,1 g gacha	± 15
0,1 g dan 0,3 g gacha	± 10
0,3 g dan 1,0 g gacha	± 5
1,0 g dan 10,0 g gacha	± 3
10 g dan 100 g gacha	± 3
100 g dan 250 g gacha	± 2
250 g dan yuqori	$\pm 0,3$

Gomeopatiya granularini sifatini baholashda tashqi ko'rinishiga e'tibor beriladi: $2,0 \pm 0,01$ g granular tortib olib baxolanadi, ular sharsimon ko'rinishda bo'lishi lozim. Birbirigayopishgan granular miqdori 1% dan oshmasligi kerak. Buning uchun $5,0 \pm 0,01$ g granular tortilib, vatahlilqilinadi.

Erishi. 10,0 g granular tortib olinadivahajmi 100 ml likol bagasolinadiva 50 ml 37° Sharoratdagisuvdadaqiqasiga 1-2 martachayoqatilib beriladi. Bunda erish vaqti 5 daqiqadan oshmasligi lozim. Kamida uchta namunada aniklanadi.

Kuritishdagi massa yo'qotishi 1 dan 10% gacha.

Kapilyar-lyuminissent taxlil trituratlariga o'xshash 5,0 g maydalangan granular olib boriladi.

Granularni chinligi va miqdori VFM bo'yicha amalga oshiriladi.

Gomeopatiya granularini umumiy massasi bo'yicha chetlanishi

Berilgan massa, g	CHetlanish, %
1 g gacha	± 5
1,0 g dan 100,0 g gacha	± 3

Gomeopatiya granularini sifatini baholashda X1 DF 2 nashr 154 bet bo'yicha amalga oshiriladi, ta'sir etuvchi moddani miqdori 1X-3X (0.001 g) bulgan granularni chetlanishi 15% dan oshmasligi kerak.

Gomeopatiya qattiq dori turlarini jihozlanishi

Gomeopatiya dori vositalari MTH da keltirilgan tashqi muhit tahsiridan himoyalovchi idishlarda (shisha, plastmassa idishlarda, qog'oz yoki polietilen paketlarda beriladi. Bunda 1X, 2X va 3X suyultirish darajasidagi zaharli va kuchli ta'sir etuvchi moddalar saqlaydigan dori vositalar belgilangan (A va B guruhdagi dori vositalar) tartib bo'yicha jihozlanadi va saqlanadi.

Gomeopatiya qattiq dori turlarini saqlanishi. Gomeopatiya trituratlari og'zi zich berkitilgan shisha idishda, quruq, kerak bo'lsa qorong'i va salqin joyda 5 sutka mobaynida saqlanadi. Bemorga berib yuborilishdan oldin yaxshilab havonchada aralashtiriladi, biroq silkitilmaydi!

Gomeopatiya granulari va tabletkalari 10-25⁰S xaroratda quruq qorong'i joyda, xususi MTH keltirilgan tartibda saqlanadi. Saqlash muddati 2 yil.

Gomeopatiya dori vositalarini potensiyasi uzoq vaqt saqlanib qolishi uchun elektr-magnit maydonidan uzoq bo'lgan joyda saqlash tavsiya etiladi.

Gomeopatiya qattiq dori turlarini ishlatilishi. Gomeopatiya qattiq dori turlari aksariyat hollarda til ostiga (sublingval) qabul qilinadi. Dorilarni qabul qilish tartibini shifokor belgilaydi. Til ostiga qabul qilingan dori vositalar mahalliy va umumiy ta'sir etadi: og'iz shilliq qavati orqali dori modda tez so'riladi; oshqozon-ichak va jigar to'siqlaridan xalos bo'ladi va tez umumiy qon aylanish tizimiga qo'shilib ketadi. Odatda til ostiga kuchli ta'sirga ega bo'lgan va kichik dozadagi dorilar beriladi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan preparatlarni sifatini baxolash usularining ta'rifi.
2. Zamonaviy jixozlash materiallari va ularga qo'yiladigan talablar.
3. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan preparatlarni sifatini baxolash va jixozlash bo'yicha me'yoriy xujjatlar.

ADABIYOTLAR:

1. Maxkamov S.M., Maxmudjonova K.S. Tayyor dori turlari texnologiyasi. Toshkent. 2010. B. 367. (darslik).
2. Тихонов А.И., Ярних Т.Г. Технология лекарств.-Харьков, 2002-704 с.
3. Чуешов В.И. Промышленная технология лекарств. - Харьков, 2002.-Т.2.- 761 с.
4. Александров И.Д., Субботин В.М. Справочник по технологии приготовления лекарственных форм: для ветеринарного врача и фермера. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2001. -192 с.
5. Синёв Д.И., Марченко Л.Г., Синёва Т.Д. Справочное пособие по аптечной технологии лекарств.-С.Петербург, 2001.-316 с.
6. Loyd V. Allen, Jr., Nicholas G. Popovich, Howard C. Ansel. Ansel's Pharmaceutical Dosage Forms and Drug Delivery Systems.-New York: Lippincott Williams & Wilkins, 2011.- P.722
7. Saxton J., Gregory P. Textbook of Veterinary Homeopathy.-New York, 2005.-320 pages.
8. Steven B. Kayne, Michael H. Jepson Veterinary Pharmacy.- New York Pharmaceutical Pr., 2004.-676 pages.

Ma'ruza 20

MAVZU: VETERINARIYA AMALIYOTIDA ISHLATILADIGAN IMMUN TIZIMIGA TA'SIR ETUVCHI VA MAHSULDORLIKNI OSHIRUVCHI PREPARATLAR TEXNOLOGIYASI

Reja:

1. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan zamonaviy dorilar texnologiyasi: immun tizimiga ta'sir etuvchi preparatlar texnologiyasi va nomenklaturasi.
2. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan zamonaviy dorilar texnologiyasi: mahsuldorlikni oshiruvchi preparatlar texnologiyasi va nomenklaturasi.

3. **Tayanch so'z va iboralar:** veterinariya amaliyotida ishlatiladigan zamonaviy dorilar, immun tizimiga ta'sir etuvchi preparatlar, nomenklatura.

Asosiy matn

Oxirgi yillarda xar xil qattiq tashuvchi matritsalariga kimyoviy yoki fizikaviy usul bilan bog'langan /xarakatsizlantirilgan/, ya'ni immobillangan preparatlar tadbiiq qilinmoqda. Immobillangan preparatlarni barpo etishda quyidagi maqsadlar ko'zda tutiladi:

- dori moddalarni ta'sirini uzaytirish;
- dori moddalarni ta'sirini yo'naltirish;
- turg'unligini oshirish;
- salbiy ta'sirini kamaytirish.

Undan tashqari immobillangan preparatlar, polimer matritsalarining hisobiga, xar hil toksik moddalarni adsorbsiya qilish xususiyatiga ega bo'ladi.

Immobillangan preparatlarni (IP) yaratishda asosan oqsil tabiatli moddalar qo'llaniladi. Xozirgi vaqtda ferment, gormon, mukopolisaxarid, albuminlar, gamma-globulin, nuklein kislotasi, interferonning immobillangan preparatlari keng qo'llanilmoqda. Shulardan asosiy qismi—bu immobillangan fermentlar. Shuning uchun ularning misolida immobillash prinsiplarini, asosiy yo'llarini, afzallik tomonlarini ko'rib chiqamiz.

Fermentlarni keng qo'llanilishi bir necha muammolarga bog'liq.

Bulardan:

1. fiziologik muhitlarda fermentlarni tez inaktivatsiyaga uchrab ketishi (xar hil endogen proteazalar ta'siri oqibatida fermentlar tez parchalanib o'z davolovchi ta'sirini yo'qotadi);
2. tanadan tez chiqib ketishi. Bu esa fermentlarni ko'p miqdorda sarflanishiga olib keladi;
3. tanada, begona oqsil sifatida, fermentlarning antigen va spetsifik bo'lmagan toksik xususiyatlari namoyon bo'lishi mumkin.

Yuqorida etilgan muammolarni echimi—fermentlarni immobillangan holatga keltirish.

Immobillangan fermentlarni ishlatish ularni davolovchi kursiga sarflanadigan miqdorini kamaytirishga, ta'sir etish vaqtini uzaytirishga va salbiy reaksiyalar darajasini pasaytirish imkoniyatini beradi.

Immobillangan preparatlarni olish asosiy yo'llari

Immobillangan fermentlarni yaratishda 2-ta asosiy yo'nalish qo'llaniladi:

1. Agar fermentlarning ta'sirini uzaytirish maqsad deb ko'yilsa, unda suvda eruvchan turg'unlashtirilgan turlari olinadi. Bunday fermentlar xar xil omillar ta'siriga nisbatan turg'un bo'ladi va uzoq vaqt mobaynida ular qonda o'z faoliyatini namoyon qiladilar.

2. Agar fermentlarning ta'sirini yo'naltirish kerak bo'lsa unda ta'siri yo'naltirilgan IF yaratiladi, ya'ni ta'siri oldindan belgilangan tezlikda kerakli a'zo yoki to'qimani yoniga fermentlarni polimerli hosilalari o'rnatiladi. SHunday IF lar ma'lum vaqt davomida fermentlarni kerakli miqdorini ajratib turish xususiyatiga ega.

Suvda eruvchan immobillangan fiziologik faol moddalarni preparatlari. Immobillash usullaridan eng keng qo'llaniladigani—bu suvda eruvchanturg'unlashtirilgan oqsil preparatlarni polimerlar yordamida modifikatsiya qilish usuli hisoblanadi. Polimerlar sifatida polisaxaridlar /asosan dekstran/, PVP, PEG, PVSlar ishlatiladi. Ular bilan qatordda xar-xil tabiiy polimerlarni ishlatish qulay deb topilgan: kollagen, fibrin, albumin, geparin /ayniqsa trombolitik immobillangan preparatlarni yaratishda/. YUqori molekullari suvda eruvchan immobillangan ferment preparatlari (IFP) hozirgi paytda eng mo'tadil turdagi ferment preparatlarini hisoblanadi.

Suvda eruvchan fermentlarning polimer hosilalari yuqori turg'unlikka /proteazalar ta'siriga/, uzoq vaqt davomida qonda saqlanadi, chunki polimer bilan bog'langan fermentning molekulyar og'irligi oshish oqibatida ularni buyrak orqali chiqib ketish /filtratsiya/ tezligi kamayadi. SHu bilan bir qatorda IFP tanaga allergik ta'siri ancha past bo'ladi, chunki immobillangan xolatda fermentlarning antitelalarni xosil qiluvchi xususiyatlari ancha susaygan bo'ladi. SHu afzallik tomonlari suvda eruvchan immobillangan fermentlarni tibbiyot sohasida keng qo'llashga sabab bo'ladi. Bulardan bir misol sifatida Streptodekaza

preparatini keltirish mumkin: "Streptodecasum pro injectionibus"-1-nchi immobillash usulida yaratilgan trombolitik xususiyatiga ega bo'lgan preparat. Streptodekaza immobillangan fibrinolizin /streptokinaza/ asosida olingan. Polimer matritsa sifatida - dekstran /poliglyukin/ qo'llanilgan. Streptokinazani immobillash uchun uning eritmasiga poliglyukinning oksidlangan eritmasi qo'shiladi /rN 8,7/ va 1 soat mobaynida aralashiriladi. Streptokinazaning amino guruxi va poliglyukinning aldegid guruxlari bilan birikib azometil bog'liqni hosil qiladi (- SN- N-) So'ng reaksiya aralashma 4⁰ S gacha sovutiladi va natriy borgidrid qo'shib 1 soat davomida (4⁰S) massa aralashiriladi. Fibrinolitik faolligi aniqlangandan so'ng eritma filtrlanadi, kuyuqlashtiriladi. Xosil bo'lgan preparat sterillanadi (membranali filtrlash usuli bilan) va sublimatsiya usulida quritiladi. Preparat poroshok xolatida germetik flakonlarda (10ml-1500000 yoki 1000000FE) ishlab chiqariladi. Ishlatishdan oldin preparat 20-50ml natriy xlorid izotonik eritmasida eritiladi. 1- ta in'eksiya preparatning kondagi konsentratsiyasini 48-72 soat davomida ta'minlaydi.

SHunday prinsipga asolanib, sun'iy qon o'rinbosari va kislorod tashuvchi vosita sifatida, gemoglobinning xam immobillangan preparati yaratilgan. Buning uchun gemoglobin kovalent aloqa orqali dekstranning xosilalariga bog'langan (immobillangan). Natijada immobillangan gemoglobinning qonda aylanish vaqtin bir necha marta (3-4) oshganligi aniqlangan.

SHu yo'nalishda turli fermentlarning (glyukozidaza, alfa-amilaza, lizo-sim) dekstran asosida immobillangan turlari yaratilgan va ular turg'unligi va ta'siri uzaytirilganligi bilan ajralib turadi.

IFP ni xosil bo'lish mexanizmi. Fermentlarni va boshqa oqsil moddalarni immobillanishi polimer matritsa va ferment orasida kovalent bog'lamlar paydo bo'lishiga asoslangan. Bunda polimerning makromolekulasi (zanjirsimon tuzilishiga ega bo'lganligi uchun) fermentning molekulasini, 6 - 10 kovalent bog'lamlar sodir bo'lish natijasida, qoplaydi. Oqibatda fermentlarning ta'siri uzaytiriladi, turg'unligi oshadi, va allergik reaksiyalari kamayadi.

Immobilangan preparatlarni qo'llash onkologiya sohasida xam katta imkoniyatlar ochib beradi. CHunki ximioterapiyaning asosiy muammosi - bu preparatlarni ta'siri qisqa vaqt davomida namoyon bo'lishi. SHuni hisobga olgan holda sitostatik moddalarning ta'sirini uzaytirish bu muhim masala. Bu borada ularni immobillangan ya'ni turli polimerlarga ulangan shakklarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Masalan, aurantin preparatini PVP bilan immobillangan turi bir-necha kun mobaynida (6 sutka) preparatni qondagi miqdorini ta'minlaydi. Respublikamizda Onkologiya va Kimyo texnologiya institutlari xamkorligida qator sitostatik preparatlarni ta'sirini uzaytirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ular keng qo'llaniladigan sarkolizin sitostatik preparatini ta'sirini uzaytirish maqsadida uni suvda eruvchan ATS (VRATS) ning strukturasi ga immobillash usuli qo'llanilgan. Sarkolizin VRATS ga aldegid guruxlari orqali birlashtirilgan (yod kislotasi yordamida). Buning uchun VRATS ga 2% sarkolizinning suvli eritmalari bilan (kislotali muhitda) ishlov berilgan. So'ng, atseton bilan neytral reaksiyagacha yuvilib, kuritilgan. 1 mol VRATS uchun 1,5 mol sarkolizin olish mo'tadil deb topildi. Immobilangan sarkolizinning sitostatik ta'siri 14 - 15 sutkaga cho'zilishi aniqlandi..

Fermentlarni immobillash uchun ularni xar-xil sun'iy xo'jayralarga kiritish usuli xam ishlatiladi. Masalan, mikrokapsulalarga kiritilgan katalaza, ureaza, asparaginaza fermentlarning ta'sir etish vaqtini ancha uzaytirilganligi aniqlandi.

Oxirgi yillarda fermentlarni liposomalarga kiritish imkoniyati o'rganilgan. Liposomalarga immobillangan fermentlarni muhit ta'siriga sezgirliги ancha kam bo'ladi. Undan tashqari antigen va allergik reaksiyalar darajasi ancha past bo'ladi. Hozirgi paytda glyukoooksidaza, betta-galaktozidaza, peroksidaza, sitroxromoksidaza va boshqa fermentlarni liposomalarga immobillangan turlari o'rganilgan. Liposomalarni tarkibiga fermentlarni kiritish uchun ularni suvli eritmalariga fosfolipidlarni eritmalari qo'shiladi va so'ng ultratovush yordamida ishlov beriladi. Fermentlarni liposomal tarkibiga immobillash bir necha afzallik tomonlarga ega:

- liposomalarnitashkiletuvchifosfolipidartabiiymoddalarbo'lganligiuchunularosontanadaparchalana di;
- liposomalarbemalolxujayralarningmembranasidano'tibfermentlarnixujayraningichigakiritishgaimk oniyatberadi.

Mahalliy kasalliklarni davolash uchun mo'ljallangan immobillangan preparatlar. Ayrim maxalliy kasalliklarni davolash uchun IFP zararlangan to'qima yoki a'zolari nonga o'rnatiladi va uzoq

vaqt davomida fermentlar bilan davolashga mo'ljallangan bo'ladi. Ta'siri yo'naltirilgan IF yaratishda xam polimerli yordamchi moddalar qo'llaniladi (PAA, ES, PFX, sefadeks, triatsetat selluloza, nitrotsellyuloza, neylon, ftoroplast, PVS, PVP,). Asosan shu turdagi IF turli shakllarda yaratiladi: granula, tabletka, plynka, tolasimon. Ular tananing kerakli joyiga o'rnatiladi yoki implantatsiya kilinadi. Polimer tarkibidagi ferment asta sekin uzoq vaqt davomida kerakli tezlikda ajralib o'zini ta'sirini ko'rsatadi.

Xozirgi vaqtda organizmda so'rilib ketadigan ferment saqlovchi polimer preparatlarni kateter yordamida mushaklarga kiritib shu erda fermentlarning yuqori mahalliy konsentratsiyasini hosil qilish maqsadga muvofiqdir. Dori moddaning ajralib chiqish tezligi uning molekulyar massasiga, polimerning konsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi. Yo'naltirilgan immobillangan ferment-larning afzallik tomoni- ular tashqi fiziologik muhitdan himoya qilingan bo'ladi va o'rnatilgan joydan belgilangan miqdorda ajralib o'zini ta'sirini ko'rsatadi. SHuni hisobiga davolovchi dozani kamaytirish imkoniyati tug'iladi. Tripsin, lizotsim, katalazalarning immobillangan turlarini granula yoki tabletka shaklida olishda ularning xar xil polimerlar bilan aralashmalari qo'llaniladi. Polimer tashuvchi sifatida xar-xil polimerlar ishlatilish mumkin: sefadeks, triatsetat selluloza, nitrotsellyuloza, etilsellyuloza, PVX, selluloza, PAA, neylon. SHu polimerlarni ustiga ferment kovalent bog'lam orqali bog'langan bo'lib, eritilganda eritmaga polimerning bitta zarrachasi bilan birgalikda o'tadi. Bu holatda uning turg'unligi oshadi va salbiy ta'sirlari ancha kam bo'ladi. Ftoroplast (suvda erimaydigan) yoki PVP (suvda eriydigan) asosida immobillangan proteolitik fermentlar yaratilgan. Ular xar xil yiringlagan yaralarni davolash uchun tavsiya etiladi va plynka (pardalar) shaklida olinadi. Fermentlar diffuziya yoki pardani erish oqibatida ajralib o'zini davolovchi faoliyatini namoyon etadi. SHu turdagi immobillangan fermentlarni samaradorligi yuqori bo'ladi; 3 - 4 marta yaralarning tozalanishi tezlashadi va davolash kursiga sarflanadigan ferment miqdorini 20 martagacha kamaytirish imkoniyati tug'iladi (ta'siri uzaytirilganligi va yo'nal-tirilganligi oqibatida). Ularning yana bir afzallik tomoni - yaraga qoplangan parda uzoq vaqt davomida almashtirilmaslik mumkin. Bu esa rivojlanayotgan, yangidan tiklangan to'qimalarni shikastlanishga yo'l qo'ymaydi. Agar yaralar oddiy doka, bint bilan qoplansa unda ularni almashtirish jarayonida tiklangan to'qimalarga zarar keltiriladi va yaralarni tuzalishi sekinlashadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan zamonaviy dorilar texnologiyasi: immun tizimiga ta'sir etuvchi preparatlar texnologiyasi va nomenklaturasi.
2. Imobillangan preparatlar hakida tushuncha, ta'rif i. Imobillangan fermentlarni yaratish maqsadlari.Immobillash yo'llari
3. Suvda eruvchan immobillangan preparatlarni olish prinsiplari
4. Mahalliy ta'sir etuvchi immobillangan preparatlarni olinishi.
5. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan zamonaviy dorilar texnologiyasi: mahsuldorlikni oshiruvchi preparatlar texnologiyasi va nomenklaturasi.

ADABIYOTLAR:

1. Александров И.Д., Субботин В.М. Справочник по технологии приготовления лекарственных форм: для ветеринарного врача и фермера. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2001. -192 с.
2. Синёв Д.И., Марченко Л.Г., Синёва Т.Д. Справочное пособие по аптечной технологии лекарств.-С.Петербург, 2001.-316 с.
3. Loyd V. Allen, Jr.,Nicholas G. Popovich, Howard C. Ansel.Ansel's Pharmaceutical Dosage Forms andDrug Delivery Systems.-New York: Lippincott Williams &Wilkins, 2011.- P.722
4. Saxton J., GregoryP.Textbook of Veterinary Homeopathy.-New York, 2005.-320 pages.
5. Steven B. Kayne, Michael H. JepsonVeterinary Pharmacy.- New York Pharmaceutical Pr., 2004.- 676 pages.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIKNI SAQLASH
VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMACEVTIKA INSTITUTI
DORI TURLARI TENOLOGIYASI KAFEDRASI**

**5A 320406 – «Dori vositalar va preparatlar technologyasi»
ta'lim yo'nalishi uchun
MUTAHASSISLIK fani**

**“Gomeopatik va veterinar dori vositalarini ishlab chiqarish texnologiyasi”
fanidan**

**1 kurs magistratura talabalari uchun
amaliy mashg'ulotlariga o'quv- uslubiy qo'llanma**

Toshkent-2019

**2. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI
(1 semestr)**

**1-AMALIY MASHG'ULOT
“GOMEOPATIK KO'P KOMPONENTLI TOMCHILAR TEXNOLOGIYASI”**

O'qitish maqsadi: gomeopatik amaliyotida qo'llaniladigan ko'p komponentli tomchilar texnologiyasini o'zlashtirish.

Vaziyatli masalalar

Vaziyatli masala mazmuni	Javobning tahlili va masalaning yechimi
1. Avval o'rganilmagan notanish dorivor xomashyodan kompleks gomeopatik dori turini tayorlashdi. Mumkinmi?	
2. Kompleks gomeopatik dori turini tayorlash uchun suyultirilmagan 96% etil spirti ishlatilgan. To'g'rimi? Qanday	

quvvatga ega bo'lgan etil spirti olinishi kerak edi?	
3. Kompleks gomeopatik dori turini hech ham chayqatmasdan tayorlandi, ta'siri bo'ladimi?	
4. Kompleks gomeopatik tomchisini oldindan tayorlab qo'yish (vnutriaptechnaya zagotovka) mumkin emas deb aytiladi, to'g'rimi?	

Nazorat savollar*

1. Kompleks gomeopatik dori turlarini ishlatish zaruriyati
2. Kompleks tomchilar, tarifi, tasnifi
3. Kompleks tomchilar texnologiyasi
4. Kompleks gomeopatik tomchilar tarkibiga dori moddalar kiritish qoidalari
5. Kompleks gomeopatik tomchilarni ishlatishdagi asosiy kasalliklari

* Nazorat savollar muhokamasi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Loyixa" uslubida olib boriladi

"Loyixa" uslubida nazorat savollarini muhokamasini o'tqazish uchun ko'rsatma:

1. Magistrantlar kichik guruhlariga bo'linadi (2-3 tadan);
2. Har bir guruhga bitta savol (muammo) beriladi;
3. Guruhlarga, mustaqil ishlab, savolni yechishiga 10 daqiqa ajratiladi;
4. Savollar muhokamasini o'tqazish. Buning uchun har bir guruhdan vakillar chiqib, savol yechimini bayon etadi;
5. O'qituvchining yakunlash so'zi. O'qituvchi berilgan javoblarni tahlil qilib, to'ldiradi va baholaydi.

Amaliy topshiriqlar:

Quyidagi keltirilgan kompleks gomeopatik tomchisini texnologiyasini asoslash.

Tarkib:

Calcium karbonicum	6
Bodyaga	12
Urtica	3
Yuglans	6

Ushbu tarkibni tayorlash uchun oldindan tayorlab qo'yilgan quyidagi suyultirishlar bo'lishi kerak:


Calcium karbonicum	5
Bodyaga	11
Urtica	2
Yuglans	5

I -texnologiya: 40,0g preparatni tayorlash uchun 50,0g li flakonga 39,6g 45% li etil spirti tortib solinadi va ketma-ketlikda 0,1g (3 tomchi) dan har bir suyultirilgan komponent solinadi. Lekin har gal 10 marta qattiq chayqatiladi. Ohirida hamma ingredientlar

solingandan so'ng flakonda suyuqlik yana 10 marta chayqatiladi. Preparat rasmiylashtiriladi.

II -texnologiya: flakonga 39,6g 45% li etil spirti tortiladi, uning ustiga 12 tomchi suyultirib bir-biriga qo'shilgan komponentlar aralashmasidan qo'shiladi va 10 marta chayqatiladi.

Mashg'ulotda korib chiqilgan kompleks gomeopatik tomchisi texnologiyasi va adabiyotlarga asoslanib ularni farqi va umumiy tamonlarini Venn diagrammasida ifodalash. Grafik organayzer guruhiga mansub Venn diagrammasi 2 yoki 3 tushunchani, g'oyani, hodisani taqqoslash jarayonida ishlatiladi. Talabalarga mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish konikmalarini hosil qilishga yonaltiruvchi usul.



2. Quyidagi nevrozlarda qo'llaniladigan gomeopatik tarkibni texnologiyasini keltirish:

Koffea C6

Ignatia C6

Passiflora C3

3. Vaziyatli masalalarni yechish

Mavzu bo'yicha berilgan topshiriqlarni muhokama qilish.

Uslubiy taminot va mashg'ulot jihozlanishi:

- asosiy adabiyotlar;
- slaydlar, jadvallar, ma'ruza, prezentaciya, tarqatma materiallar.

Asosiy matn

Gomeopatik amaliyotida ishlatiladigan kompleks tomchilar texnologiyasida o'simlik, mineral va hayvonlardan olingan mahsulotlarni qo'llash mumkin. Kompleks gomeopatik tomchilar tarkibiga asosan ko'p ishlatiladigan yahshi o'rganilgan har tomonlama dorivor moddalar kiritiladi. Kompleks gomeopatik dori vositalari bilan davolanilganda "birlamchi kassalikni zo'rayishi" dek organizmni reakciyasi bo'lishi mumkin. Bu holat esa dorining yuqori darajadagi indikator, aynan shu kasal uchun deb hisoblanadi. Lekin, "birlamchi kassalikni zo'rayishi" havfli emas, oson bartaraf etiladi, agar dorini iste'mol qilishni to'htatilsa. Chunki, gomeopatik dorilarni boshqa dorilardan ajralib turishi ham shu bezararligidir.

Kompleks gomeopatik dorilar surunkali kassalıklarda, aynan nevropatologiya, jarrohlik, dermatologiya, pediatriya, oftalmologiya va boshqa tibbiyot tarmoqlarida ishlatiladi.

Kompleks gomeopatik tomchilarda dorivor moddalar qo'shilishi aniq texnologik jarayon asosida bo'ladi va dori turini sifati kerak bo'lgan nazorat ostida bo'ladi.

Kassaliklarni davolash va oldini olishda kompleks gomeopatik dori vositalarning asosiy o'ziga hosligi: butun organizmga ta'sir qilishi, samaradorligi, havfsizligi, doriga o'rganish yoqligi, oson topilishi, nojo'ya ta'sirlar ko'rsatmasligi.¹⁴

Mavzuni o'zlashtirishini tekshirish

Nazorat test savollari:

1. Gomeopatik kompleks dorilar nima?
 - A. Murakkab dorilar
 - B. Ko'p komponentli
 - C. Tarkibida bittadan oshiq dorivor modda saqllovchi o'simlik, mineral, hayvonlardan olingan
 - D. Faqat tomchilar
2. Kompleks gomeopatik tomchilar ko'p ishlatiladigan tarkiblar asosida tuziladi, nima uchun?
 - A. Samarali
 - B. Natijali
 - C. Texnologiyasi oson
 - D. Arzon, samarali, natijali
3. Kompleks gomeopatik tomchilar aynan qaysi kassalıklarda ishlatilishi maqsadga muvofiq?
 - A. Surunkali
 - B. O'tkir
 - C. Diagnozi qo'yilmagan
 - D. Operatsiya qilinadigan
4. Kompleks gomeopatik tomchilarni ishlatiladigan tibbiyot sohalari
 - A. Pediatriya
 - B. Nevropatologiya
 - C. Dermatologiya
 - D. Oftalmologiya, jarrohlik, dermatologiya, pediatriya, nevropatologiya
5. Kompleks gomeopatik tomchilarda shunday dorivor moddalar solinadiki, ular bitta azoga ta'sir etadimi yoki har-hil?
 - A. Bitta
 - B. Ikkita
 - C. Har-hil
 - D. Farqi yo'q
6. Kompleks gomeopatik tomchilar – bu individualmi yoki yo'q?
 - A. Yo'q

¹⁴Sharett J. Практическое гомеопатическое лекарствоведение: руководство: пер. с франц. – к.: УРЕ, 1990.- 205 с. YSBN 5 – 016 – 06 (в переводе).

- B. Ha
 C. Farqi yo'q
 D. Guruh
7. Kompleks gomeopatik tomchilarni ishlatishdagi eng birinchi zaruriyat nimada?
 A. Atrof-muhit iflosligidan
 B. Ichki gomeostaz muvozanatini ushlab
 C. Stress
 D. Toksinlar
8. Kompleks gomeopatik tomchilarning farmakologik faolligi qanday?
 A. Texnologik jarayon aniqligi, hom-ashyo va tayyor mahsulotni sifat nazorati
 B. Dozalari
 C. Olingan komponentlarni tozaligi
 D. Mikrobiologik tozaligi
9. Kompleks gomeopatik tomchilarning faolligi qanday?
 A. Keng
 B. Yo'q
 C. Har-hil
 D. Yarim
10. Kompleks gomeopatik tomchilar belgilanadi, tasiri qanday?
 A. Bir gomeopatik dorini tasiriga ikkinchisniki qo'shiladi
 B. Ta'siri o'zgaradi
 C. Kuchayadi
 D. O'zgarish bo'lmaydi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Тихонов А.И. и др. Основы гомеопатической фармации.-Харьков.-Золотіе страниці.-2002.-574 с.
2. Назарова З.А., Туреева Г.М. Махсус дори турлари технологияси Т.2009.-164с.
3. Шаретт Ж. Практическое гомеопатическое лекарствоведение. Руководство: пер. с франц.-К.:УРЕ, 1990.- 205с. YSBN 5-016-6 (в пер.)
4. Loyd V. Allen, Jr., Nicholas G. Popovich, Howard C. Ansel. Ansel's Pharmaceutical Dosage Forms and Drug Delivery Systems.- New York: Lippincott Williams & Wilkins, 2011.- P.722
5. Steven B. Kayne Homeopathic Pharmacy: Theory and Practice, (2nd Edition).- New York, 2006.-366 pages.
6. Назиров З.Н. Гомеопатия.-Тошкент. 2001.-96б.
7. www.provisor.com.ua/archive/2004/N17art_26php
8. www.nanolab.com.ua.
9. <http://protabletki.ru>

2-AMALIY MASHG'ULOT

“GOMEOPATIK KOMPLEKS TA'SIRLI SIROPLAR TEXNOLOGIYASI”

O'qitish maqsadi: gomeopatiya amaliyotida qo'llaniladigan kompleks dorilar bilan tanishish.

Vaziyatli masalalar

Vaziyatli masala mazmuni	Javobning tahlili va masalaning yechimi
1. Talaba gomeopatik kompleks ta'sirli qiyomni tayorlash uchun oddiy 50% shakar qiyomini olib unga dorihatda keltirilgan o'simlik homashyolari tindirmasidan qoshdi. To'g'rimi?	
2. Tinchlanturuvchi kompleks ta'sirli gomeopatik qiyomni tayorlashda uning dorihatda keltirilgan suyiltirish darajasiga ahamiyat bermasdan barcha dori tindirmalarni "fita" belgiligidan olindi va ketma-ket chayqatmasdan bir biriga qoshildi. To'g'rimi?	
3. Uch yoshdagi bolaga dorixonadan tinchlantiruvchi gomeopatik qiyom berildi. Yarim choy qoshiqdan ichiladi deb aytili. Toliq ma'lumot boldimi?	

Nazorat savollar*

1. Gomeopatiya amaliyotida ishlatiladigan siroplar tarifi
2. Kompleks ta'sirli gomeopatik siroplar nomenklaturasi
3. Kompleks ta'sirli gomeopatik siroplar texnologiyasi
4. Gomeopatik siroplarni ishlatilishi

*"Loyixa" uslubida nazorat savollarini muhokamasini o'tqazish uchun ko'rsatma:

1. Magistrantlar kichik guruhlariga bo'linadi (2-3 tadan);
2. Har bir guruhga bitta savol (muammo) beriladi;
3. Guruhlarga, mustaqil ishlab, savolni yechishiga 10 daqiqa ajratiladi;
4. Savollar muhokamasini o'tqazish. Buning uchun har bir guruhdan vakillar chiqib, savol yechimini bayon etadi;
5. O'qituvchining yakunlash so'zi. O'qituvchi berilgan javoblarni tahlil qilib, to'ldiradi va baholaydi.

Amaliy topshiriqlar:

1. Edas firmasi tomonidan ishlab chiqilgan (306,307,308) gomeopatik siroplar tarkibini keltirish. Edas-306, Edas-307, Edas-308 gomeopatik siroplarning bittasini texnologiyasini asoslab berish.
2. Gomeopatik siroplarni qo'llanishini kattalar va bolalar uchun alohida keltirish.
3. Quyidagi tinchlantiruvchi kompleks ta'sirli gomeopatik siropni texnologiyasini asoslash:

Grataegus 2 c

Leonurum 1 x

Tinctura Valerianae Ø

10,0 g sirop tayorlash va baholash (og'zaki).

4. Vaziyatli masalalarni yechish.

Mavzu bo'yicha berilgan topshiriqlarni muhokama qilish (Гомеопатические лекарственные средства «Edas». М.,2001. С. 64, 23).

Uslubiy ta'minot va mashg'ulot jihozlanishi: gomeopatik dorilar texnologiyasiga tegishli MTHlar; ma'lumotnomalar, adabiyotlar, tarqatma materiallar, slaydlar, kolleksiya, jadvallar.

Asosiy matn

Kompleks dorivor vositalar keng qo'llaniladigan tarkiblar asosida va yahshi o'rganilgan bir komponentli gomeopatik vositalardan tashkil topgan bo'ladi. Ayniqsa ularning samaradorligi amaliyotda ishlatilib kassaliklarni davolanishi bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Kompleks gomeopatik dori vositalari bilan davolanganda «birlamchi kassalikni zo'raishi» reaksiya bo'lishi mumkin.

Bu holatni esa ushbu preparatni aniq bemorlar uchun yuqori samarali indikatoridir. Kassalikni birlamchi zo'raishi havfli emas va oson bartaraf etiladi, uning uchun dorining qabul qilinishi to'htatiladi. Asosiy dorilarga qo'yilgan talab-bu ziyonsizligi. Demak kompleks preparatlar ham ziyon keltirmasligi kerak.

Kassalikning o'hshashlik prinsipi asosida davolash bu ushbu holatni yechimidir. Bu holatni tushunish uchun oddiy bir misolni Ganeman keltirgan. Odam organizmiga issiq va sovuqni ta'siri: agar sovuq olgan qolni issiq suvga solinsa, qo'l darrov isib boshlaydi (bu birlamchi reaksiya), lekin undan keyin ikkilamchi reaksiya qarama qarshi bo'ladi, chunki issiq suvga solingan qo'l sovuq qotadi suvdan chiqargandan so'ng.

Agar o'hshashlik prinsipi asosida sovuq olgan qo'lni muzday suvga solinsa shok holat vujudga keladi, keyin esa qo'l issibketadi – bu himoyalaniish reაციyasidir.¹⁵

Mavzuni o'zlashtirishini tekshirish

Nazorat test savollari:

1. Siroplar nima?

A. O'simliklardan olingan sharbat

B. Suyuq dori turi

C. Quyuqroq tiniq shakarning suvdagi koncentrlangan eritmasi va dorivor preparatlar qo'shilgan aralashma

D. Shakarning suvdagi eritmasi

2. Siroplarni ichish qoidasi qanday?

A. Chayqatish va suv bilan suyultirish

B. Suyultirish

C. Faqat chayqatish

D. Farqi yo'q

3. Siroplarni baholash uchun aniqlanuvchi ko'rsatkichlar:

A. Tashqi ko'rinish, zichligi, shakarning koncentraciyasi; nominal xajmi.

¹⁵Keller G. Gomeopatiya – M.,1990;-590 c.

- B. Jixozlanishi
 - C. Zichligi
 - D. Spirt quvvati
4. Oddiy qiyom tarkibidagi shakarning koncentraciyasi qancha?
- A. 50%
 - B. 40%
 - C. 60%
 - D. 64%
5. Nima uchun qiyomni ishlatishdan avval chayqatish kerak?
- A. Chokmani eritish uchun
 - B. Potencialash uchun
 - C. Ta'siriga bog'liq
 - D. Suyultirish uchun
6. Gomeopatik qiyomlarni kattalar va bolalar uchun ishlatilishida farqi bormi?
- A. Yo'q
 - B. Bor
 - C. Dozasida
 - D. Suyultirishda
7. Qiyomlar kasallikni oldini olish uchun qanday qollaniladi?
- A. Davolovchi dozasining $\frac{1}{4}$ - $\frac{1}{2}$ qismi
 - B. Davolovchi dozasining $\frac{1}{2}$ qismi
 - C. Davolovchi dozasining $\frac{1}{3}$ qismi
 - D. Hudda davolovchi dozasidek
8. Edas firmasi qaysi davlatniki?
- A. AQSH
 - B. Avstriya
 - C. Qozog'iston
 - D. Rossiya
9. Edas firmasida nechta qiyom chiqariladi?
- A. 3
 - B. 2
 - C. 5
 - D. 10
10. Edas firmasining qiyomlari asosan qaysi kasalliklarga moljallangan?
- A. Umumiy quvvat beruvchi
 - B. Respirator
 - C. Stomatit
 - D. Nevroz, nevrosteniya, shamollash va virus kasalliklari

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Тихонов А.И. и др. Основі гомеопатической фармации.-Харьков.-Золотіє страниці.-2002.-574 с.
2. Назарова З.А., Туреева Г.М. Махсус дори турлари технологияси Т.2009.-164с.
3. Шаретт Ж. Практическое гомеопатическое лекарствоведение. Руководство: пер. с франц.-К.:УРЕ, 1990.- 205с. YSBN 5-016-6 (в пер.)

4. Keller G. Gomeopatiya – M.,1990;-590 с.
5. Steven B. Kayne Homeopathic Pharmacy: Theory and Practice, (2nd Edition).- New York, 2006.-366 pages.
- 6.Назиров З.Н. Гомеопатия.-Тошкент. 2001.-96б.
7. www.provisor.com.ua/archive/2004/N17art_26php
8. www.nanolab.com.ua.
9. <http://protabletki.ru>

3-AMALIY MASHG'ULOT

«GOMEOPATIK ELIKSIRLAR TEXNOLOGIYASI»

O'qitish maqsadi: Gomeopatiya amaliyotida qo'llaniladigan eliksir texnologiyasini va nomenklaturasini o'zlashtirish.

Vaziyatli masalalar

Vaziyatli masala mazmuni	Javobning tahlili va masalaning yechimi
1. Kompleks eliksirlar qanday vositalar turiga mansub degan savolga talaba suyuq dori turi deb javob berdi?	
2. Gomeopatik eliksirlarni saqlash davomida turg'unligini ta'minlovchi omil nima degan savolga talaba salqin sharoyiti deb javob berdi?	
3. Vita-dar va Kaskatol gomeopatik eliksirlarning deyarli farqi kam va ular kattalar uchun moljallangan deb javob berdi talaba. To'g'rimi?	
4. Vita-dar gomeopatik eliksiri texnologiyasida talaba keltirilgan tarkibdagi tindirma, ekstrakt va sharbatlarni bir-biri bilan tog'ridan tog'ri qoshdi. Hatosi nima?	
5. Dorixonadan tayor eliksirni olib ikki yosh bolaga qattiq shamollaganda onasi ichirdi. To'g'rimi?	
6. Dorixonada Kaskatol eliksir yo'q ekan. Farmacevt bemorga Kaskatol eliksiri tarkibidagi vitamin C va E larni alohida berdi. To'g'rimi?	

Nazorat savollar*

1. Elikisirlar tarifi
2. Gomeopatik eliksirlar nomenklaturasi
3. Gomeopatik eliksirlar texnologiyasi va ishlatilishi

* Nazorat savollar muhokamasi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning “Bumerang” uslubida olib boriladi

“Bumerang” uslubida nazorat savollar muhokamasini o'tqazish bo'yicha ko'rsatma:

1. Auditoriyadagi magistratura talabalari 3-4 ta kichik guruhga bo'linadi;
2. Kichik guruhlarga savollar bo'lib beriladi va ularga tayorlanish va o'zaro guruh ichida muhokamasi uchun 5-8 daqiqa ajratiladi;
3. Guruh vakillarini almashtirish va yangi savollarni guruh ichida o'zlashtirish 5-8 daqiqa;
4. Mustaqil tayorlash uchun berilgan savollar muhokamasini o'tqazish va kichik guruhlar bergan javoblarni baholash

Amaliy topshiriqlar:

1. Elikisir «Edas», eliksir «Vita-dar» va «Kaskatol» tarkibi va texnologiyasini keltirish (Gom lek. sr-va Edas. M. 2001. 65-66 b)
2. Gomeopatik eliksirlarni qo'llanishini keltirish.
3. Quyidagi «Vita-dar» va «Kaskatol» gomeopatik eliksirlarning kattalar uchun qabul qilinishini keltirish:

- O'tkir kassaliklar;
- Surunkali kassaliklar;
- Kassalikni oldini olish uchun.

Mavzu bo'yicha berilgan topshiriqlarni muhokama qilish.

Uslubiy ta'minot: mavzu bo'yicha adabiyotlar.

Asosiy matn

Elikisirlar - murakkab ko'p komponentli gomeopatik vositalar bo'lib, tarkibida olma, olcha sharbatlar, tonus beruvchi dorivor o'simliklar ekstraktleri; aroniya, do'lana, chetan, namatak, yalpiz, bo'yodaron, olcha bargi, chayano't, tog'rayhon qyain daraxti barglari undan tashqari B guruh vitaminlar; C, E, K, PP, karotin, flavonoidlar, antocian, katexim va organik kislotalar, boshqa BFMLar saqlaydi.

Ishlatilishi bo'yicha asosan odamni ish qobiliyatini oshiradi, organizmning immunitetini oshirib har hil kassaliklarni oldini oladi, organizmni vitaminlar bilan boyitadi. Umumiy organizmni tetiklantirib chiniqtiradi.¹⁶

Mavzuni o'zlashtirishini tekshirish

¹⁶Berike V. Материя медико-гомеопатических препаратов.-М.: Гомеопатическая медицина,1998.-667с.

Nazorat test savollari:

1. Gomeopatik eliksirlar bu:

- A. Kompleks dori turi
- B. Murakkab ko'p komponentli vosita
- C. Oddiy shakar qiyomi
- D. Murakkab ko'p komponentli, tarkibida meva sharbatlari, tonus beruvchi dorivor o'simlik ekstraktlari bo'lgan gomeopatik vosita

2. Gomeopatik eliksirlar ishlatiladi:

- A. Odamlarni immunitetini, ish qobiliyatini oshirib kasalliklarni oldini oladi
- B. Tinchlantiradi
- C. Immunitetni oshiradi
- D. Davolovchi vosita

3. Gomeopatik eliksir qanday dori turi?

- A. Qattiq
- B. Aralashma
- C. Suyuq
- D. Yumshoq

4. Gomeopatik eliksirda vitaminlar bormi?

- A. Ha
- B. Yo'q
- C. Kam
- D. Deyarli

5. Gomeopatik eliksirlarning texnologiyasi:

- A. Shvabe qollanmasi bo'icha
- B. Gomeopatik suyuq dorilar texnologiyasi bo'icha
- C. Farqi yo'q
- D. 1:100 suyultirish boyicha

6. Gomeopatik eliksirlar nomenklaturasida keng qollaniladiganlarini keltiring:

- A. Eleksirlar
- B. Vita-dar
- C. Kaskatol
- D. Vita-dar va Kaskatol

7. Vita-dar va Kaskatol eliksirlar kattalarda qaysi holatlarda ishlatiladi?

- A. Surunkali
- B. O'tkir
- C. Kasallikni oldini olish
- D. Surunkali, o'tkir va kasallikni oldini olish

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Тихонов А.И. и др. Основы гомеопатической фармации.-Харьков.-Золотіє страниці.-2002.-574 с.
2. Назарова З.А., Туреева Г.М. Махсус дори турлари технологияси Т.2009.-164с.
3. Berike V. Материя медико-гомеопатических препаратов.-М.: Гомеопатическая медицина,1998.-667 с.
4. Keller G. Gomeopatiya – М.,1990;-590 с.
5. Steven B. Kayne Homeopathic Pharmacy: Theory and Practice, (2nd Edition).- New York, 2006.-366 pages.
6. Назиров З.Н. Гомеопатия.-Тошкент. 2001.-96б.
7. www.provisor.com.ua/archive/2004/N17art_26php
8. www.nanolab.com.ua.
9. <http://protabletki.ru>

4-AMALIY MASHG'ULOT

“GOMEOPATIK SIRTKI SUYUQ DORILAR TEXNOLOGIYASI”

O'qitish maqsadi: Gomeopatik amaliyotida sirtki suyuq ishlatiladigan moylar, spirtlar, linimentlar va opodeldoklar texnologiyasini o'zlashtirish.

Vaziyatli masalalar

Vaziyatli masala mazmuni	Javobning tahlili va masalaning yechimi
1. Spiritus apis eritmasi 10% qilib tayorlandi, to'g'rimi?	
2. Kalendula moyi 10% li vazelinda tayorlandi, hatosini ko'rsating.	
3. Sofora moyini 30,0 tayorlash kerak, lekin koncentraciyasi ko'rsatilmaganligi uchun 5% li qilib tayorlandi, to'g'rimi?	
4. Brioniya opodeldokni (10%) tayorlash uchun brioniya essenciyasidan olingan, to'g'rimi? Noto'g'ri bo'lsa, to'g'ri texnologiyasini keltiring.	

Nazorat savollar*

1. Oddiy va murakkab tarkibli gomeopatik spirtlar tarifi, texnologiyasi
2. Gomeopatik sirtki ishlatiladigan spirtlar, moylar, opodeldoklarda kichik dozalar principini qo'llanishi
3. Gomeopatik moylar koncentraciyasini ifodalanishi
4. Gomeopatiya amaliyotida keng ishlatiladigan moylar nomenklaturasi
5. Gomeopatik moylar tayorlash texnologiyasi
6. Gomeopatik sirtki ishlatiladigan дори turlarini sifatini baholash

*Nazorat savollar muhokamasi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning “Zakovatli zukko” metodi bo’yicha olib boriladi. Metod magistratura talabalari bilan yakka tartibda, kichik “zukkolar” guruhida va ommaviy ishlashda birdek qo’llanilishi mumkin.

“Zakovatli zukko” metodida mustaqil tayorlash savollarini muhokamasini o’tqazish uchun ko’rsatma:

1. Metod o’z hohishlariga ko’ra shaxsiy imkoniyatlarni sinab ko’rish istagida bo’lgan magistratura talabalari uchun qulay imkoniyatni yaratadi;
2. Magistratura talabalari o’qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatda (2 daqiqada!) to’g’ri va aniq javob qaytarishlari kerak;
3. Savollarni murakkabligi darajasiga ko’ra magistratura talabalariga har bir to’g’ri bergan javoblarga ko’ra ballar belgilanadi;
4. Yakuniy ballarning o’rtacha arifmetik qiymatini topish asosida magistratura talabalarining tafakkur tezligi aniqlanadi;
5. O’qituvchining yakunlash so’zi, bunda o’qituvchi magistratura talabalarining javoblarini tahlil qilib, to’ldiradi va baholaydi, shuningdek ularning shaxsiy imkoniyatlari to’g’risida aniq tasavvurga ega bo’ladi va “eng zakovatli zukko magistratura talabasi”ni e’lon qiladi.

Amaliy topshiriqlar:

1. Murakkab Lori spirtini (radikulitda surtish uchun) tayorlash texnologiyasini o’zlashtirish.
2. Maceraciya usulida moyli ajratmani mavrak o’ti yoki yalpiz bargidan olish jarayonini daftarda yoritish:
Mavrak er ustki qismi 20,0
Etil spirti 95% 20,0
Kungaboqar moyi 100,0
3. Vaziyatli masalalarni yechish
4. Mavzu bo’yicha berilgan topshiriqlarni muhokama qilish

Uslubiy ta’minot: gomeopatik dorilar texnologiyasiga tegishli MTHlar; malumotnomalar, adabiyotlar, tarqatma materiallar, slaydlar, kolleksiya, jadvallar.

Asosiy matn

Gomeopatiya amaliyotida ishlatiladigan sirtki dori turlaridan spirtlar, moylar va linimentlar mavjud. Bunday dori turlarida kichik dozalar prinsipi qo’llanilmaydi. Spirtlarni tayorlash uchun kerakli spirtli nastoykalar 70% etil spirti bilan aralashiriladi. Gomeopatiyada murakkab Lori spirti keng qo’llaniladi. U radikulitda, mushak og’rig’ida ishlatiladi. Preparat tarkibidagi komponentlarni spirtli nastoykasidan olinadi.

Moylar 10% koncentraciyasi sirtki dori sifatida zaytun, bodom, kungaboqar, vazelin moylarida tayorlanadi. Moylar texnologiyasida olingan nastoykalar moylar bilan qattiq chayqatiladi. Lekin ayrim gomeopatik moylar koncentraciyasi alohida belgilanadi: Apis,

Aconit, Cantharis va boshqalar. Spirtlar va moylar sifatini birhilligi, rangi, hidi, mehanik iflosliklar yo'qligi bilan aniqlanadi. Opodeldoklar suyuq linimentlar bolib sovun eritmasi spirt bilan aralashmasiga aytiladi.¹⁷

Mavzuni o'zlashtirishini tekshirish

Nazorat test savollari:

1. Gomeopatik moylar texnologiyasida ishlatiladigan o'simlik moylari:
 - A. Vazelin, lanolin, kollagen
 - B. Kungaboqar, zaytun, bodom, suyuq parafin
 - C. Vazelin, parafin, silikon
 - D. Zaytun, kungaboqar
2. Belladonna tinkurasidan 10,0 g gomeopatik spirt dori tayorlash uchun qancha dori moddasi olinadi:
 - A. 0,5
 - B. 10
 - C. 20 g
 - D. 1,0
3. Gomeopatik spirtli yoki moyli dori turini essenciyadan tayorlash mumkinmi?
 - A. Yo'q
 - B. 1:10 da
 - C. Ha
 - D. Faqat aloedan
4. Gomeopatik spirtlar necha foizli spirtda tayorlanadi?
 - A. 45
 - B. 60
 - C. 70
 - D. 90
5. Gomeopatik spirtli eritmalar qaysi usulda tayorlanadi?
 - A. Tortish
 - B. O'lchash
 - C. Tortib-o'lchash
 - D. Farqi yo'q
6. Gomeopatik moylar qaysi usul bilan tayorlanadi?
 - A. Tortish
 - B. O'lchash
 - C. Tortib-o'lchash
 - D. Farqi yo'q
7. Gomeopatik spirtli, moyli dorilarni qanday idishda jihozlanadi?
 - A. Farqi yo'q
 - B. MTHlarga asoslanib
 - C. Qo'ng'ir idishlarda
 - D. Burama qopqoqli qo'ng'ir idishda
8. Gomeopatik spirtlar, moylar sifatini aniqlovchi ko'rsatkichlar:

¹⁷Vannie L. Гомеопатические средства при острых состояниях. -М.:Атлас,1993.-448 с

- A. Birhilligi
 B. Rangi va hidi
 C. Mehanik iflosliklar yo'qligi
 D. Birhilligi, rangi va hidi, mehanik iflosliklar yo'qligi
9. Gomeopatik spirtlar, moylarni rasmiylashtirishda nimalar albatta ko'rsatiladi?
 A. Sirtki
 B. Dori turini nomi
 C. Massasi
 D. Sirtki, dorini nomi, koncentraciyasi, sana
10. Gomeopatik dorilarda fita (Ø) belgisi nimani ko'rsatadi?
 A. Birlamchi (matricali) olingan nastoykalar 100 foizli deb hisoblanishi
 B. Faqat essenciyalar belgilanishi
 C. Suyultirishi
 D. Juda suyultirilganligi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Тихонов А.И. и др. Основі гомеопатической фармации.-Харьков.-Золотіє страниці.-2002.-574 с.
2. Назарова З.А., Туреева Г.М. Махсус дори турлари технологияси Т.2009.-164с.
3. Vannie L. Гомеопатические средства при острых состояниях.-М.:Атлас,1993.-448 с
4. Keller G. Gomeopatiya – М.,1990;-590 с.
5. Steven B. Kayne Homeopathic Pharmacy: Theory and Practice, (2nd Edition).- New York, 2006.-366 pages.
6. Назиров З.Н. Гомеопатия.-Тошкент. 2001.-96б.
7. www.provisor.com.ua/archive/2004/N17art_26php
8. www.nanolab.com.ua.
9. <http://protabletki.ru>

5-AMALIY MASHG'ULOT **“GOMEOPATIK MURAKKAB SURTMALAR TEXNOLOGIYASI”**

O'qitish maqsadi: Gomeopatik murakkab surtmalar texnologiyasini o'zlashtirish.

Vaziyatli masalalar

Vaziyatli masala mazmuni	Javobning tahlili va masalaning yechimi

1. Ko'p komponentli kombirlangan gomeopatik surtmalarni tayorlashda avval suspenziya tiplari tayorlanib, keyin ular qo'shiladi. To'g'rimi?	
2. Dorihatda keltirilgan gomeopatik surtma tarkibidagi tinkturalar vazelin bilan aralashadi deb javob berdi talaba. To'g'rimi?	
3. Gomeopatik surtmaning sifatini baholash uchun talaba farmaceutik kimyo darsliklardan foydalandi. To'g'rimi?	
4. Gomeopatik surtmalarni baholash uchun Shvabe qo'llanmasi koriladi. Javob yetarlimi?	

Nazorat savollar*

1. Oddiy va murakkab tarkibli gomeopatik surtmalar tarifi
2. Murakkab tarkibli gomeopatik surtmalar texnologiyasida qo'llaniladigan asoslar
3. Murakkab tarkibli gomeopatik surtmalar tayorlash asoslari
4. Murakkab tarkibli gomeopatik surtmalar sifatini baholash va qo'llash tartiblari
5. Murakkab tarkibli gomeopatik surtmalar nomenklaturasi

*Nazorat savollar muhokamasi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "FSMU"-uslubida olib boriladi.

O'tqazilish tartibi:

1. Har bir o'quvchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi
 - **F** – fikringizni bayon eting
 - **S** – fikringiz bayoniga **sabab** ko'rsating
 - **M** – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi **misol** keltiring
 - **U** – fikringizni **umumlashtiring**
2. O'quvchilar bilan baxs mavzusini yoki muammoni belgilab olinadi;
3. Kichik guruhlariga bo'lib, tarqatilgan qog'ozlarga fikr va misollar yoziladi;
4. Kichik guruhlarini yozgan fikrlarini o'qib ximoya qilinadi;

Amaliy topshiriqlar:

1. V. Shvabe farmakopeyasida (27-28 betlar) keltirilgan murakkab tarkibli surtmalar: Koriza, Albumin, Linin va tumovga qarshilarini ko'rib chiqish va texnologiyasini keltirish.
2. A.I.Tihonov muallifligida "Osnovy gomeopatcheskoy farmacii" kitobidan 503-505 bb. keltirilgan surtmalarni tarkiblarini va qo'llanilishini yozish (3- ta)
3. Quyidagi keltirilgan murakkab tarkibli gomeopatik surtmani tayorlash jarayonini daftarda yoritish:
 - Arnica 0 4,0
 - Calendula 0 4,0
 - Belladonna 0 2,0
 - Lanolin 5,0
4. Vazelin 85,0
4. Vaziyatli masalalarni yechish;

5. Mavzu bo'yicha berilgan topshiriqlarni muhokama qilish

Uslubiy ta'minot: gomeopatiya texnologiyasiga tegishli MTHlar, adabiyotlar, tarqatma materiallar, jadvallar.

Asosiy matn

Surtma dorilar, eritma, emulsiya, suspenziya, kombirlangan tipda uchraydigan allopatik surtamalari kabi, lekin asos sifatida vazelin va lanolin olinadi. Surtmalar tarkibida kuchli ta'sir etuvchi moddalar 5% va umumiy ro'yhatdagilar 10% bolib tayorlanadi. Surtmalarda boshqa sirtki dori turlaridek kichik dozalar principi qo'llanilmaydi. Surtmalar umumiy qoidalar boyicha tayorlanadi. Sifati baholanib jihozlanadi. Amaliyotda ko'pincha quyidagi mono tarkibli surtamalar qo'llaniladi¹⁸

Oddiy gomeopatik surtmalar Ukrainadagi dorixona nomenklaturasi

1. Unguentum Calendulae 10%-100,0
2. Ung. Arnicae 10%-100,0
3. Ung. Hyperici 10%-100,0
4. Ung. Ledum 10%-100,0
5. Ung. Thujae 10%-100,0
6. Ung. Bryoniae -10%-100,0
7. Ung. Compositum -100,0
8. Ung. Rhus 5%-100,0
9. Ung. Chelidonium 5%-100,0
10. Ung. Belladonna 5%-100,0

Gomeopat shifokorlar tomonidan tavsiya etilgan gomeopatik surtmalar:

1. Ung. Aesculus 10%-100,0
2. Ung. Chamomillae 10%-100,0
3. Ung. Hamamelis 10%-100,0
4. Ung. Rutaе 10%-100,0
5. Ung. Eucalypti 10%-100,0
6. Ung. Cimicifugae 10%-100,0
7. Ung. Croton 3%-100,0
8. Ung. Spongiae 5%-100,0
9. Ung. Phytolaccae 10%-100,0
10. Ung. Cantharis 3%-100,0

Mavzuni o'zlashtirishni tekshirish:

- a) 1- ta test tuzish
- b) 1- vaziyatli masala keltirish
- c) nazorat test savollari

Nazorat test savollari:

1. Murakkab tarkibli gomeopatik surtma bu:
A. Eritma

¹⁸Zelikman T. Y., Yalkut S.I. Гомеопатия в системе фармакотерапии.-Киев; Здоровья, 1994.-78с.

- B. Emulsiya
 - C. Suspenziya
 - D. Eritma, emulsiya, suspenziya, kombirlangan tipdagi yumshoq dori turi
2. Gomeopatik surtmani allopatik surtmadan farqi:
- A. Farqi yo'q
 - B. Bir-hil
 - C. Dozasida
 - D. Texnologiyasida
3. Shvabe qo'llanmasi asosida gomeopatik surtmada qanday asos ishlatiladi?
- A. Vazelin
 - B. Vazelin va Lanolin
 - C. Hidrofob
 - D. Hidrofil, Difil
4. Gomeopatik surtmalarda kuchli ta'sir etuvchi moddadan necha foizli tayorlanadi?
- A. 3
 - B. 4
 - C. 5
 - D. 10
5. Umumiy ro'yhatdagi dori moddalardan gomeopatik surtma necha foizli tayorlanadi?
- A. 10
 - B. 15
 - C. 20
 - D. 5
6. Surtmalarda kichik dozalar principi ishlatiladimi?
- A. Ha
 - B. Yo'q
 - C. Bir hil
 - D. Noma'lum
7. Gomeopatik surtmalar texnologiyasi qanday?
- A. Umumiy qoidalar boyicha
 - B. O'ziga hos
 - C. Shvabe qo'llanmasi boyicha
 - D. XI DF boyicha

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Тихонов А.И. и др. Основі гомеопатической фармации.-Харьков.-Золотіє страниці.-2002.-574 с.
2. Назарова З.А., Туреева Г.М. Махсус дори турлари технологияси Т.2009.-164с.
3. Zelikman T. Y., Yalkut S.I. Гомеопатия в системе фармакотерапии.-Киев; Здоровья, 1994.-78с.
4. Loyd V. Allen, Jr.,Nicholas G. Popovich, Howard C. Ansel.Ansel's Pharmaceutical Dosage Forms andDrug Delivery Systems.- New York: Lippincott Williams &Wilkins, 2011.- P.722

5. Steven B. Kayne Homeopathic Pharmacy: Theory and Practice, (2nd Edition).- New York, 2006.-366 pages.
6. Назиров З.Н. Гомеопатия.-Тошкент. 2001.-96б.
7. www.provisor.com.ua/archive/2004/N17art_26php
8. www.nanolab.com.ua.
9. <http://protabletki.ru>

6-AMALIY MASHG'ULOT

“GOMEOPATIK KOMPLEKS TA'SIRLI GRANULALAR TEXNOLOGIYASI”

O'qitish maqsadi: yakka holda yahshi o'rganilgan va samarali kompleks gomeopatik granulalar texnologiyasini o'zlashtirish.

Vaziyatli masalalar

Vaziyatli masala mazmuni	Javobning tahlili va masalaning yechimi
1. Gomeopatik granulalar texnologiyasida dorivor moddalar suyultirilmaydi. To'g'rimi?	
2. Gomeopatik granulalar texnologiyasida etil spirtini ahamiyati kam. To'g'rimi?	
3. Gomeopatik granulalarni bemor suvda eritib istemol qildi. To'g'rimi?	
4. Gomeopatik granulalarni tayorlashda talaba 8chi raqamli qand donachalarni ishlatdi. To'g'rimi?	
5. Gomeopatik granulalarni sifatini baholashda allopatik dorilarnikidan farqi yo'q deb aytiladi. To'g'rimi?	
6. Gomeopatik Petroselinum 1s granula tayorlandi. To'g'rimi?	

Nazorat savollar*

1. Gomeopatiyada ishlatiladigan granulalar tarifi
 2. Kompleks ta'sirli gomeopatik granulalar nomenklaturasini
 3. Kompleks ta'sirli gomeopatik granulalar texnologiyasi
 4. Kompleks ta'sirli gomeopatik dori turlari va farmakoterapevtik preparatlar o'rtasidagi bog'lab turuvchi “ko'priq” deb atalishi to'g'rimi?
 5. Kompleks gomeopatik dori vositalarining ishlab chikarilishining zaruriyati va dolzarbligi
 6. Granulalar sifatini baholash
- *Nazorat savollar muhokamasi klaster usulida olib boriladi.

Pedagogik texnologiyalarning “Klaster” usulidan foydalanib, “bolalar uchun dorilar” tushunchasiga mantiqiy zanjir tuzish.

«Klaster» (tarmoqlar usuli) fikrlarni tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya boʻlib, u oʻquvchilarni biron bir mavzuni chuqur oʻrganishga yordam beradi, oʻquvchilarni mavzuga taaluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bogʻlagan holda tarmoqlashlariga oʻrgatadi. Bu usul biron bir mavzuni chuqur oʻrganishdan avval oʻquvchilarni fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun hizmat qilishi mumkin. Shuningdek, oʻtilgan mavzuni mustahkamlash, yahshi oʻzlashtirish, umumlashtirish hamda oʻquvchilarni shu mavzu boʻyicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. Bu esa oʻquvchilarga oʻz bilimlari, tushunishlari va tasavvurlari darajasini aniqlashga yordam beradi.

Klaster usulidan fojhdalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talabetiladi:

Klaster usuli	
Nimaniki oʻylagan boʻlsangiz, shuni qogʻozga yozing. Fikringiz sifati toʻgʻrisida oʻylab oʻtirmay, ularni shunchaki yozib boring	Yozuvlaringiz orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga etibor bermang
Belgilangan vaqt nihoyasiga etmagunicha, yozishdan toʻhtamang. agar maʼlum muddat biron-bir gʻoyani oʻylay olmasangiz, unda qogʻozga biror narsani rasmini chizing, toki boshqa gʻoya paydo boʻlgunicha davom eting	Muayan tushuncha doirasida imkon qadar koʻproq gʻoyalarni ilgari surish va mazkur gʻoyalar oʻrtasida aloqadorligini koʻrsatishga harakat qiling. Gʻoyalar yigʻindisining sifati va aloqadorligini koʻrsatishini cheklamang

Amaliy topshiriqlar:

1. “Edas” firmasi tomonidan ishlab chiqiladigan kompleks gomeopatik granulalarni koʻrib chiqish va 2-3 ta nomlarini daftarda ifodalash.
2. Quyidagi tarkibli kompleks gomeopatiya granula texnologiyasini keltirish:
tarkib: Koffea 6
Ignatia 6
Passiflora 3

Ishlatilishi: nevrasteniya, nevroz, tajanglik, uyquni buzilishi

3. Kattalar va bolalar kassaliklarida kompleks gomeopatik granulalarni qoʻllanilishini keltirish (“Гомеопатические лекарства” “Эдас” М. 2001 22-бет).
4. Kompleks gomeopatik granular boʻyicha 5 ta test savollarini tuzish.

Uslubiy taʼminot: gomeopatik dorilar texnologiyasiga tegishli MTHlar; malumotnomalar, adabiyotlar, tarqatma materiallar, slaydlar, kolleksiya, jadvallar.

Asosiy matn

Gomeopatik granular bu – ichish uchun moljallangan qattiq dozalarga boʻlingan dori turi. Gomeopatik granular tayorlash texnologiyasi dori moddaning suvli yoki spirtli eritmalaridan qand granulalarni adsorbciya qilishga asoslangan, V.Shvabe qoʻllanmasida keltirilishi boʻyicha qand granulalari toza, oliy navli shakarqamish shakaridan tayorlanadi.

Ular tozalangan suvda hech qanday qoldiqsiz erib ketishi kerak. Granulalar obakilash usulida konditer fabrikalarida yoki farmacevtik zavodlarda olinadi.

Granulalarni gomeopatik suyultirilgan eritmalar bilan bir hil toyintirish uchun ular ma'lum kattalikda bo'lishi kerak. Shuning uchun qand granulalari katta-kichikligi bo'yicha saralanadi. Qand granulalari massasi va diametrining o'lchami Shvabe qo'llanmasida keltirilgan¹⁹

Mavzuni o'zlashtirishini tekshirish

Nazorat test savollari:

1. Gomeopatik granulalar bu:
 - A. Dozalangan qattiq dori turi
 - B. Dozalangan ichka ichish uchun gomeopatik qattiq dori turi
 - C. Donachalar
 - D. Pilulalar
2. Kattaligi bo'yicha gomeopatik granulalar nomerlarga bo'linadi:
 - A. 10
 - B. 5
 - C. 15
 - D. 20
3. Gomeopatik granulalar texnologiyasi:
 - A. Oddiy aralashtirish
 - B. Aylanma qozonda olish
 - C. Shakar donachalarga gomeopatik dorini toyintirish
 - D. Hovonchada dorilarni bir biriga qoshish
4. Gomeopatik granulalrni afzalligi:
 - A. Dori moddani turg'unligi, eruvchanligi va ta'sirini oshirish
 - B. Ta'mi shirin
 - C. Ishlatilishi qulay
 - D. Saqlanishi yahshi
5. Gomeopatik granulalar qaysi bemorlarga qulay?
 - A. Bolalar va hayvonlar
 - B. Kattalar
 - C. Qariyalar
 - D. Hayvonlar
6. Gomeopatik granulalarni erish vaqti:
 - A. 5 daq
 - B. 10 daq
 - C. 15 daq
 - D. 20 daq
7. Gomeopatik granulalrda yopishkanlarini foizi:
 - A. 1
 - B. 5

¹⁹Швабе В. Гомеопатические лекарственные средства. Руководство по описанию и приготовлению: пер. с нем. (под ред. В.И.Рыбака.-М.:1967.-373с

C. 10
D. 2

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Тихонов А.И. и др. Основы гомеопатической фармации.-Харьков.-Золотіе страниці.-2002.-574 с.
2. Назарова З.А., Туреева Г.М. Махсус дори турлари технологияси Т.2009.-164с.
3. Швабе В. Гомеопатические лекарственные средства. Руководство по описанию и приготовлению: пер. с нем. (под ред. В.И.Рыбака.-М.:1967.-373с.
4. Loyd V. Allen, Jr., Nicholas G. Popovich, Howard C. Ansel. Ansel's Pharmaceutical Dosage Forms and Drug Delivery Systems.- New York: Lippincott Williams & Wilkins, 2011.- P.722
5. Steven B. Kayne Homeopathic Pharmacy: Theory and Practice, (2nd Edition).- New York, 2006.-366 pages.
6. Назиров З.Н. Гомеопатия.-Тошкент. 2001.-96б.
7. www.provisor.com.ua/archive/2004/N17art_26php
8. www.nanolab.com.ua

7-AMALIY MASHG'ULOT “GOMEOPATIK QATTIQ DORI TURLARINI TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH”

O'qitish maqsadi: Gomeopatik qattiq дори турлари технологияси ва tayorlash jarayonlari takomillashtirish usullarini o'zlashtirish.

Vaziyatli masalalar

Vaziyatli masala mazmuni	Javobning tahlili va masalaning yechimi
1. Gomeopatik trituratsiyalarni allopatiya trituratsiyalaridan farqi yo'q. To'g'rimi?	
2. Gomeopatik trituratlar texnologiyasida ishlatiladigan yordamchi moddalarni tanlamasdan borini ishlatish mumkin (glyukoza, shakar, sut qandi, krahmal va boshqalar). Ushbu fikrga izoh bering.	
3. Gomeopatik trituratsiyalar barcha suyuq moddalardan (eritma, essenciya, tinktura) bir hil tayorlanadi. To'g'rimi?	
4. Gomeopatik granular texnologiyasida dorivor moddalar suyultirilmasdan olinadi.	
5. Gomeopatik granular texnologiyasida etil spirti ishlatilmaydi.	
6. Gomeopatik granularni bemor sutda eritilgandan so'ng iste'mol qilishi kerak. To'g'rimi?	
7. Gomeopatiya amaliyotida poroshok, tabletkalar, draje ishlatilmaydi. To'g'rimi?	

8. Gomeopatik qattiq dori turlarini sifatini baholashda faqat tashqi ko'rishiga baho beriladi. To'g'rimi?	
---	--

Nazorat savollar*

1. Dorivor moddalardan tayorlanadigan gomeopatik triturაციyalar tarifi
2. Gomeopatik triturაციyalar tayorlash asoslari
- 2.1 Suyuq moddalardan gomeopatik triturაციyalar texnologiyasi
- 2.2 Gomeopatik essenciya va tinkturalardan triturაციyalar tayorlash qoidalari
3. Gomeopatiya granularini tayorlashdagi bosqichlar
4. Gomeopatik qattiq dori turlarini (triturაციya, granula, tabletkalar) jihozlash va saqlash sharoitini belgilanishi
5. Gomeopatik tabletkalar texnologiyasini takomillashtirish yo'llari
6. Gomeopatik qattiq dori turlarini sifatini baholash usullarini tariflash

*Nazorat savollar muhokamasi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning “Zakovatli zukko” metodi bo'yicha olib boriladi. Metod magistratura talabalari bilan yakka tartibda, kichik “zukkolar” guruhida va ommaviy ishlashda birdek qo'llanilishi mumkin.

“Zakovatli zukko” metodida mustaqil tayorlash savollarini muhokamasini o'tqazish uchun ko'rsatma:

1. Metod o'z xohishlariga ko'ra shaxsiy imkoniyatlarni sinab ko'rish istagida bo'lgan magistratura talabalari uchun qulay imkoniyatni yaratadi;
2. Magistratura talabalari o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatda (2 daqiqada!) to'g'ri va aniq javob qaytarishlari kerak;
3. Savollarni murakkabligi darajasiga ko'ra magistratura talabalariga har bir to'g'ri bergan javoblarga ko'ra ballar belgilanadi;
4. Yakuniy ballarning o'rtacha arifmetik qiymatini topish asosida magistratura talabalarining tafakkur tezligi aniqlanadi;
5. O'qituvchining yakunlash so'zi. bunda o'qituvchi magistratura talabalarining javoblarini tahlil qilib, to'ldiradi va baxolaydi, shuningdek ularning shaxsiy imkoniyatlari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladi va “eng zakovatli zukko magistratura talabasi” e'lon qiladi.

Amaliy topshiriqlar

Gomeopatik murakkab tarkibli granular texnologiyasini keltirish

1. Edas gomeopatik dori vositalari. M.2001.61-63 b.-Edas-951, Edas – 953, 954, 956, 961, 932, 962 granular
2. Mavzu bo'yicha 3ta test savollarini tuzish
3. Duniyoda eng mashhur bolgan Bittner firmasi tomonidan ishlab chiqariladigan dori vositalarini nomini va ishlatilishini keltirish:
 - 1) O'tkir va surunkali jigar kasalliklari;
 - 2) Vegetativ – tomir distoniyasi;
 - 3) O'tkir respirator kasalliklari;
 4. Quyidagi tarkibni texnologiyasini keltirish:

Tarkib:

Belladonna C3

Phytolacca C3

Lachesis C12

Angina, tonzillitda ishlatish uchun 10,0 g granula tayorlash.

Uslubiy ta'minot: gomeopatik dorilar texnologiyasiga tegishli MTHlar; malumotnomalar, adabiyotlar, tarqatma materiallar, slaydlar, kolleksiya, jadvallar.

Asosiy matn

Gomeopatiya tabletkalarini tayorlash texnologiyasi

Gomeopatiya tabletkalari bu – gomeopatiya tritुरაციyalarni presslash bilan olinadigan va ichish uchun mo'ljallangan, qattiq dozalarga bolingan dori turidir.

Gomeopatiya tabletkalarini tayorlashda laktoza, krahmal, kalciy, magniy stearat, tozalangan suv, etil spirti va boshqa XI DF tavsiya etgan va tibbiyotda ishlatishga ruhsat etilgan yordamchi moddalar qo'llaniladi.

Bir tabletka tarkibiga kiruvchi gomeopatiya tritुरაციyalarning massasi 0,1 g dan 0,25 g gacha bo'ladi, agar hususiy MTHda boshqa ko'rsatmalar bolmasa. Yordamchi moddalar ushbu massaga qo'shiladi.

Gomeopatiya tabletkalari uchun tuziladigan hususiy MTHlarda bitta tabletka uchun tarkib – gomeopatiya dori vositalari va yordamchi moddalar nomi va miqdori, shuningdek tabletkaning o'rtacha massasi keltirilishi shart.

Gomeopatiya tabletkalari gomeopatiya tritुरაციyalardan umumiy tabletkalar texnologiyasi yoki VFMLarga asoslangan holda olinadi.

Kerak bo'lganida tabletka tarkibiga bog'lovchi, govaklovchi, moylovchi va antifricion moddalarini qo'shish mumkin.

Gomeopatiya tritुरაციyalari og'zi zich berkitilgan shisha idishda, quruq, kerak bo'lsa qorong'i va salqin joyda 5 sutka mobaynida saqlanadi.

Bemorga berib yuborilishdan oldin yahshilab hovonchada aralashtiriladi, biroq silkitilmaydi!

Gomeopatiya dori vositalarning potentsiyasi uzoq vaqt saqlanib qolishi uchun elektr-magnit maydonidan uzoq bo'lgan joyda saqlash tavsiya etiladi.

Gomeopatiya qattiq dori turlarining ishlatilishi.

Gomeopatiya qattiq dori turlari aksariyat hollarida til ostiga (sublingval) qabul qilinadi. Dorilarni qabul qilish tartibini shifokor belgilaydi. Til ostiga qabul qilingan dori vositalar mahalliy va umumiy ta'sir etadi: og'iz shilliq qavati orqali dori modda tez so'riladi; oshqozon-ichak va jigar tosiqlaridan halos bo'ladi va tez umumiy qon aylanish tizimiga qoshilib ketadi.

Odatda til ostiga kuchli ta'sirga ega bo'lgan va kichik dozadagi dorilar beriladi.²⁰

Mavzuni o'zlashtirishini tekshirish

Nazorat test savollari:

1. Eng mashhur firma:
A. Gomeopharm
B. Bittner
C. Buaron

²⁰Неш Е.Б. Руководство по терапевтической гомеопатии. М.: Атлас, 1993.-185 с.

- D. Heel
2. Edas firma Svetsiyada bo'lib, u faqat mono preparatlar ishlab chiqaradimi?
- A. Ha
B. Yo'q
C. Kompleks
D. Har hil
3. Murakkab tarkibli gomeopatik surtmalar Shvabe qo'llanmasida keltirilib ular soni nechta?
- A. 4
B. 3
C. 2
D. 1
4. Lori nomidagi gomeopatik murakkab tarkibli spirt qayerda keltirilgan?
- A. V.Shvabe
B. XI DF
C. Internet
D. Adabiyotlar
5. Allergiyaga qarshi gomeopatik granular qanday qo'llaniladi?
- A. Til ostiga
B. Suv bilan ichiladi
C. Surtiladi
D. Sut bilan ichiladi
6. Gomeopatik suyultirish:
- A. Dorivor moddani suv yoki spirt orqali eritish
B. Potencialash
C. Sut qand qoshish
D. 1:10 1:100 cha suyultirish

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- 1.Тихонов А.И. и др. Основі гомеопатической фармации.-Харьков.-Золотіє страниці.-2002.-574 с.
2. Назарова З.А., Туреева Г.М. Махсус дори турлари технологияси Т.2009.-164с.
3. Швабе В. Гомеопатические лекарственные средства. Руководство по описанию и приготовлению: пер. с нем. (под ред. В.И.Рыбака.-М.:1967.-373с.
4. Неш Е.Б. Руководство по терапевтической гомеопатии. М.: Атлас, 1993.-185с.
5. Steven B. Kayne Homeopathic Pharmacy: Theory and Practice, (2nd Edition).- New York, 2006.-366 pages.
6. Назиров З.Н. Гомеопатия.-Тошкент. 2001.-96б.
7. www.provisor.com.ua/archive/2004/N17art_26php
8. www.nanolab.com.ua.
9. <http://protabletki.ru>

8-AMALIY MASHG'ULOT GOMEOPATIK DRENAJLI (TOZALOVCHI) DORI VOSITALARI TEXNOLOGIYASI

O'qitishmaqsadi: Gomeopatik amaliyotida tozalovchi vositalar bilan tanishish va ularning texnologiyasini o'zlashtirish.

Vaziyatli masalalar

Vaziyatli masala mazmuni	Javobning tahlili va masalaning yechimi
1. Gomeopatik drenaj uchun tozalovchi dori vositalari kassalikni oldini olishga ishlatiladi, deb javob berdi talaba. To'g'rimi?	
2. Gomeopatik drenajli dori vositalari organizm uchun bitta va bir hil bo'ladi degan fikrga qoshilasizmi?	
3. Gomeopatik drenajli dori vositalarini texnologiyasi o'ziga hos deyishadi. To'g'rimi?	

Nazorat savollar*

1. Kompleks gomeopatik dorivor vositalarini (KGDV) profilaktika, sog'lomlashtirish va davolash maqsadida ishlatilishi
2. Drenaj, detoksikacion (tozalovchi) ta'sirli KGDVlar
3. Kuch-quvvat beruvchi gomeopatik vositalar
4. Bezgakka qarshi ta'sirli gomeopatik vositalar
5. Organizm ishini kuchaytiruvchi (tonuslovchi) gomeopatik vositalar
6. Tinchlantiruvchi GV texnologiyasi

*Nazorat savollar muhokamasi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Muammoli vaziyat" uslubida olib boriladi.

"Muammoli vaziyat" uslubida nazorat savollarini muhokamasini o'tqazish bo'yicha ko'rsatma:

1. Nazorat savollar magistratura talabalariga muammoli vaziyat tartibida beriladi.
2. Vaziyatli masala bilan tanishgan magistratura talabasi usul bo'yicha vaziyat turi, sababi va hal qilish yo'llarini keltirilgan jadvalga yozadi.

"Muammoli vaziyat"

"Muammoli vaziyat" turi	"Muammoli vaziyat" sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari

3. Javoblar taxlil qilib, baholanadi.

Amaliy topshiriqlar

Organizmga turlicha ta'sir qiluvchi kompleks gomeopatik dorilar tarkibi va texnologiyasini ko'rib chiqish uchun Edas gomeopatik dori vositalari qo'llanmasidan(M.2001-25 bet) tarkiblarni daftarga yozib, ularning texnologiyasini keltirish:

- 1) Tarkib: Chelidonium C3
Taraxacum C3

Drenaj uchun, o't puffagi, jigarni tozalaydi, surunkali holecistit, holangit, diskineziya, enterokolit, meteorizm

- 2) Tarkib: Arsenicum album 6
Urtica urens 6
Berberis 3
Ae.Oxalicum 3
Solidago 3

Tomchi va granula asab va endokrin sistemalariga ta'sir etadi, siydik yo'llaridagi toshlarni tozalaydi.

- 3) Tarkib: Licopodium 12
Cholesterinum 6
Phosphorus 6
Mercurius 6
Berberis 3

Bilirubin almashuvda, jigar, gepatit, holicistitda ishlatiladi.

- 4) Edas 117, 118, 104, 124, va 133

Uslubiy ta'minot: gomeopatik dorilar texnologiyasiga tegishli MTHlar; malumotnomalar, adabiyotlar, tarqatma materiallar, slaydlar, kolleksiya, jadvallar.

Asosiy matn

Har doim hisobga olinadigan eng muhim holat – bu bizning davrimizga hos bo'lgan nafaqat atrofdagi muhitni, balki odam organizmdagi ichki muhitni umumiy ifloslanishidir. A'zo va to'qimalarda og'ir metallar, tuzlar, har hil toksinlar, turli hil allergenlar y'igilishi.

Himoya mehanizmlarini jiddiylashga olib keladi.

Davolashni dastlabki pog'onasida tozalovchi “drenaj” komplekslarini ishlatish muhimdir.

Umumlashgan himizaciyalash va allergizaciyalashlar, organizmga yomon ta'sir ko'rsatuvchi turli hil konservantlar va ko'pgina farmpreparatlar zamonaviy tibbiyot oldiga huddi S.Ganeman hal qilmoqchi bo'lgan masalalarni qo'ymoqda.

Bugungi kunda samarali va havsiz davolash deganda faqatgina “ziyon keltirma” principini bajarish emas, balki gomeopatik kichik va o'rta dorilarni ishlatishni taqozo etadi. “To'g'ri, havsiz, tez va ishonchli davolash kerak!” S.Ganeman.²¹

Mavzuni o'zlashtirishini tekshirish

Nazorat test savollari:

1. Drenaj so'zini manosi:
 - A. Tozalash
 - B. Oldini olish
 - C. Eritish
 - D. Yuvish
2. Gomeopatik drenaj dori vositalarining vazifasi:
 - A. Jigar, ot puffak, buyraklarni tozalash

²¹Hanemann S. Materia Medica Pura.-New Delhi ... Publishing Co.,1993.-T.1.718 p.

- B. Kassalikni oldini olish
 C. Toshlarini eritish
 D. Toksinlarni chiqarish
3. Ot puffakni tozalashda asosiy gomeopatik modda:
 A. Helidonium
 B. Sulphur
 C. Solidago
 D. Berberis
4. Endokrin tizimga ta'sir etuvchi va siydik yo'llarini tozaluvchi gomeopatik modda:
 A. Urtica, berberis, arsenicum album
 B. Helidonium
 C. Sulphur
 D. Berberis
5. Jigar, gepatit, holicestitda ishlatiladigan gomeopatik drenajli modda:
 A. Licopodium, holesterin, berberis
 B. Berberis
 C. Sulphur
 D. Solidago

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Тихонов А.И. и др. Основы гомеопатической фармации.-Харьков.-Золотіє страниці.-2002.-574 с.
2. Назарова З.А., Туреева Г.М. Махсус дори турлари технологияси Т.2009.-164с.
3. Hanemann S. Materia Medica Pura.-New Delhi ... Publishing Co.,1993.-Т.1.718р.
4. Швабе В. Гомеопатические лекарственные средства. Руководство по описанию и приготовлению: пер. с нем. (под ред. В.И.Рыбака.-М.:1967.-373с.
5. Steven B. Kayne Homeopathic Pharmacy: Theory and Practice, (2nd Edition).- New York, 2006.-366 pages.
6. Назиров З.Н. Гомеопатия.-Тошкент. 2001.-96б.
7. www.provisor.com.ua/archive/2004/N17art_26php
8. www.nanolab.com.ua.
9. <http://protabletki.ru>

9-AMALIY MASHG'ULOT

GOMEOPATIK MURAKKAB TARKIBLI PREPARATLAR TEXNOLOGIYASI

O'qitish maqsadi: Gomeopatik murakkab tarkibli preparatlar texnologiyasini o'zlashtirish

Vaziyatli masalalar

Vaziyatli masala mazmuni	Javobning tahlili va masalaning
--------------------------	---------------------------------

	yechimi
1. Eng mashxur firma bu- “Gomeofarm”. To’g’rimi?	
2. Edas firma Shveciyada bo’lib, u faqat monopreparatlar ishlab chiqaradi. Shu fikrga qo’shilasizmi?	
3. Murakkab tarkibli gomeopatik surtmalar V. Shvabe qo’llanmasida keltirilib, ular soni 2 ta. To’g’rimi?	
4. Lori nomidagi gomeopatik murakkab tarkibli spirt V. Shvabe farmakopeyasida emas balki boshqa qo’llanmada keltirilgan va u yurak og’rig’ida ishlatiladi deb javob berildi. Sizning fikringiz.	
5. Allergiyaga qarshi qo’llaniladigan gomeopatik granular tarkibiga: calciy carbonikum 6, badyaga 12, urtika 3, yuglans 6 kiradi va ushbu granulalarni tayorlashda har bir modda aloxida olinadi, deb javob berdi. To’g’rimi? Yoki yana boshqa tayorlash usuli ham bormi?	
6. Gomeopatik suyultirish - bu dorivor moddani suv yoki spirt orqali eritishdeb aytili. To’g’rimi?	

Nazorat savollar*

1. Murakkab tarkibli gomeopatik preparatlar nomenklaturasi
2. Murakkab tarkibli gomeopatik preparatlar texnologiyasi
3. Antigrippin 6 potentsiyadagi dorini tayorlanishi (A.I.Tihonov, Harkov, 2002.-506 b.)
4. Allergiyaga qarshi granula texnologiyasi (A.I.Tihonov, Harkov, 2002.-511 b.)
5. Klimaksan granulasi texnologiyasi (A.I.Tihonov, Harkov, 2002.-514 b.)
6. Tinchlantiruvchi tomchisi texnologiyasi (A.I.Tihonov, Harkov, 2002.-519 b.)
7. Avenok – shamcha texnologiyasi (A.I.Tihonov, Harkov, 2002.-531 b.)
8. Gomeoplazmin surtma (Shave farmakopeyasi)

*Nazorat savollar muxokamasi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning “Loyixa” uslubida olib boriladi.

Amaliy topshiriqlar

Dunyoda eng mashxur bo’lgan “Bittner” (Avstriya) firmasi tomonidan ishlab chiqariladigan dori vositalarini nomi, texnologiyasi va ishlatilishini keltirish:

1. Aflubin
2. Galstena
3. Gentos
4. Atma
5. Remens
6. Pumpan

Uslubiy ta’minot: gomeopatik dorilar texnologiyasiga tegishli MTHlar; malumotnomalar, adabiyotlar, tarqatma materiallar, slaydlar, kollekciya, jadvallar.

Asosiy matn

Gomeopatik dorilarni ta'sirini hozirgi zamon tadqiqotlari asosida infarmacion bo'lib, suvning kvazikristallik strukturasi samarasiga bog'liq. Natijada organizmni o'z o'zini boshqarish funkciyasi amalga oshadi. Ananaviy diagnostikadan gomeopatik diagnoz qo'yish bu kasallikni emas, balki kasal odamdagi psixik va fiziologik o'zgarishlar bog'lami ifodasidir. Gomeopatik diagnoz bu birinchi o'rinda bitta gomeopatik dorini tanlash qachonki uning patogenezida bemorda topilgan psixik vegetativ va somatik simptomlar belgilari bo'lganda. Demak, gomeopatik dori patogenezi - bu bemorning organizmini faoliyatini buzilishi modeli deb hisoblasa bo'ladi. Diagnoz qo'yishning ikki hil usuli bor.

1-qisqa, shifokor katta tajribaga ega bo'lsa, u kasal kirib kelishidayoq kasalini aniqlay oladi.

2-uzoq, bo'lib diagnozni simptomlar lug'ati yordamida (repertorium) aniqlanadi. Masalan: D.T. Kent repertoriumi asosida aniqlangan. Shu bilan birga gomeopat shifokorlar amaliyotida 2-3 oddiy gomeopatik vositalarni ishlatilishi tabiiy hol bo'lib qoldi.

Ularni ketma-ketlikda, yoki bittasini berib turib undan keyin boshqasini, shunday belgilanishi kompleks gomeopatik dorini aynan ushbu tarkibli berilishidan farqi y'o'q.²²

Mavzuni o'zlashtirishini tekshirish

1. Nazorat savollaridan kelib chiqqan holda 10 test savollarini tuzish.
2. Nazorat savollardagi gomeopatik dori vositalar texnologiyasi bo'yicha vaziyatli masalalar tuzish va echimini keltirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Тихонов А.И. и др. Основі гомеопатической фармації.-Харьков.-Золотіє страниці.-2002.-574 с.
2. Назарова З.А., Туреева Г.М. Махсус дори турлари технологияси Т.2009.-164с.
3. Hanemann S. Materia Medica Pura.-New Delhi ... PublishingCoT.1.718p.
4. Швабе В. Гомеопатические лекарственные средства. Руководство по описанию и приготовлению: пер. с нем. (под ред. В.И.Рыбака.-М.:1967.-373с.
5. D.T.Kent Лекции по философии и гомеопатии.- М.:Гомеопатическая медицина, 1998.-224с.
6. Назиров З.Н. Гомеопатия.-Тошкент. 2001.-96б.
7. www.provisor.com.ua/archive/2004/N17art_26php
8. www.nanolab.com.ua.
9. <http://protabletki.ru>

10-AMALIY MASHG'ULOT KOMPLEKS TA'SIRLI KO'P KOMPONENTLI GOMEOPATIK PREPARATLAR TEXNOLOGIYASI

²²D.T.Kent Лекции по философии и гомеопатии.- М.:Гомеопатическая медицина, 1998.-224с.

O'qitish maqsadi: kompleks ta'sirli ko'p komponentli gomeopatik preparatlar texnologiyasini o'zlashtirish.

Vaziyatli masalalar

Vaziyatli masala mazmuni	Javobning tahlili va masalaning yechimi
1. Gomeopatik dorilarning ilmiy asosini Ibn Sino va Gippokrat yaratgan. To'g'rimi?	
2. Gomeopatiya bilan davolash bu organizmni holatiga qarab diagnoz qo'yishdir. To'g'rimi?	
3. Gomeopatiya amaliyotida diagnoz qo'yish oson, faqat kasalni simptomlari bo'lsa bo'ladi. To'g'rimi?	
4. Gomeopatiya amaliyotida faqat monopreparatlar ishlatilishi kerak. To'g'rimi?	
5. Gomeopatik kompleks preparatlar nomenklaturasi hozircha kam, y'o'q desa ham bo'ladi bu fikrga qo'shilasizmi?	
6. Gomeopatik kompleks preparatlar yordamida faqat surunkali kasalliklarni davolash mumkin. Bu birinchidan, ikkinchidan esa bolalar va qariyalar amaliyotida uncha ko'p ishlatilmaydi, o'zingizni fikringizni bildiring.	

Nazorat savollar*

1. Kompleks ta'sirli gomeopatik preparatlarning ishlatish zaruriyati
 2. Kompleks ta'sirli gomeopatik preparatlar tarkibi, texnologiyasi
 3. Kompleks gomeopatik preparatlar nomenklaturasi
 4. Kompleks gomeopatik preparatlarning har hil kasalliklarini davolash uchun ishlatilishi: URK (ORZ) va gripp, virusga qarshi, immunomodullovchi, konstitucional vositalar (bolalar va qariyalar uchun) psixika buzilishida, alkogol va tabak chekish muammolarida, uyqusizlik va gormonal o'zgarishlar vaqtida va hokazo
- *Nazorat savollar muhokamasi klaster usulidan foydalanib olib boriladi

Amaliy topshiriqlar

Kompleks ta'sirli ko'p komponentli gomeopatik preparatlar texnologiyasini keltirish.

Suyuq va qattiq gomeopatik dorilar misolida:Edas 103,104,117,125,126, 307,308

Sirtki ishlatiladigan dorilar bo'yicha:Edas 402, 801, 802

Yumshoq dorilar bo'yicha:Edas 2001, 2002, 2003

Uslubiy ta'minot: gomeopatik dorilar texnologiyasiga tegishli MTHlar; malumotnomalar, adabiyotlar, tarqatma materiallar, slaydlar, kolleksiya, jadvallar.

Asosiy matn

Kompleks gomeopatik preparatlarni tuzilishi bo'yicha quyidagi holatlar hisobga olinadi:

Dorilarni ta'siri bitta emas, balki har hil a'zo va to'qimalarga tarqalganlari qo'shib tayorlanadi.

Dorilarni ta'siri bir hil a'zo va to'qimalarga, lekin har hil tasir etadiganlari.

Ddorilarni patogenezi juda bir biriga yaqin bo'lsa, unday dorivor gomeopatik vositalarning dozalari monopreparat va kompleks dorilar uchun bir hil. Barcha kompleks gomeopatik preparatlar albatta davlat qaydnomasidan o'tadi va registraciya udostvereniyesi nomeri bo'ladi.

Kompleks gomeopatik preparatlar nomenklaturasi

- 1) Heel (Germaniya) firmasi. Birinchi bo'lib nemec shifokori va olim G.G.Rekevek tomonidan tashkil topgan.
- 2) Farmaceutik jaxon Konzern Veleda (25 filiali bor) kosmetik preparatlarni ham chiqaradi.
- 3) AQSh firmasi Bob Walsh Enterprises INC 11 komponentli preparatlar chiqaradi.
- 4) Labor. Buaron Franciya firmasi 10 preparatlar chiqaradi.
- 5) Nemec gomeopat soyuz (Germaniya) V.Shvabe tashkil etgan, ular asosan Ganeman receptlari asosida kompleks gomeopat preparatlar ishlab chiqaradi. (Rossiyada 6tasi qayd etilgan)
- 6) Materiya medika Rossiya firmasida 26 ta preparat o'z nomlari bilan chiqadi, asosan hammasini tarkibida 3-ta komponentdan iborat.
- 7) Rixard Bittner Avstriya firmasi.
- 8) OOO Gomeopat firmasi Sankt-Peterburg va Rossiya qo'shma firma
- 9) NPO Vilar Rossiyani Sandra preparati va boshqalar.

Kompleks gomeopat preparatlar mustaqil ravishda bemor tomonidan iste'mol qilingani uchun ularning tarkibini ahamiyati bor.

Kompleks gomeopat preparatlar yordamida har hil kasalliklarni davolanishi.

1. URK va gripp. Kasallikni boshlanish davrida racional terapiyani o'tqazish gomeopatiya usulini afzalligi Tihonovdan nomlari va tarkibi ko'riladi; Antigrippin, Sandra, Edas-103, Edas-307, Aflubin, Cold, Grippxell tarkibida asosan brioniya, ipekakuana, lobeliya, drozera, evkaliptus, sabadilla, tartaruslar bor.

Immunomodulyatorlar. Antigrippin, Paragripp, Cold, Sandra, Aflubin, Grippxell Inflyudo va Inflyucid, Edas-103, Edas-104, 117, 125, Silicealar immun tizimini mustahkamlaydi.

Konstitucional vositalardan bolalar amaliyotida diatezni to'xtatadi. Qariyalar amaliyotida chesnok granulasi, Vozraston, Zolotoy yiodlar sklerozga qarshi ta'sir ko'rsatadi. Shu jumladan: Ledum surtmasi, Edas-402, Edas-119lar qabul qilinadi.

Psixika buzilishida. Uspokoy, Antistress, Kardioika, Nuks vomika, Goma vord juda ish bilan band bo'lgan erkaklar uchun Edas-306, Valeriana xel tajang bolalarga. Alkogol va tabak chekish muammolarida. Acidum S, Antialkagolva Edas121, Anti E (etanol1000 S potenciesada) Nuks vomika, gomakord, Proproten-100, tabakga qarshi Stop smoking, Tabakum.

Uyqusizlikka qarshi. Nevroxel, Klimaktoplan, Feminalgin, Uspokoy, Vernison, Son, Insomniya, Edas-111.

Gormonal buzilishda. Antiklimaks, Klimakson, Klimaktoplan, Klimaktxel, Mastodinon, Edas-101.²³

Mavzuni o'zlashtirishini tekshirish

1. Quyidagi nomi keltirilgan gomeopatik dori vositalarining tarkibi, texnologiyasi va ishlatilishini keltirish:

Sandra, Infludo, Gripp Heel, Vozraston, Uspokoy, Antistress, Klimakson

2. Nazorat savollaridan kelib chiqqan holda 10 test savollarini tuzish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1.Тихонов А.И. и др. Основі гомеопатической фармации.-Харьков.-Золотіє страниці.-2002.-574 с.

2. Назарова З.А., Туреева Г.М. Махсус дори турлари технологияси Т.2009.-164с.

3. Hanemann S. Materia Medica Pura.-New Delhi ... Publishing Co.,1993.-Т.1.718р.

4. Швабе В. Гомеопатические лекарственные средства. Руководство по описанию и приготовлению: пер. с нем. (под ред. В.И.Рыбака.-М.:1967.-373с.

5. Charett J. Homeopathische Arzneimittellehre fur die Praxis,- Stuttgart; Hippokrates Verlag. 1985.- 490 p.

6. Назиров З.Н. Гомеопатия.-Тошкент. 2001.-96б.

7. www.provisor.com.ua/archive/2004/N17art_26php

8. www.nanolab.com.ua.

9. <http://protabletki.ru>

2. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

(2 semestr)

11-AMALIY MASHG'ULOT

VETERINARIYA AMALIYOTIDA ISHLATILADIGAN QATTIQ DORI TURLARI: POROSHOKLAR, BRIKETLAR, GRANULALAR, TABLETKALAR VA KAPSULALAR TEXNOLOGIYASI

²³Charett J. Homeopathische Arzneimittellehre fur die Praxis,- Stuttgart; Hippokrates Verlag. 1985.- 490 p.

Amaliy mashg'ulot maqsadi: veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qattiq dori turaliri (poroshoklar, dustlar, tabletkalar, drajelar, granularlar, briketlar, yig'malar, ko'z pardalar, qalamchalar)ni tayyorlash bo'yicha ko'nimaklarini shakllantirish.

Mavzuni yozishdan maqsad: veterinariya retsepturasi va dozalarni o'rganish, veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan qattiq dori turlarini tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalarni to'g'ri tanlash va texnologiyasini bilish va sifatini baholashni o'rganish.

Mavzuning axamiyati: veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan qattiq dori turlarini tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalar bilan tanishish.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar:

- Veterinariya qattiq dorilarining tavsifi va ta'rifi, veterinar preparatlarini dozalash asoslari.

- Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qattiq dori turlarining tavsifi va texnologiyasining o'ziga xosligi.

- Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan poroshoklar, dustlar, yig'malar, granularlar, tabletkalar, briketlar, draje, kapsulalar, hab dorilar va bolyuslar texnologiyasi.

- Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qattiq dori preparatlarni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar.

- Veterinariya atamaları bilan tanishuv.*

* - Mustaqil tayyorlash uchun berilgan savollar "Tezkor so'rov" usulida muhokama etiladi.

Uslubiy ta'minot: Uslubiy qo'llanma, tarqatma material, mavzuga tegishli adabiyotlar, internet materiallari.

Asosiy matn:

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qattiq dori turlari texnologiyasi

Poroshoklar (Pulvis, -eris, -eres) – ichish yoki sirtga ishlatish uchun mo'ljallangan, bir yoki bir nechta maydalangan, sochiluvchan xossaga ega dorivor kukunlardan tashkil topgan qattiq dori turi.

Kukun xolida turli dori moddalar berilishi mumkin. Kukun holida gigroskopik xossaga ega dori moddalar (kaltsiy xlorid, kaliy atsetat va b.), shuningdek aralashtirilganida bo'kuvchan massa yoki suyuqlik hosil qiladigan moddalar (antipirin va xinin), oson parchalanadigan (organik moddalar bilan aralashtirilgan kumush nitrat) yoki portlovchi moddalar berilmaydi.

Tarkibi bo'yicha poroshoklar oddiy (Pulveres simplices), bir nomdagi dori moddalardan tashkil topgan yoki murakkab (Pulveres compositi), ikki va undan ko'p moddalardan tashkil topgan, dozalarga bo'lingan (Pulveres divisi) yoki bo'linmagan (Pulveres non divisi) tasniflanadi. Poroshoklar tarkibiga kiradigan dori va yordamchi moddalarni mexanik usulda maydalaydilar (tegirmonda, xovonchada), to'zg'itib, cho'ktirib, bug'latib va boshqa usullar yordamida oladilar.

Poroshoklarning maydalik darajasi teshigining diametri aniq bo'lgan elaklardan elanishi bo'yicha quyidagilarga farqlanadi:

- o'ta maydalangan poroshoklar (Pulveres subtilissimi) - elak №1 (teshigining diametri 0,12 mm),

- maydalangan poroshoklar (Pulveres subtiles) - elak №2 (teshigining diametri 0,15 mm),
 - o'rta mayda poroshoklar (Pulveres tenues) - elak №3 (teshigining diametri 0,19 mm),
 - o'rta yirik poroshoklar (Pulveres modici) - elak №4 (teshigining diametri 0,33 mm),
 - yirik (dat'al) poroshoklar (Pulveres grossi) - elak №5 (teshigining diametri 0,60 mm),
 - o'ta yirik poroshoklar (Pulveres grossissimi) - elak №6 (teshigining diametri 3 mm).
- Hayvonlar uchun beriladigan dozalangan poroshok massasi 0,2 g dan kam emas va 20,0-25,0 g ko'p emas bo'lishi lozim.

Agar poroshoklar tarkibida zaharli va kuchli ta'sir etuvchi moddalar 0,1 g massadan kam miqdorda berilgan bo'lsa, bunda poroshoklar tarkibiga o'rtacha massani ko'paytirish uchun indifferent moddalar (qand va b.) qo'shiladi (1:10 - 1:100 miqdorda), o'simlik xom ashyosidan tayyorlanadigan poroshoklar tarkibiga indifferent moddalar, agar ularning massasi 0,05 g dan kam bo'lsa.

Poroshoklarni berilishi. Poroshoklar bo'linmagan (Pulveres non divisi) va bo'lingan holda beriladi.

Misol 1.: Sigir uchun tarkibida 200 g natriy xlorid va 400 g natriy sulfat berilsin.

Rp.: Natrii chloridi 200,0

Natrii sulfatis 400,0

M.f. pulvis

D.S. Ichish uchun kuniga 2 mahal

1 osh qoshiqdan em bilan birga beriladi.

Misol 2.: Tarkibida 3 g ammoniy xlorid va 2 g natriy gidrokarbonat saqllovchi 10 ta poroshok berilsin.

Rp.: Ammonii chloridi 3,0

Natrii hydrocarbonatis 2,0

M. fiat pulvis

D.t.d №10

S. Ichish uchun 1 poroshokdan kuniga 2 mahal

Misol 3.: Buzoqchaga 4 levomitsetin poroshogi 0,5 g dan berilsin.

Rp.: Laevomyetini 0,5

D.t.d. N4

S. Ichish uchun 1 poroshokdan kuniga 2 mahal.

O'simlik xom ashyosidan tayyorlanadigan poroshoklar Pulveris (poroshok) so'zidan boshlanadi, so'ng o'simlik xom ashyosi keltiriladi, masalan, Pulveris radices Rhei va uning dozasi keltiriladi.

Misol 4.: It uchun 12 poroshok rovoch ildizidan 0,5 g dan beriladi.

Rp.: Pulveris radices Rhei 0,5

D.t.d. № 12

S. Ichish uchun 1 poroshokdan kuniga 3 mahal.

Poroshoklar umumiy qoidalar bo'yicha tayyorlanadi.

Poroshoklarni tayyorlash uchun tarkibda keltirilgan dori moddalar bir hil aralastiriladi. Bunda 5,0 g gacha bo'lgan dori moddalar qo'l torozida tortib olinadi. qavonchada maydalab olish uchun unga 1/6 – 1/10 hajmgacha dori moddalar solinadi.

Qiyin maydalanadigan dori moddalarni (kamfora, mentol, timol, fenilsalitsilat) maydalashda ularga 1 g dori moddaga 10-15 tomchi 95% li etil spirti qo'shiladi.

Murakkab tarkibli poroshoklarni tayorlashda quyidagi tartibda qo'shiladi: bir hil fizik-kimyoviy xossaga ega moddalar retseptda keltirilgan tartibda qo'shiladi, agar xossalari har xil bo'lsa, dastlab yirik, so'ng mayda kristallik, so'ng engil uchuvchan moddalar ohirida qo'shiladi; murakkab poroshoklarda maydalash oldin xovoncha teshiklar ko'p miqdorda berilgan moddalar bilan berkitiladi, so'ng maydalash kam miqdorda berilgan, so'ng ko'p miqdorda berilgan dori moddalar qo'shiladi. Bo'yovchi, o'tkir hidli va uchuvchan moddalardan poroshoklar tayorlash uchun alohida toroz va xovonchadan foydalanish zarur. Bunda bo'yovchi modda boshqa bo'yamaydigan dori moddalar o'rtasiga olib maydalanadi. Poroshoklar tarkibida beriladigan efir moylari maydalangan dori moddalar ustiga ohirida qo'shiladi.

Tayyorlangan poroshoklarni dozalarga bo'lish uchun qo'l torozi yoki DVA-1,5; TK-3; DPR-2 va boshqa turdagi dozatorlar yordamida amalga oshiriladi.

Poroshoklar to'rtburchaq qilib kesilgan o'lchami 7,5x10 sm oq qoqoz (yoki pergament qoqozi) dan tayyorlangan kapsulalarga qadoqlanadi. Kapsulalarni o'rashda qog'oz kapsula cheti bo'ylama uzunasiga 0,5 - 0,7 sm ga bukiladi va ingichga uchi kattaroq uchi bilan bir-biriga tutashtirilib qo'yiladi. O'ralgan kapsulalar qoqoz paketiga solinadi. Agar poroshoklar gigroskopik, yog'li, uchuvchan moddalardan tayyorlangan bo'lsa, unda poroshoklar mo'mlangan (in charta cerata) yoki parafin bilan qoplangan (in charta paraffinata) qog'oz kapsulalarda beriladi.

Kalit soʻzlar: veterinariya, yumshoq dori turlari, surtmalar, linimentlar, shamchalar, boʻtqalar.

BLITS-TESTLAR

1. Tarkibiga koʻra mazlar
 - A. Oddiy va murakkab;
 - B. Faqat murakkab;
 - V. Profilaktik;
 - G. Dorivor.
2. Ishlatilishiga koʻra mazlar....
 - A. Davolovchi, davolovchi-profilaktik, himoyalovchi;
 - B. Davolovchi va profilaktik;
 - V. Gigienik;
 - G. Koʻp funktsiyali.
3. Qoʻlanilish joyiga koʻra mazlar.....
 - A. Teri ustiga va shilliq qavatlarga suriladigan mazlar;
 - B. Faqat shilliq qavatlarga qoʻllaniladi;
 - V. LOR amaliyotida ishlatiladigan mazlar;
 - G. Toʻgʻri javob yoʻq.
4. Lipofil tabiatli mazlar asoslari
 - A. Yogʻli, uglevodli, silikonli asos, polietilen;
 - B. Uglevodli va yo gʻli;
 - V. Silikonli;
 - G. Jelatinli.
5. Vazelin-lanolin asosi qanday nisbatda ishlatiladi?
 - A. 6:4;
 - B. 1:2;
 - V. 1:4;
 - G. 5:9.
6. Qanday geterogen linimentlarni bilasiz?
 - A. Suspensiyon, emulsion, kombinirlangan;

- B. Suspensio va gomogen;
 V. Emulsio va gomogen;
 G. Tug'ri javob ko'rsatilmagan.
7. Suspensio liniment to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang?
 A. Vishnevskiy, streptotsid
 B. Ammiakli;
 V. Sintomitsin;
 G. Kamfora
8. Lipofil asoslarga nimalar kiradi?
 A. Kakao moyi, parafin, qattiq yog'qlar, mum;
 B. Gellar, kakao moyi;
 V. Glitserin va suv;
 G. Tibbiyot jelatini, mum.
9. Bo'tqalar tarkibiga qanday moddalar qo'shish mumkin emas?
 A. Kaliy pergamanat, kumush nitrat;
 B. Xamma moddalar qo'shish mumkin;
 V. Shirin moddalar;
 G. Xamma javoblar noto'g'ri.
10. Bo'tqalar qurib qolmasligi uchun
 A. Glitserin qo'shiladi;
 B. Kakao moyi qo'shiladi;
 V. Oq mum qo'shiladi;
 G. Qattiq yog'lar qo'shiladi.
11. Bo'tqalarning saqlash muddatlari qancha?
 A. 1-2 sutka;
 B. 2 soat;
 V. 7 kun;
 G. 6 soat.
12. Quyuq bo'tqa
 A. Qoshiqdan oqmaydi;
 B. Biroz oquvchan massa;
 V. Asalsimon massa;
 G. Xamma javoblar to'g'ri.
13. Bo'tqalar tayyorlanaganda yordamchi moddalar sifatida
 A. Gulhayri ildizi poroshogi, solodka poroshogi, un, shakar, qiyom, asal, o'simlik ekstraktlari va sharbatlar, moylar, balzamlar, smolalar;
 B. Un, kraxmal, jelatin, balzamlar, smolalar, mumlar;
 V. Kraxmal, jelatin, solodka poroshogi;
 V. Un, gulhayri ildizi poroshogi, jelatin, mumlar;
 G. Sharbatlar, mumlar, kakao moyi.
14. Agar bo'tqalar o'simlik poroshogidan tayyorlansa, shilimshiq moddalar....
 A. $1/5 - 1/2$ olinadi;
 B. $1/2 - 1/6$ olinadi;
 V. Nisbatining farqi yo'q,
 G. $2/5 - 1/3$ olinadi.

15. Bo'tqalarni konservatsiya qilish maqsadida quyidagi moddalar qo'shish mumkin?
- A. Suv qo'shiladi va 1 soat davomida ishlatiladi;
 - B. Glitserin qo'shiladi va 1 kun mobaynida ishlatiladi;
 - V. Jelatin qo'shiladi va 1 oy davomida ishlatiladi;
 - G. Suv qo'shiladi va 2 kun davomida ishlatiladi.
16. Bo'tqalar asosan
- A. Ot, cho'chqa, itlarga beriladi;
 - B. Itlarga va quyonlarga beriladi;
 - V. Quyon va cho'chqalarga beriladi;
 - G. Faqat cho'chqalarga beriladi.
17. Vishnevskiy liniment tarkibi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?
- A. Kseroform 3.0, qora moy 3.0, baliq moyi va kanakunjut moyi 100,0 g gacha;
 - B. Kseroform 5.0, qora moy 4.0 va kanakunjut moyi 100,0 g;
 - V. Keroform va qora moy 5.0, baliq moyi 300,0 g;
 - V. Kseroform 3.0, qora moy 3.0, baliq moyi va kanakunjut moyi 500 g;
 - G. To'g'ri javob ko'rsatilmagan.
18. Sovunli kamfora – uchuvchan liniment tarkibi to'g'ri ko'rsatilgan javobni ko'rsating?
- A. Meditsina sovuni 40 q, spirt 40q, kamfora 10q, limon moyi 2q, rozmarin 2q, tmin moyi 1 q, novshadil spirti 25 q;
 - B. Meditsina sovuni 10 q, spirt 10q, kamfora 10q, limon moyi 2q, rozmarin 2q, tmin moyi 1 q, novshadil spirti 25 q;
 - V. Meditsina sovuni 10 q, spirt 10q, kamfora 10q, limon moyi 2q, rozmarin 2q, tmin moyi 2 q, novshadil spirti 20 q;
 - G. Meditsina sovuni 20 q, spirt 10q, kamfora 10q, limon moyi 2q, rozmarin 2q, tmin moyi 2 q, novshadil spirti 20 q.
19. Nima uchun veterinariya amaliyotida baliq moyi ishlatiladi?
- A. Yaxshi so'riladi, terisini yumshatadi va tarkibida vitaminlar ko'p;
 - B. Yaxshi so'riladi va turqunlashtiruvchi modda sifatida;
 - B. Vitaminli va konservant sifatida;
 - V. Yaxshi so'riladi, terini yumshatadi va rang berish maqsadida.
20. Uchuvchan liniment tarkibi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?
- A. Novshadil spirti – 1q, kungaboqar moyi – 3q;
 - B. Novshadi spirti – 2q, kungaboqar moyi – 5q;
 - V. Etil spirti – 1q, baliq moyi – 3q;
 - G. Etil spirti – 5q, kamfora moyi – 2q.
21. Murakkab uchuvchan liniment tarkibi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?
- A. Kamfora moyi – 3q, kanakunjut moyi – 1q, novshadil spirti – 1q;
 - B. Kamfora moyi – 2q, kanakunjut moyi – 2q, novshadil spirti – 2q;
 - V. Kamfora moyi – 1q, kanakunjut moyi – 1q, novshadil spirti – 1q;
 - G. Kamfora moyi – 5q, kanakunjut moyi – 6q, novshadil spirti – 10q.
22. Veterinar dori turlarini insonlarda qo'llaniladigan dorilardan farqi bormi va asosan qanday?
- A. Tayyorlanishi o'xshash, lekin dozasi ko'proq;

- B. Farqi yo'q;
- V. Faqat dozasiida farqi bor;
- G. Xamma javoblar to'g'ri.

ADABIYOTLAR:

1. Maxkamov S.M., Maxmudjonova K.S. Tayyor dori turlari texnologiyasi. Toshkent. 2010. B. 367. (darslik).
2. Тихонов А.И., Ярних Т.Г. Технология лекарств.-Харьков, 2002-704 с.
3. Чуешов В.И. Промышленная технология лекарств. - Харьков, 2002.-Т.2.- 761 с.
4. Александров И.Д., Субботин В.М. Справочник по технологии приготовления лекарственных форм: для ветеринарного врача и фермера. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2001. -192 с.
5. Синёв Д.И., Марченко Л.Г., Синёва Т.Д. Справочное пособие по аптечной технологии лекарств.-С.Петербург, 2001.-316 с.
6. Loyd V. Allen, Jr., Nicholas G. Popovich, Howard C. Ansel. Ansel's Pharmaceutical Dosage Forms and Drug Delivery Systems.-New York: Lippincott Williams & Wilkins, 2011.- P.722
7. Saxton J., Gregory P. Textbook of Veterinary Homeopathy.-New York, 2005.-320 pages.
8. Steven B. Kayne, Michael H. Jepson Veterinary Pharmacy.- New York Pharmaceutical Pr., 2004.-676 pages.

15-AMALIY MASHG'ULOT

VETERINARIYA AMALIYOTIDA ISHLATILADIGAN STERIL DORI TURLARI TEXNOLOGIYASI

Amaliy mashg'ulot maqsadi: veterinariya amaliyotida ishlatiladigan steril dori turlari texnologiyasini tayyorlash bo'yicha ko'nimaklarini shakllantirish.

Mavzuni yozishdan maqsad: veterinariya retsepturasi va dozalarni o'rganish, veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan steril dori turlarini tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalarni to'g'ri tanlash va texnologiyasini bilish va sifatini baholashni o'rganish.

Mavzuning ahamiyati: veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan steril dori turlarini tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalar bilan tanishish.

Ta'limusullari: Amaliy mashg'ulot, tezkorso'rov, Breyn-ring, munozaratexnologiyasi.

Asosiy matn

Aseptikaning mohiyati. In'eksion dori turlarini tayyorlash davomida maxsus sharoit – aseptik muhit barpo etish lozim. Bu aseptik muhit dori turlarini tayyorlashda unga tushadigan mikroorganizmlardan saqlaydi. Aseptik sharoitiga amal qilinmay tayyorlangan dori turlari oqibatida mikroflora bilan ifloslanadi va bu dorilar termik sterilizatsiya paytida o'lgan mikroorganizmlar, ular ajratgan toksinlarni o'zida saqlab qoladi. O'z tarkibida o'lik mikroorganizm qoldiqlari yoki ulardan ajralib chiqqan toksinlarni saqlovchi dori turlari organizm uchun juda xavflidir. Bunday dori turlari bemorda xaroratning ko'tarilishi

(pirogen reaksiya)ga yoki nojo'ya ta'sirga olib kelishi mumkin. Ammo ba'zi dori turlari termik sterilizatsiyaga chidamsizdir. Bunday dori turlari termolabil (emulsion, suspenziya va boshqalar) bo'ladi. Termik sterilizatsiya qilingan paytda ularda flokulyatsiya (suspenziyalarda) va koalestsentsiya (emulsiyalarda) xodisasi tezlashadi. Shuning uchun termolabil dori turlarini tayyorlashda boshqacha usuldan foydalanish kerak. Buning uchun erituvchi yoki malqamlar uchun asoslar, ish asboblari va idishlar aloqida sterillanadi, yuqori xaroratga chidamsiz bo'lgan dori moddalari esa aseptik sharoitda o'lchab olinadi va sterillangan erituvchida eritiladi (ba'zan konservant qo'shiladi) yoki sterillangan asoslar yordamida sterillangan asoslar bilan aralashtiriladi va sterillangan idishlarga solinadi. Dori turlarining termolabil bo'lmagan komponentlarni qam sterilizatsiya qilinadi. Barcha in'eksion dori turlari aseptik bloklarda tayyorlanadi.

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan parenteral dori vositalari

Parenteral dori vositalariga suvli va suvsiz eritmalar, suspenziya, emulsiya va quruq moddalar (kukunlar, qovak massalar, tabletkalar) kiradi. quruq moddalarni ishlatishdan oldin steril erituvchi eritiladi. Xajmi 100 ml va undan ortiq bo'lgan parenteral eritmalar infuzion eritmalariga kiradi.

Parenteral dori vositalari steril bo'lishi, tarkibida mexanik aralashmalarni saqlamasligi, pirogenlik va toksikologik (zaharlilik) bo'yicha barcha talablarga javob berishi kerak. In'eksion izotonik, izogidrik va izoinik bo'lishi mumkin. In'eksion eritmalarini tayyorlashda in'ektsiya uchun suv, moylar, etiloleat, shuningdek ular bilan birgalikda etil spirti, glitserin, propilenglikol, benzilbenzoat va boshqa erituvchilar ishlatiladi.

Parenteral dori moddalarni tayyorlashda konservantlar, antioksidantlar, stabilizatorlar, emulgatorlar va boshqa yordamchi moddalardan foydalaniladi. Masalan, askorbin, xlorid, vinotosh, limon, sirka kislotalari, natriy karbonat, natriy bikorbonat, o'yuvchi ishqor, natriy yoki kaliy sulfid, bisulfid yoki metabisulfid, natriy tiosulfat, fenol, butanol, rongalit va boshqalar.

Yordamchi moddalar qo'shilayotganda agar xususiy maqolada ko'rsatilmagan bo'lsa, krezol, fenol, xlorbutanolning miqdori 0.5% gacha, kaliy yoki natriy metabisulfid, sulfid yoki sulfid angidridining esa 0.2% gacha bo'lishi mumkin.

In'eksion eritmalar in'ektsiya uchun suv yoki xususiy maqolada ko'rsatilgan eritvchi bilan solishtirilganda, agar boshqa ko'rsatmalar bo'lmasa tiniq bo'lishi kerak.

Misol 1: Natriy tiosulfatning 30% li in'ektsiya uchun eritmasi

Rp.: Solutio Natrii thiosulfatis 30% pro injectionibus 10 ml

Sterilisetur!

D.S. ot uchun tomirga

Tarkibi:

Natriy tiosulfat - 300 g

Natriy gidrokarbonat - 20 g

In'ektsiya uchun suv - 1 l gacha

Erutma umumiy injeksion eritmalar texnologiyasi bo'yicha tayyorlanadi.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar:

1. Veterinariya steril dorilarining tavsifi va ta'rifi, veterinar preparatlarini dozlash asoslari.

2. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan steril dori turlarining tavsifi va texnologiyasining o'ziga xosligi.

3. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan in'ektsiya vainfuziya uchun mo'ljallangan va ko'z tomchilari preparatlari texnologiyasi.

4. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan steril dori preparatlarni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar.

5. Veterinariya atamaları bilan tanishuv.*

* - Mustaqil tayyorlash uchun berilgan savollar "Tezkor so'rov" usulida muhokama etiladi.

Uslubiy ta'minot: Uslubiy qo'llanma, tarqatma material, mavzuga tegishli adabiyotlar, internet materiallari.

Mashg'ulotni jihazlanishi: Ma'lumotnomalar, tarkatma materiallar, dorivor va yordamchi moddalar (in'ektsiya uchun suv, bikslar, havo sterilizatori, sterillangan kungaboqar moyi), sterillangan penitsillinshisha idishlar, rezinaprobkalar, voronka, silindr, tosh-torozlar.

Amaliy bajarish uchun topshiriqlar

1. Tavsiya etilgan veterinariya amaliyotida ishlatiladigan steril dori turlari retseptlari uchun pasport tuzing va texnologiyasini asoslab bering*:

1.1. Rp. : Solutionis Coffeini natrii benzoatis 20%-80 ml

Sterilisetur!

D. S. In'ektsiya uchun eritma. Otga teri ostiga 20 ml ertalab va kechqurun.

1.2. Rp.: Benzylpenicillini-natrii 250 000 ЕД

D. t. D. N.5

S.In'ektsiya uchun. Buzoqchaga mushaklarga 2,5 ml dan har 6 soat.

1.3. Rp.: Solutionis Novocaini 0,5% —5 ml

D. t. D. N 5 in ampullis

S.Benzilpenitsillinni eritish uchun.

1.4. Rp.: Suspensionis Hydrocortisoni 5 ml

D.S.itning bo'g'imlariga 0,5—1 ml dan haftasiga 1 marta yuborish.

1.5. Rp.: Lidocaini hydrochloridi 0,25

Solutionis Natrii chloridi 0,9 % - 50 ml

Sterilisetur!

Adde asepticе

Solutionis Adrenalini hydrocliloridi 0,1 % V –gtts.

M. D. S. Infiltratsion anesteziya uchun.

*-Tarqatma materiallarda keltirilgan retseptlar Breyn-ring, munozara texnologiyasi usullrda muhokama etiladi.

2. Veterinariya atamaları bilan tanishish va ularni izohlash.

Kalit so'zlar: veterinariya, sterillanadigan dori turlari, in'ektsion eritmalar, ingfuzion eritmalar, ko'z tomchilari.

ADABIYOTLAR:

1. Maxkamov S.M., Maxmudjonova K.S. Tayyor dori turlari texnologiyasi. Toshkent. 2010. B. 367. (darslik).
2. Тихонов А.И., Ярних Т.Г. Технология лекарств.-Харьков, 2002-704 с.

3. Чуешов В.И. Промышленная технология лекарств. - Харьков, 2002.-Т.2.- 761 с.
4. Александров И.Д., Субботин В.М. Справочник по технологии приготовления лекарственных форм: для ветеринарного врача и фермера. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2001. -192 с.
5. Синёв Д.И., Марченко Л.Г., Синёва Т.Д. Справочное пособие по аптечной технологии лекарств.-С.Петербург, 2001.-316 с.
6. Loyd V. Allen, Jr., Nicholas G. Popovich, Howard C. Ansel. Ansel's Pharmaceutical Dosage Forms and Drug Delivery Systems.-New York: Lippincott Williams & Wilkins, 2011.- P.722
7. Saxton J., Gregory P. Textbook of Veterinary Homeopathy.-New York, 2005.-320 pages.
8. Steven B. Kayne, Michael H. Jepson Veterinary Pharmacy.- New York Pharmaceutical Pr., 2004.-676 pages.

16-AMALIY MASHG'ULOT

VETERINARIYA AMALIYOTIDA ISHLATILADIGAN DEZINFEKTSIYALOVCHI, ANTISEPTIK, INSEKTITSID-AKARITSID PREPARATLAR TEXNOLOGIYASI

Amaliy mashg'ulot maqsadi: veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfektsiyalovchi, antiseptik, insektitsid-akaritsid preparatlar texnologiyasini tayyorlash bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish.

Mavzuni yozishdan maqsad: veterinariya retsepturasi va dozalarni o'rganish, veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan dezinfektsiyalovchi, antiseptik, insektitsid-akaritsid preparatlar tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalarni to'g'ri tanlash va texnologiyasini bilish va sifatini baholashni o'rganish.

Mavzuning ahamiyati: veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan dezinfektsiyalovchi, antiseptik, insektitsid-akaritsid preparatlar tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalar bilan tanishish.

Ta'limusullari: Amaliy mashg'ulot, tezkorso'rov, "Charhpalak", munozaratexnologiyasi.

Asosiy matn

Dezinfektsiyalovchi vositalar – bu turli hayvonlarda tarqaladigan infeksiyon kasallik chaqiradigan mikroorganizmlarga tashqi muhitda haloq qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan vositalar. Dezinfektsiyalovchi vositalar molxona, go'ng saqlanadigan omborxonalarni, ayvonlar uchun ishlatiladigan asbob-uskunalarni va b. Zararsizlantirish uchun ishlatiladi.

Dezinfektsiyalovchi suyuqlik hayvonlar uchun qo'llaniladigan tibbiyot asboblarni zararsizlantirish uchun ishlatiladi:

- Formalin – 20,0 g,
- Toza suyuq fenol – 1,5 g,
- Natriy bikarbonat – 7,5 g,
- Tozaalangan suv 500 g gacha.

Antiseptik vositalar (yunonchadan “anti” - qarshi, “sepsis”-kimyoviy zararlantiruvchi vositalar: fenol eritmalari (3-5%), simob (0,1-0,2%), borat kislotasi (2-4%), yod eritmalari, yodoform, kseroform, dermatol, trikrezol, brilliant yashili, formalin, xlorli ohak, kichik konsentratsiyalarda antiseptik vositalar konservant, stabilizator, bakterostatik vositalar sifatida qo‘llaniladi.

Novikov antiseptik suyuqligi:

Tanin – 1 q,

Brilliant yashili – 0,2 q,

Etil spirti 96% - 0,2 q,

Kaanakunjut moyi – 0,5 q,

Elastik kollodiy - 20 q.

Quyuq massa bzlib, tez quriydi va zich elastik parda osil qiladi.

Rp: Solutionis Acidi borici 3,0 150 ml D.S.

chayish uchun

Borat kislotasi sovuq suvda 1:25, issiq suvda 1:4 nisbatda eriydi. YOrdamchi idishda 3,0 borat kislotasi 150 ml tozalangan issiq 80-90°S suvda chayqitib eritiladi va beriladigan idishga suzib, jihozlab beriladi.

Rp: Solutionis Cupri sulfatis 2% - 200 ml D.S.

YUvish uchun.

Mis sulfat suvda yaxshi eriydi (1:3), lekin kristallari yirik va yomon xo‘llanish xossasiga ega bo‘lgani uchun erish sekin boradi. Bu jarayonni tezlashtirish uchun mis sulfatni xovonchada maydalanadi va issik 80-90°S suv ishtirokida eritiladi. Tayyor eritma shisha idishga paxta orqali suzib beriladi.

Kumush nitrat va kaliy permanganat eritmalari organik moddalar ta’sirida tez parchalanib ketishi mumkin (ayniksa, filtrlanish jarayonida). Bundan tashqari filtr qog‘ozi kumush ionlarini uzida adsorbsiyalab unshab qolishi mumkin.

SHuning uchun bunday moddalardan eritmalar tayyorlashda oldindan filtrlab olingan yangi xaydalgan tozalangan suv inshatish lozim. Juda filtrlash zarur bo‘lsa, birinchi yoki ikkinchi nomerli shisha filtrlardan foydalanish mumkin.

Rp: Sol. Argenti nitratis 0,12 180 ml

D.S. chayish uchun.

0,12 g. kumush nitrat 180 ml oldindan filtrlangan yangi xaydalgan tozalangan suvda eritiladi. Tayyor eritma qo‘ng‘ir idishda muxrlab beriladi. "Emtiyot bulinsin" degan etiketka bilan ta’minlanadi. YAngi tug‘ilgan chakaloklar uchun, deb yozib qo‘yiladi.

Rp: Sol Kalii permanganatis 5%-50 ml D.S. surtish

uchun.

Kaliy permanganat sovuq suvda 1:18, issiq suvda esa 1:3 nisbatda eriydi.

Xovonchada 2,5 g kaliy permanganat 50 ml yangi xaydalgan, oldindan filtrlangan issiq suvda maydalab eritiladi va qo‘ng‘ir idinshlarda jixozlab beriladi.

Farmatsevtika amaliyotida keng qo‘llaniladigan eritmalaridan biri Lyugol eritmasidir. Uning 5% (ichish uchun) va 1% (sirtga qo‘llash uchun) eritmalari mavjud bo‘lib, tarkibi quyidagichadir.

Rp:Iodi 1,0

Kalii iodidi 2,0

Aquae puriflcatæ ad 100ml

M. D. S. sirtga kullash uchun.

Rp: Iodi 1,0

Kalii iodidi 2,0

Aquae purificatae ad 20ml

M. D. S. ichish uchun.

2,0 g kaliy iodid 1,5 - 2,0 ml tozalangan suvda eritiladi. mosil bo'lgan to'yingan eritmada pergament qog'ozda iloji boricha tez tortib olingan 1,0 yod kristallari eritiladi. Yod to'liq erigandan so'ng tozalangan suv quyib xajmi 100 ml ga etkaziladi. Eritma paxta tampon yoki shisha filtr orqali suziladi va qo'ng'ir idishlarda, kerakli etiketka yopishtirib beriladi.

Lyugol eritmasi ichish uchun berilsa tomchilab sutga qo'shib ichiladi.

Insektitsid (lot. *insectum* — hashorat, lot. *caedo* — o'ldirish, haloq etish) — kimyoviy preparatlar bo'lib, zararkunanda hashoratlarni, ularning tuxumlarini (ovitsidlar va larvitsidlar)o'ldirish uchun ishlatiladi. Ayrim insektitsid moddalar kanallarni ham o'ldiradi (insektoakaritsidlar).

Insektitsid vositalar asosan qishloq xo'jalik ekinlarini zararkunanda ashoralardan saqlash uchun ishlatiladi, shuningdek turli infeksiyon kasalliklarni tashuvchi xashoralarga, oziq-ovqat, matolar va boshqa materiallarni ham zararlantirish uchun qo'llaniladi.

Insektitsidlar kimyoviy tarkibi bo'yicha quyidagicha tasni flanadi:

- xlororganik (DDT, geksoxloran va b.)
- fosfororganik (tiofos, karbofos, metilmerkaptosfos, dixlofos, diazinon, xlorpirifos va b.)
- karbaminkislotasi xosilalaroi (metilkarbammat), (propoksur),
- tabiiy piretrinlar va sintetik piretroidlar (sipermetrin, deltametrin, sigalotrin)
- tarkbida margimush saqlovchi preparatlar (kalsiy va natriy arsenit, kalsiy arsenat)
- oltingugurt preparatlari
- mineral moylar
- O'simliklardan olingan zaharlar (anabazin, nikotin alkaloidlari)
- neonikotinoidlar (imidaklopid, tiametoksam),
- xitign sintezi ingibitorlari (diflubenzuron)
- fenilpirazollar (fipronil)
- yuvenoidlar

Insektitsid preparatlar — eritma, konsentrlangan eritma, emulsiya, namlanuvchi poroshok, dustlar, aerozollar va b. Dori shaklida ishlab chiqariladi. Ular tarkibida yordamchi modda sifatida to'ldiruvchi, sirt faolmoddalar (SFM) va boshqalar ishlatiladi. Insektitsid preparatlarning faolligi ko'p jiatdan tarkibiga bog'liq bo'ladi.

«Insektitsid» atamasi dori modda va uni saqlovchipreparatga ham tegishlibo'ladi. Jahonda 250 dan ortiq insektitsid preparatlar ma'lum. Ko'p firmalar bir hil moddadan tayyorlangan preparatlariturli savdo nomi bilan ishlab chiqaradilar (jadval-1). Insektitsid preparatlar assortimenti muntazam yangilanib boradi, bu xol hashoratlari insektitsid preparatlariga rezistentligi ortibborishi hamda yuqorisamaradorvainsonlar uchun zararsiz insektitsid preparatlarining yangiavlodi ishlabchiqarilishibilan boliq.

Ishlatilishiga ko'ra insektitsidlar kontaktli, ichak orqali, va fumigantlar (nafas yo'liorqali)ga tasniflanadi.

Zamonaviy insektitsid vositalarining nomeknlatursasi

Avant

Aktara, krutzer

Aktellik, belofos, fosbetsid

Bankol

BI-58 novo'y (dimetoat) – sin. **Danadim, Rogor-S**

Buldok

Danitol

Detsis(deltametrin) – sin. **Detsis profi, Detsis ekstra.**

Diazinon(diazinon) – sin. **Grizli, Diazol**

Dimilin

Dursban(xlorpirifos) – sin. **Pirineks.**

Zolon (fozalon), benzofosfat

Insegar

Karate (lyambda-sigalotrin), karate zeon, brey

Kinmiks

Konfidor ekstra (imidaklopid) – sin. **Antijuk, Imidor, Komandor, Konkord,**

Proagro 100 SL, Protektor, Tanrek

Lannat 20 L (metomil)

Mospilan (atsetamiprid) – sin. **Agrolan, Djayant, Reksflor**

Nomolt

Nurell D

Oftanol

Pirimiks 100 RS (pirimikarb), pirimor

Prostor

Regent (fipronil), adonis, kosmos

Sumi-alfa (esfenvalerat) – sin. **Sempay**

Sumition (fenitrotion), metation

Sumitsidin (fenvalerat), baversan

Talstar (bifentrin)

Fastak (alfa-sipermetrin) – sin. **Alterr, Rotalaz, Faskord, Sunami,**

Talstar (bifentrin)

Fufanon (malation) – sin. Novaktion, Karbofos

Fyuri (zeta-sipermetrin) – sin. Tarzan,

Simbush (sipermetrin) - sin. **Arrivo, Siperon, Sipi, Sitkor, Sitrin, SHarpey,**

SHerpa

Mustaqil tayyorlash uchun savollar:

1. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfektsiyalovchi va antiseptik preparatlar texnologiyasi.
2. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan insektitsid-akaritsid preparatlar texnologiyasi.
3. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfektsiyalovchi va antiseptik preparatlarni zamonaviy nomenklaturasi.
4. Veterinariya atamalari bilan tanishuv.*

* - Mustaqil tayyorlash uchun berilgan savollar “Tezkor so’rov” usulida muhokama etiladi.

Uslubiy ta’minot: Uslubiy qo’llanma, tarqatma material, mavzuga tegishli adabiyotlar, internet materiallari.

*-Tarqatma materiallarda keltirilgan retseptlar “Charhpalak” usulida muhokama etiladi.

Mashg’ulotni jihazlanishi: Ma’lumotnomalar, prezentatsiya, tarkatma materiallar, zamonaviy dorilar kolleksiyasi, dorivor va yordamchi moddalar (etil spirti, o’simlik moylari, tozalangan suv), shisha idishlar, voronka, silindr, tosh-torozlar.

Amaliy bajarish uchun topshiriqlar

DTT-4,4’-dixlordifeniltriixlormetilmetan, dixlordifeniltriixloretan (pentaxlorin, SS-5)– oq rangli kristallik poroshok, suvda erimaydi, spirtida kam eriydi, organik erituvchilarda - benzin, skipidar, atseton, kerosin va b.yaxshieriydi DTT turli dori shakllarida ishlatiladi.

Keltirilgane tarkiblarni daftaringizga yozing:

Dust Duolit:

DTT – 25 q,

mineral moy – 1q,

talk – 39 q,

kaolin -32 q.

Ishlatishdan oldin Duolit dustini 1:2 nisbatda to’ldiruvchi qo’iladi.

Dust DDT: DTT – 5, 6, 7 yoki 10% vaunga teng miqdorda talk, kolin, mel,kizelgur, silikagel va b. Qo’shiladi.

Detoyl konsentrati: DTT – 28%, turbina moyi – 10%, xlorbenzol - 40%, sulfomoylar – 25%.

Duolit konsentrati: DTT – 20%, tetralin erituvchisi – 30%, emulgator – 50%.

DTT sovuni: DTT – 5-50%, xo’jalik sovuni – 95-50%. Ayrim xollarda sovun tarkibiga geksaxloran 10% gacha qo’iladi.

2. Veterinariya atamaları bilan tanishish va ularni izohlash.

Kalit so’zlar: veterinariya, sterillanadigan dori turlari, in'ektsion eritmalar, ingfuzion eritmalar, ko’z tomchilari.

ADABIYOTLAR:

1. Махкамов S.M., Махмудjonova K.S. Tayyor dori turlari texnologiyasi. Toshkent. 2010. B. 367. (darslik).
2. Тихонов А.И., Ярніх Т.Г. Технология лекарств.-Харьков, 2002-704 с.
3. Чуешов В.И. Промішленная технология лекарств. - Харьков, 2002.-Т.2.- 761 с.
4. Александров И.Д., Субботин В.М. Справочник по технологии приготовления лекарственных форм: для ветеринарного врача и фермера. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2001. -192 с.
5. Синёв Д.И., Марченко Л.Г., Синёва Т.Д. Справочное пособие по аптечной технологии лекарств.-С.Петербург, 2001.-316 с.

6. Loyd V. Allen, Jr., Nicholas G. Popovich, Howard C. Ansel. Ansel's Pharmaceutical Dosage Forms and Drug Delivery Systems.-New York: Lippincott Williams & Wilkins, 2011.- P.722

7. Saxton J., Gregory P. Textbook of Veterinary Homeopathy.-New York, 2005.-320 pages.

8. Steven B. Kayne, Michael H. Jepson. Veterinary Pharmacy.- New York Pharmaceutical Pr., 2004.-676 pages.

17-AMALIY MASHG'ULOT

VETERINARIYA AMALIYOTIDA ISHLATILADIGAN PERMIKSLAR TEXNOLOGIYASI

Amaliy mashg'ulot maqsadi: veterinariya amaliyotida ishlatiladigan premikslarni tayyorlash bo'yicha ko'nimaklarini shakllantirish.

Mavzuni yozishdan maqsad: veterinariya retsepturasi va dozalarni o'rganish, veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan premikslarni tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalarni to'g'ri tanlash va texnologiyasini bilish va sifatini baholashni o'rganish.

Mavzuning ahamiyati: veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan premikslarni tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalar bilan tanishish.

Ta'limusullari: Amaliy mashg'ulot, tezkor so'rov, bumerang texnologiyasi.

Asosiy matn

Premiks atamasilotin tilida «prae» - olg'a, dastlab va «micseo» - aralashtir ma'nosini bildiraman. Premikslar mikrobiologik yoki kimyoviy sintez usulida olingan biologik faol qo'shimchalar bo'lib, ilmiy asoslangan tarkiblarga asoslangan holda tuziladi.. Premikslar em, kombikorm, oqsil-vitaminli oziqaviy qo'shimchalar tarkibiga kiritish uchun mo'ljallangan. Premikslarni yaratishdan asosiy maqsad – oziqaviy maxsulotlarni qiymatini oshirish va yo'naltirilgan holda hayvonlarni maqsadli boyitilgan oziqlantirish.

Premikslar tarkibiga kiruvchi farmakologik faol moddalarga qarab ular quyidagicha tasniflanadilar:

- vitaminli,
- antibiotikli,
- mineralli,
- oqsilli
- kompleksli.

Ta'sir qo'rsatishiga qarab premikslar profilaktik va davolovchi bo'ladilar. Premikslar tarkibida ishlatiladigan biologik faol moddalar – vitaminlar, mikroelementlar, aminokislotalar, kimyo-terapevtik preparati va b. ishlatiladi.

Biologik faol moddalar bilan birga premikslar tarkibiga to'ldiruvchi moddalar - bug'doy, kepek, kunjara, kalsiy karbonat, oqak, mel, drojjilar va boshqa moddalar olinadi.

Premikslar retsepturasi o'ta murakkab bo'lib, hayvonlar uchun hayotiy zarur moddalarga boyitilgan moddalarni qo'shib, hayvonlar turi, yoshi, jinsiga qarab tuziladi, shuningdek premikslar tarkibiga kiruvchi moddalarni kimyoviy va biologik mos kelishi hisobga olinadi.

Premikslar ta'sir mexanizmi tarkibiga kiruvchi moddalar tomonidan belgilanadi:

- To'ldiruvchilar – ushbu yordamchi moddalar biologik faol moddalarni o'z tarkibida ushlab va saqlab turadi. Ushbu moddalar premikslar asosini tashkil etadi, shu sababli uning sifati, maydalik darajasi va biofaol moddani bog'lash xususiyati, mahsulot sifatiga umumiy ta'sir ko'rsatadi.

- Vitaminlar – hayvonlarni umumiy tonusini ko'tarib, fiziologik tizimlar faoliyatini jadallashtiradi (fermentativ, immun va gormonal). Vitaminli va vitamin-mineralli premikslarning esa biologik faol moddasi hisoblanadi.

- Mineral moddalar – struktura hosil qiluvchi material hisoblanadi va hayvon skeletini tuzilishida muhim ahamiyatga ega (kalsiy, magniy, jelezo, fosfor, med va x.k.). vitamin-mineral premikslarning biofaol asosini tashkil etadi.

- Aminokislotalar – premikslarni oziqaviy qimmatligini belgilovchi qo'shimcha (Lizin, Metionin, Treonin va b.) hisoblanadi. Ushbu moddalar oziqaviy mahsulotlarda ham bor, biroq em tarkibidan ular sekin hazma bo'lishi hisobiga tahchillik vujudga kelishi kuzatiladi.

Masalan, lizin, don mahsulotlaridan 75-85% o'zlashtiriladi, hayvon oqsillar tarkibidan esa - na 85-95% o'zlashtiriladi, premikslar tarkibida beriladigan biosintetik lizin - 100% ga o'zlashtiriladi.

- Yordamchi moddalar: antioksidantlar, konservantlar, ular mog'or tarqalishini oldini oladi.

- Aromatizatorlar mahsulotni berish uchun qulay va xushtam qiladi, kombikor tashqi ko'rinishini chiroyli qiladi.

Biroq premikslar em yoki kombikorm o'rnini bosmaydi.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar:

1. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan premikslar nomenklaturasini.
2. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan premikslar texnologiyasini.
3. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan premikslarni tayyorlashda ishlatiladigan yordamchi moddalarni.
4. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan premikslarni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalarini.

Veterinariya atamaları bilan tanishuv.*

* - Mustaqil tayyorlash uchun berilgan savollar "Tezkor so'rov" usulida muhokama etiladi.

Uslubiy ta'minot: Uslubiy qo'llanma, tarqatma material, mavzuga tegishli adabiyotlar, internet materiallari.

Mashg'ulotni jihozlanishi: Ma'lumotnomalar, tarqatma materiallar, dorivor va yordamchi moddalar (bug'doy uni va doni, etil spirti, o'simlik moylari, tozalangan suv), shisha idishlar, voronka, silindr, tosh-toroqlar.

Amaliy bajarish uchun topshiriqlar

1. Ilovalarda keltirilgan premikslar tarkibini izohlang va daftaringizga yozing.
2. Veterinariya atamaları bilan tanishish va ularni izohlash.

Kalit so'zlar: veterinariya, sterillanadigan dori turlari, in'ektsion eritmalar, infuzion eritmalar, ko'z tomchilari.

ADABIYOTLAR:

1. Maxkamov S.M., Maxmudjonova K.S. Tayyor dori turlari texnologiyasi. Toshkent. 2010. B. 367. (darslik).
2. Тихонов А.И., Ярних Т.Г. Технология лекарств.-Харьков, 2002-704 с.
3. Чуешов В.И. Промышленная технология лекарств. - Харьков, 2002.-Т.2.- 761 с.
4. Александров И.Д., Субботин В.М. Справочник по технологии приготовления лекарственных форм: для ветеринарного врача и фермера. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2001. -192 с.
5. Синёв Д.И., Марченко Л.Г., Синёва Т.Д. Справочное пособие по аптечной технологии лекарств.-С.Петербург, 2001.-316 с.
6. Loyd V. Allen, Jr., Nicholas G. Popovich, Howard C. Ansel. Ansel's Pharmaceutical Dosage Forms and Drug Delivery Systems.-New York: Lippincott Williams & Wilkins, 2011.- P.722
7. Saxton J., Gregory P. Textbook of Veterinary Homeopathy.-New York, 2005.-320 pages.
8. Steven B. Kayne, Michael H. Jepson Veterinary Pharmacy.- New York Pharmaceutical Pr., 2004.-676 pages.

18-AMALIY MASHG'ULOT

VETERINARIYA AMALIYOTIDA ISHLATILADIGAN GOMEOPATIK PREPARATLAR TEXNOLOGIYASI VA NOMENKATURASI

Amaliy mashg'ulot maqsadi: veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik preparatlarini tayyorlash bo'yicha ko'nimaklarini shakllantirish.

Mavzuni yozishdan maqsad: veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik preparatlari retsepturasi va dozalarni o'rganish, veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan gomeopatik preparatlarni tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalarni to'g'ri tanlash va texnologiyasini bilish va sifatini baholashni o'rganish.

Mavzuning ahamiyati: veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan gomeopatik preparatlarini tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalar bilan tanishish.

Ta'limusullari: Amaliy mashg'ulot, tezkorso'rov, charhpalak, munozaratexnologiyasi.

Asosiy matn

Turli dori moddalardan suyultirishlar tayyorlash

- A. Suyuqliklar /eritma, essensiya, tinktura/ dan suyultirish yo'li bilan dori tayyorlash. Buning uchun idish xajmi $\frac{1}{2}$ - $\frac{1}{3}$ qismida bo'sh bo'lishi kerak. Dori nomi va suyultirish darajasi idish va tiqinda ko'rsatilishi kerak. Misollar asosida o'nlik va yuzlik suyultirishlar keltiriladi. Xar doim suyultirish o'n marta /qattiq/ kuchli aralashtirish yo'li bilan olib boriladi. Xar ikki xil suyultirishda 2-o'nlik va 2-yuzliklar 45% spirt yordamida suyultiriladi.

B. Trituratsiyalar /poroshoklarni/ tayyorlash farmakopeyaning 7-bandi bo'yicha tayyorlaniladi.

V. Trituratsiyalardan suyuqliklar tayyorlash. Buning uchun 3 S tayyorlangan poroshok olinib, 79q. suv 20q. 90% spirt qo'shib 10 marta chayqatiladi 4 S 5 S ni tayyorlash uchun 4S dan Iq. olib 99q. 45% spirt olinadi, qolganlari 6S, 7S xam 45% spirda suyultiriladi.

Bulardan so'ng granulalar, tabletkalar, yumshoq dori turlari tayyorlash, sirtga ishlatiladigan spirtlarni tayyorlash usullari.

Gomeopatik suvli va suv-spirтли eritmalar texnologiyasi

Gomeopatiyada ishlatiladigan eritmalar va potensiyalarni tayyorlashda sanitariya qoidalariga talablariga muvofiq mikrobiologik tozaligiga javob berishi shart. /X1 DF ning 2 qism, 193 bet/.

Suyuq moddalarni suyultirish qoidalari. Suyuq birlamchi moddalarni (eritmalar, essensiyalar, tinkturalar) suyultirilishi quyosh nuri tushmaydigan, qorong'i xonada amalga oshiriladi. Suyultirish uchun ishlatiladigan idishlarning hajmi suyultiriladigan modda hajmidan 1/2-1/3 marta katta bo'lishi kerak. Dorining nomi va suyultirilishi tiqinda hamda idishning yorlig'ida ko'rsatilgan bo'lishi lozim. YUZlik suyultirishda raqam oldiga "S" xarfi, o'nlik suyultirishda esa raqam oldiga "D" xarfi qo'yiladi. Katta hajmdagi suyultirishlar og'irlik vazni bo'yicha olib boriladi, kichik hajmdagi suyultirishlar tomchilab qo'shiladi.

a) o'nlik shkala uchun :

Suyultirish belgilari ko'rsatiladigan idishlar D1 dan D30 gacha bir qator terib qo'yiladi, so'ng D2 boshlab 9 qism xususiy maqolada keltirilgan suyultiruvchi modda (masalan 45% etil spirti) solib chiqiladi, so'ngra maxsus bandlar bo'yicha suyultirish jarayoni olib boriladi. Bunda har bir idish 10 marta qattiq tepadan pastga chayqatiladi, so'ng xosil bo'lgan eritmadan bir qismi boshqa idishlarga o'tkaziladi va xokazo.

b) YUZlik shkala uchun:

Dorilarning nomi yozilgan idishlar S1 dan S30gacha bir qator stolga terib qo'yiladi, S2dan boshlab menzurka yordamida idishlarga 99 qism suyultiruvchi modda qo'shib chiqiladi, so'ng bandlarda keltirilgan bo'yicha birinchi idishga bir qism modda va 99 qism erituvchi (suyultiruvchi) modda solib 10 marta tepadan pastga chayqatib, hosil bo'lgan eritmadan bir qismi keyingi idishga o'tkaziladi. SHu tarzda suyultirish davom etadi.

Gomeopatik essensiyalar texnologiyasi

Ganeman o'zining davolash usuli bilan bir qatorda gomeopatik dorilarni tayyorlash usullarini ham yaratgan.

Gomeopatik dori turlari yangi yig'ib olingan va quritilgan o'simliklar, xayvonot olamidani olingan va mineral moddalar yoki kimyoviy birikmalardan tayyorlanadi. Dorixonalarda essensiya, tinktura, eritma, trituratsiyalar tayyorlanib, ular aniq dorivor modda saqlaydi, ulardan keyinchalik qonun-qoidalar asosida suyultirishlar oboriladi.

Essensiyalar - bu yangi uzib olingan dorivor o'simliklardan, ularning tarkibidagi sharbatini miqdoriga bog'liq bo'lgan xolda SHvabe farmakopeyasi asosida 3 ta /1,2,3/ bandlar bo'yicha tayyorlanadi. O'simlik tarkibidagi sharbat miqdori bir necha omillarga, ya'ni:

- o'simlikni o'sayotgan joyi;
- yig'ib-terib olingan yilning fasli;

- yomg'irgarchilik bo'lgani yoki yo'qligi va boshqalarga bog'liqligi aniqdir.

SHuning uchun gomeopatiya amaliyotida dorivor birlik deb o'simlikdan siqib olingan sharbat xisoblanadi.

1-chi band bo'yicha o'simlikda sharbat miqdori 60% yoki undan ko'p bo'lsa essensiyalar quyidagicha tayyorlanadi.

Bunday o'simliklar o'z tarkibida smola, efir moylari va kamfora birikmalarini saqlamaydi va maydalab press orqali siqqanda 60% va undan xam ko'proq sharbat beradi. Essensiya tayyorlash uchun: mayda qilib maydalangan va bo'tqaga aylantirilgan o'simlikni press yordamida eziladi va sharbati olinadi. Olingan sharbatga 90% etil spirti teng miqdorda qo'shiladi va qattiq aralashtirilib, cho'kish uchun qo'yib qo'yiladi. 8 kun o'tgandan so'ng essensiya filtrlanadi va tiniq bo'lishi kerak.

2-chi band bo'yicha o'simlikdagi sharbat miqdori 60%dan kam bo'lsa essensiya quyidagicha tayyorlanadi .

Bunday o'simlikda ham smola, efir moylari va kamfora birikmalarini saqlamaydi. Maydalab press orqali siqqanda 60%dan kam sharbat beradi. SHuning uchun oldin o'simlikdagi sharbat miqdori aniqlanadi. SHarbat miqdorini aniqlash uchun birinchi qilib 100-105⁰S xaroratdagi maydalangan o'simlik massasini namlik darajasi aniqlanadi /a/. Ikkinchi qilib o'simlikdan siqib olingan sharbatni filtrlab 100⁰S xaroratdagi quruq qoldig'i topiladi /b/. Topilgan ko'rsatkichlar formulaga qo'yiladi va sharbatni miqdori aniqlanadi.

Demak,

$$X = \frac{100 \times a}{100 - b}$$

Ayrim o'simliklarning maydalangan massasida shilimshiq ko'p bo'ladi va chiqqan sharbat miqdori juda kam bo'lsa, aniqlanayotgan o'simlik miqdoriga teng qilib suv qo'shiladi va tez, qattiq chayqatilib 24 soatga qoldiriladi, keyin filtrlanadi. Filtrlangan sharbatida 100⁰S xarorat bo'yicha quruq qoldiq aniqlanib /s/, sharbat miqdori quyidagi formula orqali topiladi:

$$X = \frac{100 \times (a+s)}{100 - s}$$

Endi maydalab olingan o'simlik tortiladi va uning yarmicha 90%li spirt bilan namlab, yana maydalaniladi va quyuq bo'tqaga aylantiriladi. Keyin sharbat massasiga teng miqdorgacha 90%li spirt qo'shib aralashtiriladi va 8-14 kunga matseratsiya uchun qo'yiladi. Massani siqib og'zi yaxshi jips bekiladigan idishga solinadi va 8 kunga salqin joyga tindirish uchun qo'yiladi, keyin filtrlanadi. Dorivor moddaning miqdori 1/2 ga teng bo'ladi.

O'simlikdagi sharbat 60%dan kam va sharbat smola, efir moyi va kamfora birikmalarini saqlasa, essensiya quyidagicha tayyorlanadi.

Maydalangan o'simlikni quyqasimon massaga aylantirib tortiladi unga 90%li spirt miqdorining yarmicha solinadi va yaxshilab aralashtirib bo'tqa xosil qilinadi. SHarbatning miqdori aniqlangandan so'ng, uning miqdoriga ikki barobar ko'p 90%li spirt solinadi, aralashtirib uni 8-14 kunga matseratsiya uchun qo'yib qo'yiladi. Keyin suyuqlik

joyi quyilib olinadi, massa esa yana press yordamida siqiladi va bu ikkala suyuqliklar qo'shilib 8 kunga salqin joyda tindiriladi va filtrlanadi. Essensiya tiniq bo'lishi kerak.

Gomeopatik tinkturalar texnologiyasi

4 band bo'yicha spirtli nastoykalarini quritilgan o'simlik va yangi xayvonot to'qimalaridan tayyorlanishi, 2 kunlik matsratsiya yo'li bilan va keyingi perkolyasiya usulini qo'llab tayyorlanadi. Buning uchun quritilgan o'simliklar dag'al poroshok xolatigacha maydalanadi. Undan, 1 qism olib ustiga 10 qism etil spirti /konsentratsiyasi o'simlikka bog'liq bo'lib farmakopeyada ko'rsatilgan/ solinadi.

Nastoykalar tiniq rangli suyuqliklar bo'lib, spirt va suv yoki spirt bilan efir aralashmasi yordamida o'simlik, kamroq xayvon xom ashyolaridan olinadi. Bu gomeopatik tinkturalarni olish uchun xom ashyolarni maxsus ishlash yo'li bilan ajratmalar tayyorlanib, tindiriladi. Tinkturalar tarkibida dorivor moddaning miqdori 1:10 ga teng. Gomeopatiya farmakopeyasining 4-nchi bandi bo'yicha bir qism quritilgan o'simlik yoki tirik to'qimaga 10 q spirt qo'shib tinktura tayyorlash. Buning uchun 1 q maydalangan maxsulotga uning yarim miqdorida spirt qo'shib, aralashtirib, og'zi jips berkiladigan idishda, tez-tez aralashtirib 2 kunga qoldiriladi. So'ng perkolyatorga joylab kerakligicha spirt solib, xar daqiqada 20 tomchidan tushiriladi va tayyor maxsulot 1/10 nisbatiga to'g'ri bo'lguncha yig'iladi. Mabodo perkolyatorga tinkturani olish iloji bo'lmasa matsratsiya usulidan foydalaniladi. Buning uchun 1 q maydalangan o'simlik 10 q bilan aralashtirib 16⁰S da 8 kunga qoldiriladi, xar kuni aralashtirib turiladi. So'ng suyuq qism ajratiladi, qoldiq siqiladi xar ikkalasini qo'shib 8 kunga tindirish uchun qoldiriladi, so'ngra filtrlanadi. Tinkturalarni jonivor to'qimalaridan olish uchun chinni xovonchaga yangi so'yilgan yoki o'ldirilgan jonivor maxsuloti tozalanib, eziladi. Uning bir qismiga 10 q spirt qo'shib, aralashtirib 14 kunga qoldiriladi.

So'ng suyuqlik ajratilib, qoldiq siqilib, bir-biriga qo'shiladi va yana 8 kunga qoldiriladi, keyin filtrlanadi. Tayyor tinktura 1:10-birlamchi o'nlikka to'g'ri keladi. Misol: tinktura aloe matsratsiya usuli bilan 60% li spirtida tayyorlanadi. Asosan to'g'ri ichakka ta'sir qilib, ich ketar, kolit, proktit kasalligida ishlatiladi. Gomeopatik dorilarni tayyorlash uchun olingan spirtning quvvati va ishlatilishining ayrimlari keltirildi.

Apis/60% spirt bilan/ allergiyaga qarshi;

Arnika/90%/ allergiya, antigistamin ta'sirli;

Berberis /60%/ buyrak va o't bezidagi toshlarida

Kalendula/60% / kuygan, gangrena, yaralarni bitishida

Kontaris /90%/ shpan chivini, pielonefrit, sistit, uretrit siydik yo'llari kasalliklarida;

Kapsikum /90%/ bronxial astma, gastrit, enurez, gemorroy, gerpesda.

Xina /60%/ anemiya, og'ir kasaldan keyin kuchsizlanishda

Sina /90%/ gijjalarida

Sinnamomum /60%/ yiringli kolitda

Kokkulyus /60%/ nefroz, uyqusiz, boshog'riq, asablanishda

Kalotsint /90%/ migren, ishias, troynichniy nerv shamollashida

Evkalipum/90%/ tumov, tomoq, burun kasalligida.

Granatum /90%/ ich qotganda

Ignatsiya /60%/ psixika buzilishi, bir kulib, bir yig'lab kayfiyati buzilishida

Ipekakuana /60%/ bronxit, gastrit, faringitda

Ledum /bogulnik/ /60%/ revmatizm, xashorat chaqqanda

Nuks vomika /60%/ markaziy vegetativ nerv sistemaga, psixik simptomlar vujudga kelganda.

Tinkturalarni essensiyalardan tayyorlash

YUqoridagi usullardan tashqari tinkturalarni tayyorlab qo'yilgan essensiyalardan ham tayyorlash mumkin.

Buning uchun 2 q essensiya 8 q 45% spirt bilan 1,2 bandlar bo'yicha 1/2 yoki 3q essensiya 7q 60% spirt bilan 3 band bo'yicha 1:3 yaxshilab aralashtiriladi. Tinkturalar 1-chi o'nlik suyultirish shkalasiga to'g'ri keladi.

Sirtga ishlatish uchun buyuriladigan tinkturalardan spirtli eritmalarini tayyorlash uchun kerakli miqdordagi tinkturani olib 70% spirt bilan aralashtirib beriladi.

Gomeopatik surtmalar, moylar va opodeldoklar texnologiyasi

Gomeopatiyada granula, tritursiya, tomchilardan tashqari kamroq bo'lsa ham yumshoq dori turlaridan surtmalar, yog'lar, liniment, opodeldok va shamchalar ishlatiladi.

Gomeopatiya surtma dori turi sirtga ishlatiladigan yumshoq dori bo'lib, dorivor modda va asosdan iboratdir. Dispersologik tasnifi asosida ular shaklsiz dispersion muxit qovushoq-elimshak bo'ladi. Surtma dorilar juda qadimiy dori turi bo'lishiga qaramay zamonaviy tibbiyotda va ayniqsa gomeopatiya davolash usulida alohida va katta ahamiyatga ega.

Gomeopatiyaning asosiy maqsadi dori turlarining ichga granula, poroshoklar shaklida ichib, kasalni organizm ichidan, ya'ni tubdan yo'qotish, shu organizmning o'zining ximoya kuchlarini oshirish va tanadan umuman faqat kasalni yo'q qilish bo'lmay, balki uni belgilarini ham yo'qotishdir. Lekin biz bilamizki, bemorlar miazmalari bo'yicha 3-toifaga bo'linadi: psora, sikoz va sifilina. Demak psora miazmalı kasallarda ichki a'zoldan tashqari ko'pincha yara-chaqalar chipqon, allergiya, xusn buzar, bo'g'imlarning og'rihi, dermatitlar bo'ladi. SHuning uchun gomeopatiya vositalaridan yog'lar, liniment, surtmalar, spirtlar, opodeldoklar ishlatiladi.

Surtma dorilarni qo'llanishi keng bo'lib ularni quyidagi guruxlarga bo'lish mumkin: avvalo ular asosan dermatologik surtmalar va terining jaroxatlanganida, kasalliklarida ishlatiladi, tanaga so'rilib chuqur ta'sir ko'rsatishi mumkin va yuzaki ta'sirli surtmalar ham bo'ladi. Surtma dorilar asosdan va dorivor moddadan iborat. Asoslar surtmani 80%dan yuqorisini tashkil qiladi, shuning uchun asoslarning ahamiyati juda katta. Birinchidan ular surtmani og'irligini, dori moddalarning konsentratsiyasini qattiq-yumshoqligini va ayniqsa dori moddani so'rilish darajasini belgilaydi. Demak, asos bu surtmani faol qismi ekan va u dorining terapevtik ta'sirini barobar dorivor modda bilan ta'minlaydi. Gomeopatiya farmakopeyasida surtma dori turini tayyorlashda vazelin va lanolin olinsin deyilgan. Lekin, bu farmakopeya chiqqaniga necha yillar bo'lib, xozirgi zamonaviy asoslar topilgan va asoslar assortimenti ko'paygan. Bor asoslarni guruhlarga bo'linsa, unda gidrofob, gidrofil va difil asoslar bor /suvga nisbatan: yog'li asoslar, yog'ga yaqinlari, uglevodorodlar va silikonlar/. Gidrofil asoslardan: sellyuloza xosilalari MS, KMS, Na-KMS, bentonitlar, fitosterin va kollagenlar, jelatin-glitserinli asoslar, uchinchi guruhlardan-emulsion asoslar-emulsiya tipidagi asoslar tarkibida SFM emulgatorlar bo'ladi /T-2, pentol, sorbitan oleat, PGS va b. /Hozirgi talablarga binoan keltirilgan asoslardan eng to'g'ri keladiganini, ya'ni DMning xususiyatiga, surtmani qo'llanishiga ko'ra tanlab olinadi.

Gomeopatiya surtma dorisining texnologiyasi

Asosan XI DFning 2 qism 145b. "Surtma dorilar" moddasiga binoan tayyorlanadi. Dori moddalarning fizik-kimyoviy xususiyati, asosda yoki suvda erishini xisobga olgan holda tayyorlanadi. Ma'lumki, DMLarni asosga kiritilishi bo'yicha 3 guruhga bo'lish mumkin:

1. Asosda eriydigan moddalar bo'lsa, oldin ular shu asosda eritiladi. Misol qilib tumovga qarshi surtma dorini keltiramiz:

Mentolum

Oleum evkalintum 10,0 dan

Vazelin 1000,0

Tayyorlanishi: suv hammomida vazelin eritiladi va issiq vazelinga /45-50⁰ S/mentol qo'shiladi, erib ketgandan keyin evkalitum moyi qo'shiladi.

2. Suvda eriydigan dori moddalarning kam miqdordagi suvda eritiladi. Atsidum nitrikum 10% 1x dan surtma tayyorlash uchun; avval azot kislotasining 25% ligidan 10 qismi 15 qism tozalangan suv bilan aralashtiriladi. Keyin tayyor bo'lgan 1x dan 10 qism olib 9q. lanolin va 81q. vazelin qo'shiladi; yiringli yaralar, lishay, terini bichilishida ishlatiladi.

3. Suvda ham, asosda ham erimaydigan dori moddalarni eritilgan asosning bir qismida dori modda yaxshilab eziladi, maydalanadi, chunki qancha qattiq dorivor modda mayda/ kata-kichikligi mikronda o'lchaniladi/ bo'lsa shuncha surtmaning terapevtik ta'siri, faolligi yaxshi bo'lishi ma'lum. Misol tariqasida Gomeopatik surtma dorisi keltirildi:

1. Atsidum salitsilikum 3%

2. Atsidum benzoikum 2%

3. Grafites 1%

4. Sulfur sublimatum 10% SHu surtmalarni tayyorlashda X1 DFdagi umumiy qoidalariga rioya qilamiz. Agar surtmada qattiq DMning konsentratsiyasi 5% dan kam bo'lsa/1,2,3 misollar/ unda Deryagin qoidasi bo'yicha DMning yarmicha asosga yaqin bironta suyuqlik bilan maydalanadi. Asos sifatida vazelin olsak, demak vazelin moyini olish mumkin. Salitsil kislota uchun 1,5g Benzoy kislota uchun 1g, Grafitga 0,5g. DMning konsentratsiyasi 5% va undan yuqori bo'lsa, u hovonchada eritilgan asosning ozgina qismi bilan maydalanadi.

Gomeopatiya surtma dorilardagi dori moddalar konsentratsiyasi

Dori moddalarning konsentratsiyasi ko'rsatilmagan bo'lsa surtma kuchsiz dorilardan 10% qilib tayyorlanadi, kuchli ta'sir etuvchi DMLardan 5%li qilib tayyorlanadi. Ammo lekin ko'pgina gomeopatik dori vositalari uchun gomeopatik farmakopeyada 26-28 betlarda dozasi keltirilgan.

Masalan:

Apis 3%

Akonit 5%

Kantaris 3%

Kroton 3%
Simitsifuga 10%
Xloreton 0,5%
Spongiya 5%
Brioniya 10%
Fitallak Ta 0 10%

Birlamchi (a) tinkturalardan emulsiya turidagi surtmani tayyorlanishi: isitilgan xovonchada tinkturalarni spirti uchiriladi, keyin lanolin vazelinli asos qo‘shiladi.

Atsidum nitrikum 3x dan oldin lanolin qo‘shib emulgator sifatida keyin vazelin qo‘shiladi.

Atsidum benzonikum 2%
Sulfur sublimatum 10%
Salitsilikum 3%
Merkurius biyodatus 1%

Arsenikum 10%

Grafit 1%

Gepar sulfur 1%

YUqoridagi suspenziya tipidagi surtmalar Deryagin qoidasi bo‘yicha tayyorlanadi.

Atsidum karbonikum 2%

Xloreton 0,5%. Eritma tipidagi surtmalar qoidaga binoan tayyorlanadi.

Oddiy mazlardan tashqari gomeopatiyada murakkab surtmalar xam uchraydi.

Plazmin surtmasi

tarkibi: kalendula -20,0

Fitolak - 60,0

Brioniya - 20,0

Atsidum borikum - 182,0

Suvli lanolin - 400,0

Vazelin -1400,0

Har xil tayyorlanadigan DM bitta surtmaga qo‘shib yozilgan, maxsus dori surunkali revmatizmida ishlatiladi.

Koriza surtmasi

tarkibi: Atsidum karbonikum 7,5

Natrikum xloratum 15,0

Adrenalin /1:1000/-30,0

Oleum mentoli 15,0

Oleum evkalipti 15,0

Vazelin 1500,0

Boshning oldi tomoni peshana, chakka joylari qattiq og‘riganda surtiladi.

Albumin surtmasi

tarkibi: gidrargirum bixlorati 1,5

kalium nitrikum 1,5

boraks 1,5

tuxum oqi 25,0

lanolin 1500

vazelin 150,0

To'g'ri ichakdagi yallig'lanishda ishlatiladi.

Linin surtmasi

tarkibi: atsidum borikum maydasi 100,0

talk 200,0

sinkum oksidatum 200,0

vazelin 1500,0

mentol 15,0

Suv chiqib turgan yiringli yaralarda surtiladi.

SHamollashda ishlatiladigan surtma

Mentol 10,0

Oleum evkalipt 10,0

Vazelin 1000,0

Gomeopatik farmakopeyasida keltirilgan surtmalardan tashqari boshqadori vositalaridan ham surtma dori turlari tayyorlanadi: belladonna, yaralarni pishirib sitib chiqarish uchun. Rus o'simligidan revmatizm, Petroleum 4x danekzemalarga, Sulfur chipqonda, Grafit teriniqichib yallig'lanishida, Gepar sulfur yiring oqqanda va b.

Gomeopatiya linimentlari

Ularga yog'lar, opodeldok va sirtga ishlatiladigan spirtlar kiradi. Boshqacha qilib aytganda linimentlarbu suyuq surtma dorilar, shuninguchun ishqalab surtiladi. Asosiga qarab turib: a. yog'li linimentlar

b. sovunli linimentlar kiradi. YOg'li linimentlarga: xar xil o'simlik moylari: shaftoli, o'rik, olxo'ri, oliva, kungaboqar va boshqalar ishlatiladi. Sovunli linimentlarda sovun spirtidagi eritmasi saponimentlar asosi bo'lib hisoblanadi. Bu xil linimentlar gomeopatiyada qo'llanib, opodeldok deb ataladi. Gomeopatiyada ma'lum bo'lgan yog'li linimentlarga misol qilib: 1% xloreton, 10% simitsifuga, 5% spongiya, 3% apis, 5% akonit, 10% brioniya, 3% kontarislarni keltirish mumkin. Oleum apis 10,0 texnologiyasi: 3 dan 5% gacha qilib tayyorlash, surtish uchun mumkin, chunki apis kuchli ta'sir etuvchi modda. Ikkita suyuqlik bo'lgani uchun apis spirtli tinkurasidan 3% / 60% / olib 100g gacha moy qo'shiladi

Gomeopatik opodeldoklarni tayyorlas

Saponimentalarni tayyorlashda 2q sovunli spirt olib 1q suv va 1g 90% spirt qo'shiladi. Opodeldok tayyorlashda tibbiyot natriyli sovun olinadi va ularga turli dorilar efir, kamfora qo'shiladi. Misol qilib Rus opodeldokni texnologiyasini ko'rib chiqamiz: Tayyorlash uchun 3q. rus tinkurasiga 97q. opodeldok asosi qo'shiladi. Oldin sovunli spirt tayyorlanadi: uning uchun sovun poroshogi 90% spirtida kolbaga solinib, suv xammomida eritiladi, keyin tez filtrlanadi. Issiq sovun eritmasiga dorivor modda qo'shiladi. Sovun spirtini tarkibi quyidagicha: FS 42-1199-78

bo'yicha: Kaliy ishqori 23g, Kungaboqar yoki paxta moyi 100g, Suv 75g va Spirt 90% 300g. Tayyorlanishi: 100-105⁰Sda qozonda moy qizdiriladi, keyin KOH va spirt solinadi. Bir xil qo'shilma xosil bo'lgach oz-ozdan suv qo'shiladi va sovun xosil bo'ladi, issiq suvda yaxshi erishi kerak, ko'rinishi yaltiroq tiniq massadir.

Gomeopatik shamchalar texnologiyasi

Gomeopatiyada ishlatiladigan shamchalarning dorivor moddalarning tez ta'sir qilishiga, uning butun odam ichki vujudiga yoki to'g'ri ichak va uning atrofidagi yaqin joylarga joylashgan patologik jarohatga yordam berishdadir. Lekin shamchalarning

samaradorligi ishlatiladigan asoslarga bog‘liq. SHvabe farmakopeyasida kakao moyi olinsin deyilgan, lekin hozirgi zamonaviy asoslar bilan gomeopatiya boyiganligi tufayli jelatin glitserinli, polietilenoksidli, paxta moyini 5% T-2 saqlangan gidrogenizati va boshqalar ishlatilishi mumkin. Bunday asoslar farmatsevtika amaliyotida tadbiiq qilingan va ishlatilmoqda.

Asoslarning qisqa tasnifi. Jelatin-glitserinli asos DF X1 sonida berilgan, u 1q. jelatin, 5q. glitserin va 3q. tozalangan suvdan iborat. Ko‘pincha vaginal shamchalar quyush usuli bilan tayyorlanadi. PEO asosi-etilen oksidining polimerizatsiya usulida olingan. Umumiy formulasi n/OSN 42 0-SN 42 0/p-ON, p 2-85 bo‘lish mumkin. Suvda yaxshi eriydi, efirda erimaydi. Asosning tarkibi: PEO 1500 va PEO 2000, bu asosda papaverin, belladonna shamchalari tayyorlanadi. YAna PEO 4000/VFS 42-110-72/si ham bor, anestezin, belladonna, ixtiol bilan tayyorlanadi. Paxta moyini 5% T-2 saqlagan gidrogenizatida fitolaka va temirdan 0,5 danolib shamchalar 30 dona tayyorlash mumkin: asosni suv xammomida 36-38⁰S xaroratida eritib, unga oldin temir spirtli eritmasidan 60tomchi, keyin fitolaka tinkurasidan 600 tomchi solib tayyorlanadi.

SHamchalarning umumiy texnologiyasi. SHamchalar tayyor spirtli tinktura, ekstrakt, essensiyalar DM va asos bilan aralashtirib tayyorlanadi. DM agar suyuq ekstrakti bo‘lsa 2 tomchi, tinkturadan 20 tomchi - bitta shamchaga olinadi, lekin ularni oldin quyultirish lozim/spirtni o‘chirish kerak/. Keyin kerak bo‘lsa suvsiz lanolin qovushqoqligini oshirishi uchun qo‘shiladi. Lanolinni 30gmassaga 1g gacha qo‘shiladi. Maslo kakaodan qo‘l yordamida dumalatib tayyorlanadi, boshqa asoslar bo‘lsa quyush usulida tayyorlash kerak. Misol: Aloe suppozitoriysidan 10 dona tayyorlang. Bering: 1donadan kechasi qo‘yish uchun. Aloening quyultirilgan sharbatidan olingan 60% spirtida tayyorlangan tinktura ishlatiladi. Undan 1-ta suppozitoriyga 20 tomchi, demak 10 tasiga 200 tomchi olinishi kerak, uni kakao moyi bilan suvsiz lanolin qo‘shib tayyorlanadi. YUqorida keltirilgan misolni jelatin-glitserinli asosida quyush usulida ham tayyorlasa bo‘ladi. Tayor shamchalar bir xil, shaklli, qattiq-yumshoqligi qo‘llanishiga mos keladigan bo‘lishi kerak, o‘rtacha og‘irligini 20dona shamchani 0,01g aniqlikda tortib topiladi og‘irligini og‘ishi- 5% dan oshmasligi kerak. Deformatsiyaga uchrash vaqti aniqlanadi, 1,5daq. dan oshmasligi kerak. Agar shamchalar gidrofil asosda tayyorlangan bo‘lsa, 100ml li kolbaga 50ml 37⁰S xaroratli suvda eritib ko‘riladi. Erib ketish vaqti 1 soat davomida bo‘lishi kerak. DM miqdoriy nazorati ham o‘tkaziladi.

Gomeopatik trituratsiyalar texnologiyasi

Gomeopatiya amaliyotida qo‘llaniladigan qattiq dori turlarining salmog‘i suyuq va yumshoq dori turlariga nisbatan katta. Bunga asosiy sabab dozaga ajratilishi oson yoki oldindan dozaga ajratilgan bo‘lishi bu dorilarni qabul qilishda katta muammolar tug‘dirmaydi, shuningdek saqlash va tashish (trasportlash) kabi masalalar ham nisbatan qulay.

Siz dastlabki bosqichlarda dorixona va korxonada tayyorlanadigan qattiq dori turlari texnologiyalari bilan yaqindan tanishgansiz va amaliy mashg‘ulotlarda o‘z qo‘lingiz bilan ushbu dori turlarni tayyorlab, sifatiga baho ham bergansiz.

Gomeopatiya amaliyotida qo‘llaniladigan qattiq dori turlari siz tayyorlagan allopatiya dori turlaridan bir qancha farqlanadi:

- retseptda berilish tartibi bo‘yicha;
- doza miqdori (potensiyasi) bo‘yicha;
- gomeopatiya dorilarni dinamikizatsiyalashga qaratilgan texnologiyalari bo‘yicha;
- saqlanishi va qo‘llanilishi bo‘yicha.

Gomeopatiya ta‘limoti bo‘yicha o‘tilgan ma‘ruzalarda siz gomeopatiya amaliyotida qo‘llaniladigan dori turlarga yoziladigan retseptlar tartibi bilan yaqindan tanishgansiz: gomeopatiya retseptlarida shifokor dorining nomini lotincha bosh kelishikda yozadi, undan keyin suyultirish darajasi, miqdori va beriladigan dori shaklini ko‘rsatadi. Retseptda avval kam suyultirilgan, so‘ng ko‘p suyultirilgan qattiq dorilar keltiriladi, keltirilgan dorilarni nomi 3-4 tadan oshmasligi va bir botanik guruhga mansub o‘simliklardan dorilar tayyorlash mumkin emas.

Masalan:

1. Aurum metallicum 30 trit.
Kuniga 2 marta (nahorga va kechqurun) pichoq uchida
2. Calendula 3X gran.
5-7 donachadan nahorga til ostiga
3. Calcarea carbonica 3 - 0,2 g tabul.
Bir tabletkadan kuniga 2 mahal til ostiga
4. Hamomilla 1X gutt.
5-6 tomchidan kechasiga ichish uchun.

Gomeopatiya triturationsiyalari texnologiyasi. Gomeopatiya triturationsiyalari (Triturationes) - kuruk dori modda, essensiya, nastoyka, suvli va spirtli eritmalarini sut qandi (laktoza) yoki boshqa tibbiyotda ishlatishga ruhsat berilgan yordamchi moddalar bilan olingan kukun holdagi qattiq dori turi. Nega aynan trituratlarini tayyorlashda sut qandi ishlatilishini siz juda yaxshi bilasiz! Trituratlar V.SHvabe kullanmasining 7, 8, va 9 bandlariga asoslanib hamda SanPiN № 0152-04 qoidalariga rioya kilib tayyorlanadi.

Eslatma** Sut kandi (laktoza) – disaxarid ($C_{12}H_{24}O_{12}$) glyukoza va galaktozadan tashkil topgan, barcha sut emizuvchilarni suti tarkibida bor. Laktoza sut zardobidan olinadi, kristallik yoki amorf shaklida buladi, kimyoviy va farmakologik jihatdan nisbatan indifferent hisoblanadi, gigroskopik emasligi sababli gigroskopik hossaga ega kukunlarni nam tortish xossasini bir muncha kamaytiradi, hidsiz, shirin (kandga (1,0) nisbatan shirinlik ekvivalenti 0,16 ga teng), zaharli emas, zichligi katta emas $1,52 \text{ g/sm}^3$ (kup zaharli moddalar zichligiga (alkaloidlar) deyarli teng!), demak aralashmani qatlamga ajralishiga sababchi bo‘lmaydi, bundan tashqari dori moddalarni bir me‘yorda maydalanishiga yordam beradi.

X1 DF ko‘rsatmasiga binoan zaharli yoki kuchli ta‘sir etuvchi moddalardan miqdori 0,05 g dan kam berilganida 1:100 yoki 1:10 nisbatda trituratlar tayyorlash uchun tavsiya etilgan.

V. SHvabe qo‘llanmasining 7-bandi bo‘yicha quruq moddalardan trituratlar tayyorlash

Quruq mineral, o‘simlik, hayvon yoki kimyoviy birikmalardan sut qandi yordamida trituratlar tayyorlanadi. Trituratlarini tayyorlash uchun faqat chinni havoncha ishlatilishi kerak, metall havonchalardan foydalanish mumkin emas. Agar hususiy maqolalarda

boshqa ko'rsatmalar bo'lmasa quruq dori moddalar (shu kabi metallar) va sut qandi oldindan o'ta maydalik darajasigacha (Pulvis longe subtilissimus: 65 mkm katta bo'lmasligi kerak!) maydalangan bo'lishi lozim. Trituratlarni tayyorlash uchun ishlatiladigan dori va yordamchi moddalarni boshlang'ich maydalik darajasi elak (teshik diametri №65 mkm) yoki sirtki solishtirma yuza o'lchamini atmosfera bosimida havo o'tkazishini o'rganish orqali aniqlanadi. Trituratlarni potensiyalashda dinamizatsiya katta ahamiyatga egaligi sababli, har bir texnologik bosqich vaqt bilan chegaranlangan: bunda dori moddani sut qandi bilan oddiy aralashtirmay, balki nihoyatda uzoq vaqt yaxshilab ishqalab maydalash va aralashtirish lozim. V.SHVabe qo'llanmasining ko'rsatmasi bo'yicha har bir suyultirish 1 soat (60 daqiqa) davomida ishqalab maydalash va aralashtirish kerak. Trituratlarni tayyorlashda sidirishga ham katta ahamiyat berish lozim, chunki yaxshi maydalanmagan zarrachalarni o'ta maydalangan zarrachalar bilan aralashib, bir me'yorda maydalanishini ta'minlash maksadida. Kuchli gigroskopik xossaga ega yoki suyuq holatda bo'lgan dori moddalardan trituratlarni tayyorlashda isitilgan (40-50⁰S) havonchadan foydalanish tavsiya etiladi.

Quruq dori moddalardan trituratlar quyidagi tartib bo'yicha olinadi (1-slayd): a) o'nlik shkala bo'yicha – 1,0 og'irlik qism dori moddaga 9,0 og'irlik qism sut qandi olinadi (1X hosil bo'ladi);

b) yuzlik shkala bo'yicha – 0,1 og'irlik qism dori moddaga 9,9 og'irlik qism sut qandi olinadi (1⁰S hosil bo'ladi).

Texnologiyasi: tartib olingan sut qandi tahminan teng uch qismga bo'linadi: 1 qism chinni havonchaga solinadi va yaxshilab aralashtiriladi, bunda havonchani teshiklari berkitiladi, so'ng quruq dori modda solinib, 6 daqiqa davomida qattiq ishqalab maydalanadi, so'ng 4 daqiqa kukun sidirilib, aralashtiriladi. So'ng bu jarayon yana bir marta takrorlanadi: 6 daqiqa ishqalab maydalanadi va yana 4 daqiqa sidirib, aralashtiriladi. (Birinchi bosqichda (sut qandining birinchi 1/3 qismiga) 10 daqiqadan ikki marta - 20 daqiqa sarflanadi).

Havonchaga sut qandini 2 qismi qo'shiladi va yana 6 daqiqa ishqalab maydalanadi va 4 daqiqa sidirib aralashtiriladi, so'ng ushbu jarayon yana bir marta takrorlanadi. (Ikkinchi bosqichda (sut qandining ikkinchi 1/3 qismiga) ham 10 daqiqadan ikki marta - 20 daqiqa sarflanadi, jami 40 daqiqa).

Nihoyat sut qandini ohirgi 3 qismi qo'shiladi va yana yuqorida keltirilgan jarayon 2 marta qaytariladi. (Uchinchi bosqichda (sut qandining uchinchi 1/3 qismiga) ham 10 daqiqadan ikki marta 20 daqiqa sarflanadi, jami 60 daqiqa).

Natijada 1 soat ichida 10 qism 1X (1D) yoki 1 C (1⁰S) suyultirish darajasiga (potensiyaga) ega bo'lgan triturat tayyorlanadi. Demak 2X tayyorlash uchun – 2 soat, 3X tayyorlash uchun 3 soat, va nihoyat 30⁰S tayyorlash uchun – 30 soat sarflanadi!

Bu jarayonni nazorat kilish murakkab, shuning uchun S.Ganeman ta'rifi buyicha “”Gomeopatiya dorilarini tayyorlashda birinchi nazoratchi – bu farmatsevtning vijdoni!” degan. Demak, dozasi bir hil bo'lsa ham 4X (1:10000) va 2⁰S (1:10000), yuzlik shkala bo'yicha tayyorlangan 2⁰S trituratni 4X trituratni o'rniga berib yuborish mumkinmi?

Masalan, ateroskleroz, gipertoniya, glaukoma, tungi suyak og'irishi (ostiomielit, mastodontit), bachadon fibromasi, bachadon tushib qolishi kabi kasalliklarni davolashda qo'llaniladigan gomeopatiya vositasi:

1. 1. Aurummetallicum 1⁰S 10,0 g

Kuniga 2 marta (nahorga va kechqurun) pichoq uchida
Ushbu trituratni V.SHvabe ko‘lanmasining 7-bandi bo‘yicha 2 hil usulda tayyorlash
mumkin:

1 usul:

Pasport: Aurummetallikum 0,1 g

Sutqandi 9,9 g

Umumiy massa 10,0 g

Texnologiyasi: V.SHvabe qo‘llanmasining 7-band
bo‘yicha (1 soat mobaynidatayyorlanadi).

2 usul:

Pasport: Aurum metallikum 1X 1,0 g

Sut qandi 9,0 g

Umumiy massa 10,0 g

Texnologiyasi: V.SHvabe kullanmasining 7-bandi bo‘yicha (1 soat mobaynida
tayyorlanadi). Hosil bo‘lgan triturat 2X yoki 1⁰S deb yuritiladi va uning potensiyasi 1
usulda tayyorlangan trituratga nisbatan kuchliroq.

Trituratlarni sifati baholanadi va berib yuborish uchun jihozlanadi.

Aurum metallicum 1 C (2X) 10,0 g trit.

Кунига 2 марта (нохорга ва кечкурун) пичок учида

Сана: 10.10.05 й Сер.101005 Тахлил 10.10.05 Имзо

V. SHvabe qo‘llanmasining 8-bandi bo‘yicha trituratlarni suyuq dori modda yoki
eritmalardan tayyorlash

V. SHvabe qo‘llanmasining 8-bandi buyicha trituratlarni suyuq dori modda, suvli
yoki spirtli eritmalardan 7-bandda keltirilgan nisbatda tayyorlaniladi. Biroq bunda 1X
kamdan-kam hollarda tayyorlanadi, chunki sut qandi suyuqlikda erib ketishi yoki bo‘kishi
mumkin va aralashmani uzoq vaqt quritish kerak bo‘ladi. SHuning uchun trituratlarni 2X
yoki 1⁰S dan boshlab tayyorlash lozim.

V.SHvabe qo‘llanmasida keltirilishi bo‘yicha trituratlarni tayyorlashda 1,0 g suyuq
dori modda va 99,0 g sut qandi olinishi mumkin. Natijada 1⁰S yoki 2X triturat hosil
bo‘ladi, yoki iqtisod qilish maqsadida:

- suvli eritmalardan 2 tomchi (0,1 g)

- spirtli eritmalardan 3-4 tomchi (0,1 g) olib,

sut qandidan esa 9,9 g olinadi.

Masalan:

2. Acidum sulfuricum 1S 10,0 g

Nahorga pichoq uchida til ostiga

Pasport: Atsidum sulfurikum 0,1 g (2 tomchi)

Sut qandi 9,9 g

Umumiy massa 10,0 g

Texnologiyasi: VR-20 qo‘l torozida 9,9 g sut qandi tortib olinadi va tahminan uch
qismga bo‘linadi. Hovonchaga birinchi 1/3 qismi solinadi va yaxshilab ishqalab teshiklari
berkitiladi. Kalibrlangan pipetka yordamida 2 tomchi sulfat kislotasi (0,1 g, chunki 1,0 g =
20 tomchi) havonchaga tomiziladi va V.SHvabe qo‘llanmasining 7-bandida keltirilgan

texnologik jarayon amalga oshiriladi: 1 soat davomida 10,0 g 1⁰S yoki 2X triturat hosil bo'ladi.

Tayyorlangan trituratni sifati baholanadi va jihozlanadi.

3. Acidum sulfuricum 1C (2X) 10,0 g trit.

Наҳорга пичоқ учида тил остига

Сана: 10.10.05 й Сеп.101005 Тахлил 10.10.05 Имзо

Sulfat kislotasining triturati stomatit, surunkali gastrit, surunkali alkogolizm va turli jarohatlarda qo'llashga tavsiya etiladi.

SHu tartibda chipor ilon zaharidan (Bushmeyster) - Laxeziis gemorragik diatez, sepsis, tromboflebit, trofik yazva, endomiokardit, klimaks o'zgarishlarini davolashda ishlatiladigan triturat tayyorlanadi:

2. Lachesis 3X 10,0 g

Uxlash oldidan pichoq uchida til ostiga

Pasport: Laxeziis 2X 1,0 g

Sut qandi 9,0 g

Umumiy massa 10,0 g

Texnologiyasi: 2X trituratdan 1,0 g va 9,0 g sut qandidan olinadi va V.SHvabe qo'llanmasining 7-bandi bo'yicha (1 soat mobaynida tayyorlanadi). Hosil bo'lgan trituratsiya 3X deb yuritiladi.

Trituratlarni sifati baholanadi va berib yuborish uchun jihozlanadi. Triturat tarkibidagi dori modda kichik suyultirish darajada bo'lganligi sababli dori turini rasmiylashtirish, sifatini baholash, jihozlash, saqlash va bemorga berish tarkibida zaharli va kuchli ta'sir etuvchi dori moddalar saqlaydigan preparatlarni berish tartibi buyicha amalga oshiriladi.

Lachesis 3X 10,0 g trit.

Кечасига пичоқ учида тил остига

Сана: 10.10.05 й Сеп.101005 Тахлил 10.10.05 Имзо

V. SHvabe qo'llanmasining 9-bandi bo'yicha trituratlarni essensiya va tinkturalardan tayyorlash

V.SHvabe qo'llanmasining 9-bandi bo'yicha trituratlar quyidagi tartibda tayyorlanadi:

a) 1 yoki 2-band bo'yicha tayyorlangan essensiyalardan

2 og'irlik qism va sut qandidan 99 og'irlik qism olinadi va 7-bandda keltirilgan texnologiya bo'yicha tayyorlanadi, hosil bo'lgan triturat 1⁰S yoki 2X deb yuritiladi.

(Ta'sir etuvchi modda 1:2 nisbatda, 2 og'.qism+99 og'.qism=101 og'.qism).

b) 3-band bo'yicha tayyorlangan essensiyadan

3 og'irlik qism va sut qandidan 99 og'irlik qism olinadi va 7-bandda keltirilgan texnologiya bo'yicha tayyorlanadi, hosil bo'lgan triturat 1S yoki 2X deb yuritiladi.

(Ta'sir etuvchi modda 1:3 nisbatda, 3 og'.kism+99 og'.kism= 102 og'.qism).

v) 4-band bo'yicha tayyorlangan nastoykadan

1 og'irlik qism va sut qandidan 99 og'irlik qism olinadi va 7-bandda keltirilgan texnologiya bo'yicha tayyorlanadi, hosil bo'lgan triturat 1⁰S yoki 2X deb yuritiladi.

(Ta'sir etuvchi modda 1:10 nisbatda, 1 og'.kism+99 og'.qism= 100 og'.qism).

Gomeopatiya granulari texnologiyasi. Gomeopatiya granulari bu – ichish uchun mo‘ljallangan qattiq dozalarga bo‘lingan dori turi.

Gomeopatiya granulari turli gomeopatiya dori moddalari eritmalarini yoki ularning aralashmalarini tayyor qand granularga shimdirish (to‘yintirish) usuli bilan olinadi. Demak, gomeopatiya granulari texnologiyasi dori moddani suvli yoki spirtli eritmalaridan qand granularini adsorbtsiya qilishga asoslangan bo‘ladi.

V.SHvabe qo‘llanmada keltirilishi bo‘yicha qand granulari toza, oliy navli shakarqamish shakaridan tayyorlanadi. Ular tozalangan suvda hech qanday qoldiqsiz erib ketishi kerak. Granular obakilash (drajelash) usulida konditer fabrikalarida yoki farmatsevtik zavodlarda olinadi. Granularni gomeopatik suyultirilgan eritmalar (dilyusiyalar) bilan bir hil to‘yintirish uchun ular ma‘lum kattalikda bo‘lishi kerak. SHuning uchun qand granulari kata-kichikligi bo‘yicha saralanadilar. Qand granulari massasi va diametrini o‘lchami bo‘yicha 1-jadvalda keltirilgan nomerlarga tasniflanadilar.

To‘yintirish uchun mo‘ljallangan birlamchi granularni tasnifi

Granular №	1,0 grammdagi granular soni	Granularni hisoblash uchun olinadigan tortma massasi, g	Granularni o‘rtacha diametri, mm
1	470-530	0,1	1,4
2	220-280	0,2	1,7
3	110-130	0,4	2,2
4	70-90	0,6	2,5
5	40-50	1	3,0
6	22-28	2	3,7
7	10	5	5,0
8	5	10	6,3
9	3	15	7,4
10	2	25	8,5

Granularni nomerini aniqlash uchun granular ma‘lum teshik diametriga ega elakdan o‘tkaziladi yoki har bir nomerga tegishli granular o‘rtacha og‘irligi jadvalda keltirilgan miqdor bo‘yicha (masalan, 1 grammdan) tortib olinadi va granularni soni sanab chiqiladi. Granular raqam bo‘yicha bir-biridan farqlanadi. Ko‘pincha 4-va 5-raqamdagi granular ishlatiladi.

Tayyorlangan granularni gomeopatiya eritmalarini bilan to‘yintirish

Granularga shimdiriladigan gomeopatik dorivor moddalar 3S suyultirishdan past bo‘lmazligi lozim va uning 70% spirtida 1:1 nisbatdagi eritmasi tayyorlanishi kerak. Moddani bir tekisda tarqalishini ta‘minlash uchun 1 kg qand granulari oldindan 10,0 g 70% etil spirti bilan namlanadi, so‘ng 1 kg granularga 10,0 g dori moddani 3S dan past bo‘lmagan suyultirish darajasiga ega eritmasi purkaladi. Granularni shimdirish ikki usulda olib borilishi mumkin:

3) Qo‘lda (massasi 1 kg gacha bo‘lgan granular shisha bankalarda) 10 daqiqa davomida aralashtirish bilan to‘yintiriladi.

4) Asboblari yordamida (xarakatga keluvchi ichshii a'zolari bo'lmagan mexanik aralashtirgichda) 3-4 daqiqa davomida. Aralashtirgichni ishchi hajmi to'yintiriladigan granulalardan 1,5-2 marta ko'p bo'lishi kerak.

Granulalarni to'yintirish quyidagicha olib boriladi: to'yintiriladigan granulalarga nisbatan 1,5 yoki 2 barobar katta hajmdagi shisha idish olinadi va unga 100,0 granular solinadi (masalan, 5-raqamli granular), ustidan 1,0 g 70% spirti va 1,0 g dorivor moddani ma'lum suyultirishdagi (3S dan past bo'lmagan) 70% etil spirtidagi eritmasining (1:1) aralashmasidan purkaladi (granula tekis to'yinishi uchun).

Idish qopqog'i pergament qog'oz bilan yopilib, 10 daqiqa davomida qo'lda yoki 3-4 daqiqa davomida mashina yordamida qattiq silkitiladi. So'ng pergament qog'oz solingan teshikchali yog'och taxta ustiga granulalarni yoyib, ochiq havoda quriguncha qoldiriladi doimiy massagacha). Granular to'liq qurigach, sifati baholanadi va jihozlanadi.

Granulalarni uchuvchan, hidli gomeopatiya dorilaridan tayyorlangan eritmalar va uchinchi yuzlikdan kichik suyultirishdagi barcha kislotalar bilan to'yintirish mumkin emas.

So'ngi ma'lumotlarga ko'ra dastlabki granulalarni bir necha bosqichda gomeopatiya dori vositalarini 64% qand qiyomidagi eritmalarida (spirtsiz!) obakilash va quritish bo'yicha qavatlash usulida tayyorlash ham mumkin. Bunda dastlabki granulalarni o'lchamida katta o'zgarishlar bo'lmaydi.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar:

1. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik preparatlar nomenkaturasi va dozasi.

2. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik qattiq preparatlar texnologiyasi.

3. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik suyuq preparatlar texnologiyasi.

4. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik yumshoq preparatlar texnologiyasini.

5. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik doripreparatlarning sifatini baholashni.

Veterinariya atamaları bilan tanishuv.*

* - Mustaqil tayyorlash uchun berilgan savollar "Tezkor so'rov" usulida muhokama etiladi.

Uslubiy ta'minot: Uslubiy qo'llanma, tarqatma material, mavzuga tegishli adabiyotlar, internet materiallari.

*-Tarqatma materiallarda keltirilgan retseptlar "Charhpalak" usulida muhokama etiladi.

Mashg'ulotni jihozlanishi: V.Shvabe qo'llanmasi, ma'lumotnomalar, tarqatma materiallar, dorivor va yordamchi moddalar (qand granulari, laktoza, etil spirti, o'simlik moylari, tozalangan suv), shisha idishlar, voronka, silindr, tosh-torozlar, pergament paketchalar

Amaliy bajarish uchun topshiriqlar

1. Itga ichish uchun quyidagi gomeopatiya vositalarini tayyorlab bering:

- A) Akonit 3 tinktulasi 10,0
- B) Breoniya 4X tinktulasi 10,0
- V) Kaliy yod 6 S eritmasi 10,0
- G) Sulfat kislotasi 12 S 10,0
- D) Tirnovgul nastoyka granulari 3 S 4,0
- E) Sulfur trituratsiyasi 20 S 10,0

2. Sigirlarga sirtga ishlatish uchun buyuriladigan tinkturalar texnologiyasini keltiring:
Apis spirti 3%; Arnika spirti 10%; Spongiya spirti 10%; Akonit spirti 5%; Kantaris spirti 5% ;

- Lori spirti
- Rus-10,0
- Brioniya- 20,0
- Belladonna- 30,0
- Kapsikum -20,0
- Ledum -30,0
- Kalendula surtmasi 10,0

2. Veterinariya atamallari bilan tanishish va ularni izohlash.

Tezkor so'rov savollari

1. Gomeopatiya suvli va suvli –spirtli eritmaları texnologiyasi
2. Essensiyalar ta'rifi, texnologiyasi (,2,3 bandlar bo'yicha)
3. Tinkturalar, tasnifi, qisqacha ta'rifi, ishlatilishi
4. Gomeopatik tinkturalarning o'ziga xos texnologiyasi
5. Gomeopatik surtma dorilartexnologiyasi
6. Gomeopatik liniment va opodeldoklar tayyorlanishi
7. Gomeopatik shamchalar texnologiyasi

Kalit so'zlar: veterinariya, sterillanadigan dori turlari, in'ektsion eritmalar, ingfuzion eritmalar, ko'z tomchilari.

ADABIYOTLAR:

1. Maxkamov S.M., Maxmudjonova K.S. Tayyor dori turlari texnologiyasi. Toshkent. 2010. B. 367. (darslik).
2. Тихонов А.И., Ярніх Т.Г. Технология лекарств.-Харьков, 2002-704 с.
3. Чуешов В.И. Промішленная технология лекарств. - Харьков, 2002.-Т.2.- 761 с.
4. Александров И.Д., Субботин В.М. Справочник по технологии приготовления лекарственных форм: для ветеринарного врача и фермера. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2001. -192 с.
5. Синёв Д.И., Марченко Л.Г., Синёва Т.Д. Справочное пособие по аптечной технологии лекарств.-С.Петербург, 2001.-316 с.

6. Loyd V. Allen, Jr., Nicholas G. Popovich, Howard C. Ansel. Ansel's Pharmaceutical Dosage Forms and Drug Delivery Systems.-New York: Lippincott Williams & Wilkins, 2011.- P.722

7. Saxton J., Gregory P. Textbook of Veterinary Homeopathy.-New York, 2005.-320 pages.

8. Steven B. Kayne, Michael H. Jepson. Veterinary Pharmacy.- New York Pharmaceutical Pr., 2004.-676 pages.

19-AMALIY MASHG'ULOT

VETERINARIYA AMALIYOTIDA ISHLATILADIGAN ZAMONAVIY DORILAR TEXNOLOGIYASI: IMMUN TIZIMIGA TA'SIR ETUVCHI VA MAQSULDORLIKNI OSHIRUVCHI PREPARATLAR TEXNOLOGIYASI

Amaliy mashg'ulot maqsadi: veterinariya preparatlarini ishlab chiqarishning zamonaviy xolati va rivojlanish istiqbollari to'g'risida tushuncha hosil qilish, veterinariya amaliyotida ishlatiladigan zamonaviy dorilar texnologiyasi: immun tizimiga ta'sir etuvchi va mahsuldorlikni oshiruvchi preparatlar texnologiyasi bo'yicha ko'nimaklarini shakllantirish.

Mavzuni yozishdan maqsad: veterinariya amaliyotida ishlatiladigan zamonaviy dorilar texnologiyasi: immun tizimiga ta'sir etuvchi va mahsuldorlikni oshiruvchi preparatlarini tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalarni to'g'ri tanlash va texnologiyasini bilish va sifatini baholashni o'rganish.

Mavzuning ahamiyati: veterinariya amaliyotida ishlatiladigan zamonaviy dorilar texnologiyasi: immun tizimiga ta'sir etuvchi va mahsuldorlikni oshiruvchi preparatlarni tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalar bilan tanishish.

Ta'limusullari: Amaliy mashg'ulot, tezkorso'rov, charhpalak, munozara.

Asosiy matn

Oxirgi yillarda xar xil qattiq tashuvchi matritsalariga kimyoviy yoki fizikaviy usul bilan bog'langan /xarakatsizlantirilgan/, ya'ni immobillangan preparatlar tadbiq qilinmoqda. Immobillangan preparatlarni barpo etishda quyidagi maqsadlar ko'zda tutiladi:

- dori moddalarni ta'sirini uzaytirish;
- dori moddalarni ta'sirini yo'naltirish;
- turg'unligini oshirish;
- salbiy ta'sirini kamaytirish.

Undan tashqari immobillangan preparatlar, polimer matritsalarining hisobiga, har toksik moddalarni adsorbsiya qilish xususiyatiga ega bo'ladi.

Immobillangan preparatlarni (IP) yaratishda asosan oqsil tabiatli moddalar qo'llaniladi. Xozirgi vaqtda ferment, gormon, mukopolisaxarid, albuminlar, gamma-globulin, nuklein kislota, interferonning immobillangan preparatlari keng qo'llanilmoqda. Shulardan asosiy qismi—bu immobillangan fermentlar. Shuning uchun ularning misolida immobillash prinsiplarini, asosiy yo'llarini, afzallik tomonlarini ko'rib chiqamiz.

Fermentlarni keng qo'llanilishi bir necha muammolarga bog'liq.

Bulardan:

1. fiziologik muhitlarda fermentlarni tez inaktivatsiyaga uchrab ketishi (har xil endogen proteazalar ta'siri oqibatida fermentlar tez parchalanib o'z-davolovchi ta'sirini yo'qotadi);

2. tanadantezchiqibketishi. Buesafermentlarni ko'pmiqdordasarfla-nishigaolib keladi;

3. tanada, begona oqsil sifatida, fermentlarning antigen vaspetsifik bo'lmagan toksik xususiyatlarini moyon bo'lishi mumkin.

Yuqorida etilgan muammolarni echimi – fermentlarni immobillangan holatga keltirish.

Immobillangan fermentlarni ishlatish ularni davolovchi kursiga sarflanadigan miqdorini kamaytirishga, ta'sir etish vaqtini uzaytirishga va salbiy reaksiyalar darajasini pasaytirish imkoniyatini beradi.

Mahalliy kasalliklarni davolash uchun mo'ljallangan immobillangan preparatlar. Ayrim mahalliy kasalliklarni davolash uchun IFP zararlangan to'qima yoki a'zolari yoniga o'rnatiladi va uzoq vaqt davomida fermentlar bilan davolashga mo'ljallangan bo'ladi. Ta'siri yo'naltirilgan IF yaratishda xam polimerli yordamchi moddalar qo'llaniladi (PAA, ES, PFX, sefadeks, triatsetat sellyuloza, nitrotsellyuloza, neylon, ftoroplast, PVS, PVP,). Asosan shu turdagi IF turli shakllarda yaratiladi: granula, tabletka, plyonka, tolasimon. Ular tananing kerakli joyiga o'rnatiladi yoki implantatsiya kilinadi. Polimer tarkibidagi ferment asta sekin uzoq vaqt davomida kerakli tezlikda ajralib o'zini ta'sirini ko'rsatadi.

Xozirgi vaqtda organizmda so'rilib ketadigan ferment saqlovchi polimer preparatlarni kateter yordamida mushaklarga kiritib shu erda fermentlarning yuqori mahalliy konsentratsiyasini hosil qilish maqsadga muvofiqdir. Dori moddaning ajralib chiqish tezligi uning molekulyar massasiga, polimerning konsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi. Yo'naltirilgan immobillangan ferment-larning afzallik tomoni- ular tashqi fiziologik muhitdan himoya qilingan bo'ladi va o'rnatilgan joydan belgilangan miqdorda ajralib o'zini ta'sirini ko'rsatadi. SHuni hisobiga davolovchi dozani kamaytirish imkoniyati tug'iladi. Tripsin, lizotsim, katalazalarning immobillangan turlarini granula yoki tabletka shaklida olishda ularning xar xil polimerlar bilan aralashmalari qo'llaniladi. Polimer tashuvchi sifatida xar-xil polimerlar ishlatilish mumkin: sefadeks, triatsetat sellyuloza, nitrotsellyuloza, etilsellyuloza, PVX, sellyuloza, PAA, neylon. SHu polimerlarni ustiga ferment kovalent bog'lam orqali bog'langan bo'lib, eritilganda eritmaga polimerning bitta zarrachasi bilan birgalikda o'tadi. Bu holatda uning turg'unligi oshadi va salbiy ta'sirlari ancha kam bo'ladi. Ftoroplast (suvda erimaydigan) yoki PVP (suvda eriydigan) asosida immobillangan proteolitik fermentlar yaratilgan. Ular xar xil yiringlagan yaralarni davolash uchun tavsiya etiladi va plyonka (pardalar) shaklida olinadi. Fermentlar diffuziya yoki pardani erish oqibatida ajralib o'zini davolovchi faoliyatini namoyon etadi. SHu turdagi immobillangan fermentlarni samaradorligi yuqori bo'ladi; 3 - 4 marta yaralarning tozalanishi tezlashadi va davolash kursiga sarflanadigan ferment miqdorini 20 martagacha kamaytirish imkoniyati tug'iladi (ta'siri uzaytirilganligi va yo'nal-tirilganligi oqibatida). Ularning yana bir afzallik tomoni - yaraga qoplangan parda uzoq vaqt davomida almashtirilmaslik mumkin. Bu esa rivojlanayotgan, yangidan tiklangan to'qimalarni shikastlanishga yo'l qo'ymaydi. Agar yaralar oddiy doka, bint bilan qoplansa unda ularni almashtirish jarayonida tiklangan to'qimalarga zarar keltiriladi va yaralarni tuzalishi sekinlashadi.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar:

1. Veterinariya preparatlarini ishlab chiqarish tarixi, zamonaviy xolati va rivojlanish istiqbollari.

2. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan zamonaviy dorilar texnologiyasi: immun tizimiga ta'sir etuvchi va mahsuldorlikni oshiruvchi preparatlar texnologiyasi.

3. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan zamonaviy vaktsinalar, zardoblar va globulinlar nomenklaturasi.

4. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan mahsuldorlikni oshiruvchi preparatlar texnologiyasi

* - Mustaqil tayyorlash uchun berilgan savollar "Tezkor so'rov" usulida muhokama etiladi.

Uslubiy ta'minot: Uslubiy qo'llanma, tarqatma material, mavzuga tegishli adabiyotlar, internet materiallari.

*-Tarqatma materiallarda keltirilgan retseptlar "Charhpalak" usulida muhokama etiladi.

Mashg'ulotni jihozlanishi: Ma'lumotnomalar, tarkatma materiallar, dorivor preparatlarkolleksiya.

Amaliy bajarish uchun topshiriqlar

1. Ilovada keltirilgan Internet materiallarini izohlang va daftaringizga yozing:

2. Kimyo-farmatsiya sanoati tomonidan ishlab chiqariladigan veterinariya tayyor dori turlari va dorixonada tayyorlanadigan dorilar X va XI-DF, hamda tegishli MTH tomonidan me'yorlanadi.

Zamonaviy veterinariya dori vositalarni jixozsiz va dori vosita to'g'risidagi ma'lumotsiz tasavur qilish qiyin.

Jihoz – bu maxsulotni (dori vositani) tashqi muhit ta'siridan himoya qilishga, shuningdek buzilishi, yo'qolishidan saqlashga mo'ljallangan va muomala qilishni osonlashtiradigan vosita yoki vositalar majmuasidir. Zamonaviy jihoz - idish va u qadoqlangan dori vosita, hamda yopg'ich va yordamchi elementlardan tashkil topgan bo'dib, ist'emolchi talabiga javob berishi va qadoqlangan dori vositani texnologik xossalarni ta'minlashi kerak. Bo'sh flaon – bu tara yoi idish, flakon ichiga dori vosita joylansa va yopg'ich bilan berkitilsa, xamda pipetka, qoshiqcha, yorliq (etiketka) va boshqa yordamchi elementlar bilan birgalida jihoz (upakova) deb ataladi.

Dori vositalarni yagona tartibda qadoqlanadigan idish, jihoz, yorliq, tashuvchi transport va saqlash sharoiti GOST 17768-80 bo'yicha amalga oshiriladi.

Dori vositalar qadoqlanadigan idish birlamchi jihoz turiga kiradi va bevosita dori vosita bilan muloqatda bo'ladi. Ikkilamchi jixoz bitta yoki bir nechta birlamchi jhozlar majmuasidn tashkil topgan bo'ladi. SHuningdek so'ngi yillarda blokli jhozlar – ikkilamchi jixozlarning majmuasi ham ishlab chiqarilmoqda. Blokli jhozlar termoplyonaga, qog'oz yoki karton karbokaga joylanadilar.

Birlamchi jixozlar dori turini uzoq vaqt ximoyalash uchun mo'ljallangan bo'ladi, shuning uchun bu idishlarga alohida talablar qo'yiladi:

- gaz va suvbug'larini o'tkazmasligi kerak;
- dori vositaga nisbatan kimyoviy indiferent bo'lishi kerak;
- mustaxkam,
- xarorat ta'siriga chidamchli,

- yorug‘likdan ximoyalashi kerak,
- mikroorganizmlar ta’siridan ximoyalashi kerak,
- maxsulotni uzoq muddat sifatini saqlanishini ta’minlashi kerak.
- ishlatish uchun qulay, bejirim va chiroyli, dori vositani ishlatish bo‘yicha ma’lumot saqlashi kerak, avval ochilmaganligini, sterilligi va ishlatilmaganligini tasdiqlovchi nazorat belgi yoki moslama bilan ta’minlangan bo‘lishi shart.

Bolalar uchun beriladigan dori vositalar jixozlanadigan idishlar solinadigan dori vositaga qarab turli bo‘lishi mumkin:

- shishadan yasalgan flakon va trubalar.
- metall trubkalar.
- kontur-uyachali (blister) jixoz.
- kapsulalar.
- alyuminiy zar kog‘ozi va laminirlangan kog‘ozdan yasalgan paketlar.
- alyuminiy va polimerlardan tayyorlangan tubalar va x.k.

Kadoladigan idishlar shisha, karton, polimer parda, sellofan, laminirlangan kogoz, alyuminiy zar kog‘ozi, PVX tayyorlangan idishlar, sellyuloza atsetat va boshqalardan tayyorlanadi.

Jihozni yorliklashga kuyiladigan talablar:

1. Dori vosita ishlab chiqilgan mamlakat.
2. Ishlab chiqargan korxonaning nomi, uning tovar belgisi, yuridic manzili (telefon, faks).
3. Dori vosita texnologiyasini ishlab chiqqan muassasa agar ishlab chiqqargan korxonaning bilan farqlansa.
4. Dori vositani lotincha, uzbecha (O‘zbeiston uchun) va ruscha nomlari. Dori vositaning lotincha nomi maxalliy va ruscha nomlarga nisbatan maydaroq shrift bilan yozilishi kerak.
5. Dori vositaning tarkibi (ta’sir etuvchi moddaning konsentratsiyasi yoki dozasi va yordamchi moddalarning nomi keltiriladi). Jixoz xajmi, faolligi va dozasi.
6. Dori vositani ishlatish usuli (in’etsiya, og‘iz orqali va x.k.).
7. Registratsiya guvaxnomasining rakami (R. xarfdan sung dori vosita O‘zR SSV burug‘i tasdiklangan sananing rakamalari, sung buyruk rakami keltiriladi).
8. ogoxlantiruvchi yozuvlar «Sterillangan», «SHifokor ko‘rsatmasi bo‘icha ishlatilsin» va x.k.
9. Saklash sharoiti.
10. Saklash muddati: rim rakamlari oy, arab rakamlari esa yilni kursatadi.
11. SHtrix kod.

Maxsulot ishlab chikilgan seriya rakami: oxirgi rakamlar maxsulot ishlab chikarilgan kun, oy va yilni kursatadi.

Dori vositalarni yorliklash OST 64-61-72 buyicha amalga oshiriladi.

Dori vositani falsifikatsiya kilinishini oldini olish uchun ishlab chikaruvchilar nazorat belgi bilan ishlab chikarilgan bulishgan.

Bajarish uchun topshiriqlar:

1. Tavsiya etilgan veterinariya amaliyoti uchun mo‘ljallangan dori vositalar jixozlanadigan idishlarni kolleksiyasi bilan tanishish.

2. Veterinariya amaliyoti uchun mo'ljallangan dori turlari jihozlanadigan idishlar bilan tanishish ularning tsvirini undali daftaringizga qayd eting.

3. Zamonaviy dori vositalar yorliqlariga qo'yiladigan talablar bilan tanishish va undali daftaringizga qayd eting.

Veterinar dori turlarini takomillashtirish

1. Xayvonlar farmakoterapiyasida in'eksion va ingalyasion dori turlarini ishlatilishi. Ushbu yo'llar bilan dorilarni yuborilishi ham biofarmatsevtik jihatdan, ham iqtisodiy tomonidan samaralidir.

2. Peroral yo'li bilan dorilarni yuborilishi har tomonlama izlanishlarni talab qiladi, chunki preparatlarni oshqozon-ichak yo'llarida gidrolitik va fermentativ destruksiyaga uchrashi mumkin. Uning uchun quyidagi masalalar echilishi lozim:

- ovqat hazm qilish yo'lidagi ta'sirlarga turg'unligi;

- xayvonning turiga qarab dori moddaning so'rilish tezligi, so'rilgan foizi.

CHorvachilikni rivojlantirishda zamonaviy intensivatsiya usullari qo'llaniladi. SHu maqsadda BF qo'shimchalar ishlatiladi. Bu masala esa veterinar, farmatsevt, toksikologlarni hamjihat bo'lib ishlashini talab qiladi.

Veterinariya atamalari bilan tanishish va ularni izohlash.

Kalit so'zlar: veterinariya preparatlari

Пова-1

Комбинирланган ем - Комбикорм

Комбикорм – бу таркибида оксил, дон хомашёси, микроэлементлар ва витаминлари кўп миқдорда сақловчи ҳайвонларга ем сифатида ишлатиладиган маҳсулотлар аралашмаси.

Комбикормлар уч турда ишлаб чиқарилади:

Тўлиқ рационли ем – ушбу емлар, ҳавон ва паррандаларни биологик фаол моддалар, минераллар ва озукавий моддаларга бўлган эҳтиёжини тўлиқ қондиради.

Бундай емлар асосий ёки ягона рационни ташкил этади. Ушбу емлар товук, ўрдак, ғоз, қуён, чўчқаларни боқишда қўл келади. Ушбу маҳсулотлар тўлиқ рационли ем (полноценный корм - ПК) индекси билан белгиланади.

Концентратлар – дағал ёки шира сақлайдиган ем биланр бирга қўшиб бериладиган концентранган маҳсулот. Ушбу ем асосан турли маҳсулдорликга эга ва турли ёшдаги қорамоллар ва чўчқалар учуш ишлатилади. Ушбу маҳсулотлар концентранган ем (концентрированный корм - КК) индекси билан белгиланади.

Балансланган қўшимчалар (оксил-минералли, премикслар, витамин-минералли).

Комбикормларни ишлаб чиқариш

Комбикормлар турли дори шаклда (гранула, майдаланган гранулалар ва порошок) ишлаб чиқарилади.

Комбикормлар маҳсул асбоб-ускуналар билан жиҳозланган линияларда ишлаб чиқарилади. Ушбу линиялар куйидаги асбоб-ускуналардан ташкил топган бўлади: майдалагичлар, аралаштиргичлар. Аралаштиргичлар қўйидаги қисмлардан ташкил топган бўлади: электр манбаи тармоғига уландиган мослама (пирвод), ем аралаштиргичи, асосли тубли идиш.

Асбобнинг асосли тубли идиши ва бошқи ишчи қисмлари пўлатдан тайёрланган бўлади. Аралаштиргич вертикал ҳолатда жойлашган шнекли транспортер бўлиб. Асосли тубли идиш хомашёни қўлда юклаш ва тушириш учун мўлжалланган мослама (насыпь) ҳамда пневматик юклаш учун мослама (патрубок) ва тушириш учун канал, ёпиб очиладиган назорат дарчалари билан жиҳозланган бўлади. Айрим моделларда

Смеситель оборудован м (для возможности ручной загрузки), патрубком для пневматической загрузки, каналом разгрузки, контрольными окнами состояния заправки емкости и смотровыми окнами с задвижками. В некоторых моделях, процент смешивания за двадцать минут может достигать 96-98%.

NAZORAT SAVOLLARI

- 1.Immobillangan preparatlar hakida tushuncha, ta'rif
- 2.Immobillangan fermentlarni yaratish maqsadlari.
3. Immobillash yo'llari
- 4.Suvda eruvchan immobillangan preparatlarni olish prinsiplari
- 5.Mahalliy ta'sir etuvchi immobillangan preparatlarni olinishi.

ADABIYOTLAR:

1. Махкамов S.M., Махмуджонова K.S. Tayyor dori turlari texnologiyasi. Toshkent. 2010. B. 367. (darslik).
2. Тихонов А.И., Ярних Т.Г. Технология лекарств.-Харьков, 2002-704 с.
3. Чуешов В.И. Промышленная технология лекарств. - Харьков, 2002.-Т.2.- 761 с.
4. Александров И.Д., Субботин В.М. Справочник по технологии приготовления лекарственных форм: для ветеринарного врача и фермера. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2001. -192 с.
5. Синёв Д.И., Марченко Л.Г., Синёва Т.Д. Справочное пособие по аптечной технологии лекарств.-С.Петербург, 2001.-316 с.
6. Loyd V. Allen, Jr.,Nicholas G. Popovich, Howard C. Ansel.Ansel's Pharmaceutical Dosage Forms andDrug Delivery Systems.-New York: Lippincott Williams &Wilkins, 2011.- P.722
7. Saxton J., Gregory P.Textbook of Veterinary Homeopathy.-New York, 2005.-320 pages.
8. Steven B. Kayne, Michael H. JepsonVeterinary Pharmacy.- New York Pharmaceutical Pr., 2004.-676 pages.

20-AMALIY MASHG'ULOT VETERINAR DORI TURLARINING SIFATINI BAXOLASH

Amaliy mashg'ulot maqsadi: veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dori turlarining sifatini baxolash bo'yicha ko'nimaklarini shakllantirish.

Mavzuni yozishdan maqsad: veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan dori turlarining sifatini baxolashni bilish.

Mavzuning ahamiyati: veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan dori turlarining sifatini baxolashusullarini tanishish.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar:

1. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan poroshoklar, dustlar, yig'malar, granular, tabletkalar, briketlar, draje, kapsulalarni, hab dorilar va bolyuslar sifatini baholash.

2. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori turlari: eritmalar, emulsiyalar, suspenziyalar, suvli ajratmalar va miksturalar sifatini baholash.

3. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan galen (tindirma va ekstraktlar) va yangi galen preparatlari sifatini baholashi.

4. Veterinariya amaliyotida surtmalar, pastalar, linimentlar, bo'tqalar, shamchalar, qalamchalar, pastalar, malhamlar va dorivor pardalar sifatini baholash

Veterinariya atamaları bilan tanishuv.*

* - Mustaqil tayyorlash uchun berilgan savollar "Tezkor so'rov" usulida muhokama etiladi.

Uslubiy ta'minot: Uslubiy qo'llanma, tarqatma material, mavzuga tegishli adabiyotlar, internet materiallari.

*-Tarqatma materiallarda keltirilgan retseptlar "Charhpalak" usulida muhokama etiladi.

Mashg'ulotni jihazlanishi: Ma'lumotnomalar, tarkatma materiallar, veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dori preparatlarinamunalariva yordamchi moddalar (tozalangansuv), quritgichshkafi, shisha idishlar, voronka, silindr, tosh-torozlar.

Asosiy matn

Poroshoklarning taxlili:

4. Poroshoklar mikroskop yoki lupa ostida ko'riladi (kunduzgi yorug'likda). D.m. sut shakarida tekis tarqalgan b/k.k. Rangli, kuchli xidli va mazali byuretkalar bo'lsa, ularning rangi, mazsai va xidi tekshiriladi.

5. Poroshoklardan tayyorlangan eritmalarning qayta kristallanishi tekshiriladi. Buning uchun to'yingan eritma tayyorlanadi aniq o'lchangan modani o'lchov kolbasiga solinadi va ustiga kerakli xajmda suv solib og'zi yopiladi va suvli hammomida eritiladi. Illiq holatda 10-15 min qold-di va asta – sekin sovutiladi (havoda).

A) Izomofonqy kristall bilan tezda kristallanadigan moddalarning to'yingan eritmaları bilan quyida ish olib boriladi. Tayyorlangan eritmadan bir necha tomchi brom oynachasiga tomiziladi. So'ngra oldin qizdirilgan keyin sovutilgan platina shpatel bitekchi paroshok olinadi (to'nog'ich boshidek kattalikda) va tomizilgan tomchilarning biriga qo'shiladi. Bunda agar poroshokda izomorf kristall bo'lsa, tomchining tiniqligi yo'qoladi va kristallar x/b, kristallartomchining hamma ustini qoplaydi. Masalan CH_3COONa , segnet tuzi.

B) Izomorf krsitall Bilan qo'shilganda kristall kristallashadiyu, lekin o'zi esa kristallanmaygan moddalarning to'yingan eritmaları quyidagicha tekshiriladi. Pipetka yordamida bir necha ml to'yingan eritmadan olib, extiyojlik Bilan chetlariga tekkizmasdan kichkina prbirkaga solib, og'zirezina probka bilan yopiladi. So'ngra platina shpatel yordamida tek-chi poroshok qushiladi, probirka yopiladi va qiyshatirilgan holatda bir

necha soatga qoldiriladi. Agar namunada mikroskopik kichik izomorf kristallar bo'lsa, bir necha soatdan keyin probirkaning pastki qismida katta kristallarni yoki turli kattalikdagi druzlarni ko'rish mumkin.

Masalan: $\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7$, CuSO_4 .

6. Metallik va o'mirli (ugolno'x) poroshoklar zarrachalarining kattaligini mikroskop ostida quyidagicha tekshiriladi.

Buyum oynachasiga (rangsiz, tekislangan va gazlarning puzirki, saklanmagan) 0.02-0.03g poroshok solinadi, ustiga 1-2t N_2O qo'shiladi va asta-sekin isitib sut shakari eritiladi. Sungra past olvda bug'latiriladi yog'simon qoldiq qolgungacha qoldiq tinga yotqich bilan yopiladi va mikroskop ostida 200 marta kattalashtirilgan hloda ko'riladi, shilliq bo'lmagan metall zarrachalarining kattaligi okulyar mikrometrda ko'riladi. Mikrotekshirishning 2-usulida 0.02-0.03 g poroshok buyum oynachasida Kanada balzami bilan yaxshilab aralashtiriladi. So'ngra isitib havo pufakchalari yo'qotiladi (isitib) va oynacha bilan yopib, yuqoridagidek tekshiriladi.

Zichligini aniqlash:

$\frac{m}{Pq \cdot V}$

$\frac{m}{Pq \cdot V}$ g/sm³ (0.001 g aniqlikda)

Birinchi quruq piknometr bilan og'irligi o'lchanadi (0.0002 g), keyin dist. Suv solib, 20¹ termostatga 20⁰ S ga quyiladi. Agar suvning miqdori piknometrda ko'p b-sa, filtr qog'oz bilan to'ldirib olib tashlanadi va YAna 10 min ush-b turiladi. 10 min o'tgandan keyin og'irligi o'lchanadi.

Piknometr suvdan bo'shatib, spirt va efir bilan yuvilib, quritiladi va spirt yoki boshqa suyuqlik solib, YAna yuqoridagi jarayonlar qaytariladi va quyidagi f-la yord. aniqlanadi.

m –bo'sh pikn, g

m_1 -pikn+suv, g

m_2 -pikn+suv, g

0.99703- suvning zichligi tq20⁰ S

0.0012- havoning zichligi tq20⁰ S bosim

2-usul (0.01 g gacha bo'lgan) areometrda, dori moddalar uchun

3- usul (yog' va sk) uchun.

In'eksion dori shakllari (in'eksiya uchun eritmalar, suspenziya, emulgatorlar) albatta quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha DF XI ning 2 nomeri 140-142 betlarda keltirilgan "In'eksiya uchun dori shakllari" va xususiy maqolalarda keltirilgan talablarga binoan taxlil qilinadi: tashqi ko'rinishi (tavsiflanishi); sterilizatsiya va quyish shartlari; chinligi; tiniqligi; ranliligi; kislotaligi yoki ishqoriyligi, rN i mexanik aralashmalar; zichligi; quyushqoqligi; yot moddalar; osmolyarligi; to'ldirilish xajmi (ampula, flakon va b); pirogenligi yoki bakterial endotosinlar (LAL test); toksikligi (zaxarliligi); sterilligi; zarrachalar kattaligi (suspenziyalar uchun); miqdoriy taxlil;

in'eksiya uchun ishlatiladigan quruq dori shakllari quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha taxlil qilinadi: tashqi ko'rinishi (tavsiflanishi) chinligi o'rtacha og'irligi va og'irligi bo'yicha bir xilligi; tiniqligi; ranglilik; kislotalik yoki ishqoriyligi, rN i mexanik aralashmalar yot moddalar; lar (LAL test); toksikligi (zaxarliligi) xloridlar, sulfatlar va b.; quritgichdagi massaning yo'qotishi yoki suv (K.Fisher usulida aniqlanadi); idishdagi dori modda og'irligi (ampula, flakon va boshqalar); sulfatli kuli va og'ir metallar sterilligi; dozalar bir xilligi; miqdoriy taxlil;

Parenteral dori moddalarning rangi DF X1 nashrida keltirilgan «Suyuqliklarning rangini aniqlash» maqolasi bo'yicha ranglilik etalonlari bilan yoki xususiy maqolada keltirilgan ko'rsatmalar bo'yicha aniqlanadi.

In'eksion eritmalarning idishlardagi xajmi nominal xajmdan ko'p bo'lishi kerak

Idishlardagi in'eksion eritmalarning xajmi

Nominal xajm, ml	To'ldirish xajm, ml		To'ldirishni nazorat qilish uchun olingan idishlar soni, ta
	Quyushqoq bo'lmagan eritmalar	Quyushqoq (vyazkie) eritmalar	
1,0	1,10	1,15	20
2,0	2,15	2,25	20
5,0	5,30	5,50	20
10,0	10,50	10,70	10
20,0	20,60	20,90	10
50,0	51,0	51,50	5
50,0 dan ko'p	nominaldan 2% ga ko'p	nominaldan 3% ga ko'p	

Xajmi 50 ml gacha bo'lgan idishlarda to'ldirilish kalibrlangan shprits yordamida, 50 ml va undan ko'p bo'lganlarida – kalibrlangan silindrlarda harorat $(20 \pm 2)^{\circ}\text{S}$ da aniqlanadi.

Eritmalar xajmi nominal xajmdan kam bo'lmasligi kerak. Parenteral dori vositalari umumiy yoki xususiy maqolalarda keltirilgan usullarda sterilizatsiya qilinadi (sterilizatsiya DF XI nashr, 2vo'p 187 b zaxarlilik 182 b va pirogenli (183 b)).

SHuningdek, bunday dori vositalari mexanik aralashmalarga tekshiruvdan o'tishi kerak.

Quruq parenteral dori vositalarining o'rtacha og'irligi tekshiriladi. Bunda 20 ta ochilgan idishlar 0,001g aniqlikda aloxida-aloxida og'irliklari o'lchanadi, idish ichidagi dori moddasi suv yoki maqolada keltirilgan erituvchi yordamida yuviladi, $100-105^{\circ}\text{S}$ haroratda 1 soat davomida quritiladi. Idishlar va boshqa vositalarining qopqoq yana og'irligi o'lchanadi. So'ngra 20 ta idishning o'rtacha og'irligi va har bir idishdagi dori moddaning og'irligi hisoblanadi.

O'rtacha og'irlikdan har bir idishdagi og'irlik jadvalda keltirilgan chetlanishlarga mos kelishi va bu chetlanishlar $\pm 15\%$ dan oshmasligi kerak.

Bitta idishdagi modda og'irligining chetlanishi

Idishdagi modda, g	Yo'l qo'yilgan chetlanish, %
0,1 va undan kam	$\pm 10,0$
0,1 dan ko'p va 0,3 dan kam	$\pm 7,5$
0,3 va undan ko'p	$\pm 5,0$

Agar 2 ta idishdagi modda og'irligidagi chetlanish jadvaldagiga mos kelmasayu, lekin $\pm 15\%$ dan oshmasa, unda tekshiruvlar yana 40 ta idishlarda olib boriladi. Bunda topilgan chetlanishlar jadvaldagidan bittasi ham katta bo'lmasligi kerak.

20 ta idishdagi moddaning o'rtacha og'irlikdagi chetlanishi xususiy maqolada keltirilgan nominal miqdorga nisbatan $\pm 5\%$ gacha bo'lishi kerak. 0,05 g va undan kam

og'irlikda dori moddasini saqlaydigan in'eksiya uchun quruq steril dori vositalari va suspenziyalar dozalar bir xilligiga tekshiriladi.

Tekshirishlar 10 ta idishlarda alohida-alohida xususiy maqoladagi miqdoriy taxlildagi usullar yordamida olib boriladi. Idishlardagi dori modda miqdori nominaldan $\pm 15\%$ gacha chetlanishi mumkin. Agar har bir idishdan chetlanish $\pm 15\%$ oshib ketsayu, lekin $\pm 25\%$ gacha bo'lsa, unda tekshiruvlar qo'shimcha yana 20ta idishlarda olib boriladi. Bunda har bir idishdagi modda miqdordagi chetlanish $\pm 15\%$ dan oshmasligi kerak.

Suspenziyalar uchun qatlamlar ajralishi tekshiriladi. Bunda agar xususiy maqolalarda boshqa yo'riqlar ko'rsatilmagan bo'lsa, suspenziyalar chayqatib bo'lgandan so'ng qatlamlarning ajralish vaqti 5 minutdan kam bo'lmasligi kerak. Suspenziyalar 0840 sonli ignadan shpritsga osongina o'tish kerak.

Gomeopatiya qattiq dori turlarini sifatini baholash.

Gomeopatiya qattiq dori turlarini sifatini baholashda ularning tashqi ko'rinishiga e'tibor beriladi.

Gomeopatiya trituratlarini sifatini baholashda kukunning bir hilligini baholash bilan boshlanadi. Vizual ravishda tekshirilganida tayyor triturat kukunining rangi va zarrachalarning tarqanligi bir hil bo'lishi, qo'zga tashlanadigan kattalikdagi zarrachalar bo'lmasligi kerak. Mikroskop yordamida trituratlarni katta-kichikligini aniqlashda ob'ktiv -8, okulyar – 15 foydalaniladi, bunda o'lchami 25 mkm li zarrachalardan tashkil topgan bo'lishi, va 50 mkm dan katta zarrachalar trituratlarda bo'lmasligi kerak.

Bo'yalgan dori moddalar va metallardan tayyorlangan trituratlarni bir hil aralashganligi lupa yordamida (75-205 marta kattalashtirilgan) aralashmani 20-25 sm balandlikdan qarab aniqlanadi. Bunda dori modda bir tekisda tarqalgan bo'lishi kerak.

1X, 2X, 3X li suyultirishdagi trituratlarda chinligi va miqdorini aniqlash bo'yicha tahlil o'tkaziladi. Dori modda miqdorini chetlanishi quyidagicha taqsimlanadi:

- 1X (10%) suyultirish darajasiga ega dori moddalar miqdorini chetlanishi $\pm 5\%$ dan oshmasligi kerak;

- 2X (1%) suyultirish darajasiga ega dori moddalar miqdorini chetlanishi $\pm 5\%$ dan oshmasligi kerak;

- 3X (0,1%) suyultirish darajasiga ega dori moddalar miqdorini chetlanishi $\pm 10\%$ dan oshmasligi kerak.

Kapilyar-lyuminissent taxlil trituratlarni 5,0 g namunalarida V.SHvabe ko'llanmasining ko'rsatmasi buyicha olib boriladi.

Gomeopatiya trituratlarini umumiy massasi bo'yicha chetlanishi

Berilgan massa, g	CHetlanish, %
0,1 g gacha	± 15
0,1 g dan 0,3 g gacha	± 10
0,3 g dan 1,0 g gacha	± 5
1,0 g dan 10,0 g gacha	± 3
10 g dan 100 g gacha	± 3
100 g dan 250 g gacha	± 2
250 g dan yuqori	$\pm 0,3$

Gomeopatiya granularini sifatini baholashda tashqi ko‘rinishiga e‘tibor beriladi: $2,0 \pm 0,01$ g granularar tortib olib baxolanadi, ular sharsimon ko‘rinishda bo‘lishi lozim. Birbirigayopishgan granularmiqdori 1% dan oshmasligi kerak. Buning uchun $5,0 \pm 0,01$ g granularar tortilib, vatahlil qilinadi.

Erishi. 10,0 g granularar tortib olinadivahajmi 100 ml likol bagasolinadiva 50 ml 37^o Sharoratdagisuvdadaqiqasiga 1-2 martachayoqatiliberitiladi. Bunda erish vaqti 5 daqiqadan oshmasligi lozim. Kamida uchta namunada aniklanadi.

Kuritishdagi massa yo‘qotishi 1 dan 10% gacha.

Kapillyar-lyuminissent taxlil triturasionalarga o‘xshash 5,0 g maydalangan granularlarda olib boriladi.

Granulararni chinligi va miqdori VFM bo‘yicha amalga oshiriladi.

Gomeopatiya granularini umumiy massasi bo‘yicha chetlanishi

Berilgan massa, g	CHetlanish, %
1 g gacha	± 5
1,0 g dan 100,0 g gacha	± 3

Gomeopatiya granularini sifatini baholashda X1 DF 2 nashr 154 bet bo‘yicha amalga oshiriladi, ta‘sir etuvchi moddani miqdori 1X-3X (0.001 g) bulgan granulararni chetlanishi 15% dan oshmasligi kerak.

Gomeopatiya qattiq dori turlarini jihozlanishi

Gomeopatiya dori vositalari MTH da keltirilgan tashqi muhit tahsiridan himoyalovchi idishlarda (shisha, plastmassa idishlarda, qog‘oz yoki polietilen paketlarda beriladi. Bunda 1X, 2X va 3X suyultirish darajasidagi zaharli va kuchli ta‘sir etuvchi moddalar saqlaydigan dori vositalar belgilangan (A va B guruhdagi dori vositalar) tartib bo‘yicha jihozlanadi va saqlanadi.

Gomeopatiya qattiq dori turlarini saqlanishi. Gomeopatiya trituratlari og‘zi zich berkitilgan shisha idishda, quruq, kerak bo‘lsa qorong‘i va salqin joyda 5 sutka mobaynida saqlanadi. Bemorga berib yuborilishdan oldin yaxshilab havonchada aralashtiriladi, biroq silkitilmaydi!

Gomeopatiya granulari va tabletkalari 10-25^o S xaroratda quruq qorong‘i joyda, xususi MTH keltirilgan tartibda saqlanadi. Saqlash muddati 2 yil.

Gomeopatiya dori vositalarini potensiyasi uzoq vaqt saqlanib qolishi uchun elektr-magnit maydonidan uzoq bo‘lgan joyda saqlash tavsiya etiladi.

Gomeopatiya qattiq dori turlarini ishlatilishi. Gomeopatiya qattiq dori turlari aksariyat hollarda til ostiga (sublingval) qabul qilinadi. Dorilarni qabul qilish tartibini shifokor belgilaydi. Til ostiga qabul qilingan dori vositalar mahalliy va umumiy ta‘sir etadi: og‘iz shilliq qavati orqali dori modda tez so‘riladi; oshqozon-ichak va jigar to‘siqlaridan xalos bo‘ladi va tez umumiy qon aylanish tizimiga qo‘shilib ketadi. Odatda til ostiga kuchli ta‘sirga ega bo‘lgan va kichik dozadagi dorilar beriladi.

Amaliy bajarish uchun topshiriqlar

Gomeopatik dori vositalari taxlilining o‘ziga xos tomonlari

1. Gomeopatik dori vositalarining qisqacha tavsifi.

Gomeopatik dori vositalari yangi avlod dori turlari qatoriga kirib, kasallikni uning belgilarini qaytaruvchi dori vositalar yordamida davolashga asoslanib tayyorlangan vositalardan iborat. Gomeopatiya tarafdorlari bemorlarni juda oz miqdordagi dori

moddalar bilan davolash lozim, chunki yuqori dozalar organizmda shu kasallik belgilarini xosil qiladi deb xisoblaydilar. Gomeopatik dori moddalar qatoriga noorganik birikmalar o'simlik va xayvonlardan olinadigan preparatlar, moddalar kirib, ulardan tayyorlangan dori turi maxsus suyultirilib, kerakli dori vositasi tayyorlanadi.

Gomeopatiyada asosan quyidagi dori turlari ishlatiladi.

1. YAngi yig'ilgan o'simlik shirasi, essensiyalar.
2. Nastoykalar.
3. 45% yoki 95% lispirtaeriganpreparatlardan tayyorlangan eritmalar.
4. Trituratlar.

Gomeopatik dori vositalari quyidagicha tahlil qilinadi.

1. Solishtirma og'irlik.
2. Etil spirtining miqdori
3. Ekstraktiv moddalar (tortma usulda)
4. Moylar (tortma)
5. Quruq qoldiq (tortma)
6. alkaloid miqdori (xajmiy)
7. Suvda erimaydigan qoldiq
8. Essensiyatarkibidagi qaytaruvchilarning miqdori (feling, tortma)
9. Essensiya, tinktura va suyultirilgan d/mlarning rangini, tiniqligini aniqlash.
10. Tomchi-lyuminessent va kvapilyar tahlil

GermaniyavaFransiyafarmakopeyalaridab.f. moddalarining sifati YUQX usulida, uning miqdori aniqlanmaydi.

Chetelgomeopatikfarmakopeyasidabiofaolmoddalarning miqdori faqat zaharlimoddalar uchun aniqlanadi.

1. Solishtirma og'irligi Mor-Vestfal tarozida Piknometr yoki arnometr yordamida aniqlanadi. Aniqlash $17,5^{\circ}$ S da olib beriladi. Agar aniqlash boshqa xaroratda olib borilsa, unda tuzatish kiritiladi.

Agar harorat $17,5^{\circ}$ S dan yuqori bo'lsa, har bir qaroratga 0,0007 qo'shiladi, agar past bo'lsa har bir haroratdan 0,0007 ortiriladi. Agar essensiyalar to'g'ri tayyorlangan bo'lsa, unda solishtirma og'irlik quyidagicha bo'ladi.

1-0,944

2- 0,944

3-0,905

2. Vino spirtning miqdorini aniqlash.

Vinospirtning miqdori asosan SaO og'irligi bo'yicha aniqlanadi.

Aniqroq bilish uchun xaydashkolbasiga 50 ml preparatdan olinadi, 100 ml suvva 50 mg NaCl yoki Na_2SO_4 (ko'pik x/bo'lmasligi uchun) kutiladi va 100 ml atrofida xaydaladi distilletning solishtirma og'irligi aniqlanadi va jadval bo'yicha shu sol. Og'irligi to'g'ri keluvchi s/g kotsentratsiyasi topiladi. Ko'pik hosil qilmaydigan essensiya tarkibidagi spirt miqdori 9 DF bo'yicha a usulida aniqlash mumkin.

3. Ekstrakt miqdorini aniqlash .

Nastoyka, quruq ekstraktlaridan tayyorlangan eritmalaridagi ekstrakti miqdorini quyidagicha aniqlanadi. Dq 6-7 sm bo'lgan , oldindandoimiy o'zirlikka keltirilgan shisha chashkaga aniq solinadi (aniq xajmda va o'zilikda solishtirma o'zirlilik bo'yicha). 30 min 105° S da termostatda quritiladi. S'ngra o'zirligi o'lchanadi. O'zirlilik tezda o'lchanishi kerak,

chunki, k^opgina ekstraktlar ³avodagi suvni yutib olishi mmkin va o²irligi not^o2ri b^olishi mumkin.

Solishtirma o²irlik - massasining o²irligini 4^o S dagi suvning o²irligiga nisbatidir (bir xil xajmda).

4. Moylar (°simlik)

Ekstraktlarini aiqlashda olingan qoldiq 1-2 ml N₂O bilan aralashtiriladi. hosil bo'lgan massa filtr qog'ozdan yasalgan gilzaga joylashtiriladi va paxta bilan yopiladi. Gilzani sokslet apparatiga joylashtiriladi (yoki boshqa moy oldida ishlatiladigan apparatga) va 2-3 sm davomida petrolleyin efiri bilan ekstraksiya qilinadi. So'ngra efir uchirib yuboriladi va qoldiq quritgichda 105^o S da 15 min davomida quritiladi va og'irligi o'lchanadi.

YO²sizlantirilgan quruq moddalar. Ekstrakt aniqlashda olingan qoldiq o²irligidan yo²sizlantirilgan qoldiqning o²irligining ayirmasi yo² quruq moddalar miqdorini beradi.

Alkaloidlarni aniqlash.Alkaloidlarni aniqlash xus. Maqsadlarda k^orsatilgandek aniqlanadi. Byuretka uzunligi – 6 sm, V=10 ml (0,02 ml) mikrobyuretka uzunligi – 50 sm, V=5 ml (0,01 ml)

Suvda erimaydigan qoldiq. 25 g essensiya suvli xammomda bu²latirladi va 105^o S da yaxshilab quritiladi (uzoq vaqt davomida). Sovutilgandan keyin suv bilan suyultiriladi va og'irligi o'lchangan filtr qog'ozdan filtrlanadi va suv bilan yaxshilab yuviladi. Filtr quritilib o'lchanadi.

Qaytaruvchilar miqdrini aniqlash. Suvdv erimaydigan moddalar miqdorini aniqlashda olingan ekstrakt xajmini 100 ml gacha etkaziladi. S^ongra 30 ml CuSO₄ (69,0 g/l) + 30 ml KON va segnet tuzining eritmasi (250 KON va 346 g/l segnet tuzining) aralashtiriladi. Xosil b^olgan aralashma qaynaguncha qizdiriladi va yuqorida tayyorlangan ekstraktdan 2,5 g q^oshiladi. fosil b^olgan aralashma bir marta qizdiriladi va o²irligi o'lchangan azbestli yoki forfor filtr trubkadan o'tkaziladi. Filtr ketma –ket suv, vino spirti, efir bilan yuviladi va 145 min 105^o S da quritgichda ushlab turi ladi. Filtr quritiladi va Su₂O cho'kmasining og'irligiga (jadvalda ko'rsatilgan) to'g'ri keladigan glyukozaning miqdori topiladi.

Glyukozaning miqdorini 16 ko'paytirib, 100 qism essetsiyada saqlangan ekstraktning 2 dagi miqdoriga bo'linadi. Hosil/bo'lgan qiymatni 100 ga ko'paytirsak % topiladi (glyukoza bo'yicha). Agar Cu₄ O cho'kmasining og'irligi 0.522 g dan oshib ketsa, unda yuqorida tayyorlangan suvli aralashma suyultriladi. (suv qancha qo'shilgan bo'lsa shuncha marta) va hosil bo'lgan suyultirilgan aralashmadan 25 ml olibtaxlil YAna qaytariladi. Bunda jadvaldan topilgan glyukozaning miqdori 16 ga emas 32 ga ko'paytiriladi.

5. Essensiya tinktura va suyultirilgan suyuq d/m (o'simliklarni olingan) ko'p turishi natijasida o'z rangini o'zgartiradi.

Masalan xlorofilning o'zgarishi natijasida yashil rang jigar rang miqdord d/m ni saqlasa ham rangining intensivligi turli probalarda turlicha bo'ladi. Essensiyalar qatlam qalinligi 10 mm bo'lgan kyuvetalarga joylashtiriladi va kun yorlig'ida oq rangda ko'riladi (prbirkalar ham ishlatilishi mumkin Dh10 mm b/k).

Turli ranglarni solishtiriladi kalorimetrdan foydalaniladi.

6. Kapilyar va kapilyarlyuminessent taxlil (suqliklar uchun)

“Plana” usulida olib boriladi filtr qog'ozdan qog'ozning teksturasiga perpendikulyar xolatda kengligi 2 sm va hh25 sm qog'oz kesiladi va hh5 sm va Dh3 sm bo'lgan silindriga

solinadi qog'ozning tagi idishning tubiga tegib turishi kerak. Silindrga 5 ml tek-chi eritma solinadi. Eritma qog'ozga shimilganda qog'oz olinadi, quritiladi va uflanganda ko'riladi. Agar quruq modda bo'lsa 5 g va 10 ml spirtida eritiladi. Kapillyar surat 2 qismda bo'lib ko'riladi.

II. yuqori qism: suvli va bo'rtgan yoki elleptik viemkalizona.

III. Pastki qism turli rangga bo'yalgan zonalar va asosi.

Lyuminissent surat.

I. YUqoridagi qism – ingichka eng yuqori va yuqori va zonaning pastki zonolari.

II. Pastki qism bo'rtgan qism va bir necha poloskali zonalar va asosi polosa faqat bo'rtgan zonani yoki zonani to'ldirish mumkin.

Lyuminissent taxlil qilinayotganda 2 ta zona ko'rindi:

1 – zona ingichka eng yuqori, yuqori va yuqori qismining asosining ko'rinishda ko'rinadi.

2- pastki qism bir necha zonalardan va asosdan iborat.

Bu taxlil kunduzi yorug'likda UB-nurda ko'riladi. SHunda, yana shuncha ahamiyat berish kerakki, filtr qog'ozning o'zi ham och – havorang yoki ko'k – binafsha lyuminissentlanadi, turli moddalar, sut va shakar qamish shakari havo rang lyuminissentlanadi, vino spirtida tayyorlangan moddalar ham havo rang lyuminissentlanadi. Bunda ularni adashtirib yubormaslik kerak. Dis. Suv taxlil qilinayotganda eng yuqori qismida jigar rangdagi ingichka zona hosil bo'ladi. UB – nurida bu dog' tiniq ko'k rangda ko'rinadi.

SHuning uchun bu dog'larni avvl proyavitel bilan purkab so'ngra kunduzi yorug'likda va o' – nurda ko'riladi. Agar reaktivlar purkalganda ham to'g'ri natija olinmasa, unda 2 – marta kappilyar taxlil o'tkaziladi. Kapillyar surati bir filtr qog'oz probirkaga solinadi va eng yuqori qismigacha kerakli erituvchi (ko'pincha CHCl_3) solinadi. Erituvchida hamma erishi mumkin bo'lgan moddalar eriydi va qog'oz bo'ylab yuqoriga ko'tariladi. Bunda erigan moddalar yangizona h/q (probirkaning yuqorisida).

2. Veterinariya atamalari bilan tanishish va ularni izohlash.

Kalit so'zlar: charhpalak.

ADABIYOTLAR:

1. Maxkamov S.M., Maxmudjonova K.S. Tayyor dori turlari texnologiyasi. Toshkent. 2010. B. 367. (darslik).
2. Тихонов А.И., Ярніх Т.Г. Технология лекарств.-Харьков, 2002-704 с.
3. Чуешов В.И. Промішленная технология лекарств. - Харьков, 2002.-Т.2.- 761 с.
4. Александров И.Д., Субботин В.М. Справочник по технологии приготовления лекарственных форм: для ветеринарного врача и фермера. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2001. -192 с.
5. Синёв Д.И., Марченко Л.Г., Синёва Т.Д. Справочное пособие по аптечной технологии лекарств.-С.Петербург, 2001.-316 с.
6. Loyd V. Allen, Jr., Nicholas G. Popovich, Howard C. Ansel. Ansel's Pharmaceutical Dosage Forms and Drug Delivery Systems.-New York: Lippincott Williams & Wilkins, 2011.- P.722
7. Saxton J., Gregory P. Textbook of Veterinary Homeopathy.-New York, 2005.-320 pages.

8. Steven B. Kayne, Michael H. Jepson Veterinary Pharmacy.- New York Pharmaceutical Pr., 2004.-676 pages.

MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

1. Noan'anaviy davolash usullari ta'rifi, tasnifi.,
2. Gomeopatiya ta'limotining tarixi va rivojlanishiga qissa qo'shgan olimlarning merosi.
3. Gomeopatik sirtqi suyuq dorilar texnologiyasi.
4. Gomeopatik murakkab tarkibli preparatlar texnologiyasi.
5. Gomeopatik eliksirlar texnologiyasi
6. Gomeopatik preparatlarni ishlab chiqarishda ishlatiladigan asbob-uskunalar.
7. Gomeopatik dorilarni patogenezi xakida tushuncha. Keng qo'llaniladigan dorilarni patogenezi ta'rifi.
8. Germaniya, Avstriya, Frantsiya, AQSh, Rossiya, Ukraina, O'zbekiston va boshqa davlatlarida ishlab chiqarilayotgan gomeopatik dori preparatlari nomenklaturasi.
9. Gomeopatiyada qo'llaniladigan nozodlar va sarkordlarning ishlab chiqarilishi va zamonaviy nomenklaturasi.
10. Gomeopatiyaga oid davolash printsiplaridan Gering qonuni
11. Gomeopatik antidotlar va polixrestlar
12. Gomeopatik preparatlarining agregat xolati bo'yicha tasnifi
13. Gomeopatik preparatlarining dispersologik tasnifi
14. Gomeopatiyada ishlatiladigan mineral va xayvon moddalar tasnifi
15. Gomeopatik nozodlar
16. Gomeopatik sarkodlar
17. Gomeopatik katalitik preparatlar ta'rifi tasnifi
18. Gomeopatik gomakordlar va in'ellar
19. Gomeopatik LM- potentsiyalar
20. Gomeopatiya dorilarini tayyorlashda qo'llaniladigan asbob-uskunalar, yordamchi moddalarni tarifi va jihozlash masalalari
21. Mineral moddalardan gomeopatik suvli-spirтли eritmalar texnologiyasi
22. Gomeopatik suvli kislotalarning texnologiyasi
23. Gomeopatik tinktura va essentsiyalarni saqlash sharoitlari, qo'llanilishi va sifatini baholash usullari
24. Gomeopatik murakkab spirtlarning texnologiyasi.
25. Gomeopatik trituratsiyalarni suyultirish.
26. Gomeopatik tabletkalar texnologiyasi
27. Gomeopatiyaga oid davolash printsiplaridan Gering qonuni.
28. Gomeopatik antidotlar va polixrestlar.
29. Gomeopatik preparatlarining agregat xolati buyicha tasnifi.
30. Gomeopatiyada ishlatiladigan mineral va xayvon moddalar tasnifi.
31. Gomeopatik preparatlarining dispersologik tasnifi.
32. Gomeopatik nozodlar.
33. Gomeopatik sarkodlar.
34. Gomeopatik katalitik preparatlar ta'rifi tasnifi.
35. Gomeopatik gomakordlar va in'ellar.
36. Gomeopatik LM-potentsiyalar.
37. Gomeopatiya amaliyotida ishlatiladigan dori preparatlarni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar ta'rifi.
38. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan bolyuslar texnologiyasi va ularni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar ta'rifi.

39. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan damlama, qayntma va shilimshiqar texnologiyasi va ularni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar va yordamchi moddalar ta'rifi.
40. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan shamchalar va qalamchalar texnologiyasi.
41. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan steril dori turlarini tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar va yordamchi moddalar ta'rifi.
42. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfektsiyalovchi va antiseptik preparatlarni zamonaviy nomenklaturasi.
43. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan premiklsrani zamonaviy nomenklaturasi.
44. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik preparatlarni zamonaviy nomenklaturasi.
45. Veterinariya dori turlarini jihozlash uchun ishlatiladigan materiallar ta'rifi va ularga qo'yiladigan materiallar.
46. Zamonaviy veterinariya vaktsinalari, zardoblari va globulinlari nomenklaturasi.

GLOSSARIY

Термин	Ўзбек тилидаги шарҳи	Инглиз тилидаги шарҳи
Антителалар	организмга ёт жисмлар, оқсил табиатли модда (антиген) киритилганда унга қарши қон зардобида ҳосил бўладиган моддалар (зиджисмлар).	Foreign objects in the body antibodies, protein nature of the substance (antigen) has been entered against him in blood serum
Биологик фаол моддалар	организмда мавжуд бўлиб, ҳаётий жараёнларга таъсир кўрсатадиган кимёвий моддалар.	Biologically active substances present in the body, the chemical substances that affect the life processes.
Биотрансформа-ция	дори воситаларининг организмга бўлган таъсирининг турли факторларга (фармацевтик, биологик ва б.) боғлиқлигини урганадиган фан	Biotransformation of drugs in the body a variety of factors (pharmaceutical, biological, and others).
Биофармация	дори препаратларнинг организмга бўлган таъсирининг турли омилларига (фармацевтик, биологик ва б.) боғлиқлигини ўрганадиган фан	medicines are various factors that influence the body (pharmaceutical, biological, and o.)
Фармацевтик омиллар	дори моддаларининг биосамарадорлигига физик-кимёвий хоссалари, дори шаклининг хусусиятлари, тайёрлаш технологияси ва ёрдамчи моддаларнинг таъсир кўрсатувчи омиллар	Pharmaceutical agents biosamaradorligiga factors characteristics of the shape of the physico-chemical properties of the drug, factors affecting the technology and auxiliary substances.
Депозит, захира	организмда турли моддаларнинг захира ҳолда тўпланган жойи; ёғлар захираси – ёғнинг организмнинг махсус жойларида захира модда ҳолида тўпланиши; қон захираси – организмда қон тўпланадиган жойлар (жигар,	Depot and collected without the backup of the backup of various substances in the body; colorless oil reserves of body fat in specific areas of reserve accumulation; reserves accumulation of blood in the body (liver, spleen, and skin); pirate carbohydrate reserves of

	талок, тери); углеводлар захираси - гликоген ҳолида асосан жигарда тўпланади.	glycogen accumulates mainly in the liver
Фармакологик восита	фармакологик фаоллиги ва захарлилиги аниқланган клиник текширишга мулжалланган фармакологик модда ёки моддалар аралашмаси	Pharmacological means - is intended to examine the pharmacological activity and clinical certain pharmacological substance or mixture of substances
Фармакокинетика	(лот. "дорини силжитмоқ" маънони тушунтиради) - танада дориларнинг сўрилиши, тарқалиши, биотрансформацияси ва танадан чиқиб кетиши (элиминация)ни ўрганадиган фан	The pharmacokinetics (the lot. "Shift" means) - the body's absorption of drugs, distribution, biotransformation and out of the body (Eliminator) science.
Фосфолипид-лар	ёғсимон, таркибида фосфор сақловчи моддалар.	Phospholipids are fat-like substances containing phosphorus holder.
Липосомалар	сунъий равишда олинадиган туташтирилган шарсимон заррачалар. Улар биомолекуляр липид қаватлардан иборат бўлиб, уз бўшлиқларида шакллантирувчи муҳит сақлайди	Liposomal be connected spherical particles. They consist of biomolecular lipid layer, vacuum-forming environment
Минитран	ТТС бўлиб, унда нитроглицерин лактоза билан аралаштирилиб гидрогел ичида дисперланган ҳолда бўлади. Гидрогел сув, глицерин, ПВС, ПВП лардан иборат. Гелли матрица терига пластр ёрдамида эпитирилади	"Minitran" - TTS, which is then mixed with lactose nitroglycerin hydrogen dispersion. Hydrogen, water, glycerin, PVP PVS arguments. Hella matrix skin epishtiriladi band.
"Орос" системаси	бу ғовак устидан қобик билан ўралган таблеткадир. Тузилиши бўйича ядро ва тешиги бор ярим ўтказгич мембранадан иборат. Шу мембранадан сув ўтиб, таблетканинг ядросидаги дори моддаларни эритади. Мембрана ичида эритма тўйиниб осмотик босим остида мембрана тешигидан чиқади.	"Oros" system - this tablet is surrounded by a hollow shell. The structure of the core and the holes on the semi-conductor membrane. This membrane of water through the core of the tablet, the drug solution. Saturation of the solution inside the membrane of the eye of the osmotic membrane under pressure
Скоподерм	скополамин сақловчи тансдермал терапевтик система	Skopoderm scopolamine holder tansdermal therapeutic system
Таъсири узайтирилган дори	организмда узок вақт давомида дори моддаларни	Extended the influence of drugs - drugs for a long time in the

турлари	концентрациясини таъминловчи дори тури.	body, providing the concentration of substances in the type of drug.
Трансдермал терапевтик системалар (ТТС)	таъсир этувчи моддани организмга тери орқали, олдиндан белгиланган тезликда ва давомийликда сўрилишини таъминловчи дори тури	The transdermal therapeutic system (TTS), which affects the substance into the body through the skin, providing a predetermined speed and the length of the absorption of the drug.
Агар-агар	денгиз карами Ламинариадан олиб қуритилган, гидрофил, коллоидал модда (микробларни ўстириш учун, гел ҳосил қилишда ва б. ишлатилади)	If a sea upon Laminaria dried, hydrophilic colloids (for the cultivation of microbes, gelling, and o.).
Акупунктура	игна санчиб даволаш усули. Акупунктура, иглорефлексотерапия, иглотерапия, чжен-сзю-терапия – игна санчиш – игналарни тана юзасининг қат'ий муайян (актив) нуқталарига сўкиб кучи, табиати ва муддатига кўра ҳар хил та'сирлаш орқали организм функцияларига та'сир ўтказишдан иборат рефлекс терапия усули	acupuncture treatment. Akkupunktura iglorefleksoterapiya igloterapiya, Zheng Jun-therapy acupuncture needle body surface specific (active) points out of power, according to the nature and duration of the different influences affect the functions of the body o' length of reflex therapy method
Антителалар	организмга ёт жисмлар, оқсил табиатли модда (антиген) киритилганда унга қарши қон зардобида ҳосил бўладиган моддалар (зиджисмлар)	foreign objects in the body, the protein nature of the substance (antigen) has been entered against him in blood serum
Гомеопатик дори воситалари	- гомеопатик технология бўйича тайёрланган гранулалар, эссенциялар, настойкалар, спиртли эритмалар ва микстуралар киради	homeopathic granules technology in essensiyalar nastoykalar, alcohol, solvents and miksturalar
Гомеопатия	даволаш тизими; ўхшашни ўхшаш билан даволаш («ўхшашлик қонуни») деган йўналиш бўлиб, бунда соғлом кишида муайян касаллик белгисини келтириб чиқариши мумкин бўлган дориларнинг кичик дозаси билан беморни даволаш тушунилади	treatment system; treating like with like (similarity law) line, which can lead to a healthy sign of a specific disease is understood the treatment of a patient with a small dose of medicine
Гомеопатик дорихона	соғликни сақлаш тизимидаги корхона бўлиб, сотишга рухсат этилган гомеопатик дори воситалари ва бошқа маҳсулотларни тайёрлаш	health care enterprises, which are allowed to sell homeopathic medicines and other products, production, quality control, storage, and sale of health care

	сифатини назорат қилиш, сақлаш ва сотиш ҳамда соғликни сақлаш тизими мутахассисларига ахборот-машварат ишларини олиб бориш билан шуғулланади	professionals engaged in conducting a consultation
Комплекс гомеопатик препарат	клиник синовлардан ўтган ва ишлатишга рухсат этилган гомеопатик доришуносликда келтирилган бир ёки бир нечта препаратлардан турли суюлтириш усуллари билан тайёрланган гомеопатик дори воситаси	clinical tests and are allowed to use homeopathic pharmaceuticals to one or more drugs with different methods of diluted homeopathic drugs
Гомеопатик доришун ослик	гомеопатик дори воситаларининг та'сир механизми, ишлатилиши, олиниши, сифат назорати бўйича илмий ва амалий билимлар мажмуаси (комплекси)	The mechanism of action of homeopathic medicines used in the collection, quality control, research and practical knowledge of complex (complex)
Гомеопатик дори таъминоти	гомеопатик дори воситаларининг ишлаб чиқарувчидан исте'молчигача бўлган ҳаракат жараёни	the process of trying to homeopathic drugs from the manufacturer to customer
Гомеопатик дори препарати	хом ашёни гомеопатик технология қоидалари асосида ишланганда ҳосил буладиган маҳсулот	the recycling of raw materials in accordance with homeopathic technology Stripes Product
Гомеопатик дори воситаси	гомеопатик технология маҳсулоти бўлиб, тиббиёт ва ветеринарияда ишлатиш учун қулай ҳолга келтирилган мураккаб физик-кимёвий тизим	homeopathic technology, veterinary medicine and a complex physical-chemical system that makes it easy to use
Гомеопатия дори тури	гомеопатик технологияда тайёрланган ва оптимал терапевтик фаолликка эга бўлган, ишлатиш, сақлаш ва ташишга қулай бўлган дори тури	homeopathic techniques and the optimal therapeutic activity, the use of drugs that are easy to transport and store
Дорихонанинг гомеопатия бўлими	дорихона таркибидаги гомеопатик дори воситаларини тайёрлаш, сифатини назорат қилиш, сақлаш ва беморларга бериш бўлими	The drug content in the preparation of homeopathic medicines, quality control, storage and the Department of patients
Гомеопатик технология	табiiй хом ашёни қайта ишлаш усуллари, унинг ҳолатини фаоллаштириш – кўп аралаштириш, кам дозаларда фаоллиги юқори бўлган гомеопатик дори воситалар олиш учун заҳарлилик ва хом	natural raw materials, processing methods, its blending mode, the high activity of low doses of homeopathic medicines for raw materials and toxic substances to help induce a tendency diluted substances to

	ашёдаги та'сир этувчи моддага мойиллик туғдирмайдиган ёрдамчи моддалар кўшиб суюлтириш юллари билан унинг ҳолатини ўзгартириш	the road status change
Гомеопатик фармакопея	гомеопатик дори воситаларини тайёрлаш, назорат қилиш, сақлаш ва беморларга бериш бўйича қўлланма	homeopathic medicines, manufacturing, control, storage and patients on manual
Гомеопатик фармация	фармация ва гомеопатиянинг асосий қисми бўлиб, гомеопатик дори воситаларини тайёрлаш, хом ашёни қайта ишлаш, сифат назорати ва беморларга бериш ҳамда гомеопатик дори воситаларининг таъсир механизми масалалари бўйича илмий, амалий ва ташкил этиш фаолиятларини амалга оширади	Pharmacy and gomeopatiyaning the main part of the preparation of homeopathic medicines, raw materials processing, quality control and patients, as well as on the mechanism of action of homeopathic medicines scientific and practical activities of the organization and
Гомеопатик фармацевтика хизмати	ташкилий структура (қурилма) бўлиб, гомеопатик фармациянинг бошқарув органлари ва гомеопатик фармацевтик фаолиятни амалга оширувчи ташкилотлари	organizational structure (the device), and homeopathic pharmacy bodies and homeopathic pharmaceutical organizations carrying out activities
Гомеопатик фармацевтик ташкилотлар	гомеопатик фармация хизмати – гомеопатик дори воситалари ишлаб чиқариш, аҳолига этказиб бериш, сифат назорати, сақлаш ва айирбошлашни амалга оширишни таъминловчи гомеопатик фармацевтик фаолият юритувчи хизмат таркибига кирувчи, ҳамда соғликни сақлаш идоралари мутахассислари ва аҳолига ахборот берувчи ташкилотлар киради	homeopathic pharmacy homeopathic medicines production, provision of supply, quality control, storage and trade, part of the activities to ensure the implementation of homeopathic pharmaceutical and health care agencies and providers of public information
Гомеопатик фармацевтика фаолияти	соғликни сақлаш тизимидаги лицензияланадиган фаолият бўлиб гомеопатик фармация хизмати томонидан амалга оширилади ва аҳолини гомеопатик дори препаратлари билан та'минлаш учун хизмат қилади	the health care system is carried out by a licensed homeopathic pharmacy service and will serve for the provision of homeopathic medicines
Гомеопатия маркази	федерация суб'екти даражасида гомеопатия бўйича тиббий, фармацевтик, ташкилий услубий, ахборот – машварат	the level of the subjects of the federation homeopathic medical, pharmaceutical, organizational, methodological,

	ва ўқитиш фаолиятини олиб боровчи соғлиқни сақлаш ташкилоти	media affairs and carrying out training activities Health Organization
Эмпиризм	билимни фақат сезги тажрибаси билан эгаллаш мумкин деб даво қиладиган механик та'лимот	Empiricism can occupy only a sensory experience with the knowledge that the teaching of mechanical treatment
Ингаляция	махсус аппарат – ингалятор ёрдамида пуркалган дори моддаларни ҳидлаш йўли билан даволаш усули	Ingalyasiya sprinkled with the help of special hardware inhalation drug treatment through the smelly substances.
Инстилляция	суюқ дори воситаларини томчилаб юбориш; мас. сийдик чиқариш канали ёки қовуққа бирор модда эритмасини инстилятор ёрдамида томизиш	Instillyasiya liquid medicines drop; for example. urethra or bladder using a material solution instilyator drop.
Темперамент мижоз	— инсон руҳий хусусиятларининг йиғиндиси, физиологик жиҳатдан олий нерв фаолиятининг типларига боғлиқ; т. руҳий жараёнларнинг боришида ҳар бир шахснинг узига ҳос хусусиятларини та'рифлайди. Букрот руҳий та'сирланишларнинг кучи, тезлиги ва ўзгаришига қараб одамларни 4 гуруҳга — сангвиник, меланҳолик, холерик, флегматик мижозли одамларга бўлган	The sum of the spiritual aspects of human physiological aspects related to the types of higher nervous activity; t. mental process as describes the most unique characteristics of each individual. Her psychological reaction force, depending on the speed of change and people divided into 4 sangvinik melanholik xolerik people flegmatik customers
Ўринбосар даво ўринбосар терапия	— организмга унда табиий равишда ишланиб чиқиши камайган ёки тўхтаган моддани киритишдан иборат даволаш усули	Deputy substitute therapy in which the body's natural healing article processing output will be reduced or stopped treatment.
Биофармация(BIOPHARMACEUTICS)	дори препаратларнинг организмга бшлган таъсирининг турли факторларга (фармацевтик, биологик ва б.) боғлиқлигини урганадиган фан.	is the study which shows how the drug action (efficacy) is affected by various factors (like <i>pharmaceutical, biological, and others</i>).
“ЛАДМЕР” (LADMER)	дори воситасининг организм билан ўзаро таъсир этишининг алоҳида майдонларини таърифлайди, бу дегани ўз ичига биофармация, фармакокинетика ва фармакодинамикани олади.	is the term which defines the particular stages of drug and body interaction, it includes liberation, absorption, distribution, metabolism, elimination and response of <i>the drug</i> .

Полиморфизм(Polymorphism)	бу кимёвий моддани турли кристаллизация усулларида бир биридан симметрия синфи ёки шакли билан фарқ қиладиган, физикавий, баъзан кимёвий хусусиятлари билан ажраладиган кристалларни хосил қилиш қобилиятидир	is the ability of a drug substance to exist as two or more crystalline phases that have different arrangements and/or conformations of the molecules in the crystal lattice.
Нанокансулалар	буш сферик контейнерлар булиб (девор қалинлиги 10-30 нм), доривор модда эритилган суюқ мухитни сақлайди.	are spherical containers (wall thickness of 10-30 nm) containing a dissolved low-molecular substance inside.
«Нано»	«пакана» (карлик) деб таржима қилинади. 1 нанометр 10^{-9} м га тенгдир.	is a prefix meaning "extremely small." When quantifiable, it translates to one-billionth. Nano comes from the Greek word "nanos," meaning "dwarf." 1 nanometer equal to 10^{-9} m.
Дори моддасининг оддий кимёвий модификацияси	деганда битта модда дори воситаси сифатида фармакологик таъсирга жавоб берадиган модда молекуласининг қисми тўлиқ сақланиб қолган турли кимёвий бирикма шаклида (туз, асос, кислота, эфир, комплекс бирикма ва б.) қўлланилиш факторига этилади.	is the development of chemically derivatized drugs or drug vectors able to target defined cells via specific recognition mechanisms and also able to overcome biological barriers. is chemical alteration of a known and previously characterized lead compound for the purpose of enhancing its usefulness as a drug . This could mean enhancing its specificity for a particular body target site, increasing its potency , improving its rate and extent of absorption , modifying to advantage its time course in the body, reducing its toxicity , changing its physical or chemical properties (like solubility) to provide desired features.
Фармацевтик эквивалент	бир хил дори шаклидаги бир хил юл билан қабул қилинадиган ва таъсир этувчи модданинг бир хил миқдорини сақлаган иккита дори	Drug products are considered pharmaceutical equivalents if they contain the same active ingredient(s), are of the same dosage form, route of administration and are identical

	воситасига айтилади.	in strength or concentration. Pharmaceutically equivalent drug products are formulated to contain the same amount of active ingredient in the same dosage form and to meet the same or compendial or other applicable standards (i.e., strength, quality, purity, and identity), but they may differ in characteristics such as shape, scoring configuration, release mechanisms, packaging, excipients (including colors, flavors, preservatives), expiration time, and, within certain limits, labeling."
Биовейвер	«Ериш» тести ёрдамида утказилган ин витро изланишларнинг солиштирма натижалари =амда классификациянинг биофармацевтик системаси асосида каттик дори шаклидаги дори воситасини кайд килиш жараёни.	A Biowaiver means that in vivo bioavailability and/or bioequivalence studies may be waived (not considered necessary for product approval). Instead of conducting expensive and time consuming in vivo studies, a dissolution test could be adopted as the surrogate basis for the decision as to whether the two pharmaceutical products are equivalent.
Гериатрик воситалар	Қари, кекса, ёши улуғ инсонлар организмнинг аъзо ва тўқималари фаолиятига таъсир кўрсатиб, унинг мослашув имкониятларини кучайтирадиган моддалар	Geriatric facilities - an old, age affected the activities of the organs and tissues of the body, strengthen the capacity of adaptation
Гериатрия	Кексаларда учрайдиган касалликлар ҳақидаги таълимот бўлиб, барвақт қаришнинг олдини олишга доир масалаларни ўрганади.	Geriatrics - old common diseases lowers the doctrine of the early studies issues related to the prevention of aging
Геронтология	Одам организмнинг oдам қариш жараёнини ўрганадиган фан	Gerontology - science studying the aging process in a human body

ILOVALAR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi:

№MD - _____

2020 yil "____" _____

Sog'liqni saqlash vazirligi

2020 yil "____" _____

GOMEOPATIK VA VETERINAR DORI VOSITALARINI ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI MODUL DASTURI

Bilim sohalari:	500 000	Sog'liqni saqlash va ij'timoiy ta'minot Ishlab
	300 000	chiqarish-texnik soha
Ta'lim sohalari:	510 000	Sog'liqni saqlash
	320 000	Ishlab chiqarish texnologiyalari
Mutaxassislik	5A320406	Dori vositalar va preparatlar texnologiyasi

Toshkent – 2020

Tuzuvchilar:

Karieva Yo.S. Toshfarmi “Dori turlari texnologiyasi” kafedrası mudiri,
farmatsevtika fanlari doktori, professor
Nazarova Z.A. Toshfarmi “Dori turlari texnologiyasi” kafedrası
professori, farmatsevtika fanlari doktori
Fayzullaeva N.S. Toshfarmi “Dori turlari texnologiyasi” kafedrası dotsenti,
farmatsevtika fanlari nomzodi

Ichki taqrizchi:

Tadjieva A.J. Toshkent farmatsevtika instituti, Dori vositalarini sanoat
texnologiyasi kafedrası, dotsenti, f.f.n.

Tashqi taqrizchi: O’z FA O’simlik moddalarni kimyosi instituti tajriba-
Halilov R.M. texnologiya laboratoriyasining etakchi, ilmiy xodimi, t.f.d.

Modul dasturi Toshkent farmatsevtika institutida ishlab chiqilgan.

Modul dasturi Toshkent Farmatsevtika Institut Kengashida ko’rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2020yil “09”07 dagi 12-sonli bayonnoma)

Modul dasturi O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligi tibbiyot va farmatsevtika uzluksiz kasbiy ta’limi muassasalararo Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2020 yil “25” 08 dagi 2-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligining 2020 yil “____” _____ dagi “____” –sonli buyrug’ining _____ - ilovasi bilan modul dasturi ro’yxati tasdiqlangan

1. O‘quv modulining dolzarbligi va oliy kasbiy ta’limdagi o‘rni

Ushbu o‘quv moduli O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim To‘g‘risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga muvofiq yuqori darajada ma’naviy va ahloqiy sifatlarga ega bo‘lgan malakali kadrlarni tayyorlash ilmiy asoslangan, xalq manfaatlariga javob beruvchi dasturni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Magistratura talabalarini o‘zlarining mutaxassislik burchini, ya’ni aholini sifatli dori-darmon bilan ta’minlashda gomeopatik va veterinar dori vositalarini ta’rifi, tuzilishi va yaratilishiga tegishli nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va ularni samarali ishlatilishi bo‘yicha ma’lumotlarga ega bo‘lishlari kerak.

Mazkur tayyorlangan modul dasturi O‘zR Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 fevraldagi 81-sonli buyrug‘ida hamda O‘zR Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018 yil 7 dekabrda PF-5590-sonli va 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limini va ilm-fan tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4310-sonli qarorida belgilangan vazifalar hamda xorijiy adibiyotlardan foydalanilgan holda ishlab chiqilgan.

Gomeopatik va veterinar dori vositalarini ishlab chiqarish texnologiyasi o‘quv moduli mutaxassislik modullar blokiga kiritilgan fan hisoblanib, 1 kurs magistratura talabalariga o‘qitiladi.

Mazkur o‘quv moduli “Dori vositalar va preparatlar texnologiyasi” mutaxassisligiga mo‘ljallangan bo‘lib, magistratura talabalarini “Gomeopatik va veterinar dori vositalarini ishlab chiqarish texnologiyasi” modulidan zarur bo‘lgan nazariy va amaliy bilimlarni, kerakli ko‘nikmalarni egallashni ta’minlaydi.

2. O‘quv modulining maqsadi va vazifalari

2.1. Modulning maqsadi: Gomeopatik va veterinar dori vositalarini ishlab chiqarish texnologiyasi o‘quv modulini o‘qitishdan **maqsad** - magistratura talabalariga gomeopatiya va veterinariya dori turlari texnologiyasining nazariy va amaliy masalalarga oid bilimlar, ularning tayyorlash texnologiyasi to‘g‘risida ma’lumotlar berishdan iborat.

2.2. Modulning vazifalari:

- zamonaviy gomeopatiya va veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dorilar texnologiyasini o‘zlashtirish hamda ularni tayyorlashda ishlatiladigan maqsadga muvofiq yordamchi moddalarni tanlash va ishlatish bo‘yicha milliy andozalar talabalariga asoslangan holda, magistratlarga nazariy va amaliy bilimlarni berish;

- gomeopatik dori vositalarini korxonada olish sharoitida olish tamoyillari, usullari va muammolari bo‘yicha ma’lumotlar berish;

- mahalliy xom ashyolar yordamida gomeopatik preparatlar arsenalini kengaytirish, nomenklatura lug‘atini tuzish tizimi va gomeopatiya amaliyotida ishlatiladigan dori turlari (ko‘p komponentli dori vositalarini - siroplar, eliksirlar, tomchilar; murakkab tarkibli preparatlar, nozodlar, sarkodlar va gomokordlar, parenteral in'ellar, antidotlar, polixrestlar) ning ishlab chiqarish texnologiyasi oid nazariy bilimlarni berish;

- veterinariya amaliyotida qattiq dori turlari (poroshoklar, dustlar, premiksalar, briketlar, granularlar), yumshoq dori turlari (surtmalar, pastalar, linimentlar, malhamlar, shamchalar, dorivor pardalar), suyuq dori turlari (eritmalar, emulsiya va suspenziyalar, suvli ajratmalar, galen, yangi galen preparatlari), steril dori turlari (in'eksion va infuzion eritmalar, ko‘z tomchilar) texnologiyasiga oid nazariy bilimlarni berish;

- veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfeksiyalovchi, antiseptik, insektitsid-akaritsid preparatlar bo‘yicha nazariy bilimlar berish;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tadbiq etib, magistratura talabasini fikrlash va bilimni saqlash darajasini oshirish.

2.3. Modul bo‘yicha magistratura talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar:

I semester bo‘yicha:

Talaba:

- gomeopatiya amaliyotida ishlatiladigan dori turlarining ta'rifi, tasnifi;
- gomeopatiya amaliyotida ishlatiladigan dori turlarining yaratish va takomillashtirish zarurligi;
- gomeopatiya amaliyotida ishlatiladigan dori turlarining tarkibi, texnologiyasi va ta'sir etish mexanizmi;
- gomeopatiya amaliyotida ishlatiladigan dori turlarining sifatini baholash, saqlash sharoiti va muddatini belgilashni;
- gomeopatiya dori turlarini zamonaviy nomenklatura haqida **tasavvurga ega bo'lishi**;
- magistratura talabasi gomeopatiya preparatlarni olishda ishlatiladigan yordamchi moddalar turi va qo'llash asoslarini,
- gomeopatik LM-potentsiyalar; gomeopatik dorilarni tanlash asoslari, ularni tanlashda qo'llaniladigan sub'ektiv va ob'ektiv ma'lumotlarni,
- gomeopatik dorilarni patogenezi ta'rifi, keng qo'llaniladigan dorilarni patogenezi, Ganeman bo'yicha gomeopatik dorilar patogenezi,
- gomeopatik dorilar ta'siriga organizmning reaksiyasi va uni aniqlashda qo'llaniladigan Fol va Gabovich usullarining mohiyatini,
- gomeopatik preparatlarini turli kasalliklarda qo'llash asosiy prinsiplari: potentsiyalar, vaqti, davomligi va boshqalarni **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- gomeopatiya amaliyotida ishlatiladigan dori turlari - ko'p komponentli tomchilar, ko'p komponentli siroplar texnologiyasi;
- eliksirlar, sirtqi suyuq dorilar, murakkab surtmalar, kompleks ta'sirli granulalar texnologiyasi,
- gomeopatik qattiq dori turlari texnologiyasini takomillashtirish;
- gomeopatik drenajli (tozalovchi) dori vositalari, gomeopatik murakkab tarkibli preparatlar, kompleks ta'sirli ko'p komponentli gomeopatik preparatlar texnologiyasi;
- gomeopatiya dori turlari tayyorlash va berishga oid me'yoriy xujjatlar bilan ishlash, asosiy tushuncha va terminlarni shakllantirish, gomeopatiya retseptini yozilish tartibi va qoidalari,
- gomeopatik ko'p komponentli tomchilar texnologiyasi, potentsiya va dinamizatsiyalash, sifatini baholash va jihozlashda qo'llaniladigan zamonaviy usullarda olish **malakalarga ega bo'lishi kerak**.

II semester bo'yicha:

Talaba:

- veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dori turlarining ta'rifi, tasnifi;
- veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dori turlarining yaratish va takomillashtirish zarurligi;
- veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dori turlarining tarkibi, texnologiyasi va ta'sir etish mexanizmi;
- veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dori turlarining sifatini baholash, saqlash sharoiti va muddatini belgilashni;
- veterinariya dori turlarini zamonaviy nomenklatura haqida **tasavvurga ega bo'lishi**;
- magistratura talabasi veterinariya preparatlarni olishda ishlatiladigan yordamchi moddalar turi va qo'llash asoslarini,
- veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dori preparatlarni sifatini baholash va jihozlash masalalarni,
- veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dori preparatlarni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar va yordamchi moddalar ta'rifini,
- veterinar preparatlarini takomillashtirish yo'llarini **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qattiq dori turlari (poroshoklar, dustlar, premikslar, briketlar, granulalar va b.) texnologiyasi;
- veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori turlari (eritmalar, emulsiya va suspenziyalar, suvli ajratmalar, galen va yangi galen preparatlari) texnologiyasi;
- veterinariya amaliyotida ishlatiladigan yumshoq dori turlari (surtmalar, pastalar, linimentlar, malhamlar, shamchalar, dorivor pardalar va b.) texnologiyasi;
- veterinariya amaliyotida ishlatiladigan steril dori turlari texnologiyasi;
- veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfektsiyalovchi, antiseptik, insektitsid-akaritsid

preparatlar texnologiyasi;

- veterinariya amaliyotida ishlatiladigan permikslar, gomeopatik preparatlar texnologiyasi va nomenklaturasi;

- veterinariya amaliyotida ishlatiladigan zamonaviy dorilar: immun tizimiga ta'sir etuvchi va mahsuldorlikni oshiruvchi preparatlar texnologiyasida qo'llaniladigan zamonaviy usullarda olish *malakalarga ega bo'lishi kerak.*

3. Asosiy qism

3.1. Moduldagi nazariy mashg'ulotlar mavzulari va mazmuni, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

I-semestr:

1-mavzu. Gomeopatiyaning rivojlanish yo'nalishlari. Gomeopatiyani yaratish asoslari. Gomeopatiyani davolash tizimining tarixi. Gomeopatiyaga oid qo'llanmalar, me'yoriy hujjatlar. Gomeopatiyaning zamonaviy holati va rivojlanish yo'nalishlari. Gomeopatik dorilar texnologiyasining asosiy muammolari.

2-mavzu. Noan'anaviy davolash usullari haqida tushuncha va tasnifi. Gomeopatik davolash tizimidagi zamonaviy yo'nalishlari: JSST ning yangi strategiyasi haqida (2009). Noan'anaviy davolash usullari ta'rifi, tasnifi, ishlatiladigan dori turlari. Xalq tabobatida keng qo'llaniladigan tizimlar va Ayurveda alternativ tizimi. Asosiy muammolar va ularni hal qilish yollari. Gomeopatik dorilarni tanaga ta'sir etish mexanizmlari. Gomeopatik davolash tizimidagi zamonaviy yo'nalishlar: kompleks preparatlar bilan davolash usuli, Fol' va Z. Gabovich usullari, G.G. Rekevech nazariyasiga asoslangan noan'anaviy gomeopatik usuli, E. Bax usuli (gullar asosida olingan dorilar bilan davolash usuli. Gomeopatiyani spetsifikasi. Chap va o'ng tomonlama ta'sir etuvchi gomeopatik vositalar.

3-mavzu. Ganeman bo'yicha gomeopatik dorilar patogenezi. Dorilar patogenezi. Gomeopatik dorilarni patogenezi haqida tushuncha. Keng qo'llaniladigan dorilarni patogenezi ta'rifi. Gomeopatik usulda davolash qoidalari. Gomeopatiya spetsifikasi va dorini tanlash. Organizmning reaksiyasini oshiruvchi maxsus ta'sirli dorilar.

4-mavzu. Gomeopatik dorilarni tanlash asoslari. Diaqnoz, uning ta'rifi, ahamiyati, umumiy holat. Gomeopatiya dorilarni tanlash asoslari va gomeopatik dorini tanlanishidagi ko'rsatmalar. Gomeopatik dorilarni tanlashda sub'ektiv va ob'ektiv ma'lumotlar. Fol va Gabovich usullarini mohiyati va qo'llash asoslari.

